Kino san'atida ham "ommaviy madaniyat" niqobi ostida axloqiy buzqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, axloqsizlikni madaniyat deb bilish bilan bog'liq holatlar yoshlar tarbiyasiga, oila muqaddasligi, jamiyat taraqqiyotiga hamon katta xavf solmoqda. Buning ta'siri ba'zi kinofilmlar mazmuni, g'oyasi, qahramonlari timsolida aks etganday, nazarimizda. To'g'ri, mustaqillik davrida o'zbek kinoijodkorlari tomonidan yaxshi, sifatli, mahorat bilan suratga olingan kinoasarlari ham yo'q emas. J.Qosimovning

“Suv yoqalab”, H.Nasimovning “Tubanlik”, “Aldangan ayol”, “Gumrohlar”, H.Fayziyevning “Kichkina odamlar”, “Yoqsiz yil”, M.Oxunovning “Begonalar”, “Shabnam”, “9 oy”, Z.Musoqovning “Qo‘rg‘oshin”, “Vatan”, “Novda”, “Berlin-Oqqo‘rg‘on” filmlari o‘zbek kinosi tarixidan munosib o‘rin olishi shubhasiz. Sababi, ularda ilgari surilgan g‘oyalarda milliy qadriyatlarimiz e‘tirofi ko‘zga tashlanadi, film qahramonlari esa sermulo-haza, sodda, oddiy, bag‘rikeng o‘zbeklardir. 2018 – 2021-yillarda ham “Mirzo Ulug‘bek. Osmon toqiga qo‘yilgan narvon”, “Behbudiy”, “Islomxo‘ja”, “Imom Abu Iso Muhammad Termiziy”, “Ibrat”, “Avloniy”, “Qo‘qon shamoli”, “Muqimiy” kabi tarixiy filmlarning yaratilishi o‘zbek kinosa yuz berayotgan katta o‘zgarishlardan darak bermoqda.

Qozog‘istonlik kinoshunos olimi G.Abikeyeva o‘zining “Образ семи в кинематографе Центральной Азии в контексте формирования культурной идентичности в регионе” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida O‘zbekistonda aynan mustaqillik yillarida yaratilgan filmlarda mamlakatdagi milliy mustaqil davlat qurilish jarayonlari aks ettirilayotganligini ta’kidlab, o‘zbek mentalitetining o‘ziga xos jihatlari, mahalla institutining muhim ahamiyatga egaligini, katta oilada bir necha avlod vakillarining o‘zaro hurmat-izzatga asoslangan ahil turmushlarining tasvirlanishini millat osoyishta va farovon hayotining ekrandagi obrazi sifatida baholaydi. Markaziy Osiyo davlatlari kinematografiyasining so‘nggi o‘n yilliklar mobaynida erishgan yutuq va kamchiliklarini tahlil qilar ekan, olimi O‘zbekiston kinosa haqida juda ko‘p ijobiy fikrlarni bildirganini ta’kidlash joiz [2, B 25].

Ularning aksariyatida o‘zbek filmlarida oila, uning muqaddasligi, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar, o‘zaro mehr-oqibat mavzularining o‘ziga xos tarzda aks etganligi, milliy urf-odat, an‘analarga bo‘lgan e‘tibor, hurmatning hali ham yuqori darajada ekanligini, g‘arb yoki rus kinosining filmlaridan farqli o‘laroq o‘zbek filmlarini oila davrasida ko‘rish mumkinligi haqida iliq fikrlar bildirilgan.

Ammo yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklar ham talaygina nazarimizda. Bugungi kunda kitob ham, film ham, tasviriy san‘at asarlari ham tovarga aylanib ulgurdi. Lekin shunga qaramay, san‘at, avvalo, haqiqiy san‘at tovarga aylanishi mumkin emas, deb hisoblaymiz. Buning ikki jihati: ham yaxshi, ham yomon tarafi to‘g‘ri, adolatli baholanishi lozim. Bu esa shunchaki oddiy haqiqat qiyosi xolos. Biroq kinoni hali ham haqiqiy san‘at deya ta’riflovchilar, tan oluvchilar ko‘pchilikni tashkil qiladiki, bu quvonarli hol.

Filmlar orqali dunyo xalqlarining tarixi, urf-odatlari, san‘ati va madaniyati, buyuk shaxslari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lganimiz barobarida milliy o‘zligimizni ham namoyish eta olamiz. Milliy rejissorlarining yorqin ifodasi bo‘la oladigan milliy filmlarimiz bilan faxrlana olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Shu o‘rinda mahoratli o‘zbek kinorejissorlari K.Yormatov, N.G‘aniyev, Y.A‘zamov, Sh.Abbosov, M.Abzalov, Q.Kamalova, A.Hamrayev, D.Salimov, E.Eshmuhamedov, S.Nazar-muhamedov kabilar yaratgan o‘nlab kinofilmlarni eslash o‘rinli, chunki bu filmlarda milliylik, ma’naviy qadriyatlar o‘ziga xos tarzda tasvirlangan bilan e‘tiborga loyiq.

O‘zbek adabiyotini, o‘zbek adabiyoti tarixini va bugunini mukammal bilgan rejissor-ga mavzu axtarish, ssenariy yaratish muammo emas. Chunki teatrga ham, kinoga ham ozuqani – mavzuni adabiyot beradi. To‘g‘ri, bugun turli xil ma’lumotlarni, xususan, adabiy-badiiy ma’lumotni ham internetdan olish mumkinday. Lekin bu ma’lumotlar qanchalik ko‘p bo‘lmasin, u kitobga – tagmatga tenglasha olmaydi. Ayniqsa, badiiy adabiyotga.

Kino paydo bo‘libdiki, badiiy adabiyot ekrandagi obrazlarning yaratilishiga asos bo‘ldi. J.Svift, D.Defo, Gyote asarlarini jahon ekraniga olib chiqqan yirik rejissorlar Jorj Melyes, Viktores Jasse, Lui Feyad badiiy adabiyotga adabiy asos sifatida murojaat qilgan dastlabki ijodkorlardir. Jahon kinosidagi dastlabki ekranlashtirilgan asar esa Emil Zolyaning “Tuzoq” romani asosida 1902-yilda Fransiyada yaratilgan 5 daqiqalik film sanaladi[3].

O‘zbek kinosa tarixiga murojaat etsak ham badiiy adabiyot namunalari asosida yaratilgan qator filmlarni ko‘ramiz: bular “Muhabbat mojarosi” filmi (1971-yil, rejissor SH.Abbosov) S.Ahmadning “Ufq” trilogiyasi asosida, “Shum bola” (1977-yil rejissor D.Salimov) G‘.G‘ulomning “Shum bola qissasi asosida, “Ulug‘bek yulduzi” (1964-yil, rejissor L.Fayziyev) M.Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi asosida “Qutlug‘ qon” filmi (1956-yil, L.Fayziyev) Oybekning shu nomli romani asosida “O‘tgan kunlar” filmi (1969-yil, rejissor Y.A‘zamov) va “Zulmatni tark etib” filmi (1973-yil rejissor Y.A‘zamov) A.Qodiriy romanlari asosida “Sen yetim emassan” (1963-yil, rejissor SH.Abbosov) Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” asari asosida “Sehrli qalpoqcha” (2012-yil, rejissor S.Karimov) X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romani asosida suratga olingan. Bu an‘ananing bugungi kunda ham davom ettirilishi maqsadga muvofiq.

Jahon kinosidagi muvaffaqiyat qozongan filmlarning asosini ham asli adabiyot, haqiqiy ma’nodagi dramaturgiya tashkil qilishi ayon. Shuning uchun ham XX asrning 60-yillaridayoq mutolaa qilish madaniyatining susayib borayotganini kuzatgan rejissyorlar adabiy asarlarning ekran variantini yaratishga kirishganlar. Bizda ham shu an‘anani yo‘lga qo‘yish, o‘zbek adabiyotining mumtoz asarlarini katta ekranga olib chiqish lozim. Balki ana shundaygina, badiiy adabiyotdan yiroq bo‘lgan yoshlarni mutolaa qiziqitirish, kitobga oshno qilish imkoni kengayadi. Chunki bugun ham Gomerning “Iliada” dostoni haqida so‘z yuritilganda, u haqda umuman eshitmagan, lekin Gollivud kinoijodkorlari ishlagan “Troja” filmi ko‘rgan yoshlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Haqiqat shuki, agar inson kitob o‘qimasa, avvalo, unda did shakllanmaydi, ikkinchidan, u yaxshi tomoshabin ham bo‘la olmaydi va haqiqiy san‘atni qalbaki san‘atdan farqlay olmaydi. Shu bois, san‘at yo‘nalishida tahsil olayotgan bugungi avlodga bo‘lg‘usi rejissor va kinodramaturglarga, turli davrga oid, turli yoshdagi, turlicha salohiyatga ega bo‘lgan, xilma-xil kasb-kordagi insonlarni sahnada gavdalantiruvchi kino aktyorlarga badiiy adabiyotni chuqur o‘rganish, uni tahlil qila bilish, nafaqat oddiy kitobxon, balki malakali adabiyotshunos bo‘lish ham kerak bo‘ladi. Bu esa hayot taqozosidir. Zero, milliy adabiyotimiz mulkiga mansub ko‘plab asarlar ekranlashtirilishni kutib yotibdi.

Adabiyot bilan oshno bo‘lmagan Navoiy va Boburni, Mashrab va Furqatni, Qodiriy va Cho‘lponni, Oybek va Qahhorni, S.Ahmad va O‘.Hoshimovni, E.Vohidov va A.Oripovni o‘qimagan, o‘qimayotgan, o‘qishni istamayotgan yoshlar iymon, insof va diyonat, vijdon va olijanoblik kabi insoniy fazilatlariga ega bo‘lmasliklari mumkin. Shunday ekan, biz yangicha fikrlashga, zamon bilan hamqadam bo‘lishga, o‘tmishni qo‘msamay oldinga qarab intiluvchi avlodni tarbiyalashda, so‘zsiz, san‘atga, adabiyotga tayanish yo‘lidan borishimiz lozim.

So‘zimiz so‘ngida, X.Borxesning quyidagi fikrini eslatishni joiz topdik: “Iste’dodsizlikni iste’dod o‘laroq qabul qilingan adabiyot o‘quvchini adabiyotdan bezdiradi. Shuni unutmangki, adabiyotning kushandasi adabiyotdir, boshqa biror narsa emas” [4,B-351]. Kino san‘atiga ham shu fikrni tatbiq etish mumkin. Shunday ekan, iste’dodsizlarning kinoda oldinga chiqishi ya’ni kinoning kushandasi kino bo‘lishiga loqayd qolmaslik kerak. Qolgani o‘z-o‘zidan o‘zgarib, yangilanish davom topib boraveradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2017-yil 7 avgust
2. Абиkeyева.Г.О. Образ семьи в кинематографе Центральной Азии в контексте формирования культурной идентичности в регионе. АДД. – М.: 2010.
3. Рубцов А.С. Союз литературы и кино. www. cyberleninka.ru/
4. Haqqul.I. Ijod iqlimi. –T.: “Fan”, 2009. 351-bet

СПЕЦИФИКА ПРЕПОДАВАНИЯ СЦЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ НА ОТДЕЛЕНИИ “АКТЕР ТЕАТРА КУКОЛ”

Аннотация. Данная статья является результатом анализа современной методики преподавания сценической речи на отделении «Актёр театра кукол». Автор предлагает упражнения и методические приемы речевого воспитания студентов, с учётом специфики и особенностей именно этой специальности.

Ключевые слова: актер театра кукол, оживление, слово-жест, слово-действие, воображение.

Venera YUSUPOVA,
UzDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrası v.b dotsenti

“QO‘G‘IRCHOQ TEATRI AKTYORLIGI” BO‘LIMI SAHNA NUTQINI O‘QITISHNING XUSUSIYATLARI

Аннотация. Ушбу мақола “Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi” bolimi sahna nutqini o‘rgatishning zamonaviy metodlari tahlili natijasidir. U ushbu mutaxassislikning o‘ziga xos xususiyatlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalarning nutqini o‘rgatish uchun mashqlar va metodik usullarni taklif qiladi.

Калит со‘злар: qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi, animatsiya, so‘z-imo-ishora, so‘z-harakat, tasavvur.

Venera YUSUPOVA,
The Assistant professor of the chair of “The art of puppet theater” UzSIAC

SPECIFICITY OF TEACHING STAGE SPEECH AT THE DEPARTMENT “ACTOR OF THE PUPPET THEATER”

Annotation. This article is the result of the analysis of modern methods of Voice training at the department of “Puppet Theater Actor”. It offers exercises and methodological techniques for speech education of students, taking into account the specifics and characteristics of this particular specialty.

Key words: puppet theater actor, animation, word-gesture, word-action, imagination.

История подготовки актерских кадров для театра кукол Узбекистана насчитывает почти полвека. А если быть более точными, то 47 лет. Кафедра «Искусство театра кукол» была основана в 1974 году в Ташкентском театральном-художественном институте им. А.Н. Островского (сейчас – Институт искусств и культуры Узбекистана). Но, несмотря на достаточно продолжительное время педагогической практики, на сегодняшний день существуют некоторые области, нуждающиеся в доработке методики преподавания составляющих курс дисциплин. В частности, сценическая речь на отделении актёров театра кукол.

Рабочие программы составляются в очень тесной связи с программами для обучения драматических актёров, и это не удивительно, поскольку и там, и там развиваются навыки правильного фонационного дыхания, отрабатывается артикуляция, четкая дикция, голосоведение и ведётся работа над художественным словом. Но, всё же, у актёров-кукольников есть целый спектр иных необходимых умений, которые должны быть освоены за время обучения.

К примеру, если актёр драматического театра более свободен в голосовой характеристике своего персонажа и может быть «направлен» или ограничен только ремарками автора или предлагаемыми обстоятельствами героя, то актёру-кукольнику речь «диктует» сама кукла. В его задачу входит не только передача смысла сказанного, киноленты видений и так далее, а ко всему прочему кукольник должен своей речью оживить персонаж, наполнить куклу внутренними хотениями, устремлениями, жизнью. Зачастую актёр-кукольник работает с куклой-животным, неодушевленным предметом, мифическим или сказочным существом, которое и звучать, говорить должно соответственно. К примеру, в сказке «Девочка со спичками» Г.Х. Андерсена есть и кукла-Девочка, и кукла-Печь, и Гусь, причём надо учитывать, что последние говорят и действуют в воображении девочки. Для качественной работы актёр скрупулёзно ищет голос своего героя, опираясь, в том числе на освоенные во время учёбы технические приемы и навыки.

Немаловажным препятствием в прямом смысле этого слова для актёра-кукольника является ширма и особенности системы кукол, с которыми работает актёр. Как говорил Е.В. Сперанский (режиссёр и драматург театра кукол, автор книги «Актёр театра кукол»), «Актёру необходимо пробиться душой, мыслью, голосом сквозь

всю материальную часть спектакля – сквозь ширму, неживую природу куклы - к зрителю. Только тогда зритель поверит, что кукла на грядке ширмы действительно живет»[1]. А это требует отработанных, усвоенных техник и навыков, помогающих актёру-кукольнику работать в очень невыгодных для него положениях: когда руки подняты высоко над головой, шея вытянута, а голова запрокинута и в полуобороте следит за ведомой куклой, когда актёр работает стоя на коленях, или наклонившись над марионеткой или планшетной куклой. К тому же, в современных спектаклях могут одновременно использоваться разные системы кукол, может подключаться и живой план, а значит, актёр должен владеть разными техниками озвучивания, дыхания и работы тела. Поэтому программа преподавания сценической речи на отделении кукольников должна учитывать все особенности и специфику данной специальности. Пытливые педагоги комбинируют и моделируют упражнения для их большей полезности. Я в своей работе со студентами-кукольниками использую следующие упражнения:

1. На качественном и интересном для ребят материале отрабатываем посыл звука через ширму на воображаемый балкон, при этом не запрокидываем подбородок, следим за правильным положением шеи, за сохранением округленности и полетности звука.

2. Учитывая, что у актёра-кукольника всегда заняты руки - в одной руке кукла, в другой – трости, – и он работает в замкнутом пространстве за ширмой, очень важно проделывать следующее упражнение: 5-6 студентов взявшись за руки читают хором одно стихотворение, соблюдая логику, синхронность, плавность звучания, и при этом двигаются - садятся, поднимают и опускают руки, двигаются по кругу, в различных направлениях и ритмах. Это воспитывает умение работать на ограниченной площадке в ансамбле.

3. Также я часто использую упражнения «крикушки». Я прошу студентов прорекламировать какой-либо товар, как на восточном базаре. Или же играем в торговцев во дворах многоэтажных домов. Тогда ребята автоматически направляют голос вперёд и вверх, тем самым преодолевая препятствие ширмы.

Помимо технических подготовленного речевого аппарата и правильно поставленного фонационного дыхания, особое внимание заслуживает работа над словом в его связи с жестом и движением куклы. Е.В. Сперанский пишет: «Слово является единственным носителем актерской эмоции, идущей к зрителю непосред-

ственно от актера. Но для того, чтобы слово, а, следовательно, и голос актера не шли мимо куклы, его речь должна быть положена на кукольный жест, сочетаться с ее движением». Под словом-жестом Сперанский подразумевает слово плюс изобразительный жест, возникшие на эмоциональной основе, а под словом-движением – действие чисто мизансценическое, целеустремленное, где преобладает не эмоция, а цель, ради которой происходит перемена положения куклы на грядке ширмы. С этими мизансценическими движениями актер-кукольник тоже старается увязать свою речь, чтобы она не шла мимо куклы. Также автор в работе с куклой с замкнутым ртом рекомендует актерам пользоваться еще и множеством мелких «движеньиц» – акцентов, которые не относятся ни к слову-жесту, ни к слову-движению, но акцентируют речь, увязывая ее еще теснее с куклой. Эти «движеньица» едва уловимы и большей частью проходят незамеченными для зрителя, но их синхронизирующая роль, тем не менее, очень значительна. Эти акценты – легкие вздрагивания головой, либо всем телом куклы – приходится обычно на ударные слоги слов или на смысловые ударения фразы. Автор предостерегает актеров от механической «рубки» акцентами и от всякого неоправданного мельтешения, так же, как и излишняя артикуляция куклы с открывающимся ртом утомляет зрителей, снижает эффект оживания.

Для усвоения этих навыков также существуют эффективные упражнения, которые должны отрабатываться студентами и на уроках по кукловодению, и на сценической речи. К примеру, упражнение «Походка» из предложенного С.М. Буровой словесного тренинга с куклой[2]. Надо пройти куклой по ширме с одновременным озвучиванием ее походки – каждый шаг должен быть озвучен. Каждый студент придумывает свое сочетание звуков. Перед началом необходимо рассмотреть куклу-персонаж и оправдать выполнение действия своей внутренней задачей. Например, «хочу понравиться». Для того чтобы разнообразить варианты сочетания звуков, каждый из студентов может использовать первые три буквы своей фамилии.

Примеры выполнения:

1. Студент Алешин. «Але, але, але...» – кукла-медведь идет, медленно переваливаясь с ноги на ногу.
2. Студентка Лаврова. «Лав-лав-лав.» – кукла-кот ступает мягко, каждый шаг плавно вытекает из предыдущего шага.
3. Студент Григорьев. «Гри... Григри... Гри...» – кукла-волк передвигается с замиранием на месте, настороженно.
4. Студент Марков. «Мар. Мар. Мар...» – кукла-король идет не спеша, вальяжно отклонившись назад.

В сочетании с конкретной куклой звуки помогают выявить внутреннюю характерность и передать ее через пластическое поведение и голос. Озвучивание куклы может происходить как с помощью звуков, так и с помощью проговаривания вслух внутренних мыслей персонажа. Для этого предлагается этюд-упражнение «Ночью в лесу». По предлагаемым обстоятельствам «кукла-персонаж, преодолевая страх, возвращается ночью домой через темный лес». Надо выполнить упражнение, удерживая видения и пропуская вслух те мысли, которые рождаются от внутренних ощущений. Текст придумывается, рождается на ходу. Пример: кукла идет, осторожно ступая, останавливаясь при каждом шорохе. Вдруг оглядывается – не идет ли кто за ней: «Страшно-то как. Говорил же себе – нечего долго в гостях засиживаться. Ничего не поделаешь – надо идти. Стоп! Какой-то шорох? Кажется, чьи-то шаги? Остановлюсь, прислушаюсь. Никого. Показалось. А это что за фигура? Постараюсь осторожно обойти ее. Тьфу! Да это же просто куст! Ну и страху натерпелся! В следующий раз один не пойду». Таким образом, как утверждает С.М. Бурова, проговаривание внутреннего монолога персонажа обогащает действия куклы микродвижениями, паузами в пластическом действии, фиксацией внимания на воображаемом объекте.

И ещё одно упражнение, но теперь актер идет от внешнего действия куклы, ко внутреннему проживанию и рождению слова. Это значит, что наблюдение за куклой включает в работу психофизический аппарат студента, например:

1. «Горы горшков» – кукла широко разводит руки в стороны – желание похвастаться.

2. «Хрипло всхлипывали» – кукла поднимает голову с началом фразы и опускает ее с вздохом в конце фразы – разжалобить, вызвать к себе сочувствие.

3. «Радуга крадется» – кукла рукой очерчивает полукруг в пространстве перед собой по контуру воображаемой радуги – увлечь других наблюдением за радугой.

4. «Груда грязи» – кукла стряхивает воображаемую грязь с кистей рук – хочу выказать свое недовольство.

5. «Плавно словно павы» – кукла поворачивается, выставляя вперед то одно, то другое плечо – хочу передразнить.

Итак, авторское слово заставило нас двигаться, оно явилось поводом для внешнего жеста. Далее слово в сочетании с жестом вызвало у нас чувства. От возникших чувств «заработало» воображение, а наше воображение подсказало соответствующие предлагаемые обстоятельства. Слово, действие и чувство слились в единый аккорд.

Есть определенные характеристики и голосовые данные, которые необходимо развивать у студента, а есть и такие требования к голосам, которые уже у абитуриента должны быть ярко выражены. К ним относятся заразительность, обаяние, выразительность голоса, его подвижность, широкая палитра оттенков и достаточно большой звуко-высотный диапазон. Любые речевые дефекты, будь то органические или неорганические, являются прямым основанием для отказа в приеме на кукольное отделение[3]. Также наличие манерности в речи, акцентов и прочих недостатков должно быть рассмотрено особенно внимательно приемной комиссией. И, конечно, неотъемлемой частью вступительных экзаменов должно быть озвучивание куклы. Это может быть и подготовленная абитуриентом чтецкая программа, перенесенная за ширму, и импровизированный монолог предложенной куклы. Только так можно будет определить, есть ли хотя бы зачатки того неотъемлемого дара, способного преодолевать барьеры ширмы, куклы и прочих условий творчества актёра-кукольника, который в дальнейшем будет развиваться и совершенствоваться. Ну, и конечно недопустимо, чтоб на отделении кукольников были ребята с ростом менее 160 см (стандартная высота ширмы – 170 см.), иначе во время ведения куклы актёр будет думать не о творчестве, а о том, как ему дотянуться до ширмы.

Если говорить о недостатках современного педагогического подхода у речевиков на кукольных отделениях, то стоит отметить, что очень часто педагоги слишком упрощают, более того, обедняют чтецкую программу студентов, беря в репертуар низкопробную литературу, сводя все только к примитивной, звукоподражательной имитации голосов животных. Это ведёт к тому, что актёры, привыкнув говорить просто детскими голосами, не могут в дальнейшем озвучивать героя эпоса, не могут переключиться на взрослых героев и героинь. Вспомните мультфильм «Король Лев», мы любим и ценим его потому что там персонажи, хоть и «мультишные», но говорят настоящими человеческими голосами, и мы с ними грустим, переживаем, мы верим им. Так же и в театре кукол надо обязательно при озвучивании идти от глубины души персонажа. А это возможно только на качественном литературном материале. Ведь у нас есть замечательные, изумительные «кукольные» произведения, к примеру, «Маленький принц» А. Экзюпери, где есть прекрасные диалоги Змеи и Принца, Принца и Лиса, Розы и так далее. Вот на таких произведениях и надо учиться.

Заключение.

Подводя итог и обобщая все сказанное, нужно отметить, что каждая дисциплина, будь то мастерство актера, ритмика, пластика или сценическая речь, должна быть адаптирована под конкретный курс подготовки актера с учётом всех особенностей специальности и необходимых в будущей работе навыков. Процесс обучения должен быть живым, педагог должен иметь чутьё и чувствовать своих учеников, помогать им совершенствоваться. Упражнения могут быть самыми разнообразными, – старыми, новыми, модернизированными, – но, главное, чтоб они были эффективными, целесообразными и выполняли свое предназначение.

Список литературы:

[1] - Е.В. Сперанский «Актер театра кукол» стр.123, М., ВТО, 1965 г. [2] – С.М. Бурова. «Соединение слова и пластики куклы в процессе обучения студентов-кукловодов». «Известия российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена». Сп.б., №123. 2013 г.

[3] - Е.И. Кириллова, Н.А. Латышева. «Сценическая речь в театре кукол». Учебное пособие. СпбГАТИ. 2009 г.

KINOREJISSURADAGI ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada kino sohasidagi izlanishlar, yoshlar tarbiyasida tutgan o’rni haqida so’z boradi. Shuningdek, bu borada erishilayotgan yutuqlar, kelgusida amalga oshirilishi zarur bulgan muammolar xususida to’xtalib o’tiladi.

Kalit so’zlar: Kino, kinorejissura, mavzu, ijod, tarbiya, tendensiya, g’oya, ta’lim.

Музаффар ПИРМАТОВ,

“Искусствведение и культурология” старший преподаватель кафедры

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В КИНОРЕЖИССУРЕ

Аннотация. В данной научной статье подчеркивается уникальная роль кинорежиссуры в воспитании творческой молодёжи. В статье также уделяется внимание достигнутым достижениям и проблемам, которые необходимо решить в будущем.

Ключевые слова: Кино, режиссура, тема, творчество, воспитание, тенденция, идея, образование.

Muzaffar PIRMATOV,

“Art and culturology” senior teacher of the department

MODERN TRENDS IN FILMMAKING

Annotation. This scientific article emphasizes the unique role of filmmaking in the upbringing of creative youth. The article also pays attention to the achievements achieved and the problem that needs to be solved in the future.

Key words: Cinema, direction, theme, creativity, education, trend, idea, education.

Prezidentimiz “2017–2021-yillarda O’zbekistonni rivojlan-tirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmonga imzo chekdi. Unda boshqa sohalar qatori, ilm-fan, madaniyat va san’at masalalariga ham alohida urg’u berilgan. Bu esa barcha san’atkorlarni, xususan, kino ijodkorlarini ham ruhlantirish bilan birga, ularni yanada ko’proq mas’uliyat bilan ijod qilishga undamoqda. Shu o’rinda aytish lozimki, kinoning boshqa san’at turlaridan farqi uning sintez san’at ekanidir. Ko’plab san’at turlarini birlashtirib, yaxlit asar yaratishda rejissorning xizmati katta. Rejissor ssenariy muallifi, operator, bastakor, rassom, grimyor, ovoz operatori, libos, chiroq va montaj ustalari singari film ijodkorlari yordamida aktyorni kino qahramonga aylantiradi.

Rejissorlik qiziqarli kasb bo’lish barobarida murakkabdirl. Istagan odam rejissorlikni havas qilishi mumkin, ammo uni kasb qilish ancha mushkul. Rejissor bo’lish uchun inson har tomonlama shakllangan bo’lishi zarur. Buning uchun rejissor aktyorlik, tashkilotchilik, kuzatuvchanlik, eng muhimi, yangilik yarata olish qobiliyatiga ega bo’lishi kerak.

Yangi film yaratish istagidagi rejissor ishini ssenariy tanlashdan boshlaydi. Kinossenariy tanlashda rejissor tomoshabin auditoriyasini, necha yoshli tomoshabinlar uchun film olmoqchi ekanini aniqlab olishi zarur.

Ammo yana bir unsur mavjudki, ssenariy mukammalligini ta’minlashda u ham yetakchi o’rin tutadi. Bu – so’z, ya’ni filmdagi dialog va monologlardir. Ularning meyoriy holda bo’lishi hamda adabiy asardan farqli o’laroq talqin etilishi ahamiyatlidir. Shoyad, “narschi va nazmchi hikoya qilish, voqealarni izohlash, hodisalarni ifodalash, xarakterlarni tasvirlash yo’lidan borishsa, dramaturg esa so’zlarni harakatga solish, qahramonlarni so’zlatib qo’yib, xarakterlarini ochish usulidan foydalanadi”². Ayniqsa, ssenariyda kerakli jummalarni topa bilish hamda ularni kino tilida bayon qilish muhim. “Ssenariyning so’zi ustida ishlash kinodramaturg ijodidagi eng murakkab jarayondir. Qahramonlar nutqidagi monologlar va savol-javoblardagi har bir so’z qat’iy ishlangan bo’lishi zarur. So’z qahramon xatti-harakat bezagini emas, balki ta’sirchanligi

bilan uning ichki g’alayonlari, kechinmalarini o’zida mujassam etishi lozim”³. Mukammal badiiy asosga ega ssenariy tanlash, asar qahramonlari tabiatiga monand aktyorlar ansamblini yig’a bilish, filmning g’oyaviy-badiiy qimmatini belgilovchi mezonni aniqlash va uni asarga singdirish rejissorning asosiy vazifasidir.

Rejissor o’zining imkoniyatidan kelib chiqib, kinossenariy tanlaydi. Bunda u filmning janri, shakli, qolaversa, dunyoqarashini hisobga oladi. Ba’zi rejissorlar drama, ba’zilari esa komediya janrida o’ziga xos film yaratish qobiliyatiga ega. Bu mezonni film ishlashdan oldin hal qilish lozim.

Film yaratish jarayonida aktyor rejissorning ko’rsatmasiga qarab, jiddiy harakat bilan rol ijro eta olsagina aktyor bo’ladi. Aktyor rolda yashashni, kerak bo’lsa inprovizatsiya qilishni bilishi lozim. Bu haqda san’at arbobi, professor Shuhrat Abbosov talabalarga shunday degandi: “Aktyor doimo rejissor yaratgan narsani tasavvur qilishi, ko’ra olishi va o’sha narsaga intilishi kerak”⁴.

Rejissorning muvaffaqiyati – oldiga qo’ygan maqsadini tomoshabinga yetkaza olishidadir. Agar tomoshabin film qahramonini yaxshi ko’rmasa, undan o’ziga o’xshash jihatlarini topmasa, kinoning darajasi tushib ketadi. Ijodkorning iqtidori maqsadini film orqali ochib berishi va tomoshabin yuragiga kira olishida namoyon bo’ladi.

Tarixdan ma’lumki, rejissorlar kinossenariy tanqisligi bois o’zlari ssenariy yozib, ekranlashtirganlar. Masalan, jahon kinosida Charli Chaplin, rus kinosida Aleksandr Dovjenko, Grigoriy Kozinskoy, Mixail Romm, Aleksandr Zarxi, o’zbek kinosida Nabi G’aniyev, Komil Yormatov, Shuhrat Abbosov, Hoji Axmar, Uchqun Nazarov singari rejissorlar kinodramaturgiya sohasida ham ijod qilishgan⁵. Ayrim rejissorlar yozish usuli ma’qul tushgan kinodramaturg bilan doimiy ravishda hamkorlik qiladi. E.Ishmuhammedov O.Agishev bilan K.Yormatov M.Melkumov bilan birgalikda ijod qilgan bo’lsa, ushbu an’anani yosh kinoijodkorlar Yo.To’ychiyev A.Shahobiddinov, M.M.Do’st, J.Qosimov hamda M.Erkinov, J.Ahmedovlarni misol qilishimiz mumkin.

Xalqimiz qayta-qayta ko’rib, zerikmaydigan, har ko’rganida o’ziga tegishli xulosalar chiqaradigan, oladigan “Tohir va Zuhra”, “Toshkent – non shahri”, “Sen yetim emassan”, “Mahallada duv-duv gap”, “Yor-yor”, “Maftuningman”, “Temir xotin”, “Vatan”, “O’tov” singari filmlarda kino san’ati “oltin meyor”iga amal qilinganini ko’rish mumkin. Bu filmlar mavzu jihatdan hamma davrga mos tushadi. Ushbu film ijodkorlari kino yangi san’at turi bo’lishiga qaramay, tinimsiz harakat, izlanish natijasida boqiy ekran asarlari yaratdilar.

Qizig’i shundaki, Sh.Abbosov “Mahallada duv-duv gap” filmi 25 yoshda, Latif Fayziyev esa 23 yoshida Hamzaning “Boy ila xizmatchi” spektakli asosida o’zining ilk badiiy filmi suratga

¹ O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

² Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: G’G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 2000. – B. 210.

³ Abulqosimova X. Kino san’ati asoslari. – T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – B.24.

⁴ Abulqosimova X., Teshaboyev J., Mirzamuhammedova M. Kino Uzbekistana. – T.: G’G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.

⁵ Aliyev M. Kino asoslari.–T.: “O’qituvchi”, 1993. – 29-bet.

olgan. Bugungi kunda 25 yoshli rejissor Sh.Abbosov darajasida film yaratish qobiliyatiga ega, deb aytish mushkul. Vaholangki, texnika rivojlangan, odamlarning dunyoqarashi kengaygan, film yaratish imkoniyati yuksalgan.

So'nggi yillarda yosh kinorejissorlar o'z mutaxassisliklari bo'yicha boshqa davlatlarda malaka oshirib qaytmoqdalar. Jumladan, O'zbekiston davlat san'at institutining sobiq talabalari S.Ismoilovanning Italiyada, Niyara Repnikaning Germaniyada, Ruslan Saliyevning Rossiyada o'z sohasi bo'yicha qo'shimcha ilm olganini, X.Yunusov, Yo.To'ychiyev, A.Shahobiddinovlarning Moskvada Oliy rejissorlik, ssenariyavislik hamda animatsion film rejissorligi bo'limlarini bitirib, o'z sohalarida tinimsiz ijod qilayotganliklarini quvonch bilan tilga olish mumkin.

Hozirgi kunda kino sohasida faoliyat yuritayotgan yosh ijodkorlar talaygina. Bugungi kunda o'zbek kino san'ati uchun eng muhim muammo nima? Yosh rejissor kadrlarning yetishmasligimi yoki ssenariyavislarinimi? Bu savolga u yoki bu deya bir-biridan ajratib javob berib bo'lmaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek, kino sintez san'at turi hisoblanadi. Ssenariy bo'lmasa kino yaratilmaydi va aksincha, ssenariy bo'la turib, rejissor bo'lmasa, bu asar hech qachon tasmaga muhrlanmaydi. Bundan tashqari, filmning tasviriy-ifodaviy, mavzuviy-g'oyaviy jihatdan yetukligi, qolaversa, ta'sirchanligini oshirishda operator, rassom, kompozitor, ovoz rejissyori, grimyor, libos va chiroq ustalarining hissasi katta. Agar professional mahoratga ega ijodkorlar guruhi jamlanib, birgalikda film yaratishga kirishilsa, bu asar albatta, o'z tomoshabinini topadi.

Filmning muvaffaqiyatli chiqishi bevosita ijodiy guruhga bog'liq. Bunda eng muhim vazifa rejissor zimmasiga tushadi. Agar u aktyorga qahramon tabiatidagi asosan qaysi jihatlariga urg'u berish kerakligi, xatti-harakatlarining mazmun-mohiyatini to'liq tushuntirib bersa, aktyor bu rolni maromiga yetkazib ijro etadi. Xuddi shunday, kompozitor qahramon tabiatiga mos, qolaversa, ichki kechinmalarini aks ettiruvchi kuy-qo'shiqlar yaratadi. Libos ustalari qahramonning qaysi davr insoni ekani, kelib chiqishi, kasbi, yoshi, millati, irqi, dini, jinsi, filmidagi vazifasiga ko'ra kiyim tanlaydi. Grim ustalari qahramonlarning tabiati, qaysi zamon yoki makonda yashashi, millati va shunga o'xshash mezonlarni inobatga olgan holda aktyorni o'z holatidan boshqa inson – filmidagi qahramon qiyofasida gavdalantiradi. Operator esa film qahramonining ichki-kechinmalari, o'y-xayollari, orzu-intilishlari, tabiati, manzara, jism va hokazolarni yirik, o'rta hamda umumiy planlarda, turli rakurslarda tasmaga muhrlaydi. Ovoz rejissorlari filmning kompozitsion qurilishiga qarab musiqa tanlaydi, qahramonlar ovozinig baland-pastligini, musiqalarning yangrash darajasini me'yorlashtiradi. Ovoz berish jarayoni ham kino san'atida muhim ahamiyatga ega. Bunda rejissor qahramonning yoshi, jinsi, tabiati, ham ichki, ham tashqi qiyofasidan kelib chiqib, unga monand inson ovozinig tanlaydi. Yana bir muhim jihati ekran asarining tomoshaviylikini belgilashda montaj muhim ahamiyatga ega. Shu bois montaj kino san'atidagi eng nozik jarayon hisoblanadi. Ba'zan yaxshi kadrlar bo'la turib, ulardan unumli foydalanmaslik holatlari kuzatiladi. Montaj ustasi dubllarning eng sarasini tanlab, voqealar ketma-ketligini kompozitsion qurilish asosida bexato yig'a olishi shart.

Film yaratish uchun ko'plab ijodkorlar bosh qotiradi, vaqt va pul sarflanadi. Ammo bu "harajat"lar har doim ham o'zini oqlamaydi. Filmning kino san'ati talabi darajasida chiqishi uchun yuqorida sanalgan hech bir jihatni nazardan chetda qoldirmaslik, muhimi, o'ziga xos usul yarata olish lozim.

Har bir millatning o'ziga yarasha madaniyati va urf-odatlari bo'ladi. Kino ildizi milliy madaniyatdan suv ichadi. O'zbek badiiy filmlari o'tmish, bugungi kun va kelajakdan xabar berib turadi. Shu bois film hech qachon yengil-yelpi tasmaga muhrlanmasligi lozim. U xalq ma'naviyatidan xabar berib turar ekan, muallif va rejissor,

operator va aktyorga yuksak mas'uliyat yuklanadi. Kino paydo bo'lgandan to bugungi kungacha uning asl ustalari, jonkuyar-fidoylari kinoni san'at darajasigacha ko'tarishga harakat qilishdi va bunga erishishdi.

Bugungi kunda kino sohasida ijod qilayotgan yoshlar va ular yaratayotgan filmlar son jihatdan o'sib bormoqda. Yosh kinorejissorlar yaratayotgan filmlarning sifat darajasi turlicha bo'lib, aksariyat kinorejissorlar filmlarida professional mahorat yetishmasligi seziladi. Bu muammolar ko'pincha filmning tasviriy olamida ko'zga tashlanadi. Ushbu muammoning oldini olishda institutda talabalarining yetarli malaka oshirishlari uchun texnika bazasini boyitish, operatorlarni nafaqat video, balki plyonka bilan ishlashi uchun imkoniyat yaratish darkor, deb o'ylaymiz.

Rejissor filmni montaj qilish uchun professional texnik jihozlardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Rejissorlik bo'limi talabalari institut rahbariyati tomonidan professional montaj asbob-uskunalari bilan ta'minlab berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Hozirgi kunlarda milliy kinomiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – bu milliy kinodramaturglar, rejissorlar va operatorlarning zamonaviy talab darajasida tarbiyalash, o'quv jarayonini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlantirib eng yangi texnologiyalar asosida o'quv protsessini olib borish kerak.

Bizningcha, o'zbek kinoni yana bir qadam oldinga siljishi uchun ustoz rejissorlar Shuhrat Abbosov, Ravil Botirov, Yo'ldosh A'zamov, Zulfiqor Musoqov, Qamara Kamolova, Jahongir Qosimov, Johongir Ahmedov singari san'at fidoylari ijod andozasidan foydalanishga to'g'ri keladi. Chunki ularning har bir filmi yosh avlodga muhim maktab vazifasini o'taydi. Ushbu rejissorlar filmning muvaffaqiyatli chiqishi uchun har tomonlama bosh qotirishadi. Mavzu tanlashdan boshlangan ish ushbu ekran asarini tomoshabin qanday qabul qilishigacha muhokamadan o'tkaziladi.

O'zbek badiiy kinoning hozirgi bosqichini o'tish davridagi ijod mahsuli deiyish mumkin. Shu bois ayrim hollarda kamchiliklarga duch kelamiz. Quvonarlisi, kino san'atiga asta-sekin yosh rejissorlar kirib kelmoqda. Ular ushbu san'at turidagi mavjud muammolarga qaramay izlanishda davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sohani yanada rivojlantirish uchun professional kinorejissorlar va soha mutaxassislari, shu jumladan, ssenariyavislar bilan turli xil davra suhbatlari, mahorat darslari tashkil etish ham bu yo'ldagi amaliy chora-tadbirlar sirasiga kiradi. Bunday ijodiy uchrashuvlar yosh rejissorlar mahoratini oshirishga xizmat qilib, rejissuradagi mavjud xato-kamchiliklarni birgalikda ko'rib chiqish va shu orqali tajriba almashish imkoniyatini beradi. Ma'lumki, rag'bat ijodkorni ruhlantirishi barobarida yangi ijodiy izlanishlar sari yetaklaydi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, kino san'atini rivojlantirish va kamol toptirishda festivallar alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, aynan festivallar, ko'rik-tanlovlar, ya'ni "PROlogue" singari Respublika yosh kinoijodkorlar qisqa metrajli filmlar festivali, orqali yangidan-yangi iste'dodlarni aniqlash imkoniga ega bo'libgina qolmay, kreativ g'oyalar, o'ziga xos fikrlar talqinini ham ko'rishga muyassar bo'lamiz. Biroq, bu masalaga ham jiddiy yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki, raqobat bo'lsagina, sifat ham oshadi. Axir, talab va taklif aspekti bir-biriga bog'liq faktorlar hisoblanadi.

Yosh kinorejissorlarimizni qanchalik to'g'ri hamda munosib qilib tarbiyalash yurtimiz kelajagining istiqbolini yanada ta'minlash, estetik didni betakror tarzda shakllantirishga zamin yaratadi.

Holbuki, milliy kinematografiya taraqqiyoti bevosita va bilvosita rejissuraning o'rniga bog'liq ekan, eng avvalo, shu soha samaradorligini ta'minlashga e'tibor qaratish asosiy shartlardan bo'lib qolishi zarur.



II BO'LIM

MUSIQA SAN'ATI

“O‘RTOQLAR” VA “XURRAM” KUYI XUSUSIDA

Annotatsiya: Mamlakatimizda o‘zib kelayotgan yosh avlodning ma‘naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yoshlarning milliy va jahon musiqa madaniyati yuksak namunalaridan bahramand bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu asosda musiqiy ta‘limni yanada rivojlantirish, har bir yosh o‘quvchi qalbida milliy cholg‘ularga qiziqishlarini va mumtoz ohanglarga muhabbatini uyg‘otish asosiy maqsad qilinganligi ham quvonarli holdir. Ushbu maqola orqali o‘quvchi o‘zbek musiqa ijrochiligida keng tarqalgan Yunus Rajabiyning “O‘rtoklar” va Ari Boboxonovning “Xurram” kuyi haqida ma‘lumotlarga ega bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: musiqa, usul, doyra, cholg‘u, milliy cholg‘ular, ijro, an‘ana, uslub, bastakor.

Оролмирза САФАРОВ,

О. профессора кафедры “Национальное пение” ГИИКУЗ.

О ПРОИЗВЕДЕНИЯХ “УРТОКЛАР” И “ХУРРАМ”

Аннотация: В нашей стране проводится ряд работ по повышению духовного и культурного уровня подрастающего поколения. В частности, создаются необходимые условия для того, чтобы молодежь могла наслаждаться высокими образцами национальной и мировой музыкальной культуры. Отрадно, что на этой основе основной целью является дальнейшее развитие музыкального образования, пробуждение в душе каждой молодежи интереса к национальным инструментам и любви к классическим мелодиям. В этой статье читатель узнает о произведениях “Уртоklar” Юнуса Раджаби и “Хуррам” Ари Бабаханова, широко распространенных в узбекской музыке.

Ключевые слова: музыка, усул, дойра, инструмент, национальные инструменты, исполнение, традиция, стиль, композитор.

Orolmirza SAFAROV,

Professor of the department “National singing” UzSIAC,

ABOUT “URTOKLAR” AND “XURRAM”

Summary: Much is being done in our country to improve the spiritual world and cultural level of the younger generation. The necessary conditions are being created for our youth to be widely satisfied with the high standards of national and world musical culture. It is gratifying that on this basis, the main goal is the further development of musical education, the awakening in the soul of every junior student of interest in national instruments and love for classical melodies. In this article, the reader will learn about the works of “Urtoklar” Yunus Rajabi and “Hurram” by Ari Babakhanov, widely spread in Uzbek music.

Keywords: music, usul, doyra, instrument, national instruments, performance, tradition, style, composer.

Har bir xalq o‘zining milliy musiqiy merosini sevishi, ardoqlashi tabiiy hol. Chunki bunda xalqning o‘zligi, tarixi va an‘analari aks etadi. Qolaversa, bugungi kunda ajdodlar an‘anasini e‘zozlash, qadriga yetish va munosib tarzda o‘zlashtirish muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Zero, ajdodlarimizdan ustozshogird an‘anasi orqali bizgacha yetib kelgan musiqiy an‘analari o‘tmish bilan bog‘lovchi bir mustahkam zanjirdir. Bu borada xalqimizning ma‘naviy boyligi mumtoz musiqa asarlari bo‘lgan maqomlar hozirgacha o‘zining badiiy va estetik imkoniyatlarini a‘lo darajada saqlab kelayotganligini alohida qayd etish joiz.

San‘at sohasini yanada rivojlantirish maqsadida 2022-yil 2-fevralda Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Unda madaniyat va san‘at sohasida iste‘dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim muassasalarini milliy cholg‘ular, musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quvmetodik adabiyotlar bilan ta‘minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, 2022 – 2023-o‘quv yilidan boshlab, ta‘lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste‘dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida esa o‘quvchilarga milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko‘nikmalarini o‘rgatish hamda ularning shahodatnomasida qayd etilishi belgilandi. Albatta, bu qaror natijasida umumta‘lim maktablarining har bir bitiruvchisi o‘zbek xalqining musiqiy namunalari ijro etish mahoratini egallaydi.

Ijrochilik qanday sohada bo‘lmasin kundan-kunga rivojlanib, takomillashib boradigan jarayon ekanligi barchamizga ma‘lum. Xususan, cholg‘u ijrochiligi sohasida ijrochilikni takomillashtirish belgilangan tartibda aniq maqsadga yo‘naltirilgan mashqlar orqali muntazam ravishda amalga oshirishni taqozo etadi. Ijro mahoratini oshirishda o‘ng va chap qo‘l harakati bilan birga asarning badiiy xususiyatlarini to‘liq ochib berish va to‘laqonli ijro etish mahoratiga ahamiyat qaratish lozim. Shu bilan birga, ta‘lim jarayonida oddiydan murakkablikka tomon harakatlanish orqali ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Buning uchun ilk ijro sabog‘ini olayotgan o‘quvchilarga eng sodda va tez yod bo‘la oladigan kuylarni o‘rgatishdan boshlash lozim.

O‘quvchi biror asarni o‘rganar ekan, albatta, asar muallifi, yaratilish tarixi, mashhur ijrochilari hamda qaysi cholg‘ularda ijro etish mumkinligi borasidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lishi lozim. Shu o‘rinda, rubob ijrochiligida o‘rgatish uchun qulay bo‘lgan “O‘rtoklar” kuyi haqida fikr yuritishni joiz bildik. Akademik va O‘zbekiston xalq artisti Yunus Rajabiy aynan bolalar dunyoqarashi va xarakteridan kelib chiqqan holda “O‘rtoklar” kuyini ijod etgan. Asar Shashmaqomning Rost pardalari asosida yaratilgan bo‘lib, ayrim jihatlari “Tasnifi Rost” ohanglariga o‘xshaydi. Jumladan, asar “re minor” ladida yozilgan bo‘lib, birinchi oktava “re” tovushidan “sol” pardasiga kvarta sakrashlar, yuqoriga chiqib yana yordamchi “sol” pardasida sho‘xchan yangrashi marsh ohangini eslatadi. Bundan tashqari, bastakor maqom ohanglariga tayangan holda ushbu kuyni yaratar ekan, yosh o‘quvchilarni mumtoz kuylarga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishni hamda maqom ohanglarini asta-sekin ruhiyatiga singdirib borishni asosiy maqsad qilib oladi. Bu kabi asarlar orqali dastlabki sozandalik sabog‘ini olayotgan yoshlarda Vatanga bo‘lgan muhabbatni, mardonavorlik, mardlik

va jasurlik kabi tuyg'ularni ham shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash lozimki, "O'rtoqlar" kuyini ijro etishda asosan tovushlar bir-biriga uzviy bog'liq holda uzluksiz bog'lanib yangrashini ko'ramiz. Bu esa aynan puflama va kamonli cholg'ularda ijro etish maqsadga muvofiq ekanligini bildiradi. Xususan, g'ijjak cholg'usida ijro etilganida juda yoqimli yangraydi.

Kuy aslida o'zbek milliy cholg'ularida ijro etish uchun yaratilgan bo'lsada, marsh xarakterining ustuvorligini hisobga olgan holda aytish mumkinki, damli cholg'ularda ham ijro etish mumkin.

Yunus Rajabiyning "O'rtoqlar" asari aynan 2/4 o'lchovida, marsh janrida yaratilgan. Yunus Rajabiyning "O'rtoqlar" asarida aynan mardonavorlik, yigitlarga xos shaxdamlik xususiyati ufuq turadi. Bastakor kuy ohangiga mos she'riy to'rtlikni tanlay olganligi ham tahsinga sazovordir.

Ma'lumki, marsh kuyi harbiylarning yurishini maromga solish bilan birga ularga quvnoqlik va jangovor ruh baxsh etishda ham xizmat qiladi. Yunus Rajabiyning "O'rtoqlar" asarida ham ana shu maqsadni his qilish mumkin, ammo unda biroq bolalarча beg'uborlik aks etadi. Harbiy marshlarning ham bir nechta turlari mavjud bo'lib, ular qator marshi, yurish marshi va uchrashish marshi kabi turlarga bo'linadi. Bundan tashqari, marshning boshqa turlari ham mavjud bo'lib, ular motam marshi, bayram marshi, sayl marshi, konsert marshi kabi boshqa turlarga ham bo'linadi.

Akademik Yunus Rajabiy "O'rtoqlar" asarini yaratishda milliy ohanglardan unumli foydalangan. Asar bir qismdan iborat bo'lsa, asarning boshidan to' oxiriga qadar milliy kolorit ufuq turadi.¹ Bu holat esa bastakorning milliy musiqa ohanglarini jahon musiqasining o'ziga xos qonuniyatlari bilan uyg'unlashtira olganidan darak beradi. Bunday mahoratga ega bo'lish uchun esa albatta necha yillik tajriba, bilim, ko'nikma va malaka talab etiladi.

Bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotmay ijro amaliyotida qo'llanib kelinayotgan qashqar rubobi uchun ham ko'plab musiqiy asarlar ijod etilgan edi. Jumladan, Ari Boboxonov ham o'zbek mumtoz kuy-ohanglariga asoslangan holda bir qator asarlar yaratganligi barchamizga ma'lum. Shu bois ham yaratgan asarlarini tinglar ekanmiz, milliy ohanglar ufuq turishini his etamiz. Qolaversa, uning yaratgan asarlarni ijro etish ham ijrochiga olam-olam zavq bag'ishlab, tinglovchilarni esa sehrlaydi. Ari Boboxonovning yaratgan asarlarini tahlil etar ekanmiz, har bir asarda o'ziga xoslik va mukammallik mavjudligini, asar davomida qo'llaniladigan turfa nolalar, qochirimlar, usullar o'zgacha ekanligini sezamiz.

Xurram

Б.Мирфайёзов нотага олган

Allegro moderato

А.Бобохонов мусикаси



Ari Boboxonov tomonidan qashqar rubobi ijrochiligi uchun yaratilgan "Xurram" kuyini ham tahlil qilib ko'ramiz. Ta'kidlash

1 Rajabov Yu. O'zbek xalq musiqasi. 1-jild. – Toshkent: 1955.

2 Rajabov X. Ari Boboxonov ijrochilik maktabining o'ziga xos xususiyatlari. O'zDSMI xabarlari 2020. №4. – B. 42

joizki, "Xurram" kuyini o'rgatishda eng avvalo, o'quvchilarning ijro mahoratiga alohida ahamiyat qaratish lozim. Chunki ushbu asar texnik jihatdan biroz murakkab hisoblanadi.

"Xurram" kuyi ikki qismdan iborat bo'lib, o'rtacha tez vaznda, birinchi qismi 4/4 o'lchovida, ikkinchi qism esa 6/8 o'lchovi, ufar doyra usulida yaratilgan.

Rost maqomi Ushshoq sho'basining ufar yo'llariga o'xshash tarzida ijod qilingan. Ushshoq oshiqlar kuyi bo'lgani kabi "Xurram"ning ham kuy-ohangida ushbu holatni his etishimiz mumkin. Albatta, bu bastakor Ari Boboxonov Shashmaqomni amaliy va nazariy tomondan mukammal o'zlashtirganligidan darak beradi.

Ari Boboxonov "Xurram" kuyini qashqar rubobi uchun yaratgan bo'lsada, asarning betakror ohangi ko'plab ijrochilarning ham maftun etdi va u keyinchalik dutorda, afg'on rubobida ham ijro etildi.² Nazarimizda, ushbu kuy qay darajada maftunkor va go'zal bo'lmasin puflama va kamonli cholg'ularda ijro etish samarali natija bermaydi. Chunki asar yaratish davomida avvalambor kuy ijro etiladigan cholg'uning imkoniyatlari va ijro etishda qo'llaniladigan shtrix hamda turfa bezaklar nazarda tutiladi.

Qashqar rubobi uchun mo'ljallangan "Xurram" kuyi muqaddima, ya'ni kirish qismining boshlang'ich ikki takti "si" pardasida tremolo bilan ijro etiladi. So'ngra "si" tovushidan yuqoriga ikkinchi oktava "fa" tovushiga kvinta sakrash hosil qilib sekin-asta asosiy tayanch "si" tovushiga qaytib tushadi. Bu kabi sakrashlar esa ushshoq ohanglariga xos hisoblanadi. Asar har bir yangi kuy jumlarida ya'ni miyonxat avj qismlarida o'ziga xos yangicha ohanglar bilan boyitib boriladi. Uning kuy-ohangiga nazar tashalar ekanmiz, asosan ikkinchi va uchinchi oktava tovushlarida yangrashining guvohi bo'lamiz:



Bu esa o'z navbatida, inson kayfiyatini ko'tarib, xursandchilik baxsh etadi. "Xurram" kuyi rubob ijrochilarining asosan texnik mahoratni oshirishda juda katta yordam beradi.

Albatta, har bir ijrochi o'z texnik mahoratidan, o'ng va chap qo'l imkoniyatlaridan va boy shtrixlaridan kelib chiqib, o'zgacha uslubda ijro qilganlar. Jumladan, Rifatilla Qosimov, Shomahmud Shoraxmedov va Ravshan Abduazimov kabi taniqli rubob ijrochilari ham zo'r mahorat bilan tinglovchilarga havola qilgan edilar.

Bugungi ta'lim olayotgan Oliy ta'lim talabalari va maxsus musiqa maktabi o'quvchilari kuy ijro etishda ustoz sozandalarning ijrolarini tinglab o'rganish bilan birgalikda cholg'ularga moslab olingan notalarni ham o'qib chalishni yo'lga qo'yishlari maqsadga muvofiq bo'lar edi. Kelajakda yosh ijrochilarning o'z kasbining yetuk ijrochisi sifatida kamol topishlarida muhim o'rin tutadi.

SAN'ATKORNI TARBIYALASHDA VOKAL FANINING O'RNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada vokal fani tarixi, shakllanishi va rivojlanish jarayoni xususida so'z yuritiladi. Vokal fani o'qitilishining o'ziga xos xususiyatlari turli manbalar asosida atroflicha tahlil va talqin etilgan. Oliy ta'limning vokal ta'limi yo'nalishi talabalari, musiqa san'ati mutaxassislari, pedagoglari uchun mo'ljallangan ushbu maqolada bu fanning nozik qirralari ochib berilib, soha vakillarini yetishtirib beruvchi pedagoglar oldidagi kasb mashaqqatlari va muammolariga ahamiyat qaratilgan.

Kalit so'zlar: vokal musiqa, a'kapella, kantilena, stakkato, legato, fonopedi, vokaliz, fonopediya.

Саодат МУЗАФФАРОВА,
доцент кафедры "Вокал" ГИИКУз,
заслуженный работник культуры Республики Узбекистан

РОЛЬ ПРЕДМЕТА ВОКАЛ В ВОСПИТАНИИ АРТИСТА

Аннотация: В данной статье рассматривается история, становление и развитие вокальной науки. Специфика преподавания вокальной науки была тщательно проанализирована и интерпретирована из различных источников. Эта статья, предназначенная для студентов, вокалистов и преподавателей высших учебных заведений, исследует тонкости предмета и освещает проблемы и проблемы, стоящие перед педагогами в этой области.

Ключевые слова: вокальная музыка, а'капелла, кантилена, стаккато, legato, фонопеди, вокализ, фонопедия.

Saodat MUZAFFAROVA,
Associate professor of the chair "Vocal" of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

THE ROLE OF VOCAL SCIENCE IN THE EDUCATION OF THE AKTYOR

Annotation: This article discusses the history, formation, and development of vocal science. The specifics of teaching vocal science have been extensively analyzed and interpreted from a variety of sources. Designed for students, vocalists, and educators of higher education, this article explores the intricacies of the subject and highlights the challenges and challenges facing educators in the field.

Keywords: vocal music, a'capella, cantilena, staccato, legato, phonopedi, vocaliz, phonopediya.

“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”¹. Albatta, kamolga yetayotgan yosh avlodni davr talabiga javob beradigan komil inson etib tarbiyalash, yuqori malakali mutaxassis sifatida voyaga yetkazish masalasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asl mohiyatini tashkil etadi. Bu o'z navbatida, pedagoglarga, professor-o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatilganidan dalolat beradi.

Ayniqsa, ijodkor kadrlarni tayyorlash nihoyatda murakkab jarayondir. Demak, bo'lajak san'atkorning mavjud iqtidorini, yashirin iste'dodini namoyon etishida yordam berishimiz, ularning dunyoqarashini shakllantirishimiz lozim. Shu o'rinda, boshqa san'at turlari bilan birgalikda vokal san'ati ham alohida o'ringa ega ekanligini qayd etish joizdir. “Vokal musiqasi – kuylash uchun mo'ljallangan musiqa. Unga yakka, ansambl hamda xor tarzida, shuningdek musiqa cholg'ulari jo'rligida yoki umuman jo'rsiz (katta ashula, a'kapella xorlari kabi) ijro etiladigan asarlar kiradi.”² Vokal janri aslida professional san'atni oziqlantirib turadigan hayotbaxsh manba'lardan biridir. Shuning uchun ham vokal janri san'ati yuksak darajaga ko'tarilgan joyda professional san'atkor mutaxassislari ham ko'p yetishib chiqqan bo'ladi. Chunki vokal janri o'zining

eng yaxshi vakillarini professional san'atga uzatib, uning safini boyitib turadi. Vokal janri professional san'atkorlarning sarchashmasi, aniqrog'i, buyuk san'at dargohiga olib o'tadigan o'ziga xos bir ko'prikdir. Vokal janri yillar o'tishi bilan har jihatdan o'sgan va takomillashib borgan. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda ancha rivojlangan.

Ma'lumki, har qanday san'at o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Unga xalq hayoti, voqelikdagi jo'shqin o'zgarishlar, jamiyat rivojidadagi voqealar ta'sir etib, rivojlanishi ta'minlanishiga xizmat qiladi. O'zbek san'atining hozirgi ahvoriga nazar tashlaydigan bo'lsak, vokal janri ham jadal taraqqiy etayotganining shohidi bo'lamiz. “Shu o'rinda “Vokal” so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tsak. “Vokal” so'zining lug'aviy ma'nosi bizda qadimdan mavjud bo'lgan “qo'shiq, ashula”, degan musiqiy atamalarga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra, vokal istilohi tarixiy-ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarning ajralmas bir bo'laki sifatida qadim zamonlardan buyon yashab kelmoqda. O'zbek xalqi madaniy hayotida XIX asrning ikkinchi yarmidan kirib kelib, san'atning ijrochilik janrini ifodalay boshlagan. Vokal – musiqa san'atining o'ziga xos turi bo'lib, eng avvalo, ashula aytish mahoratini yuksak darajada o'zlashtirishga asoslanadi. Ashula aytish yakka holda, ansambl yoki xor jo'rligida ham namoyon bo'lishi mumkin. Muhimi, vokal san'ati hozirgi kunda opera, operetta, musiqali dramalar, komediyalar va estrada konsertlarida ham keng qo'llanib kelinmoqda.³ Vokal san'ati musiqa bilimlarining poydevoridir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki vokal san'ati vositasida bo'lajak aktyor yoki xonandaning estetik va badiiy didi tarbiyalanadi. Badiiy ijrochilik mahorati o'sadi hamda professional uslubda kuylash malakalari shakllanadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan. <http://uza.uz/>. 20.09.2017-yil.

2 O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent: “O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2000-yil, – B. 226.

3 Rahimov E. Vokal. – T.: Barkamol fayz media, 2017. – B. 188.

Yana shuni ham qayd etish joizki, vokal san'ati ashula aytish bilan chegaralanmay, xonandalarga musiqiy ta'lim berish va tarbiyalashning ommaviy turidir. Vokal san'ati so'z bilan bog'liq, bu o'z navbatida, vokal asarlarining aniq tushunish uchun zamin yaratadi. Asarning mazmuni esa she'riy matn va musiqaviy ifoda vositasida ochib beriladi. Musiqaviy ifoda uning g'oyaviy emotsional ahamiyatini oshirishda muhim omilga aylanadi. Vokal san'ati musiqqa ijrochiligining bir muncha qulay turi. Bu qulaylik insonga in'om etilgan ovoz bilan bog'liqdir.

Shuning uchun ham har bir professor-o'qituvchi sabr-toqat bilan talabada o'zining qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi kerak. Shunda talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab, o'zlashtirishga o'rganib boradi. "Talaba kuylash jarayonida mashqni formal tarzda qaytarmasdan, balki ongli va ijodiy tarzda his etib kuylashga yondoshishi shart. Bu uchun har bir mashqni talabaga kuylashni tavsiya etishda uni nafaqat kuylab ko'rsatish, balki uning asosiy maqsadini mufassal tushuntirib berish lozim. Shunda talaba ongli ravishda ovozi to'g'ri yo'naltiradi hamda fonetik va texnik qiyinchiliklarni oson yengib o'tadi. Eng avvalo, ovozni erkin va to'liq chiqishini diapazonning o'rta qismida yangratishga erishish lozim. Shundan so'ng diapazonning yuqori tovushlarini kuylashga o'tish mumkin"⁴.

Qolaversa, jahon klassik adabiyoti va tarixini, jahon klassik musiqasini bilmay turib, yaxshi aktyor yoki xonanda bo'lish mumkin emas. Shunday asarlar mavjudki, ular o'zining zalvori, yuksak qiymati bilan xalq qalbidan joy olib, vaqt sinovlaridan oshib o'tib boraveradi. Vokal o'qituvchisi talabalarga biror asarni o'rgatishidan oldin uning muallifi, asar qachon yaratilganligi va kimga, qaysi mavzuga bag'ishlanganligi xususida so'zlab, uning tarbiyaviy ahamiyatini ham tushuntirishi kerak. Qo'shiq muallifi bo'lgan bastakor va shoir haqidagi hikoya esa talabalarning ijro qilinayotgan asar haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytiradi.

Shu bois I.Bax, G.Gendel, A.Skarlatti, J.Kachchini, V.Motsart, M.Glinka, A.Balakirev, P.Chaykovskiy, M.Mate, L.Pavarotti, M.Kallas, A.Bochelli, L.Fabian, M.Magomayev, A.Gradskiy, N.Baskov kabi dunyo san'ati cho'qqilarini zabt etgan bir qator bastakorlar, kompozitorlar, xonandalarning asarlari, mahorat sirlari, ijro uslublari muntazam ravishda, chuqur o'rgatilishi kerak. Asarlar original, ya'ni italyan, ingliz, rus, nemis tillarida ijro etilishi zarur. Shu yo'sinda talabada ushbu tillarga ham qiziqish uyg'onadi.

"Vokal mashqlari estrada xonandasi tarbiyasida muhim o'rin tutadi, binobarin, u talabaning vokal-texnik ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlanishida katta rol o'ynaydi"⁵. Ahamiyatlisi, vokal ijrochiligi odamlarda chuqur estetik zavq uyg'otibgina qolmay, insoniy va ma'naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga yordam beradi. Vokal janri xonandalik jozibasini bilan hayratga soluvchi o'ziga xos san'atdir. U insonning eng yaxshi his tuyg'ularini uyg'otib, hayajonlantirish, qiziqirish xususiyatiga ega, shu sababdan vokal ijrochilari bilan bir qatorda tinglovchilarning ham badiiy-g'oyaviy tarbiyalanishidagi roli juda katta. Shu bois yosh ijodkorlardan uni qunt bilan o'rganish talab etiladi.

Vokal ta'limining boshlang'ich davrida ovoz sozlash uchun mashqlar, vokalizlar va ular ustida ishlash jarayoni muhim o'rin egallaydi. Ular talabalarga kuylanayotgan musiqa tom ma'noda katta kuchga ega ekanligi tushuntirishi lozim. Har bir mashqning o'ziga yarasha maqsad va vazifasi bor, unda nafasni to'g'ri yo'lga qo'yish bilan birgalikda kantilena, stakatto, legato va texnik mashqlar bajariladi. Vokal musiqasini o'qitishda yomon qo'shiq aytishdan tashvishlanadigan, sarosimaga tushadigan talabalar ham uchraydi.

Ular baland notalarni kuylagandan so'ng, o'zlarini nazorat qilish uchun juda asabiylashadi va nihoyat ular yaxshi kuylay olmaydilar. "Talabalarga vokal darsi jarayonida ta'lim va tarbiya berish, ularni dunyo standartlariga javob beradigan chuqur bilimli, yuqori malakali mutaxassis qilib tayyorlash, badiiy jihatdan rivojlantirish, ularga vokal texnikasini, uning sirlarini o'rgatishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan darslari jarayonida talabalarning nafaqat vokal ijrochilik, kuylash malakalarini va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirib boriladi, balki ularning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, badiiy-estetik didini tarbiyalash borasida ham uzluksiz ishlar olib boriladi"⁶. Vokal o'qituvchisi o'z ishida talabalarda musiqani sezish, ritm tuyg'usi va musiqqa xotiralarini o'stirishga alohida e'tibor berishi kerak. Talabalarni ovozi to'g'ri qo'yish o'qituvchi uchun nihoyatda muhim, ayni paytda eng murakkab ustozlik vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ham o'quv dargohlaridagi o'tilayotgan vokal ijrochiligi fanining zimmasida turgan vazifalar nihoyatda muhim mas'uliyatdir.

Bu vazifani ado etishda barcha imkoniyatlar va vositalarni ishga solish, yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanish, dars o'tishning yangi usullarini izlab topish va uning samaradorligiga erishish talab etiladi. "Ovozni qo'yish bu talabani professional kuylashga o'rgatish demakdir. Bu jarayonda ovoz apparati, diapazon, jarang kuchi hamda birqator badiiy vositalar ustida tinmay ish yuritilishi zarur. Vokal o'qituvchilari yigit va qizlarning ovoz imkoniyatlari haqida mukammal bilimga ega bo'lishlari shart. Talabada xonandalik ovozi tarbiyalashda bir qator metodik qo'llanmalarga amal qilish kerak. Ularga vokal kuylash ko'nikmalarini o'zlashtirishda avval ovoz apparati tuzilishi haqida tushuncha berib o'tish juda muhimdir"⁷.

Vokal o'qituvchisi barcha o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan umumiy pedagogik fazilatlaridan tashqari, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Xususan:

– har bir talabaning individualligini hisobga olgan holda ovozni rivojlantiruvchi metodologiyani ishlab chiqish, yagona to'g'ri rejim va o'quv mashqlarini tashkil qilish;

– o'quvchilar bilan yaqin aloqa o'rnatish va uni uzoq vaqt saqlab turish. Faqat bu munosabatlar to'liq ishonchga asoslangan bo'lishi;

– fonopedi va fonopediya ilmidan boxabarlik bo'lg'usi xonanda holatidagi bemavrid va nojo'ya o'zgarishlarni vaqtida aniqlash va mutaxassisga vaqtida murojaat qilishga yordam beradi.

– yaxshi eshitish qobiliyatiga ega bo'lish ovozlarni to'g'ri yetkazib berish va qabul qilish sifatleri bo'lmasa, vokal pedagogikasi bilan shug'ullanish imkonsiz.

Ovozni bosqichma-bosqich rivojlantirish qoidasiga rioya qilish ovoz rivojlanishi to'g'ri bo'lishi uchun juda muhimdir. Har bir narsada bosqichma-bosqichlikka qat'iy rioya qilish kerak:

- ovoz dinamikasida – pianodan fortegacha;
- texnikada – oddiy mashqlardan murakkabgacha;
- ohang oralig'ida – o'rta qo'shiq aytishdan asta-sekin diapazon kengayishigacha;
- temp bo'yicha – sekin qo'shiq aytishdan eng tezgacha.⁸

⁴ Amanullayeva D. Estrada xonandaligi. – Toshkent: "Musiqqa", 2015. – B. 304.

⁵ Ko'rsatilgan asar.

⁶ Malikova D. Vokal. – T.: "Lesson press" nashriyoti, 2019. – B. 5.

⁷ Ko'rsatilgan asar.

Vokal musiqasini o'qitishning axborotlashtirish jarayoni ijobiy amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki rasmlar, videolar va boshqa texnik vositalar yordamida bilimlarning strukturaviy doirasi ko'rsatiladi, narsalarning rivojlanish jarayonidagi qoidalar o'quvchilarga tushuncha va usullarni tushunishga yordam berish uchun sxemalar shaklida tahlil qilinadi va taqqoslanadi. Vokal sir-asrorlarini chuqur o'rganishi, yuqori professional uslubda kuylay olishi uchun talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi dardor. Jumladan:

- nafasni qovurg'aning pastiga, qoringa olish, shovqinsiz nafas olish va uni tejamli sarflash;

- barcha registrlarda yuqori holatda ovoz hosil qilib kuylay olish;

- sof va toza kuylash;

- so'zlarni aniq talaffuz qilib, unli tovushlarni cho'zib, ravon ovoz hosil qilish, so'zlarni orfoepiya qoidalariga muvofiq talaffuz qilib kuylash;

- kuylashda ovoz dinamikasini hosil qilib, musiqa asarlari jumllarini badiiy ijro etishda undan unumli foydalana bilish.

“Talabada xonandalik jarangdorligini to'g'ri tashkil etish haqidagi tasavvurni ishlab chiqish zarur. Ta'lim doimo musiqa materiallari mashq, vokal va badiiy asarlar asosida olib boriladi. To'g'ri tanlangan musiqiy manba tovushni tarbiyalaydi. Mashq – bu bilim olishning asosiy vositasi. Ularni qo'llash talabalar tovushida uchraydigan va tuzatishni talab etadigan kamchiliklarni yo'qotish vositasi bo'lib xizmat qilishi kerak. Ovozga sayqal berish mashqlari – mashqdan badiiy asarlarga o'tish uchun foydali manba hisoblanadi”. Talabalar haqiqiy his-tuyg'ular holatiga kirishsa, ular silliq nafas olishga erishish uchun tananing faol hamkorligini faollashtiradi. Tana qo'shiq aytishda to'g'ri ishtirok etadi va tovush va ovoznig ta'siriga erishadi. Boshqa tomondan, talabalar qo'shiq matnini ovoz chiqarib, mehr bilan o'qishlari mumkin. Vokal mashg'ulotlarida talaba o'rganib olgan har bir qo'shiq uning ma'naviy olamini boyitib, vatanga bo'lgan mehrini oshiradi. Qo'shiqning matni ijrochiga tushunarli va zavqli bo'lgan taqdiridagina talaba uni tezda yodlab, musiqasini ham o'zlashtirib oladi, nozik tomonlarini yengil ilg'aydi, sehrini sezadi. Shundan so'ng uni sevib ijro qilishga

kirishadi va boshqalarni ham zavqlantira oladi. Mashg'ulotga qatnashayotgan har bir talaba ona Vatan haqidagi yangi qo'shiqni o'rganishi bilan uning Vatan haqidagi tushunchalari yanada kengayib, tasavvuri boyiydi. Unga o'rgatiladigan asar har jihatdan sayqal topgan, g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk va yoshiga munosib bo'lishi kerak. Bu esa talaba iste'dodining to'g'ri yo'lga tushib olishini ta'minlaydi. Vokal mashg'ulotlarida talabalarning san'at sohasidagi tushunchasi yanada kengayib, iste'dod kurtaklarining gul ochish jarayoni tezlashishi joiz.

Vokal janri bo'yicha munosib kadrlar yetishib chiqib, o'zbek san'ati dovrug'ini jahonga taratishi uchun vokal fani o'quvchilari estetik, g'oyaviy-badiiy tarbiyasining muvaffaqiyat bilan amalga oshirishlari lozim. Ana shunday sa'y-harakatlar natijasida har jihatdan yetuk, barkamol, ta'bi nozik, go'zallikning qadriga yetadigan estetik didi yuqori bo'lgan mutaxassislar shakllanadi. Buning oqibatida vokal janri bo'yicha muvaffaqiyatlarimiz tahsinga sazovor bo'lib boraveradi. Yangi janrlarda juda ko'plab asarlar vujudga kelib, san'atimiz yanada yuqori bosqichga ko'tarilishda davom etaveradi.

Eng muhimi, vokal fanining mashg'ulotlari ham boshqa mashg'ulotlar singari vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qilishi, bu narsa vokal ijrochiligi ishining asosiy o'zagi hamda mohiyatini tashkil qilishi lozim. Shu sababli vokal o'qituvchisi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklanadi, undan talabalarning taqdiriga qayg'urish, unga befarq qaramaslik talab etiladi. San'at va madaniyat sohalarida ta'lim olayotgan talabalarni ona-Vatan va xalqimizga mehru muhabbat, sadoqat ruhida tayyorlashda, ularning qardosh xalqlarga nisbatan do'stlik va birodarlik tuyg'ularini kuchaytirishda vokal ijrochiligi fani muhim rol o'ynashi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kelajak avlodni Yangi O'zbekistonga munosib tarzda ham ma'nan, ham jismonan sog'lom, baquvvat, o'z sohasi va kasbining mohir bilimdoni qilib tarbiyalashda eng katta mas'uliyatlardan biri pedagoglar zimmasiga tushadi. Talabalarning estetik tarbiyasi, go'zallikka munosabatlari, ma'naviy yuksalishlari, iste'dodlarning yo'nalishi asosan pedagogning tajribasi, jonkuyarligi va mahoratiga bog'liq va bu o'qituvchilardan yanada o'z ustida ishlashlarini talab qiladi.

⁸ Дудко С. Занятия вокалом - наука радости. Москва. 2013.

⁹ Qahharov N. Vokal asoslari. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2008. – B.

Sevar MALIKOVA,
O‘zDSMI “Vokal” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
Nasiba BAXRITDINOVA,
O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi professori

MUSTAFO BAFOYEVNING “MUHABBATIM OSMONI” (al-Farg‘oniy) operasida xorning dramaturgik ahamiyati

Annotatsiya: *Mustafo Bafoyevning IX asrning ulkan allomasi – astranom va faylasuf-mutafakkir al-Farg‘oniy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “Muhabbatim osmoni” epik-tarixiy operasida xorning dramaturgik ahamiyati, syujet mavzularining rivojlanishidagi o‘rni, muallifning xorni ifodaviy imkoniyatlaridan mahorat bilan fodalanganligi xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *epik-tarixiy, opera, xor, balet, oratoriya, ijod, kompozitor, dramaturgiya, kontrapunkt, imitatsiya, koinot.*

Севар МАЛИКОВА,
доцент кафедры “Вокал” ГИИКУз, кандидат педагогических наук,
Насиба БАХРИТДИНОВА,
профессор Государственной консерватории Узбекистан

Драматургическое значение хора в опере МУСТАФО БАФОВЕВА «МУХАББАТИМ ОСМОНИ» («ал-Фергани»)

Аннотация: *В статье изучена и проанализирована музыкально-сценическое произведение «Муhabbatim osmoni», посвященное жизни и деятельности великого мыслителя, астранома и ученого-философа IX века Ал Фергани. Место и драматическое значение хора в развитии сюжета и использование автором с мастерством выразительных возможностей хора в историко-эпическом опере Mustafo Bafoeva.*

Ключевые слова: *историко-эпическое, опера, хор, балет, оратория, драматургия, конtrapunkt, имитация, космос.*

Sevara MALIKOVA,
Associate Professor of “Vocal” UzSIAC, candidate of pedagogical sciences,
Nasiba BAKHRITDINOVA,
Gosudarstvo Uzbekistan

The dramatic meaning of the choir in the opera by MUSTAFO BAFOEV “MUHABBATIM OSMONI” (“al-Fergani”)

Annotation: *The article studies and analyzes the musical and stage work “Muhabbatim Osmoni”, dedicated to the life and work of the great thinker, astranom and scientist-philosopher of the IX th century Al Farhoni. The place and dramatic significance of the choir in the development of the plot and the use of the expressive possibilities of the choir with the skill of the author in the historical and epik opera by Mustafo Bafoev.*

Key words: *historical and epic, opera, xorus, ballet, oratoria, drama, counterpoint, imitation, space.*

Mustafo Bafoyev ijodida xor janri muhim o‘rin tutadi. Kompozitorning turli janrlarda yaratgan deyarli barcha asarlarida xor musiqiy dramaturgiyaning muhim omili hisoblanadi. “G‘azal” syuitasi, “Bahoriya” simfoniyasi, “Zardushtiyalar marosimlari” balet oratoriyasi, “Lison ut-tayr” balet-feyerasi kabi asarlarida xorning o‘ziga xos tomonlarini kompozitor yoritib berishga intiladi. Uning qalamiga mansub oltita oratoriyasini zamonaviy xor usullarining o‘ziga xos qomusi, xor san‘atining o‘ziga xos maktabi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu haqida S.Rasuli-Isroilova o‘z tadqiqotlarida: “Xor janriga” bunday sodiqlik, ko‘p ovozli vokal ijodiyotida yangilikka, izlanishga intilish, shuningdek, respublikada xor janri va ayniqsa, a‘capella xorining yashovchanligi va keyingi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, jamoatchilikning gumon (shubha)lari, milliy haddan oshishlarga ijodi bilan qarshi tura olishi va fuqorolik jasorati M.Bafoyev ijodiga xos ajoyib xususiyatlardan biridir”¹ – deganida albatta haqli edi.

M.Bafoyevning xorga murojaat etishi bejiz emas. Kompozitor ijodida chuqur va kuchli hissiyotlar, yuksak ma‘naviy fikrlar xor orqali tomoshabinga yetkazib beriladi. M.Bafoyevni inson ovozdagi tembr bo‘yoqlarning boyligi, ta‘sirchanligi, xor kuylashining ommaviyligi, keng tinglovchilarga qaratilganligi, unga xos bo‘lgan samimiylik va iliqlik o‘ziga tortadi. U o‘zining asosiy vazifasini tinglovchilarda aniq va ma‘lum fikrlarni uyg‘otishda ko‘radi. Shu sababdan ham M.Bafoyev matn so‘zlariga, fikrlar aniqligiga katta e‘tibor beradi.

Kompozitor “Muhabbatim osmoni” operasida xor syujetlarning dramaturgik ahamiyatini yanada chuqur ochib beradi. Operalarda xor xilma-xil dramaturgik vazifalarni bajarib, dramaturgik omilni jo‘shqinlashtiruvchi, shuningdek, voqelikni chetga surib, tomoshabin-tinglovchining diqqatini qandaydir boshqa olamga qaratuvchi (yo‘naltiruvchi) va tabiiyki, asarning g‘oyaviy mazmunini umumlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xor sahnalari xalqni, turli ijtimoiy guruhlarini ifodalash, voqealar kechayotgan milliy turmush (holati)ni tasvirlash, davr, muhimi aks ettirish, shuningdek, qahramonlarning shaxsiy fojealarini ajratish va ta‘kidlash vositasi hisoblanadi. Dramaturgik vazifalardan kelib chiqqan holda M.Bafoyev o‘z operalaridagi xorlarda turli xor fakturalarini qo‘llaydi, ularning eng asosiyarlari quyidagilardir:

– operaning epik tarixiy tomonini bo‘rttiruvchi, shuningdek marosim xususiyatiga ega bo‘lgan unison xorlar (ko‘proq erkaklar xori);

– har bir ovoznining kuchchanligiga asoslangan akkord tuzilishidagi xorlar ko‘p mavzuli bo‘lib, ko‘pincha xalqning turmush va marosimlarini yorqin ko‘rsatadi, odatda voqealarni sharhlash vazifasini o‘z zimmasiga oladi;

– odatda, dramatik voqealarda faol ishtirok etuvchi, yakka va ansambl epizodlar tarkibida asosan yuqori ovozdagi kuylarni o‘zgartirmay saqlab qolgan polifonik tuzilishdagi variatsion xorlar;

– tinglovchida zo‘r taassurot tug‘diradigan, yaqinlashayotgan xavf-xatar, dahshatdan dong qotib qolish yoki uni his etish holatini yuzaga keltiradigan biror bir kuy yoki usullarni ko‘p marotaba takrorlanishiga qurilgan xor-ostinatolar.

Shunday qilib, M.Bafoyev operalarida xorlar alohida tugallangan nomerlar shuningdek, operaning murakkab “solo” va ansambl shakllaridagi epizodlar sifatida ham namoyon bo‘ladi.

¹ Расули – Исраилова С. Стилистические тенденции развития узбекской хоровой музыки 70-90-х годов XX века. – Ташкент: 2003. – С.61.

Xorlar yordamida kompozitor operaning syujet mavzulari dramatik rivojlanishini kuchaytiradi. Kompozitor xorning ifodaviy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanadi. Xususan, xor partiyalarining tembr va dinimik keskinligini oshiruvchi replika, chaqiriqlarni, vokalizatsiya va nutqdosh ritmga asoslangan ohang xor deklamatsiyasi, sahna ortida kuylash, yangi tembr xususiyatlarini yaratish maqsadida xor ovozi magnitafon tasmasiga yozib sintezatorlar yordamida qayta ishlash, tovush, shovqin, rang, yorug'lik, teatr harakatlarini o'z ichiga olgan multisensor jarayonlarni keng qo'llashga intiladi.

M.Bafoyev doimo opera san'atida yangi yo'llarni izlaydi va bunda xor asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Kompozitor aytganidek, "rasmii ideologiya singdirgan fikrlash qoliplaridan ozod bo'lish tufayli qadriyatlarini baholash o'zgardi, dunyoga, muhim ma'naviy madaniyat hodisalariga kengroq nazar tashlash(qarash) imkoniyatlari yuzaga keldi".² Bu estetik dastur kompozitor ijodining umumiy yo'nalishi bo'lishi bilan birga xorga va uning operalaridagi xor talqiniga ham taalluqli. M.Bafoyev opera rivojini jo'shqinlantiruvchi xor dramaturgiyasida xilma-xil usullarni qo'llaydi:

– *syujet rivojini faollashtiruvchi xor epizodlarini kiritish va ko'p shaklli ansambl-xor kompozitsiyalarini qo'llash;*

– *jo'shqin xor replikalari va tovushli xor effektlaridan foydalanish;*

– *opera voqeligida muhim omil bo'lib xizmat qiladigan lirik xorlar, konfliktli xor harakatlar, fonli xor, xor-exo(aks-sado) va yarim nutqdosh xorlarda mujassamlashgan serqirra va his-tuyg'uga asoslangan xor dramaturgiyasi.*

"Muhabbatim osmoni" IX asrning ulkan allomasi – astranom va faylasuf-mutafakkir Ahmad al-Farg'oni hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan muhim musiqiy sahna asaridir. Operada haqiqatni izlash, olamni yaratilish qonunlarini falsafiy anglash, insonning mavjudligi mohiyati, shaxsning ruhiy mukammalligi masalalari ilgari suriladi. Asar mazmunining dolzarbligi va zamonamizning insonparvarlik g'oyalari bilan hamohangligi, balki shundandir. Operaning falsafiy konsepsiyasi asarning dramaturgiyasiga o'ziga xoslik baxsh etgan va asarda muhim dramaturgik vazifani bajaruvchi xorga alohida ahamiyat berilgan. Uch ko'rinish va besh lavhadan tuzilgan operada yakka ijro etiladigan opera shakllari deyarli yo'q. Uncha katta bo'lmagan ariyalar keng va xilma-xil qo'llanilgan ansambl va xor shakllari musiqiy sahna voqeligining umumiy oqimiga hamohang va unga tabiiy qo'shilib ketadi.

Operaning musiqiy dramaturgiyasi shunday tuzilganki, undagi barcha syujet hamda kompozitsiya chiziqlari bosh qahramon Ahmad al-Farg'oniya borib taqaladi. Uning obrazi keng tarixiy muhitda, uni o'rab olgan sharoitning o'zaro munosabatlari va o'zaro ta'sirlarida ko'rsatilgan. U nafaqat ulkan olim va mutafakkir, balki ruhiy iztiroblar va lirik hissiyotlarga ega inson hamdir. Qahramon va uni o'rab olgan muhitni tasvirlashda kompozitor turli musiqiy ifodaviy vositalarni, eng avvalo, kelib chiqishi o'zbek vokal lirikasi bilan bog'liq bo'lgan kuylar, rechatativ, deklamatsiya kabi boy shakllarni jalb etadi. Opera musiqasida o'zbek tinglovchilariga yaqin bo'lgan xalq va milliy mumtoz musiqa (jumladan, maqom) ohanglari ehtiyotkorlik bilan qayta ishlangan. "Muhabbatim osmoni" operasida xor sahnalarida o'z aksini topgan intonatsion dramaturgiya xususiyatlari muhim o'rin tutadi. Asarda ansambl va xor sahnalarida keng rivojlantirilgan rechatativ-deklamatsiya va arioz shakllari yetakchi o'rin egallaydi. Sahnalar musiqasi syujet holatlaridan kelib chiqib muayyan ohang majmualar rivojlanishi asosiga qurilgan.

M.Bafoyev asarda o'zbekona ohangdan tashqari ozarbayjon, eron, tojik xalq musiqasi usullari, ohang-kuylari, zamonaviy estrada kuy va ritmlari, marsh, xoral, vals, psalmodyaning janr qoliplaridan juda keng va xilma-xil ko'rinishlarda foydalanadi.

Markaziy Osiyo xalqlari folklori, zamonaviy ifoda vositalari bilan boyitilgan og'zaki an'anadagi kasbiy musiqani ijodiy qo'llash operaga betakror o'ziga xos kolorit baxsh etgan. M.Bafoyev foydalanayotgan namunalarning milliy xususiyatini katta badiiy did bilan chuqur his etish orqali sharq kuy-ohanglari, lad-intonatsiya birikmalari va ritmik tuzilmalarni tatbiq qiladi.

² Говорят музыканты Узбекистана: двадцат лет спустя... // Музыкальная академия, 2004. №1. – С.71.

O'ta murakkab, keng ko'lamli g'oyaviy falsafiy yo'nalishdagi operaning shakli aniqligi va mutanosibligi bilan ajralib turadi. Mazmunning chuqurligi va serqirraligi uchchala qismda ham o'z aksini topib, monumental kompozitsiyani yaratadi. Uch qismlil tuzilish uning epik xususiyatli dramaturgiyasidan kelib chiqib, variatsiya shakllarini keng tatbiq etilishini yuzaga keltiradi. Bu kabi shakllarning voqeaviy dramaturgik asosi turlicha, ya'ni voqeadan erkin holda yopiq tuzilmalar hosil qiladi, shakllar voqealar bilan qo'shilib ketishi, oddiy band shaklidan to murakkab variatsiya-bandli o'ta rang-barang shakllarni qamrab oladi.

Xor yozuvi ustasi bo'lgan M.Bafoyev, asarda nihoyatda xilma-xil xor sahnalarini namoyish etadi. Ularni barcha ko'rinishlarining voqealar mazmuni va rivoji davomida qo'llab, xor yordamida operaning asosiy syujet chiziqlarini kuchaytiradi. Xalq va koinot kuchlarining obrazlarini ifoda etgan xorlar operada asarning epik qaratilganligi yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Deyarli har bitta sahnada ishtirok etuvchi xorlar mavzu birligini ta'minlaydi. Shuningdek, opera shakllari bilan birgalikda yakka va ansambl ijrolari musiqiy dramaturgik rivojlanishni faollashtiradi.

M.Bafoyev aralash xorlar bilan bir qatorda to'rt ovoqli erkaklar va ayollar divizini qo'llaydi. Xorlarning musiqiy tili yorqin bo'lib, o'zbek xalq ohangi, lad, ritm qurilishiga alohida ahamiyat qaratilganligi sezilib turadi. Kompozitor gamofon-garmonik yozuvni polifoniyaning xilma-xil – kontrapunkt, imitatsiya, jo'rovozli va qarama-qarshi mavzuli turlaridan birgalikda keng foydalanadi.

Operada xor xilma-xil dramaturg vazifalarni bajaradi, ya'ni sodir bo'layotgan hodisalarni izohlovchi sifatida ishtirok etadi, murakkab hayotiy vaziyatlarda qahramonga chin dildan xayrixoh va hamdardlik bildiradi, bevosita hodisalarda ishtirok etuvchi rolda faol qatnashadi, asosiy mazmun to'qnashuvlarini M.Bafoyev opera qahramonlarini izohlashda, ayniqsa, olim va faylasuf al-Farg'oniyni – ichki olamini ochishda uning ichki ovozi kabi jaranglovchi xordan keng foydalanadi. Ifodali monologlari opera davomida xor sahnalariga aylanadi va shuning uchun ham yagona musiqiy manbaga tayanadi. Kompozitor bu obrazni musiqiy ta'riflash uchun murakkab sinkopik ritm, forshlag, triol, yarim ton siljishlari ko'p bo'lgan tafsilotli vokal yozuvidan iborat ifoda vositalari majmuini qo'llaydi. Operada Ahmad al-Farg'oniyni musiqiy obrazini yaratishda kompozitor Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga murojaat qiladi.

Operaning 1-ko'rinishida "Sayyora" xori Farg'oniyni rechatativ-deklamatsiya hususiyatidagi vokal partiyasi bilan uyg'unlashadi. Kichik xor replika va parchalari yakka epizodlariga qo'shilishi operaning jo'shqin epik bichimini kuchaytiradi, astronoming koinot bilan sirli aloqasini ochib berishda katta ahamiyatga egadir.

Operaning 1-ko'rinishidagi xor talqini nihoyatda qiziqarli va o'ziga xosdir. Ushbu sahnada xor osmon yoritqichlari (quyosh, oy, yulduz)ni kuzatayotgan astronom bilan suhbatlashayotgan koinot kuchlarini aks ettiradi. Shuning uchun bu yerda xor ifodalilik va tasviriylik, kolorit yoki fon kabi xilma-xil dramaturgik vazifalarni bajaradi. Bunday xorni sahrli-g'aroyib deb atash mumkin. Chunki bu sahnada u operaning rangdor tovushlar palitrasini kengaytiruvchi unsur sifatida foydalanilgan.

Farg'oniyni kuychan nutqi hamda "A" tovushida kuylayotgan xor vokalizi bilan qo'shilishi aql bovar qilmaydigan ajoyib go'zal maftunkor muhitni yaratadi. Ayniqsa, erkaklar va ayollar ovozlari (soprano, alt hamda tenor, bas) al-Farg'oniyni vokal iboralari bilan navbatma-navbat almashinishi jozibalidir. Keyin xor "O" tovushida kuylaydi va al-Farg'oniya jo'rovov vazifasini bajaradi. Bunda nozik polifonik usullar, kanon shaklidagi imitatsiyalar bilan uning fikrlarining ifodaviyligini kuchaytiradi. Shunday qilib, ushbu sahnada xorlar operaning bosh qahramoni bilan dialogga kirishuvchi hamda fon, tasviriylik vazifasini bajaruvchi sifatida ishtirok etadi.

"Muhabbatim osmoni" operasida xor fakturasi xilma-xildir. Bu avvalo gomofon-garmonik faktura, monodik-unison, taqlidiy, yordamchi ovoz, polifoniya geterefoniyadir. Kompozitor parallel kvarta ovozlari harakati, o'tkir sekunda birikmalarini topqirlik bilan qo'llaydi. O'zbekcha ohang tuzilishi xilma-xil faktura usullarini, eng avvalo, polifonik taqlidiy, yordamchi ovoz, kontrast, ostinatlarni qo'llashda ajoyib va sermahsul yechimlarga kelishga yordam berdi.

Bu jihatdan operada al-Fargʻoniyning al-Xorazmiy, Maʼmun va boshqa qahramonlar bilan ilmiy munozaralari boʻlib oʻtuvchi 2-kartinasini diqqatga sazovor. M.Bafojev bu yerda musiqiy rivojlanishni faollashtiruvchi va joʻshqinlashtiruvchi xor-dialoglar, savol-javob tuzilma, ajoyib xor chaqiriqlarini keng koʻlamda qoʻllaydi. Bu sahnada xorning dramaturgik vazifasi mahalliy kulminatsiyaga olib boruvchi harakat quvvatini oshirishga qaratiladi. Kompozitor ushbu 2-kartinada ayollar va erkaklar dialogida vaznlarni keng qoʻllaydi.

Bu sahnaning avjida al-Fargʻoniy koʻtarinki ruhda vaʼxonlik qilganda xor “U” tovushida joʻr boʻlib, chiroyli fon, shuningdek matni psixologik kuchaytirish va chuqurlashtirishga asoslangan dramaturgik vazifani bajaradi. M.Bafojev bu yerda nozik xor boʻyoqlari, ifodali tembr fakturasini topa olgan 3-kartina al-Fargʻoniy va Sapuraning uchrashuv sahnasi xorning operadagi sevgi-lirik mazmunini chuqurlashtirishga, his-tuygʻular mohiyatini ochib berishga qaratilgan dramaturgik vazifasini taʼkidlash zarur.

Qahramonlarning lirik dialoglariga, sevishtganlarning tuygʻulari birligini xor ohanglari joʻr boʻladi. Shu tariqa kompozitor aniq tanlangan xor vositalarida al-Fargʻoniy bilan Sapuraning nozik va joʻshqin muhabbatlarining lirik tasvirini yaratadi. Bu sahnaning tarovatli maftunkor musiqiy goʻzalligi, oʻta uygʻun boʻyoqlar birligi, mayin jilvali ohanglarning nozik turlari bilan tinglovchini oʻziga rom etadi.

Operaning 4-kartinasida xor janridan juda faol va joʻshqin qoʻllaniladi. Ayniqsa, bu yerda voqealarni jarayoniga singib ketgan va musiqiy sahnalar rivojiga kirib boruvchi erkaklar xori qizgʻin ishtirok etadi. Erkaklar xorining qisqa ohanglari Maʼmunning dramatik ariozosini joʻshqinlantiradi shu bilan birga xorning rehitativ ohangi al-Fargʻoniyning falsafiy-meditativ koʻlamli ariyasini izohlaydi. Tenor va bas ohanglari esa keng koʻlamli Maʼmun va al-Fargʻoniy dialogiga hamohang singib ketadi.

Ushbu dialoglarga javoban erkaklar xori nihoyatda oʻzgaruvchan va faoldir, bu yerda minimalistik yozuv texnikasining qoʻllanilishi badiiy jihatdan oʻzini oqlagan. Bir tomondan turli tushlarga ega boʻlgan emotsional-obraz, boshqa tomondan oʻta sinkopik va nuqtali ritm tuzilmalari yordamida yuksak jadallik va ifoda kuchiga erishilgan. Shunday qilib, puxta ishlangan xor dramaturgiyasi bu sahnada qarama-qarshi ifoda vositalari va obrazlardan tashqari boy hamda nozik boʻyoqlarga, chuqur mazmunga egadir. 4-kartinada xor sahnalari alohida jadal ritmik rivojlanishi bilan ajralib turadi. M.Bafojev turli yuksak kosmik, falsafiy-epik, arxai marosim, maishiy janrlar obrazlarni yaratish uchun keskin ritmik shakllar, sinkopaning moʻlligi, oʻzgaruvchan vaznlarni mahorat bilan qoʻllaydi. Erkaklar xoridan tashqari, kompozitor ayollar xori va aralash xor imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Xor majmuasini goh yaxlit, goh asosiy va joʻrovozga boʻlinadigan bir ovozli xor guruhlarga nozik taqsimlanishi muhim dramaturgik ahamiyatga ega.

Bu kartinada xor dramaturgiyasining muhim usuli sifatida keskin kontrastlik (qarama-qarshilik) qoʻllaniladi. Professor A.Hakimova taʼkidaganidek, “Kontrastlik va solishtirish bilan bogʻliq dramaturgik yechimlarda qarama-qarshi xususiyatlarga ega xilma-xil vositalar ishtirok etadi. Ularni qoʻllash uzuqlik va cheksizlik, kuchlanish va zaiflik, oʻsish va turgʻunlikning almashinib kelishi kabi umumiy jarayonlarning qonuniyligini amalga oshirish hisobiga qurilgan”³. 4-kartinada xor xuddi ana shunday talqin qilinadi. Kompozitor bu xor imkoniyatlarini ajoyib aniqlik va rejallilik bilan qoʻllaganligini taʼkidlash zarur. M.Bafojev hech bir yerda faktura-tovush tizimiga ortiqcha vazifa yuklamaydi va shu tufayli har bir unsur, har bir vosita ifodalagan maʼnosi bilan tinglovchiga yetib boradi. Kontrast usuli erkaklar xori bilan ayollar xorini qiyoslashda aniq namoyon boʻladi. Erkaklar xori uchun nutqdosh ohanglar, rehitatsiya ustunligi xos boʻlsa, oquvchan kuy rivojida esa “O” tovushiga asoslangan vokaliz mavjudligi oʻziga xosdir. 1-sahnadagi “Sayyora” xorini qaytarilishi operaning umumiy kompozitsiyasida repriza sifatlarini namoyon etadi. Shu bilan birga ayollar xorining uslubiy unsurlarini singdirayotgan erkaklar xori musiqa tilining oʻzgarishiga, kuy

chizigʻining oquvchanligi va ravonligiga olib keladi. Magnit tasmasiga yozilgan Ibn Sinoning ohangdor ovozi paydo boʻlishi bilan “A” tovushida kuylayotgan erkaklar xori qoʻshiladi, unga al-Fargʻoniy, keyinroq erkaklar xor partiyasidan oʻzlashtirilgan qisqa rehitativ ohangli ayollar xori joʻr boʻladi.

Bunday usul, albatta, sahnalarning umumiy rivojiga joʻshqinlik baxsh etadi, kartinaning soʻnggida yanada joʻshqinlashadigan operaning musiqiy va sahna voqealari toʻqimasini jonlantiradi. 4-kartinaning final qismida kompozitor xor fakturasini polifonik tarzda talqin qiladi. Kanon imitatsiyalari va murakkab kontrapunktlar qoʻllanishi tufayli 4 ovozli xor gʻayritabiiy holda koʻlamli, joʻshqin va faol jaranglaydi. “Sayyora” xorini qaytarilishi tasviriy, maʼnoli bir butun obrazlar zanjirini tugʻdiradi.

Koʻpovozlilik ichidagi qarama-qarshi faktura – funksional birikmalarning nisbati yordamida jaranglash keskinligining yuqori darajasiga erishadi. Har bir ovoz yoʻlining ifodaviyligi, ularning joʻshqinlik xususiyatlari ovozlar orasidagi mantiqiy aloqalar monumental xor asarini, yer va osmon, inson va koinot omillarini birlashtirgan oʻziga xos epik tasvirlarni yaratadi.

Operaning 5-yakunlovchi sahnasida xorning dramaturgik ahamiyati asarning umumlashma mazmunida, hayotbaxsh gʻoyasining qaror topishidan iboratdir. Ushbu sahnada xor dramaturgiyasining asosiy xususiyatlaridan biri ovozlarining oʻzaro zid munosabatlarda boʻlganligidir. Mazkur dramaturgiya erkaklar ovozlaridan boshlab, undan ayollar ovozigacha oʻtish va nihoyat ularni yagona, boʻlinmas koʻp ovozli tovush tabiiyligiga birlashtirgan har xil ovozlardagi tovush quvvati quyuqligi, kuchining keskinligi taqsimlanishiga qurilgan. Bu yerda ovozlarining oʻzaro munosabati kompozitorning kolorit, alohida tovush goʻzalligini izlashining mahsuli sifatida hosil boʻladi va koʻp ovozli sadolarning tus (boʻyoq) sifatleri ilgari suriladi.

Bunga erishishda M.Bafojev qoʻllagan xor unisonlar, vokalizlar, polifoniya usullari yordam beradi, gʻayritabiiy tessitura-birikmalari natijasi sifatida tovush boʻyoqlari tabiiy vujudga keladi. Kompozitor xor partiturasida ovozlar tasvir perspektiva qoidalariga binoan joylashib, mazmunning obrazli mantiqiy rejasiga mos koʻlamli his etish vazifasiga xizmat qiladi, keng hajmli vokal-tovush makonini yaratadi. Yakuniy xor maʼno va jaranglashi jihatidan oʻta insoniydir. U quyosh nurlari bilan yoʻgʻrilishini ulkan hayotiy kuchlarda ifodalanganligi al-Fargʻoniyning buyukligini “do” majorning oq tushlari timsolida tarannum etadi. Xor sadosida yoritilgan Fargʻoniy mavzusi operaning yakuniy sahnasida oʻziga xos madhiya maʼnosini taʼriflaydi.

Shunday qilib, xor yakuniy sahnada xilma-xil dramaturgik vazifalarni bajaradi. Shu jumladan bevosita Ahmad al-Fargʻoniyga baho berishda ham xalqning qahramonga koʻrsatgan hayajonli munosabati orqali uning yuksak axloqiy va maʼnaviy sifatleri taʼkidlanadi. Yakuniy sahnaning majoziy madhiyasi oʻziga xos falsafiy xulosadir. Sayyoralar koʻrinishidagi personajlar al-Fargʻoniyning ilmiy izlanishlarini ijodiy hayotini jonlantiruvchi bilimga intilishining maʼno va ahamiyatini belgilaydi.

M.Bafojev tovushlarning ichki qurilishini, ularning eng nozik xususiyatlarini eshitish ajoyib qobiliyatga ega. Aynan erkin, temperatsiyaga asoslanmagan inson ovozi oʻziga xosligi unga koʻz ilgʻamas tembr kengliklarini oʻzlashtirish imkonini beradi. Kompozitor tovush koʻlamini oshirish hisobiga tovushning ichki imkoniyatlarini, operaning xor partiyalaridagi koʻplab vokalizlarda koʻrsatadi. Operani yakunlovchi “do” major uch tovushlilik koinot ummonining turgʻunligi va qoʻzgʻalmasligi, uning abadiyligi va cheksizligining timsolidir.

Shunday qilib, “Muhabbatim osmoni” operasida xorning dramaturgik ahamiyati nihoyatda xilma-xildir. Beshinchi kartinadagi barcha sahna voqealarida xor bevosita ishtirok etadi. “Muhabbatim osmoni” operasida mantiqning izchilligi mavjud boʻlib, opera tarixiy janrga mansub va unda epik omilning ahamiyati katta. Asarda ijodiy faoliyatining mazmunini zamonasi va koinot bilan aloqasidan izlovchi, oʻzining yerdagi vazifasini anglashda, inson olamining mikro va makro kengliklarini ochishda deb bilgan buyuk ijodkor shaxs, astronom va faylasuf olimni koʻramiz.

M.Bafojevning aynan falsafiy-axloqiy masalalarga murojaat etishi operadagi xor dramaturgiyasi va xor usullari talqinidagi umumiylikni belgalab berdi.

³ Xakimova A. Xor aʼkapella. T.: 1992. – S. 123.

EL SEVGAN BASTAKOR

Annotatsiya: XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek bastakorlik ijodiyoti rivojida namanganlik atoqli san'atkor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Saidxo'ja Xoldorxo'jayevning ham munosib ulushi bor. Ijodkor qalamiga mansub qariyb 400 ga yaqin ashulalarining ilk ijrochilari qatorida "Dilshod" va "Olvalizor gullari" ashula va raqs ansambllarining xonandalari – Vahobjon Abdullayev, Samijon Boltaboyev, Yo'ldoshali Tillaboyev, Tojiali Olimov, Abdurashid Abduvohidov, shuningdek, betakror ovoz sohiblari, O'zbekiston xalq artistlari – Kamoliddin Rahimov va O'rinboy Nuraliyevlar nomini ko'ramiz. Bastakor Saidxo'ja Xoldorxo'jayevning, ayniqsa, "Junun vodiysi", "Ermish", "Ko'ngilni dilrabo tortar", "Topolmasman", "Emasmu?", "Gullola", "Men sevaman, sen sevasanmu?" kabi yalla va ashulalari bugungi kunga qadar xalqimiz orasida ma'lum va mashhurdir.

Kalit so'zlar. ijod, ijodkor, bastakor, sozanda, xonanda, ashula, yalla, raqs, milliy estrada, tarona, ohang, mumtoz navolar.

Насиба ТУРГУНОВА,
доктор философии (PhD) и.о. доцент ГИИКУЗ

ЛЮБИМЫЙ НАРОДОМ БАСТАКОР

Аннотация: Известный наманганский бастакор, заслуженный работник культуры Узбекистана Саидходжа Холдорходжаев внес достойный вклад в развитие национальной традиционной музыки второй половины XX века. Перу бастакора принадлежат около 400 песенных жанров. Среди первых его исполнителей были солисты ансамблей песни и пляски "Дилшод" и "Олвализор гуллари" – Вахобджон Абдуллаев, Самиджон Болтабоев, Юлдашали Тиллабоев, Тоджиали Алимов, Абдурашид Абдувахидов, а также народные артисты Узбекистана – Камолитдин Рахимов и Уринбой Нуралиев. По сей день популярны его песни и ялла, такие как «Жунун водийси», «Эрмиш», «Кўнгилни дилрабо тортар», «Тополмасман», «Эмасму?», «Гуллола», «Мен севаман, сен севаанму?».

Ключевые слова. творчество, бастакор, музыкант, певец, песня, ялла, танец, национальная эстрада, мелодия, классические мелодии.

Nasiba TURGUNOVA,
PhD, acting dotsent, USIAC

BELOVED BY THE PEOPLE BASTAKOR

Annotation: The well-known Namangan bастakor, Honored Worker of Culture of Uzbekistan Saidkhoja Kholdorkhojayev made a worthy contribution to the development of national traditional music of the second half of the 20th century. About 400 song genres belong to peru. Among its first performers were the soloists of the "Dilshod" and "Olvalizor gullari" song and dance ensembles - Vakhobjon Abdullayev, Samijon Boltaboyev, Yuldashali Tillaboyev, Tojiali Alimov, Abdurashid Abduvakhidov, as well as the People's artists of Uzbekistan - Kamoliddin Rakhimov and Urinboy Nuraliyev. To this day, such songs and yalla, created by the bастakor Saidkhoja Kholdorkhojayev, as "Junun vodiysi", "Ermish", "Ko'ngilni dilrabo tortar", "Topolmasman", "Emasmu?", "Gullola", "Men sevaman, sen sevasanmu?".

Keywords. creativ, creator, bастakor, musician, singer, song, yalla, dance, national stage, melody, classical melodies.

Atoqli bастakor, mohir sozanda, hofiz, sozgar usta va iste'dodli shoir Saidxo'ja Xoldorxo'jayev 1934-yil 1-mart kuni Namangan viloyati hududidagi Xo'ja qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topgan. Padari buzrukvorlari Xoldorxo'ja ota Mashrab, Huvaydo, Mirzo Bedil kabi shoirlarning g'azallarini kuyga solib, yoqimli ovozi bilan hirgoyi qilib turgan. Shu bilan birga, qishloqda bo'ladigan to'y marosimlari, Navro'z va hosil bayramlarida xalq termalari va aytishuv-laparlarini ijro etib, tinglovchilarning olqishlariga ham sazovor bo'lgan edi.

Xoldorxo'ja ota Nusratxon aya bilan besh farzandni (ikki qiz, uch o'g'il) tarbiyalab, voyaga yetkazishgan. Farzandlari orasida Ahror qori va Saidxo'janing san'atga mehri juda erta uyg'onadi. Namangan tumanidagi 13-o'rta maktabida boshlang'ich ta'limni olgan aka-uka 4-sinfdan boshlab shu maktab huzuridagi musiqa to'garagiga birgalikda qatnaydilar.

Saidxo'ja Xoldorxo'jayevning bolalik chog'lari ikkinchi jahon urushi davriga to'g'ri keldi. Urush qishloqdan juda olisda bo'lsa-da, lekin uning jabru sitami bu yerda ham sezilib turardi. Bir necha qishloqdoshlariga "qora xat" kelganini, bu esa motam, ayriqlik belgisi ekanligini yillar o'tganidan so'ng tushungan edi. Urush yillari bo'lishiga qaramay, taniqli hofizlar va san'atkorlar mehnatkashlarga ko'tarinki ruh baxshida etish maqsadida qishloqlarga tashrif buyurib, konsert uyushtirar edilar. "1944-yili Tepaqo'rg'on qishlog'idagi Qizil bayroq kolxoziga mashhur hofizlar Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqov tashrif buyurib, konsert berdilar. Konsertdan so'ng hofizlar va bir guruh faollarga dasturxon yozildi, ana shu yerga kolxoz raisi men va akamni chorlab, shu davrada juda ko'p ijro etiladigan Chustiy she'ri bilan "O'g'ling kelur" ashulasini ijro etishimizni so'radi. Xonishimiz hofizlarga ta'sir qildi-mi, Jo'raxon va Ma'murjon akalar davrada

hozir bo'lganlarning oldida "kelajakda bulardan yaxshi san'atkor yetishib chiqadi", deb bizga oq fotiha berdilar, shunda men 10 yosh, akam esa 12 yoshda edi. Nazarimda manashu duo sabab suyukli san'atkor bo'lib yetishdik va 60 yil mobaynida ashula aytib, odamlarning ruhini shod etib keldik",– deb xotirlaydi Saidxo'ja Xoldorxo'jayev.¹

Qahramonimiz 1957-yili yetti yillik maktabni tamomlagach, Namangan Tibbiyot bilim yurtiga o'qishga kiradi. Musiqa bilim yurti Tibbiyot bilim yurtiga yaqin edi. Tanbur, dutor va tor chertishni yaxshi bilgan Saidxo'ja tanbur chalishni yanada chuqurroq egallash maqsadida, Musiqa bilim yurtida faoliyat yuritayotgan yetuk sozanda, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Usta Ro'zimatxon Isaboyevdan tanbur saboqlarini ola boshlagan. Iste'dodli shogird qisqa vaqt ichida ustozidan tanbur ijrochiligining nozik jihatlari amaliy o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi.

1958-yili Saidxo'ja Xoldorxo'jayev Tibbiyot bilim yurtini tamomlab, Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi Damko'l tibbiyot punktida faoliyatini boshlaydi. Ikki yildan so'ng o'zi tug'ilib o'sgan G'alcha qishlog'iga qaytib, tez yordam punktida ishlashni davom ettirarkan, bolaligidan orzu qilgan san'at yo'lini ham takomillashtirishga intiladi. Ba'zan o'z san'ati bilan xalq xizmatida bo'lib, jumladan, aka-uka hamnafaslikda "Nasrulloyi", "Ushshoq", "Bayot", "Dugoh", "Chorghoh" kabi maqom ashula yo'llari hamda xalq ashulalarini mahorat bilan ijro etadilar.

1970-yili To'raqo'rg'on tumani madaniyat uyida "Dilshod"

¹ Turg'unova N. Qo'shiqdan yaralgan bo'ston. – Farg'ona: 2009. – B. 7.

² Erkin Vohidov. Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni... Mumtoz adabiyot. 29.10.2010.

ashula va raqs ansambli tashkil etiladi. Jamoaning badiiy va musiqa rahbarligi Saidxo'ja Xoldorxo'jayevga topshirildi. Akasi Ahror qori, Vahobjon Abdullayev, Samijon Boltaboyev, Yo'ldoshali Tillaboyev, Tojiali Olimov, Abdurashid Abduvohidov kabi elga tanilgan hofizlar bilan hamkorlikda ijodini davom ettirib, davlat tadbirlari va turli yig'inlarda ishtirok etadilar. Saidxo'ja aka rahbarligida ushbu jamoa Bolgariya, Vengriya singari davlatlarda o'zbek xalqining durdona asarlarini tinglovchilarga havola etib, ko'p olqishlarga sazovor bo'ladilar.

1978-yili Namangan tumani madaniyat uyida tumanning mohir sozanda va hofizlari jamlanib, "Olvalizor gullari" ashula va raqs dastasini tashkil etadilar. Bu jamoaga ham Saidxo'ja Xoldorxo'jayev badiiy va musiqa rahbari etib tayinlanadi. Ular respublikamizning turli hududlarida ijodiy safarlarda bo'ladilar. Xususan, Moskva shahridagi XYYUK (Xalq xo'jaligi yutuqlarining ko'rgazmasi)da konsert berib, katta muvaffaqiyat qozonadilar. Shu tariqa Saidxo'ja Xoldorxo'jayevning ijodi ham asta-sekin kamol topa bordi. 1952-yili Mir Alisher Navoiyning "Junun vodiysi" g'azaliga bastalagan mumtoz ashulasi uning ilk ijod mahsuli bo'ldi. Dastlab akasi Ahror qori va ustoz A'zamxon aka bilan jo'rovovlikda tinglovchilarga taqdim etilgan mazkur ashula tezda vodiy bo'ylab taraladi hamda el sevgan san'atkor, atoqli hofiz Rasulqori Mamadaliyev e'tiborini o'ziga tortadi. Shu asosda "Junun vodiysi" Rasulqori Mamadaliyevning betakror talqinida O'zbekiston telerasosida yozib olinib, mamlakat bo'ylab tarala boshlaydi.

Shu o'rinda, "Junun vodiysi" xususida to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq ko'rdik. Avvalo, ashulaga nazmiy asos bo'lgan Hazrat Navoiy g'azali haqida so'z yuritish kerak. Bu haqda O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ta'rif e'tiborlidir: "Bu g'azal dunyoning g'amu anduhidan zardob bo'lgan shoir qalbining afg'onidir. Inson yuragi va tafakkuri haddan ziyod sevinchni ham, g'ammi ham qabul qilolmaslik xususiyatiga ega. Tuyg'ularning ofatli seli kishini telba qiladi. Shoir o'z jonini junun, ya'ni telbalik vodiysiga moyil ko'radi, buzilgan hayoti va ro'zg'ori uni aqldan ozdirgani, ya'ni telbalikni bo'yning olib dashtu sahrolar kezishdan o'zga iloji qolmaganini va telbalik – buzish, vayron qilish ekan, demak buzilgan hayotini bir yo'la vayron qilmoq tilagini faryod bilan ifsho qiladi".²


Shoir qalbida kechgan ohu-zorini g'azalda nechog'lik teran bayon etgan bo'lsa, bastakor Saidxo'ja Xoldorxo'jayev ham g'azal ruhiga monand navo bog'lay olgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni izohlashga urinib ko'ramiz. Ashula Farg'ona-Toshkent musiqa uslubidagi mumtoz aytim yo'llaridan keng qo'llanilib kelinadigan zarbi qadim ("bum-bak") doyra usuliga tayanadi:



Shu usulga hamohang kelgan Hazrat Navoiyning *ramali musammami mahzuf (foilotun-foilotun-foilotun-foilon)* aruz bahridagi to'qqiz baytli g'azalidan yettitasi asosida ashulaning daromad, miyonxat, o'rta va yuqori avjlari hamda tushurim xatlari shakllantirilgan. Ashulaning asosiy kuy yo'li esa dastlab cholg'u muqaddimasi sifatida kelgan ixchamgina kuy tuzilmasi negizida unib-o'sadi:



Ashula davomida tabiiy yuzaga keladigan o'rta va yuqori avjlar daromadning muayyan varianti sifatida hozir bo'ladi. Jumladan, o'rta avjdagi varianti quyidagicha ko'rinishga ega:



Shu asosda ushbu ashulaning "e-eoliy" ladi ham shakllanib, kuy ohangi birinchi oktava "e" pardasidan ikkinchi oktava "a" tovushiga qadar bosqichma-bosqich yuksalib boradi.



Ushbu avj tuzilmasiga ulanib keluvchi yuqori avj (6-7 xatlar) da ("Ne tong boshim olib ketsam qo'yib yoru diyorimni, Yomon xoling'a bag'ri og'rig'ay har kimsakim ko'rgay") kuy ohanglari ikkinchi oktavadagi "a" tovushiga qadar rivojlanadi. Ashulaning eng yuqori nuqtasiga erishilgach, kuyning umumiy yo'nalish jarayoni sekin astalik bilan "bosqichma-bosqich" tarzda yuqoridan pastga tomon harakatlanib boshlaydi. Buning natijasida dastlabki daromad tuzilmasiga qaytib, asosiy tayanch bo'lgan "ye"pardasida ashulaga xotima yasaladi.

Endigina 18 bahorni qarshilagan Saidxo'ja Xoldorxo'jayevning ilk ijod mahsuli bo'lmish "Junun vodiysi" ashulasi qisqa vaqt ichida ko'plab hofizu shinavandalar qalbidan o'rin olgan edi.

Benazir bastakor 1953-yili navbatdagi Navoiy g'azali bilan "Ermish" ashulasini yaratadi. Bu ashulani O'zbekiston xalq artisti Kamoliddin Rahimov yuksak mahorat bilan kuylab, tinglovchilarning olqishlariga muyassar bo'lgan edi. Shuningdek, 1953-yili Maxtumqulining "Bo'lmas" g'azalini kuyga solib, hamkasbi Ibrohim Musayev bilan hamnafaslikda ijro etadilar. Bu ashula nafaqat Namanganda, balki qo'shni viloyat san'atkorlari orasida ham keng tarqalishga ulgurgan edi.

1958-yili Saidxo'ja Xoldorxo'jayev Toshkent Tibbiyot institutiga hujjat topshirish uchun Ibrohim Musayev bilan birgalikda Toshkentga keladi. O'sha paytda Komiljon Otaniyozov poytaxtda konsert berayotgan bo'lgan. Ustoz san'atkor shu konsertni quyidagicha eslaydilar: "Biz Komiljon Otaniyozov xonishlariga qiziqqanimiz bois uning konsertiga Ibrohim bilan birga kirdik. Hofiz 4 ta ashuladan keyin Maxtumquli g'azali bilan "Bo'lmas"ni ijro etdi. Men yaratgan "Bo'lmas" ashulasi bilan bu yerda aytilgan ashula ohanglari deyarli bir xil, faqatgina shevada ya'ni so'zlarni ijro qilinishida farq bor edi. Shuningdek, matnning so'nggi bo'g'inlarining cho'zimlari bilan ya'ni "yoqqancha" so'zini Komiljon Otaniyozov "yoqqancha-a-a" qilib, "a" harfini cho'zibroq kuyladi, farqi shunda edi. Bunday o'xshashlikni ko'rib hayron bo'lib qoldim, shunda o'rtog'im Ibrohim menga ajablanib "sen yaratgan "Bo'lmas" bilan bir xil ekan-ku!" – dedi. Ikkovimiz hayratda edik. Ajab buni Komiljon ustoz Xorazmda yaratgan bo'lsa, men Namanganda yaratib ijro etib yurgan edim" – deydi. Hozirda Saidxo'ja Xoldorxo'jayevning ijro yo'li Ahmadjon Dadayev, O'ktam Ahmedov va qator san'atkorlarning ijrosida yanrab kelmoqda.

Zamonga hamnafas ijodkor mumtoz ashulalar yaratish bilan birgalikda, zamonaviy, yoshlarga xos taronalarni ham ijod etishga qo'l uradi. Xususan, Po'lat Mo'min she'ri bilan kuylangan "Men sevaman, sen sevasanmu" yallasi bastakorni xalq orasida yanada mashhur qilgan.

2008-yil bo'lib o'tkan suhbatimiz chog'ida yallaning yaratilishi haqida ustoz bastakor shunday eslagan edi: "1970 yili Namangan tumani G'alcha qishlog'ida "tez yordam"da navbatchi edim. Yordamchim menga gazeta parchasini ko'rsatib, mana bu she'ri bir ko'ring, qo'shiq qilsa bo'ladimi, – dedi. O'qib ko'rsam

mazmunan yaxshi, kuy bastalash mumkin. Shifoxonaga rubob olib borib qo'yg'an edim, qarasam rubobning simlari uzilgan, faqat bitta simi qolgan. Shu bitta simda ertalabgacha qo'shiqni tayyor qildim. Yordamchimga ertalab qo'shiqni kuylab berdim-da, gazeta parchasini ham qaytarib berdim. Navbatchilikni topshirgach, shu kuni Yo'ldoshali Tillaboyev va Samijon Boltaboyevlarga o'rgatdim. Shu tariqa ilk bora ular ijrosida sahna yuzini ko'rdi", – deydi.

1970-yili "Dilshod" ansambli Bolgariya safaridan qaytgach, Toshkentda hisobot konsertini tomoshabinlarga havola etadi. Ushbu konsertda Yo'ldoshali Tillaboyev, Vaxobjon Abdullayev va Samijon Boltaboyevlar yuqoridagi yallani ijro etadilar. Yalla tinglovchilarga manzur bo'ldi. Ularning ijrolari o'z vaqtida gramplastinkaga muhrlangan edi. Qolaversa, O'zbekiston xalq artisti Hayrulla Lutfullayevni ham befarq qoldirmagan.

"Bir kuni qo'shnimiz Muhsin aka uyida tadbir uyushtirib, mehmonlar chaqirtirgan ekan. Suhbat mazmunli o'tsin, degan niyatda mendan uylariga chiqib, bir-ikkita ashula aytib berishimni iltimos qildilar. O'shanda birinchi aytgan qo'shig'im "Men sevaman, sen sevasanmi?" bo'ldi... Mehmonlar orasida Radiokomitimizda faoliyat yuritayotgan O'zbekiston xalq artisti Tuyg'unoy Yunusxo'jayeva ham bor ekanlar. Ular menga O'zbekiston Teleradiokompaniyasiga borib, ushbu qo'shiqni magnit tasmasiga tushirishimni maslahat berdilar. "Men sevaman, sen sevasanmi?" taronasi radiokarnaylardan butun respublikada jaranglay boshladi" – deydi Hayrulla aka.³

1976-yili Hayitboy Azimiy g'azali bilan navbatdagi "Kutarman zor" ashulasini bastaladi. Bu ashula ham K.Rahimov ijrosida ma'lum va mashhur bo'ldi. O'zbekiston xalq artisti Kamoliddin Rahimov ustoz haqida quyidagicha xotirlagan edi: "men Saidxo'ja akaning yaratgan juda ko'p ashularini ijro etib xalqqa tanilganman. Jumladan, "Sevganing rostmi", "Xushro'yginam", "Ko'ngilni dilrabo tortar", "Kutarman zor", "Ermish" kabi asarlari bisotimdagi eng sara va sevib kuylaydigan ashularimdir. Bu ijrolarim respublika radio fondida saqlanadi. 90- yillargacha har yili o'nlab ashula tayyorlar edim, ularni avval Saidxo'ja akaga ijro etib berar edim. U kishining maslahatlarini olgach, ridio va televideniya kuylardim. Ustoz bilan qirq yildan buyon ustoz-shogirdlikda ijodiy hamkorlik qilib kelmoqdaman. Men istar edimki, bugungi kunda san'at eshigini qoqayotgan yoshlar shunday ustozlar bilan muloqot qilib tursalar, ularning maslahatlarini olib tursalar foydadan holi bo'lmas edi".⁴

"1978-yili Andijon teatridan qaytib Namangan viloyati Adisher Navoiy nomli musiqali drama teatrida ishlay boshladim. Bu paytlar Saidxo'ja aka To'raqo'rg'onda "Dilshod" ansambli ishlar edilar. Men ustoz bilan shu yildan boshlab ijodiy hamkorlik qila boshladim. Ulardan xonandalik borasida muhim bo'lmish jihatlarni ya'ni ovozni to'g'ri yo'lga qo'yish sir-asrorlarini o'rgandim. Meni elga tanilishimda va shu darajaga yetishimda ustozning xizmatlari beqiyos. U kishi yoshlarga mehribon, bilganini o'rgatishdan charchamaydigan ajoyib inson. Ularning o'nlab ashularini kuylaganman"⁵ – deydi O'zbekiston xalq artisti O'rinboy Nuraliyev.

O'zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Tojiboyev ustoz san'atkor haqida shunday xotirlagan edi: "ajoyib, betakror ustoz Saidxo'ja akaning asarlari deyarli barcha san'atkorlar tomonidan ijro etilgan, desam mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, Rasulqori Mamadaliyev ham ularning bir necha asarlarini ijro etgan edilar. Men ham ustozning Huvaydo g'azaliga bastalangan "Topolmasman" ashularini kuylaganman.

Saidxo'ja akaning ta'limidan bahramand bo'lgan kenja avlod vakillaridan biri Abduqahhor Jalilov ham bastakorimizni shunday xotiralaydi – "1987 yili Namangan shahrida 34-o'rta maktabda 9-sinfda o'qir edim. Shu yili viloyat miqyosida "San'at g'unchalari"

tanlovi bo'lib o'tdi. Men ham tanlovda ishtirok etdim. Saidxo'ja aka hay'at a'zosi edilar. Bu paytlar men u kishini tanimas edimu, lekin ular haqida ko'p eshitgandim. Tanlov boshlanishidan avval men tayyorgarlik ko'rish maqsadida bir xonaga kirdim. Qarasam ustoz Nodira g'azali bilan kuylangan "Vafo qilmading" ashulasini ijro etayotgan ekanlar. Ashula menga yoqib qoldi. Ustozdan menga shu ashulani o'rgatishlarini so'rganimda, menga bajonidil o'rgatdilar. Menga tanbur chalishni ham o'rgatdilar. Bu borada ilk ustozim desam ham bo'ladi".⁶

Qahramonimiz ijodiy faoliyatining yana bir jihati cholg'ular yasashdir. Aksariyat hollarda o'z kasbining mohiri bo'lgan mashshoqlar vaqti yetib soz yasashga ham urinadilar. Bu ham ijodiy takomillik yo'lidagi izlanishlarning uzviy qismidir. Cholg'u yasagan usta sozning sozandalar bilmagan sirlaridan voqif bo'lishi turgan gap. Shuni aytish kerakki, u soz yasash borasida birovdan ta'lim olgan emas. Bu o'zining mahorati va mashaqqatli izlanishlari natijasidir. Shu tariqa 1952-yili uning yasagan ilk sozi tor cholg'usi bo'ldi. "Mening soz yasash borasida ustozim yo'qdir. Hech bir ustaga shogird bo'lmaganman. Soz yasashga bo'lgan qiziqishim juda kuchli edi. Dastlab tor sozidan andoza olib tor cholg'usini yasaganman. Shu zaylda asta sekin tanbur, dutor, rubob cholg'ularini yasay boshladim", – deydi Saidxo'ja Xoldorxo'jayev.

Bastakorimizning ko'p yillik ijodiga mansub betakror yalla va ashulari asosan lirik, pand-nasihat, sevgi, muhabbat mavzularini qamrab oladi. Bu borada ustoz san'atkor ijrochilik va bastakorlik ijodida o'ziga xos maktab yaratadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Olib borgan tinimsiz izlanishlari natijasida o'zi ham g'azal, sher yozishga, muxammaslar bog'lash darajasiga yetishdi. O'z qalamiga mansub she'r va g'azallarning aksariyatini kuyga solib ijro etdi.

Saidxo'ja Xoldorxo'jayev yaratgan asarlarning aksariyati elga manzur bo'lgan hofizlar tomonidan sevib kuylandi. Xususan, Kamoliddin Rahimov ijrosida "Ko'ngilni dilrabo tortar" va "Kutarman zor", "Ermish", "O'ldirur", "Sevganing rostmi" va "Ko'p intizor qilding", "Unutsang ham unutmaman", "Kel ey dilbar", "Hushro'yginam", Yo'ldoshali Tillaboyev va Samijon Boltaboyevlar ijrosida "Koshkiydi", "Onam", "Gul bozorida", "Gullolamisan", "Sevgi", "Holi xat", "Noz aylasalar"; Yo'ldoshali Tillaboyev va Vahobjon Abdullayev ijrosida "Men sevaman, sen sevasanmi?", O'rinboy Nuraliyev ijrosida "O'rgilay", "Jamoling", "Seni qo'msar dil", "Sog'intirma", "Boqsang qiyo", "Parivash", "Ra'nolanur", "Tonglar jilosi", "Aldama", M.Tojiboyev ijrosida "Topolmasman", O'ktam Ahmedov va Ahmadjon Dadayev ijrosida "Bo'lmas", A.Abduvohidov va O.Alimaxsumov ijrolarida "Emasmu", Abduqahhor Jalilov ijrosida esa "Vafo qilmading" va "G'uboring'a" kabi sara asarlar shular jumlasidandir. Bugungi kun yosh san'atkori Dilmurod Musayev ijrosida esa Navoiy g'aliga bastalangan "Junun vodiysi" ashulasining asl kuy-ohangiga putur yetkazmagan holda zamon ruhiga mos ravishda talqin etilmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, sozgar usta, shoir, mohir sozanda va betakror ovoz sohibi bo'lmish Saidxo'ja Xoldorxo'jayev XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida o'zbek bastakorlik ijodiyotining yuksak cho'qqilarga parvoz etishida mumtoz va zamonaviy musiqiy asarlari bilan munosib hissa qo'shdi. Bugungi kun milliy estrada san'ati rivojida ham bastakorning dilbar taronalari munosib o'rin olayotganligi quvonarlidir. Demak, bastakorimiz yartagan ijod mahsullari zamonlar osha o'z tinglovchilari yuragidan munosib o'rin oladi.

³ Lutfullayev X. Men sevaman sen sevasanmi?. – Teatr. № 1. 2021. – B. 34-35.

⁴ Turg'unova N. Qo'shiqdan yaralgan bo'ston. – Farg'ona: 2009. – B. 21.

⁵ Ko'rsatilgan manba.

⁶ Ko'rsatilgan manba. 23-bet.

DOYRA IJROCHILIGIDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI

Annatsiya: Ko'plab sohalar qatori o'zbek doyra san'atida ham ustoz-shogird an'analari o'ziga xos tarzda shakllangan. Ustozlar shogirdlarini o'z farzandidek tarbiyalab, kamolga yetkazgan. Shogirdlar ham ustozlarga yuksak hurmat ko'rsatib kelishgan. Mazkur maqolada o'zbek doyra ijrochiligida uzoq yillar davomida shakllangan ustoz-shogird an'analari ilmiy asosda o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Ustoz-shogird an'analari, ustoz, doyra, qo'sh qars, zarb, usul, doyra ijrochiligi.

Кудратилла КОБИЛКОРИЕВ,

преподаватель кафедры «Инструментальное исполнительство» ГИПКУЗ

ТРАДИЦИИ УСТАЗ-ШАГИРД В ИГРЕ ДОЙРЫ

Аннотация: В искусстве узбекский дойры традиции устаз-шагирд формируется уникальным образом. Учителя воспитывали своих учеников как собственных детей. Студенты также проявляли к учителям высокое уважение. В этой статье рассматриваются давние традиции педагогической деятельности в искусстве узбекском дойре.

Ключевые слова: Традиции устаз-шагирд, устоз, дойра, куш карс, зарб, ритм, исполнительство дойры.

Qudratilla QOBILQORIYEV,

Teacher of department "Instrumental performance" of UzSIAC

TRADITIONS TEACHER-STUDENT IN THE DOYRA PERFORMANCE

Annotation: In the Uzbek doyra art, the teacher-student tradition in a unique way. Teachers brought up their students as their children. The students also showed high respect for the teachers. This article deals with the long-standing traditions of teacher-student performance in the Uzbek doyra.

Key words: Teacher-student traditions, ustoz, doyra, qo'sh qars, zarb, rhythm, doyra performance.

Musiqiy cholg'ularda ijrochilik mahoratining takomil lashuvida iste'dodli sozandalarning o'rni va tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lum bir cholg'uning ommalashuviga mohir sozandalarning ijodiy faoliyati sabab bo'lganining guvohi bo'lamiz. Boshqa cholg'ulardagi kabi doyra cholg'usining ommalashuvida, ulardagi o'ziga xos ustoz-shogird an'analarning shakllanishida ham mohir ijrochilarning o'rni katta bo'lgan.

XX asrning 20-yillariga kelib, o'zbek doyra san'atida yangi davr boshlanib, o'ziga xos ijrochilik maktabi shakllandi. Bu davrda doyraning yakka ijrochilik yo'nalishi ommalasha boshlagan edi. Ma'lumki, uning rivojida Yusufjon qiziq Shakarjonov va Usta Olim Komilovning o'rni beqiyos. Aynan shu ikki buyuk ustozlar o'zbek doyra san'atiga tamal toshini qo'ydilar.

Xalqimiz Yusufjon qiziq Shakarjonovni askiyachi sifatida yaxshi taniydi. U nafaqat askiyachi, balki mohir va chabdash doyrachi ham bo'lgan. O'z davrida uning nomi o'zga amirlik va xonliklarda mashhur edi.

"Doyra san'atida buyuklikka erishgan O'zbekiston xalq artisti, Mehnat qahramoni Usta Olim Komilov ham Yusufjon qiziqning sevimli shogirdlaridan bo'lgan edi. Yusufjon qiziq doyra usullarining to'qson ikki xilini Usta Olimga o'rgatdi. Rok, duchova, Muhammad Rahimxon usullari hamda o'n uch xil tanovar usullari shular jumlasidandir".

O'zbek doyra ijrochilik maktabi asoschisi, milliy raqs san'atining bilimdoni, shu bilan birgalikda mahoratli pedagog O'zbekiston xalq artisti, Mehnat qahramoni Usta Olim Komilov 1875-yili Marg'ilon shahrida to'quvchi-kosib Komil aka oilasida dunyoga keldi.

U chang, dutor, nog'ora, doira cholg'ularini o'zi yasab edi va ularda ijro qilishni o'zlashtirgandi. Ammo ular orasida doyraga mehr-muhabbati baland edi. Shu bois bo'lsa kerak doyra chalishga ko'p vaqtini ajratib edi. O'sha davrda Marg'ilon o'z san'ati bilan nom qozongan Salom xola Usta Olim haqida eshitib, uni izlab topadi va yordam qo'lini cho'zadi. Bu davr mobaynida Usta Olim Komilov ana shunday shodiyona kunlarda xalq orasida ijro etiluvchi doyra usullarini xotirasiga muhrlab bordi. Keyinchalik o'n ikki yoshida marg'ilonlik mashhur doyrachi Masaid ota Marg'iloniy Usta Olimni shogirdlikka oladi. U 1917-yilga qadar Masaid otadan doyra ijrochilik sinoatlarini chuqur o'rgandi. Bu davrda to'y-hashamlar va ommaviy bayramlar, shodiyona kunlarda ijro etiluvchi va xalq orasida ommalashgan doyra usullarini puxta o'rgandi. Bilim va tajriba jam bo'lib, Usta Olim yetuk san'atkor bo'lib yetishdi.

1926-yildan Muhiddin Qori Yoqubov boshchiligidagi

etnografik truppada sozanda sifatida faoliyat yurita boshladi. Uning nomi butun respublika bo'ylab tanila boshladi.

Shu yillar mobaynida Usta Olim Komilov doyra ijrochiligi va milliy raqslar bo'yicha yangi usullarni ijod qilib, o'zbek doyra san'ati va milliy raqs san'atiga poydevor yaratdi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "Mehnat shuhrati" ordeni, professor Dilmurod Islomovning ustozlaridan eshitgan ma'lumotlariga qaraganda, Usta Olim ota ikki yuzdan ortiq usullarni yodida saqlagan. Ularning yarmi o'z ijodiga mansub.

"Qo'sh qars" doyra usullari buning yorqin misoli sanaladi.

Usta Olim Komilov ijodiy faoliyati davomida bir qancha xorijiy davlatlarda bo'lib, o'zbek doyra san'atini dunyoga tanitdi. Xususan, 1935-yilda Angliya poytaxti London shahrida I Jahon Folklor festivalida o'z san'ati bilan barchani lol qoldirdi. Uning ijrosidan hayratlangan Angliya qirolichasi Mariya Usta Olimning barmoqlaridan gipsga nusxa olib, muzeyga qo'yishni buyuradi. Bu barmoqlar nusxasi hamon muzeyda saqlanadi.

Usta Olim Komilov faoliyati davomida bir qancha o'zbek musiqali drammalardagi raqslarni sahnalashtirishda ham faol xizmat qildi. V. Uspenskiy va G. Mushelning "Farhod va Shirin" hamda R. Glier va Sodiqovning "Gulnora" musiqali dramalari, "Bo'ron", "Buyuk kanal" operalari shular jumlasidandir.

Mana shu sahna asarlaridagi raqslar orkestr jo'rligida emas balki, ikki yoki uch doira jo'rligida ijro etilgan edi.

Ushbu spektakllar XX asrning 30-yillari o'rtasidagi eng yirik musiqali drama asarlardan hisoblangan. Ana shu sahna asarlaridagi raqslar orkestr jo'rligida emas balki, ikki yoki uch doyra jo'rligida ijro etilgan. Ushbu raqslarni sahnalashtirish hamda raqs harakatlariga mos doyra usullarini ijod qilishda Usta Olim Komilovning tajribasi, ustozlari Masaid ota, Yusufjon qiziq Shakarjonovlardan o'rgangan xalq usullarini puxta o'zlashtirgani qo'l keldi.

Ustoz san'atkor XX asrning 30-yillarida xalq orasida ommalashgan doyra usullarini to'plashga e'tibor qaratdi. Ularning ko'p qismi unutila boshlagandi. Usta Olim ularni bolalik chog'larida to'ylardagina eshitgan edi. Unutilayozgan doyra usullarini to'plash, ularni kelajak avlodga yetkazishni maqsad qilgan Usta Olim Komilov o'zining kekxa ustozlari Masaid ota hamda Farg'ona vodiysidagi mashhur Yusufjon qiziqqa murojaat qildi. Natijada juda ko'p xalq usullari jamlandi. Bu usullarning har birining o'z nomi bor. Ana shu boy material asosida "Zang", "Gul o'yin", "Sadr" va boshqa ko'plab raqslar dunyoga keldi. "Pilla", "Tantana" kabi raqs asarlarini ham alohida ta'kidlash joiz.

Taniqli teatrshunos olim Muhsin Qodirov shunday yozadi: “Usta Olim shunchaki sozanda emas, balki o‘z san’atini tag-tomiri bilan, har tomonlama puxta egallagan barkamol ijodkor, haqiqiy ustoz, oliyjanob inson edi. U necha avlod san’atkorlari tomonidan asrlar mobaynida yaratilgan usullar va raqs harakatlari xazinasini ocha olgan, undan yolg‘iz o‘zi emas, butun xalqni bahramand etishga ahd qilib, niyatiga yetgan piri badavlat kishi edi”.

Ustozimiz O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, professor Dilmurod Islomov quyidagicha xotirlaydi: “Ustoz amalga oshirgan xayrli ishlarning ko‘lamiga nazar tashlab hayratlanmay ilojing yo‘q. Masalan, “Doyra darsi”, bugungi kunda doyrachilar orasida “Qo‘sh qars” nomi bilan mashhur asardagi doyra usullarini yig‘ish, ularni jamlab, bir mujassam qilishning o‘ziga qancha vaqt, yuksak mahorat kerak. Mana shu darslikka kirgan usullarning qo‘shiqdori bo‘lgan. Usta bu qo‘shiqdori yoshlarga o‘rgatishda ishtirok etganlar. Raqsularining harakatini raqqos va raqqosalarga ko‘rsatib berganlar, ayrim usullardan yangi raqslar ijro etishda foydalanganlar. Bu harakatlarni eslab qolishning ham o‘zi bo‘lmaydi. Avvallari xonandalar o‘zlari doyra chertib ham qo‘shiq aytganlar. O‘zbekiston xalq artisti G‘anijon Toshmatov aytgan edilarki, Usta Olim ashulalarning matnini yaxshi bilganlar. Hofizlarga doyrada jo‘r bo‘lgan paytlarida xonandalar yangilasha, ularni o‘nglab qo‘yganlar”.

O‘zbekiston xalq artisti, Mehnat qahramoni Usta Olim Komilov 1953-yilning 3-aprelida Toshkentda vafot etdi. Bugungi kunda O‘zbekistondagi barcha doyrachilar uni o‘zlariga ustoz deb biladilar.

Ustoz san’atkor o‘z faoliyati davomida doyra ijrochiligining yangi qirralarini namoyon qildi hamda yakka ijro imkoniyatlarini ochib berdi. Bu esa o‘z navbatida doyra cholg‘usining ommalashuvi, uning barcha san’at shinavandalarini tomonidan sevib tinglanishi, havaskorlarning shu cholg‘uni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi ortishiga sabab bo‘ldi.

Ustozning buyuk xizmatlaridan yana biri shundan iboratki, o‘z ijodiy faoliyati davomida ustozlaridan o‘rgangan, xalq orasida ommalashgan doyra usullarini jamlab, bir tizimga keltirdi. Har bir asar o‘ziga xos nomlangan bo‘lib, ulardagi usullar tabiat hodisalarini, insonning ichki kechinmalarini, his-tuyg‘ularini ifodalaydi.

Usta Olim Komilov yaratgan asarlarni kelajak avlodga yetkazishda uning shogirdlarining hissasi bor, albatta. Ular ustozning boshlagan ishini munosib davom ettirdilar. Faoliyati davomida minglab shogirdlarga doyra ijrochiligidan saboq bergan To‘ychi Inog‘omov Usta Olimning yetuk va unga munosib shogirdlardan bo‘lib, ustozining so‘nggi nafasigacha sodiq shogird bo‘lib qoldi. To‘ychi Inog‘omov faoliyati davomida ustozining nazariy va amaliy ishlarini davom ettirdi. Usta Olim Komilov yaratib ketgan asarlarni og‘zaki hamda amaliy shakllarda boyitdi. Ularni to‘garakdagi yosh doyrachilar uchun moslashtirib, sodda ko‘rinishga keltirdi va ustozning musiqiy merosidan boxabar qildi.

Usta Olim Komilovning suyuqli shogirdlaridan yana biri O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist G‘afur Azimov edi. U ustozidan o‘rgangan doyra usullarini o‘z ijro yo‘lida magnit tasmasiga yozib, ustozning merosini saqlash va o‘rganish yo‘lida munosib hissa qo‘shdi.

Bugungi kunda ustozlar asos solgan doyra ijrochilik maktabini keng targ‘ib qilib, undagi ustoz-shogird an‘analarini munosib davom ettirib kelayotgan, hozirda o‘zi ham ustozlik maqomiga erishgan san’atkor O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professori Dilmurod Islomovdir.

Ustoz san’atkor doyra ijrochiligini yanada ommalashtirish, yoshlarni doyra cholg‘usiga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish

maqsadida ko‘plab xayrli ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar.

1988-yilda ustozning tashabbusi hamda sa‘y-harakatlari natijasida “O‘rta Osiyo doyrachilar uyushmasi” tashkil etildi. 2016-yilda mazkur tashkilot “O‘zbekiston doyrachilari jamoat birlashmasi” nomi bilan Adliya Vazirligidan ro‘yxatdan o‘tdi. Hozirda yurtimizning barcha viloyatlarida mazkur birlashmaning hududiy bo‘linmalari tashkil etilgan. Ushbu tashkilotni tuzishdan ko‘zlangan asosiy maqsad doyra cholg‘usi bilan professional va havaskorlik darajasida shug‘ullanayotgan doyra ijrochilarini, shu sohaga qiziqqan mutaxassislarni birlashtirish, doyra ijrochiligidan saboq berayotgan pedagoglarning ijodiy hamkorligini tashkil etishdir. Shuningdek, doyra san’atidagi o‘ziga xos ustoz-shogird an‘analarini saqlab qolish va kelgusi avlodga yetkazish, joylarda doyra cholg‘usini o‘rganish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda mazkur soha egalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Bundan tashqari, Dilmurod Islomov tomonidan har ikki yilda muntazam ravishda “Zarb” doyrachilar ko‘rik-tanlovi (1991-yildan buyon) hamda Respublika doyrachilar festivali (2016-yildan beri) o‘tkazib kelinmoqda.

Ustoz san’atkor 2014-yildan buyon O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasida talabalariga doyra ijrochiligidan saboq berib kelmoqda. Ular orasida talaba qizlarning ham jalb etilganligi quvonarli hol. Ularning doyra cholg‘usiga bo‘lgan qiziqishi, ushbu cholg‘uning yanada ommalashishiga sabab bo‘lmoqda. Dilmurod Islomov pedagogik faoliyat bilan birgalikda doyra cholg‘usiga oid bir qancha o‘quv adabiyotlarini nashr etdi. Ularda doyra ijrochiligida samarali ijod qilgan ustoz san’atkorlar to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari, ustoz doyrachilar tomonidan ijro etilib, og‘zaki ravishda shogirdlarga yetkazib kelingan yirik asarlar, audio tasmlarga yozib qoldirilgan ijrolarni topib, notaga olib, unutilish arafasida bo‘lgan qadimiy doyra usullarini ta‘lim jarayoniga tadbiiq qilmoqda. Mazkur o‘quv adabiyotlari doyra ijrochilik sirlarini o‘rganayotgan o‘quvchilar hamda talabalar uchun kerakli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Dilmurod Islomovning ustozlariga bo‘lgan hurmati, ehtiromi o‘zgacha. Shu o‘rinda ustozning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tishni lozim deb topdik: “Ustoz ko‘rgan doyrachi, ustoz ko‘rgan san’atkor boshqacha bo‘ladi. Ustozning yonida yurgan, uning xizmatida bo‘lgan shogird salom-alikni, yurish-turish sabog‘ini, so‘zlashish, davra odobi, sahnaga chiqish, u yerda o‘zini tutish madaniyatini o‘rganadi. O‘z sohamizdan kelib chiqib gapirsam, doyrani qanday ushlash-u, qanday ijro qilishdan tortib, uni qanday qoplash-u, qay tarzda qizdirish kabilarni ustozdan o‘rganadi. Bularning barchasi ustoz-shogird an‘anasining bir qismidir”.

Alisher Navoiy hazratlari “Mahbub ul qulub” asarida ustoz-shogird haqida quyidagilarni keltirgan: “Shogird agar shayx ul islom, agar qozidur, agar ustod andin rozidur – Tangri rozidur”.

Darhaqiqat, shogird har qanday martaba va darajaga erishsa ham, ustoz ustozligicha, shogird shogirdligicha qolaveradi. Shogirdning erishgan mavqei ustozining duosi va roziligi sababli bo‘ladi.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, doyra ijrochiligini o‘rganish qadimdan an‘anaviy qonun-qoidalar, ya‘ni “ustoz-shogird” tizimi asosida amalga oshirilgan. Bu an‘analar ajdodlardan-avlodlarga o‘z qiymatini yo‘qotmagan holda saqlanib kelmoqda. Kelajakda ustozlarimiz boshlagan xayrli ishlarni davom ettirib, ularga munosib shogird bo‘lish, bu orqali yillar mobaynida doyra ijrochiligida shakllangan o‘ziga xos ustoz-shogird an‘analarini keyingi avlod vakillariga becam-u ko‘st yetkazish asosiy vazifalarimizdan bo‘lmog‘i lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Islomov D. “Doira san’ati darg‘alari” monografiya. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019-y. – B.150.

Islomov D. “Doira san’ati darg‘alari” monografiya. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019-y. – B.150.

Mahmud L. “Dilmurodning dilqash davralari” – Toshkent: “Istiqlol” nashriyoti, 2000. – B.144.

Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami 14-jild. “Mahbub ul-qulub” O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1998-yil. – B. 315.



III BO' LIM

**SAN'AT TARIXI,
FALSAFA VA
NOMODDIY
MADANIY MEROS**

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI “KOMIL INSON” TUSHUNCHASI

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Inson” tushunchasi tahlil qilingan. Shaxsning shaxsiy xususiyatlari “Inson” konsepsiyasiga kiritilgan mikrokonsepsiyalarni tashkil qiladi. Dostondagi mikro-tushunchalar: qahramonlik, soddalik, birlik, sevgi, saxiylik va boshqalar. Shoir shunday insoniy fazilatlarini dunyoni boshqargan buyuk podshoh Aleksandr timsolida mujassam etgan va mamlakatni boshqarish namunasini ko'rsatgan.

Kalit so'zlar: shaxs, konsept, mikrokonsept, hukmronlik.

Гульбану КОСЫМОВА,
доктор филологических наук, профессор. Казахский национальный педагогический университет имени Абая
Алма-Ата, Казахстан

ПОНЯТИЕ «СОВЕРШЕННЫЙ ЧЕЛОВЕК» В ЭПОСЕ АЛИШЕРА НАВОИ «САДДИ ИСКАНДАРИЙ»

Аннотация. В статье анализируется понятие «Человек» в эпосе Алишера Навои «Александр Македонский». Личностные характеристики человека составляют микропонятие, входящее в понятие «Человек». Микроконцепты в былинке: героизм, простота, единство, любовь, великодушие и другое. Такие человеческие качества поэт воплотил в образе великого царя Александра, правившего миром, и подал пример управления страной.

Ключевые слова: личность, концепт, микроконцепт, доминирование.

Gulbanu KOSYMOVA,
doctor of philological sciences, professor. Kazakh National Pedagogical University named after Abay
Alma-Ata, Kazakhstan

THE CONCEPT OF “PERFECT MAN” IN ALISHER NAVOI'S EPIC “SADDI ISKANDARIY”

Annotation. The article analyzes the concept of “Adam” in Alisher Navoi's epic “Alexander the Great”. Personal characteristics of a person constitute microconcepts included in the concept of “Human”. Micro-concepts in the epic: heroism, simplicity, unity, love, generosity and more. The poet embodied such human qualities in the image of the great king Alexander, who ruled the world, and set an example of governing the country.

Keywords: person, concept, microconcept, dominance.

Dunyoga mashhur tarixiy shaxslarning individualligi uning intellektual va hissiy tomonlarini tushunish, shuningdek, uni vaqt va makon nuqtai nazaridan talqin qilish qobiliyatidan kelib chiqadi. Mutafakkirlar nafaqat real dunyoda, balki ular yaratgan ideal dunyoda ham yashaydi. Har bir davrda, haqiqiy dunyo haqidagi o'ziga xos bilimlar tizimi mavjud. Bu haqiqat haqidagi bilimlar tizimi odamlarning o'ziga xos madaniy, ma'naviy, axloqiy va shaxsiy fazilatlarini bilan bog'liqligini aks ettiradi. Biz “kontent maydonlari tizimi tomonidan tan olingan muhitning ruhiy tabiati, g'oyalari bo'lgan tushunchalar tizimiga asoslangan – turli funksiyalari” degan fikrga qo'shilamiz.

Bunday tushunchalar tizimining boshida “Komil inson” tushunchasi turadi. Chunki odamlarning borliq haqidagi tasavvurlari, madaniy va ma'naviy tushunchalari, ayniqsa, tarixda o'z izini qoldirgan tarixiy shaxslarning tasavvurlari harakat bilan bog'liq. To'liq ishlab chiqilgan “Inson” konsepsiyasi insoniy qadriyatlarini tan olish, saqlash va rivojlantirishga qaratilgan sa'y - harakatlarning tahlilidir. Ommabop g'oyalar “hayot darsligi” ga, insonning shaxsiyati va ongini rivojlantirishga olib keladigan tarbiyaviy vositaga aylanadi.

Eng muhim ijtimoiy, falsafiy, axloqiy va tarbiyaviy masalalar Alisher Navoiy dostonlarida ko'tarilgan. Akademik Raxmonqul Berdiboyev: “Bu asarlarning o'chmas mohiyati shundaki, ular axloqiy savol va ehtiyojlarga javob bera oladilar, inson hayoti darsligiga aylanadilar”[1,6]. Aytishicha, akademik A.Navoiyning beshta dostonidan iborat “Xamsa” asarlaridagi g'oyalar va ideallar abadiy, insoniyat jamiyati uchun ibratli va shuning uchun korroziyaga uchramaydi. Shoiring “Saddi Iskandariy”ning oxirgi qismidagi oxirgi dostonining xulosasi:

Beshta kitob – beshta qimmatbaho marjon xazinasi,
Asrdan asrga ko'chib o'tadi – haqiqatga aylandi.

Buning sababi hammaga ma'lum: shoir dostonlarida insoniyatning buyuk masalalari ko'tarilgan, “inson” nomiga munosib fazilatlar kuylangan. Doston qahramoni dunyoga mashhur shaxs. “Komil inson” tushunchasi shunday shaxsiy fazilatlariga ega bo'lgan odamlarning harakatlari majmuasidan shakllanadi.

Sharq she'riyatida Iskandar Zulqarnaynda bag'ishlangan ko'plab asarlar mavjud. Ularning aksariyati afsonaviy odamni maqtashadi, ba'zilar tanqid qilishadi. Masalan, buyuk qozoq shoiri Abay “Iskandar” poemasi uni shafqatsiz, qarochi, ochko'z odam sifatida tasvirlaydi. Bu yerda, Abayning o'z nuqtai nazari, “Butun insoniyatni birodarlaridek seving” bayoniga muvofiq, odamlarni, ayniqsa, mamlakatni boshqarayotganlarni, to'yib bo'lmaydigan xatti-harakatlardan himoya qilishni maqsad qilib qo'ygan. Navoiy esa Iskandarning barcha yuksak axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan. Navoiy tavsifida Iskandar yetuk shaxs. Nega shoir qarama-qarshilik va turlicha qarashlarga to'la obrazlar orqali yaxshi podshoh obrazini yaratishga bordi? Alisher Navoiyning yozishicha, Iskandar Zulqarnayn insoniyatga falokat va azob-uqubatlar keltirgan, dunyo xalqlarining baxtiga to'sqinlik qilgan shafqatsiz dushmanlarni mag'lub qilishni maqsad qilgan. U odamlarga san'at va bilim tarqatgan, suv osti dunyosi va quruqlik olamining mo'jizalarini yaratgan odam. Insoniyat baxti uchun u odamlarni talon-tarof qilgan yovuzlikka qarshi qal'a qurdi.

Iskandarning olijanob fazilatlarini u yoshligida olgan tarbiyasidan shakllangan, u dunyoviy narsalarga qiziqmagan, adolat, donolik va sadaqa odami bo'lgan. “Donolik” tushunchasi shu tarzda namoyon bo'ladi. Iskandar Zulqarnaynning axloq va shaxsiyat haqidagi qarashlari uning tilanchi bilan suhbatida aks etgan. Iskandar va tilanchi bo'lishni xohlagan podshoh, ya'ni podshoh bo'lishga loyiq kambag'al haqidagi hikoyada, tilanchi toj kiyib, dunyoni tark etib,

o'zi xohlagan hayotni ko'proq o'ylab topgani bejiz emas.

*Tiriklar arosig'a qilmas ubur,
Matofi emas g'ayri – eski qubur.
Hamono tiriklarda ko'rmay vafo,
Qubur ahlig'a aylamish iktifo* [2,76].

Iskandar boshida ikkita suyagi bor sirli tabibdan suyaklar haqida so'raydi. Shunda donishmand chol:

Dedi: *"Go'rlardin qilurda guzar,
Necha bu so'ngaklarga soldim nazar.
Zamiring'a lekin nihon qoldi bu
Ki, shahning qayudur, gadoning qayug'
Chu o'lganda birdur bu iki mato',
Tiriklikda nevchun qilurlar nizo"* [2,77].

Shunda Iskandar boylikka sajda qilmaydigan, moddiy boylikni sevadigan, tashvish va qayg'usiz hayotni qo'llab-quvvatlaydigan, saxiy qalbi bor, imoni bor, shon-shuhrat va qudratdan voz kechgan odamning donoligidan mamnun bo'ladi. Iskandar Aristoteldan so'radi: "Oh, donishmand, men haqiqatga to'g'ridan-to'g'ri erisha olamanmi? Degan savolga Aristotel: "Shovqin-surondan saqlaning va achchiq hayot kechiring", – deb aytdi. Keyin Iskandar shunday dedi:

Arastudin etti Iskandarda savol:
*"Ki, ey fikratingg'a falak poymol,
Ne yo'ldurki, maqsud erur manzili,
Ne ishdurki mahmud erur hosilig'"* – deb so'raydi u. Keyin

Dana unga dedi:

Dedi: *"Xalqdin o'zni fard aylamak,
Fano ko'yi yo'linda gard aylamak"*.

Dedi: *"Ul kishikim tavongardurur,
Anga xayr ko'prak muyassardurur".
Amalning chu maqsud aro daxli bor,
Tavongarg'a ko'prak kerak e'tibor.
Birovkim savob etsa ko'prak husul,
Anga ko'prak o'lg'ay umidi vusul* [2,79].

Bundan xulosa qilib, Iskandar yangi saxiy odamni o'zidan ustun deb bildi va taxtdan voz kechdi. Oltin taxtga munosib dono odamni qidiring, u quyidagi fazilatlariga ega bo'lish uchun oqilona qaror qabul qiladi:

*Kim, ul yog'durub abri ehsonini,
Yeramdek qilib mulk bo'stonini.
Adu xaylin oshuftahol aylasun,
Sanam zulfidek poymol aylasun.
Necha shu'lai fitna yoqsa aduv,
Qilich selidin ursun ul o'tqa suv.
Raiyatqa qilsa qalamzan sitam,
Qalamzanning ilgini qilsun qalam.
Musofir yo'li rishtasin uzmasun,
Qaroqchi qarosini ko'rguzmasun.
Qilib zabt ila mahkam o'g'ri yo'lin,
Ulus molidin qisqa qilsun qo'lin.
Adam aylasun zulm ta'limini,
"Lam"i jahd etib "lom" ila "mim"ini.
Adolat qilurning topib holatin,
Fuzun qilsun elga aduv olatin.
Nekim Haq buyurmish, bo'lub payravi,
Haq aytur ulus ilgin etsun qaviy* [2,82].

Ammo odamlar Iskandar bu fazilatlariga ega ekanligini bilib, undan shoh bo'lishini iltimos qilishdi. Odamlarning so'zlariga befarq bo'lmagan Iskandar imonning buyukligini hurmat qilib, bayroqni baland ko'tarib, ko'ksiga ko'tarildi. U qochib qutula olmasligini tushunib, nihoyat og'ir yuklarni bilib, uning xohishlarini qabul qildi. Shu payt Aristotel yaqinlashdi. U Iskandarning boshidan sallasini olib, tojini kiydi.

Dostonning asosiy g'oyasi – yurtdan yaratilgan, shaxsiyatga boy, har tomonlama kamol topgan odamning hayoti va ijodi

haqida hikoya qilish, boshqalarga o'rnak ko'rsatish. Qudratda individual fazilatlariga ega bo'lgan shoh obrazini yaratish. Bu halol, aqlli, mehribon, odamlarning qayg'usi va ehtiyojlarini tushunadigan, mamlakat baxti uchun kurashgan rahbarning eng yaxshi qiyofasini yaratish edi. Bu yerda "Komil inson" konsepsiyasining bir qismi bo'lgan yana bir mikro kontsepsiya. Bu "odamililik" tushunchasi. Buni uning mamlakatga soliq solgan Dara davlati rahbariga yo'llagan xabarida ko'rish mumkin.

Dedi: *"Ayt Dorog'a mendin salom,
Salom aytqach bo'yla yetkur payom
Ki, shahliqti, yo'qtur baqosi aning,
Yemas juz fano intihosi aning.
Bugun-tonglilig' umr uchun ko'rma ranj
Ki, qo'yg'aysen albatta ganj uzra ganj.
Xazoyinki yig'ding adaddin fuzun,
Sanga ranj tekurdi haddin fuzun.
Bukim yig'ding, avval top andin asig',
Qachon topsang andin asig', o'zga yig'.
Ishekim zarar naf'idin bo'lsa ko'p,
Yemas qilmog'i aql ollinda jo' b.
Sanga naf' yo'q, bizga andin alam,
O'zungga yeturma alam, bizga ham.
Tilab bayza ko'p bo'lma mehnatqa to'sh,
Havo tutti ul bayza berguchi qush* [2,107].

Aytilishicha, odamlar o'rtaida birlik va adovatning yo'qligi insoniyat yaratgan sivilizatsiyani yo'q qiladi va ularning yutuqlarini yo'q qilishga olib keladi, natijada dunyo qulaydi, odamlar bezovtalanadi va inson hayoti xavf ostida qoladi. Bu fikrlar quyidagicha berilgan:

*Jahon ahlida yo'q vafo, ey rafiq,
Yerur rifiq alardin judo, ey rafiq!
Adovat bila kindur oyinlari,
Tuganmas adovat bila kinlari.
Jahon ichra mavjud erur necha xayl
Ki, borig'adur kina qilmoqqa mayl.
Kishi bo'lmag'ay qilsang andesha
Ki, topilmag'ay anga hampeshae.
Qachonkim ayon bo'ldi hamkorliq,
Ne imkon kishi bo'lmay ozorliq.
Bilur kimki bir pesho bo'lg'ay fani
Ki, albatta hampeshadur dushmani* [2, 115,116].

Bu hamon kun tartibida, bugungi jamiyatning asosiy muammolaridan biri. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonini o'qib chiqish yo'lini qidirasiz. Siz aqlli odamning ko'zini ochishga harakat qilasiz. Shuning uchun tushunchalarni tahlil qilish va talqin qilishning hayotiy ahamiyati.

"Barkamol inson" konsepsiyasini tashkil etuvchi mikro konseptsiyalar eposdagi ibratli iboralar, ibratli maqollardir. Ular: kuch va shon-shuhrat-sayoz daryo, faqat ko'p yaxshilik qilgan odam haqiqatga yaqin bo'ladi, o'z vaqtida yaxshilik qiladi, martabaning quli bo'lma, hasaddan, norozilik va shafqatsizlikdan saqlan, sher chumolilar, fillar yukini ko'tarolmaydi, qon-toj, go'zallikka qiziqmaslik, dunyoga qiziqmaslik, yolg'onni unutmazlik, haqiqatni sevish, insonparvarlik. Dostonda haqiqat, boylik, qahramonlik, saxiylik va mehribonlik voqealar silsilasi orqali tasvirlangan. Bunday buyuk asarlar faqat o'z xalqini sevadigan buyuk qalbdan tug'iladi.

Haqiqatni himoya qilgan adolatli shohdan, xalq baxtiga g'amxo'rlik qilgan mehribon, dono hukmdordan o'rnak olish motivlari turkiy xalqlar adabiyotida azaldan g'oya bo'lib kelgan. Bu fikrlar buyuk ustoz, mutafakkir va olim Al-Forobiyning "Fozil odamlar shaxri" asarlarida, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" asarida, Ahmad Yugnakiyning "Haqiqat sovg'asi" da, buyuk turk shoiri Yunus Emro she'rlari, buyuk qozoq shoiri Abay she'rlarida "odam" tushunchasini yaratgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Iskandar qorgani. Astana, 2008. – B. 404.
2. Hamidova M. Saddiy Iskandariy. – Toshkent: 1994. – B. 499.

Ma'rufjon YULDASHEV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zDSMI),
Maloxat QO'SHNAZAROVA,
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi

TO'LEPBERGEN QAIPBERGENOVNING "QORAQALPOQNOMA" ASARIDAGI TOPONIMIK BIRLIKLAR BADIYYATI

Annatsiya. *To'lepbergen Qaipbergenov o'zining yarim asrdan ziyod davom etgan yozuvchilik faoliyati davomida katta va sermazmun ijod yo'lini bosib o'tdi. O'z asarlarida qoraqalpoq xalqining tarixi, bugungi hayoti, milliy qadriyat va an'analarini yuksak mahorat bilan tarannum etdi. Uning qalamiga mansub "Rahmat, muallim", "Sovuq bir tomchi", "Kotib", "Qoraqalpoq qizi", "Mamanbiy afsonasi", "Baxtsizlar", "Gumrohlar" singari qissa va romanlar, "Qoraqalpoq dostoni" trilogiyasi adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egalladi. Bu asarlarning aksariyati jahondagi ko'plab tillarga tarjima qilinib, bir qator nufuzli adabiy mukofotlarga sazovor bo'lgan edi. Maqolada adibning "Qoraqalpoqnoma" asarida qo'llanilgan ayrim toponimlarning berilishi haqida fikr bildirilgan. Mazkur asardagi joy nomlarining lingvopoetik va lingvomadaniyatshunoslik jihatidan muhim ahamiyat kasb etishi misollar asosida ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *To'lepbergen Qaipbergenov, Qoraqalpoqnoma, toponim, mifotoponim, topopoetonim, intertekstuallik.*

Маъруфжон ЮЛДАШЕВ,
доктор филологических наук, профессор Государственного института искусства и культуры Узбекистана,
Малохат КОШНАЗАРОВА,
Национальный исследовательский университет "Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства" преподаватель кафедры узбекского языка и литературы

ИСКУССТВО ТОПОНИМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ТУЛЕПБЕРГЕНА КАИПБЕРГЕНОВА «КАРАКАЛПАКНАМЕ»

Аннотация. *За свою более чем полувековую писательскую деятельность Тулепберген Каипберженов прошел долгий и содержательный творческий путь. В своих произведениях он мастерски воспел историю каракалпакского народа, современную жизнь, национальные ценности и традиции. Достойное место занимают такие его повести и романы, как «Спасибо, учитель!», «Ледяная капля», «Секретар», «Дочь Каракалпакии», «Сказание о Маман-бей», «Несчастные», «Непонятные», трилогия «Дастан о каракалпаках» вошли в копилку нашей литературы. Многие из этих произведений переведены на различные языки мира и удостоены престижных литературных премий. В статье комментируются некоторые топонимы, использованные в произведении «Каракалпакнаме» на премьерах показано значение топонимии с точки зрения лингвопоэтических и лингвокультурологических исследований.*

Ключевые слова: *Тулепберген Каипберженов, Каракалпакнаме, топоним, митотопоним, топозтономы, интертекстуальность.*

Marufjon YULDASHEV
Doctor of Philology, Professor (State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan),
Malohat KOSHNAZAROVA,
National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers"
teacher of the department of Uzbek language and literature

THE ART OF TOPONYMIC UNITS IN THE WORK OF TULEPBERGEN KAIPBERGENOV "KARAKALPAKNAME"

Annotation. *For more than half a century of writing, Tulepbergen Kaipbergenov has come a long and meaningful creative path. In his works, he masterfully sang the history of the Karakalpak people, modern life, national values and traditions. A worthy place is occupied by such his stories and novels as "Thank you, teacher!", "Ice drop", "Secretary", "Daughter of Karakalpakia", "The Tale of Maman-bey", "Unfortunate", "Incomprehensible", trilogy "Dastan about the Karakalpaks" were included in the treasury of our literature. Many of these works have been translated into various languages of the world and have been awarded prestigious literary prizes. The article comments on some toponyms used in the work "Karakalpakname". The examples show the importance of toponymy from the point of view of linguo-poetic and linguo-culturological studies.*

Keywords: *Tulepbergen Kaipbergenov, Karakalpakname, toponym, mitotonym, topoztonymy, intertextuality.*

Ma'lumki, muayyan tildagi onomastik birliklar shu tilda so'zlashuvchi xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, adabiyoti bilan daxldor jihatlarni namoyon etuvchi birliklar hisoblanadi. Xususan, "badiiy adabiyotda qo'llangan nomlar ijodkorning badiiy-estetik qarashlarini namoyon etib, turli poetik vazifalarda qo'llanishi mumkin". O'zbek tilshunosligida lingvopoetika

bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda bu masala bir qadar yoritilgan. Tilshunos D.Andaniyazova mazkur masalada jiddiy tadqiqot amalga oshirgan¹. Biroq bir tadqiqot bilan mazkur masalani hal qilingan deb bo'lmaydi. "Ma'lumki, o'zini o'rab turgan tashqi olamni va unda yuz beruvchi hodisalar sababini bilishga qiziqqan ibtidoiy odam uni obrazli tasavvur qilgan. Natijada hissiy obrazlar sifatida mifologik obrazlar paydo bo'lgan. Mifologik obrazlar barcha xalqlarning tilida mavjuddir va har bir xalqning milliy, madaniy tushunchalari asosida kodlashtirilgan. Mifonimlarni metaforizatsiyalash vositasida ko'pincha mifopoetonimlar hosil

¹ Andaniyazova D.R. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). – Toshkent, 2017. – B.

bo'ladi va insonning turli kechinmalarini badiiy ifodalashga xizmat qiladi"².

Mutaxassislar fikricha, onomastik birliklardan poetik maqsadlarda foydalanish mumtoz adabiyotimizda an'anaga aylangan. Bu jarayon bugungi kunda ham davom etib, adabiyotimiz tarixida qo'llangan Bog'i Eram, jomi Jam, Iskandar, Ka'ba, Layli, Majnun, Masih, Odam Ato, Farhod, Shirin, Hotam kabi nomlar zamonaviy adabiy asarlarda ham qo'llanib kelmoqda. Umuman, o'zbek badiiy adabiyotida qo'llangan nomlar butun bir silsilani tashkil etadi. Ularning shakllanish tarixi, lingvopoetik xususiyatlari, o'zbek lingvomadaniyatida tutgan o'rni kabi masalalar tilshunosligimizda maxsus tadqiqotni taqozo etuvchi dolzarb masalalardan biridir³.

Adib yozuvchining zalvorli missiyasi haqida so'z yuritar ekan shunday prinsiplar a'molni tilga keltiradi: "Ona yurtingga, ona xalqingga qanday ko'z bilan qarash kerak – eng muhimi mana shu! Buyuk yozuvchilarning sezgirligi, intuitsiyasi, noyob iste'dodi, butun qudrati, avvalo, shunda bo'lsa kerakki, ular juz'iy bir voqeda butun jamiyat ahamiyatiga molik mohiyatni ko'ra oladi." Uning ona yurti va xalqiga, urf-odatlari va qadriyatlariga muhabbati shu qadar balandki, har bir asarida ular bilan bog'liq voqea-hodisalarning eng mayda detallarigacha tasvirlashga harakat qiladi. Ayniqsa, xalq tilidan qo'yamaydigan, takrorlashdan buyuk bir zavq va huzur tuyadigan miflar, rivoyat va afsonalarni xuddi real tarixiy voqeadek asar syujeti qatlariga singdirib yuboradi. Ana shunday holatlarni ko'proq asarda qo'llanilgan joy nomlari tasvirida kuzatishimiz mumkin.

To'lepbergen Qaipbergenov o'zining yarim asrdan ziyod davom etgan yozuvchilik faoliyati davomida katta va sarmazmun ijod yo'lini bosib o'tdi. O'z asarlarida qoraqalpoq xalqining tarixi, bugungi hayoti, milliy qadriyat va an'alarini yuksak mahorat bilan tarannum etdi. Uning qalamiga mansub "Rahmat, muallim", "Sovuq bir tomchi", "Kotib", "Qoraqalpoq qizi", "Mamanbiy afsonasi", "Baxtsizlar", "Gumrohlar" singari qissa va romanlar, "Qoraqalpoq dostoni" trilogiyasi adabiyotimiz xazinasi bilan munosib o'rin egalladi. Bu asarlarning aksariyati jahondagi ko'plab tillarga tarjima qilinib, bir qator nufuzli adabiy mukofotlarga sazovor bo'lgan edi. Jonkuyar adibning keyingi yillarda e'lon qilingan publitsistik chiqishlarida mustaqilligimizning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, qoraqalpoq zaminida amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarish va yangilanishlar jarayonini aks ettirish, bag'rikeng xalqimizning bunyodkorlik mehnatini ulug'lash, Orol muammosiga jamoatchilik e'tiborini qaratish mavzulari alohida o'rin egalladi.

Yozuvchi asarlari ichida "Qoraqalpoqnoma" alohida ahamiyatga ega asar. Unda muallif shaxsi va uning badiiy olami birmuncha realistlik planda namoyon bo'ladi. Kitobxon asarni o'qish jarayonida muallif bilan birga qoraqalpoq elining tarixi, an'analari, orzu-umidlari olamiga sayr qiladi. Asarda muallif pozitsiyasi shu qadar qiziq va murakkabki, ba'zan muallif bilan birga suhbat qurasiz, ba'zan u o'zi bilan o'zi suhbat quradi siz kuzatasiz. Ba'zan esa asar qahramonlari va voqea-hodisalari ichida muallifni butunlay unutib qo'yasiz.

"Qoraqalpoq yeridan bir kaft tuproq olib, hidlasangiz, undan qon isi anqiydi. U "Borsa kelmas"da yo'l topolmay adashib, bir-biri bilan g'ajishib o'lgan hayvonlar qoni emas, odam qonining isi.

² Nurullayeva S. Davr voqeiklarining mifologik obrazlar vositasida ifodalanishi. NamDU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник НамГУ 2020 йил 6-сон. – Б. 174.

³ Xudoyberganova D., Andaniyazova D. O'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati. Toshkent: Fan, 2016. – B. 3.

⁴ Nurullayeva S. Davr voqeiklarining mifologik obrazlar vositasida ifodalanishi. NamDU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник НамГУ 2020 йил 6-сон. – В. 174.

Yuldashev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent: "O'zbekiston", 2019. – B. 103.

Bu haqda qarag: Kurash C.B. Усложнённое кодирование образной информации как аспект филологического анализа художественного текста. – Мозырь: УО "МГПУ", 2003. – С. 40.

Istagan yerga belkurak ursangiz, belkuragingiz nimagadir shaqirlab tegadi. Bu shaqirlayotgan tosh emas, o'lgan hayvonlarning suyagi ham emas, odamning suyagi, "Borsa kelmas"ni gullatib yashnatish yo'lida jonini tikkan bobolarning suyagi. Tug'ilgan yeriga to'kilgan ko'z yoshlarini quritish yo'lida serzahmat mehnatda jon taslim qilgan avlodlarning suyagi! Ona yurtini tashqi dushmanidan himoya qilish maqsadidagi ko'pgina qonli olishuvlar tufayli behisob joylarning "Qumbosgan", "Qizketgan", "Bolashahid", "Qo'yqirgilgan", "Maslahattepa", "Qonli ko'l", "O'tesh botirning qabri", "Qonli yop", "Tuproqqal'a", "Ellikqal'a", "Yonboshqal'a", "Nozlimxon suluv" kabi minglab tarixiy nomlar bilan atalishi bejiz emas! Xatirada qayosh aks etganidek, bu atamalar har qaysisi turli-tuman afsonaga asos bo'lgan. Har bir afsona esa, o'zicha bir tarix, o'zicha doston, butun boshli bir davr." Yozuvchi shu tarzda kitobxonni tarixiy nomlar olamiga boshlaydi. "Ma'lumki, o'zini o'rab turgan tashqi olamni va unda yuz beruvchi hodisalar sababini bilishga qiziqqan ibtidoiy odam uni obrazli tasavvur qilgan. Natijada hissiy obrazlar sifatida mifologik obrazlar paydo bo'lgan. Mifologik obrazlar barcha xalqlarning tilida mavjuddir va har bir xalqning milliy, madaniy tushunchalari asosida kodlashtirilgan. Mifonimlarni metaforizatsiyalash vositasida ko'pincha mifopetonimlar hosil bo'ladi va insonning turli kechinmalarini badiiy ifodalashga xizmat qiladi"⁴. Tilshunoslikda intertekstuallik degan tushuncha bor. Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida yozuvchining matndagi mazmuni ifodalashdan ko'zlagan maqsadini ham nazarda tutish foydadan xoli bo'lmaydi. Ayni paytda badiiy matnning yaxlit strukturasi muayyan qismlar o'rtasidagi munosabat masalasi ham alohida diqqatga molikdir⁵. Badiiy matnning tarkiblanishini tadqiq etishdagi muhim nuqtalardan biri intertekstuallik masalasidir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, intertekstuallik tushunchasining filologiya ilmida paydo bo'lishiga rus olimi M.M.Baxtinning 1924-yilda nashr etilgan "Badiiy so'z ijodiyotida mazmun, material va shakl muammosi" nomli ishi turki bergan, olim bu tadqiqotida adabiyotning mavjudlik dialektikasini tavsiflar ekan, ijodkor tasvirlanayotgan voqelikdan tashqari o'tmish adabiyoti va o'ziga zamondosh bo'lgan adabiyot bilan ham ish ko'rishini, bu adabiyotlar bilan u doimiy "muloqot"da bo'lishini qayd etadi. Ana shu ishga asoslangan va undagi fikrlarni yangicha talqin etgan holda poststrukturalizm nazariyotchisi fransuz Yuliya Kristeva 1967-yilda bu tushunchani fanga olib kirgan⁶.

To'lepbergen Qaipbergenov asarlarida ham ana shunday lingvopoetik mexanizmdan keng foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin. Muallif matn ichiga boshqa bir matnni olib kirishda asosiy mas'uliyatni uchinchi shaxslarga yuklaydi. Uchinchi shaxslar odatda "qariyalar" bo'ladi: "Mahalliy atamalar haqida qariyalarning gurunlaridan. Qumbosganing nega "Qumbosgan" deb atalishi haqidagi afsonalardan birini eshiting" deya kitobxonni aylajak rivoyatga tayyorlaydi. So'ng rivoyat yoki afsonani real tarixiy voqeadek batafsil tasvirlaydi: Qadim zamonlarda bir dono duniyodan ko'z yumish oldidan Hasan-Husan o'g'illarini yoniga chaqirib gap boshlabdi:

– Bolalarim, o'z'laringizga ma'lum, har qaysi bir tanoblik ikki bo'lak yerim bor. Bir bo'laki unumdor, ikkinchi bo'laki sho'rxok. Ikkovingga har bo'lakdan yarim tanob-yarim tanobdan berishim ham mumkin edi. Biroq men bunday qilmoqchimasman. Sababi, ikkovlaringiz vaqtida bir qoringa sig'gan bo'lsalaringiz ham, bu keng dunyoda tinch-totuv, qo'shni bo'lib, bir yerda yashay olmasizlar. Buni men odamlarning qismatlarida ko'p ko'rdim. Shuning uchun har biringiz alohida bir bo'lagiga ega bo'ling. Sho'rxok taraf kimning chekiga tushsa, men unga butun mol-dunyoni qo'shib meros qoldiraman. Chunki sho'rxok yerni epaqaga keltirish uchun ko'p kuch kerak. Bu oqilona taqsimotga bolalari darrov rozi bo'lishibdi. Shunda ham otasi ularni norozi qilmaslik uchun chek tashlabdi. Hasanga unumdor bir tanob yer, Husanga sho'rxok bir tanob yer bilan birga mol-dunyo meros tegibdi. Egizaklar chekiga tushganidan quvona-quvona, alohida alohida uy bo'lib yashay boshlabdilar. Husan o'ziga tekkan sho'rxok yerni epaqaga keltirish o'rniga otasidan qolgan mol-dunyoning kuchi bilan aysh-ishratga mukkasidan ketibdi.

Ko'p o'tmay bor bud-shudini sovrub tamomlabdi. Endi u akasi Hasandan yordam so'rashga majbur bo'libdi. Hasan uning iltimosiga bir marta xo'p depti, ikki marta xo'p depti, uch marta xo'p depti. Axiri achchig'i chiqib:

– Yerni epaqaga keltirish o'rmiga hamma pulingni aysh-ishratga sarflab bitirding, endi senga hech narsa bermayman, – debdi.

Husan akasidan xafa bo'lib ketibdi-da, sobiq ulfatlarini chaqirib, ular bilan birga uyining qoshiga qum tashishga tushibdi. Ancha kun tashibdi. Kattakon uyum hosil bo'libdi. Bir oqshom Husanning uyidan Hasanning uyi tarafiga qarab kuchli dovul turibdi. Husan fursatdan foydalanib, tezda ulfatlarini chaqiribdi-yu, qum uyumini osmonga to'zgitaveribdi. Tuni bilan to'zgitibdi. Ertalab qarasarlar, Hasanning unumdor dalasini yoppasiga qum bosib qolibdi.

“Qumbosgan” toponimining ma'nosini izohlashga xizmat qiluvchi rivoyat bayon qilingach, muallif qahramon tilidan xulosasini ochiq qildi: “Qumbosgan” degan nom mana shundan qolgan ekan. Qoraqalpog'istonning bir yeri sho'rxok, bir yeri qumloqligi o'sha Hasan-Husan avlodlarining bir-birlariga ola qarashlari sababli ekan-da!..”

Yoki joy nomi bilan bog'liq bir afsona matn ichiga intermatn bo'lib kiradi. Shu zaylda, og'zaki nutq doirasida hayotini davom ettirayotgan matn yozma matnga muayyan vazifa bilan kiritiladi va afsonaning umri baqoga dahldor holga keltiriladi:

– Nukus shahrining qoq o'rtasidan kesib o'tadigan Qizketgan soyining nomi nima uchun “Qizketgan” deb atalishi haqidagi ko'pdan-ko'p afsonalardan men ham bittasini aytib bermoqchiman, eshitinglar: Amudaryo bir paytlar “Jayxun deb atashgan. Jayhun daryosidan bir yarim chaqirim olisda joylashgan kichkina bir ovul daryodan qovoqda suv tashib ekinini sug'orar ekan. Bu ovuldagi bir beva ayolning yuzlari oydek, sochlari tunde, qoshlari qunduzdek nihoyatda suluv Oysha ismli bir qizi bor ekan. Oysha ovuldoshlarini mushkul ahvoldan qutqarish maqsadida bir kuni ko'chaga chiqib: “Kimda kim Jayhundand ovulgacha ariq qazishga bel bog'lasa, men o'sha odamni sevaman” deya jar solibdi.

– Bir yigit qazib bitkaza olmaydi-ki, – deyishibdi ovul odamlari. Nechta yigit qazishga chiqsa, hammasini suyaveraman! – debdi qiz.

Odamlar Oyshaning bu gaplarini noto'g'ri tushunib, uni ovuldan quvib yuboribdilar. Qiz ovuldan bosh olib ketganicha, boshqa ovullardagi yosh yigiti yig'ib, qazuvni boshlab yuboribdi. Ariq qazilib, ovuliga suv kelgan kuni qiz ariq yoqasiga chiqib:

– Yigitlar, men va'damga vafu qilib, barchangizni baravar sevaman, sizlarga bundan keyin ham ruhan madad bo'laman! – deya hayqirib, toshqin soyga o'zini otibdi...

Xalq ana shu yangi soyga “Qizketgan” deb nom qo'yibdi.

Asarda intertekstlarning asosiy matnga olib kirilishi va muvofiqlashishini ta'minlashda qahramon nutqidan ham keng foydalaniladi:

– Men bo'lsam sizlarga “Bolashahid” haqida aytib bermoqchiman: bir ota-bir onadan tug'ilgan Hasan bilan Husanning avlodlari yillar o'tib, o'zlaridan ko'payib, naq ikki ovul bo'libdi. Bobokalonlari bitta bo'lgani bilan, har birida o'zicha urf-odatlar, dunyoqarashu fikrlashlar tarzi shakllanib, bu ikki ovul o'rtasidagi tafovutlar ziddiyatlarga aylanibdi. Ularning har birida xudbinona, yovuz niyatlar uyg'onibdi. Bir yili Hasanning avlodida bolalar juda ko'p tug'ilib, chorak asrdan keyin ovul uchun joy torlik qilib qolishi mumkinligi ularni o'ylantirib qo'yibdi. Bu tashvishli o'ylar qo'shni ovulga ham ma'lum bo'lib, ular chorak asrdan keyin Hasanning ovuli tarafidan kelish ehtimoli bo'lgan xavf-xatarning oldini olish uchun turli-tuman hiyla-nayranglar o'ylab topish harakatiga tushibdilar. Axiri bir tullak biyni qo'shni ovulga elchi qilib jo'natibdilar-da, ularning bolalarini tarbiyalab berishga xohish bildiribdilar. Ovul odamlari bolalarning o'z ota-onalarini unutib yuborishlaridan qo'rqib, bu taklifni rad qilishibdi. Shunda elchi bo'lib kelgan biy o'z tarbiyalariga olmoqchi bo'layotgan bolalarning ro'yxatini tuzib, ularning har biri uchun tilxat berajaklarini, kerak bo'lsa, qachon ota-onalarini ko'rishni istasalar,

ovul darvozasi ochiq turajakligini ma'lum qilishibdi. Xullas, ularni ishontirishib, bolalarni o'z tarbiyalariga olishibdi... Oradan bir oy o'tar-o'tmas, ko'pchilik ota-onalar o'z bolalarini ko'rish uchun kelsalar, bittasiyam yo'q emish.

– Bolalarimiz qani? – deb so'rashibdi ular, bosh biyning huzuriga kirib.

U ota-onalarni yangi qabristonga boshlab boribdi.

– Bu qanaqa qabriston? – deb so'rashibdi ota-onalar, yuraklari uvishib.

Yigirma besh yildan keyin ovulimiz boshiga yog'iladigan xavf-xatarning oldini olib, mana shu yerda bolalarimizni shahid qildik, – debdi biy.

Ota-onalarning fig'oni falakka chiqib, biyga tashlanibdilar. Uning go'shtini nimta-nimta qilib, qabristonga sochib tashlabdilar. Bari bir bu bilan hech kim alamdan chiqolmabdi, hech nima o'zgaribdi. O'sha qabriston esa “Bolashahid” deb atala boshlanibdi.

Rivoyat tugagach, muallif “qissadan hissa”ni shu tarzda tilga keltiradi: “O'sha yovuz odamlar bizning bobolarimizmizmasmikini? Oz sonli bo'lib qolganimizga sabab-bunday yomon illatlarning yuqumli irsiy kasallikdek nasl surishidan bo'lsa ajab emas!” Kitobxon bunday ta'sirchan rivoyat va undan chiqariladigan xulosalardan voqea-hodisalarga nisbatan munosabatini oydinlashtirib oladi.

Asarning boshqa bir joyida “Qo'y qirilgan” toponimi bilan bog'liq afsona keltiriladi: “Qo'y qirilgan” nomining kelib chiqishi haqida men shunday afsona eshitganman. Hasan-Husanga o'xshab, bir ota-onadan tug'ilgan ikki o'g'ilning avlodlari o'sib-unib, gurkirab turgan ikki elat bo'lib yashayotgan yillarda, bir ovulga narigi ovulning dalasi o'ta hosildor ko'rinib, uni qo'lga kiritish yo'llarini axtarishga tushibdi. Shu maqsadda begona yurtlardan qurol-aslaha keltiribdi-da, elatdoshlarining ovulini qurshovga olibdi. Qurshovda qolgan ovul odamlari ahvolining tangligini sezib: “Hamma homilador ayollarni, demakki, naslimizni omon saqlab qolishning yagona yo'li shu” deb jamiki qo'ylarni bir chekkadan bo'g'izlabdilar. Homilador ayollarning ustiga qo'y terisini yopib, ovuldan birin-ketin chiqarib yuboraveribdilar. Tevarakdan payt poylab turgan qurolli navkarlar tizilishib kelayotgan “qo'ylar”ni birin-ketin otib o'ldiraveribdilar. “Qo'y qirilgan” degan nom ana shundan qolganmish.

Muallif bu afsonadan so'ng fojia musabbihi haqida o'ylab, o'zicha chiqargan hukmini bayon qiladi. “Bugun o'zimcha shunday tusmol qilamanki, ikkiqat ayollarni qo'y terisi ostida qurshovdan qutqarishni maslahat bergan odam qo'shni ovulning ayg'oqchisi bo'lsa kerak”. Bu tarzidagi xulosa masalaning mohiyatini chuqur o'ylash, sababchilarni uzoqdan emas, yaqin-atrofdan qidirish kerakligi haqida muallifning kitobxonga maslahatidir.

Mutaxassislar fikricha, muayyan matnda qo'llangan nom zamirida katta hajmdagi matnorti bilimlari turadi. Shuning uchun nomlar intertekstual matnda allyuziya ko'rsatkichi sifatida ko'p qo'llanib, muayyan adabiy yoki ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qiladi. O'quvchi bu kabi nomlarga doir qomusiy ma'lumotga ega bo'lmasa, mazkur nom qanday lingvopoetik maqsadda qo'llanganini ham anglashi mushkul. “Qoraqalpoqnoma”da ana shunday matnort bilimlar asosan, afsona va rivoyatlar shaklida izohlanadi. Badiiy matndagi bunday katta hajmli mifik matn bilan idrok etiladigan toponimlar mifotoponimlar deb ataladi. Aytish lozimki, manbalarda mifotoponim termini uch ma'noda qo'llanilganligi kuzatiladi: 1. *Muayyan mif bilan bog'liq holda idrok etiladigan real toponim.* 2. *Ma'lum bir xalq mifologiyasida mavjud bo'lgan toponim.* 3. *Badiiy matnda muallifning individual xayol mahsuli bo'lgan afsonaviy joy nomi. Badiiyat masalasiga aloqadorlikda (mifga bog'lanmagan holda) tekshirilganda topopoetonimlar tarzida qo'llash kuzatiladi.*

To'lepbergen Qaipbergenovning “Qoraqalpoqnoma” asarida bunday topopoetonimlar talaygina va ularni lingvopoetik tadqiq tamoyillari asosida o'rganish tilshunoslik, folklor, adabiyotshunoslik, etnografiya, lingvomadaniyatshunoslik, lingvokontaktologiya va lingvopoetika kabi tadqiqot sohalarini uchun birdek muhim.

7 Xudoyberganova D., Andaniyazova D. O'sha asar. – B.5.

XALQ DOSTONIDAN TEATR SAHNASIGA

Annotatsiya. Maqolada "Tohir va Zuhra" eposi misolida xalq badiiy madaniy yodgorligining Markaziy Osiyo mintaqasi teatr san'ati ravnaqidagi o'rni va roli haqida fikr yuritiladi. Xalq eposlarining sahnaviy talqinlarini o'rganish milliy teatrning o'ziga xos xususiyatlarini idrok etish imkoniyatini beradi. Zero, eposlarda muayyan millatning o'ziga xos madaniyati, ma'naviy qiyofasi, qadriyatlarini ifoda etiladi. Dramaturg va rejissyorlar eposga murojaat qilganda, ulkan qomus bilan to'qnashib, makon va zamon chegaralarini oshib o'tadilar, o'zligiga qaytadilar va umuminsoniy, azaliy qadriyatlarga duch keladilar.

Kalit so'zlar: teatr, xalq eposi, badiiy obraz, uslub, an'ana, tamoyillar.

Олтиной ТОЖИБОЕВА,

доктор искусствоведения, профессор ГИИКУЗ

ОТ НАРОДНЫХ ПОЭМ К ТЕАТРАЛЬНОЙ СЦЕНЕ

Аннотация. В статье на примере эпоса "Тохир и Зухра" рассматривается роль и значение народно-художественного наследия в развитии национального театрального искусства Центральной Азии. Изучение сценических воплощений народных эпосов дает обширное представление о своеобразии конкретного национального театра. В народных эпосах зафиксированы устойчивые элементы культурных традиций, выявляется и прослеживается черты ментальности народа. Обращение драматурга и режиссера к эпическому материалу даёт возможность обширно и глубоко проникнуть в недра национальной культуры своего народа, возрождая и обогащая общенациональные ценности.

Ключевые слова: Театр, народный эпос, художественный образ, метод, традиция, тенденции.

Oltinoy TAJIBAEVA

Doctor of Arts, Professor Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

FROM FOLK POEMS TO THE THEATER STAGE

Annotation. The article discusses the role and importance of folk art heritage in the development of national theater art in Central Asia on the example of the epic "Tahir and Zuhra". To date, the theatrical art of the region has a great experience and it has the opportunity to compare its culture with others. Epic direction is one of the points of support, one of the heights from which you can look at the experience and trends of the world of theatrical art.

Key words. Theatre, folk art, transformation, artistic image, method, tradition, trends.

Markaziy Osiyo mintaqasi teatr madaniyatining asosida xalq milliy dostonlari alohida o'rin tutadi. "Alpomish", "Tohir va Zuhra", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Ko'zi Ko'rpeh-Bayan sulu", "Manas" singari qadim xalq dostonlarining boy syujet va kompozitsiyasi teatr pyesalari hamda insenirovkalar yaratishda muhim manbadir. Musiqiy dramada jarayonning uzluksiz o'sib, rivoj topib borishida duetdan ariyaga yoki aksincha ariyadan duetga ulanib ketish hodisasi xalq dostonlariga ham xosdir. Bu jihat Rahmatulla Yusuf o'g'li tomonidan aytilgan "Tohir va Zuhra" o'zbek xalq dostonida ham kuzatiladi. Mazkur dostonida voqealar taranglashib, drammatizm kuchayganligi muallif sharhida izohlanadi hamda duet va ariya vositasida ochib beriladi: "Zuhraoy sudralib, daryoning labiga yetdi. Yasovullarning "Tohirni daryoga tashlaymiz", deyishib, sandiqqa solayotganini ko'rib qolib, zor-zor yig'lab, yasovullarga boqib, ko'z yoshi oqib, elanib, emranib deydi:

*Mushtiparman, ko'zimni
Yoshlamanglar, og'alar.
Tohirjonni daryoga
Tashlamanglar, og'alar
Tohirjonning o'rniga
Men o'layin, og'alar,
Shu daryoga g'arq bo'lib,
Yo'q bo'layin og'alar...*

Shunda Tohir sandiq ichida turib deydi:

*..Suv keladi bir talay,
Bandiman qanday qilay,
Sendan o'zgani desam,
Maqsadga yetmay o'lay!..*

Zuhraoy sandiqqa yetolmay, qichqirib kuylaydi:

*Suv kelar gumbur-gumbur,
Suyganim qizil guldir.*

*Sevganimga bermasa,
O'lganim shu bugundir..."(1.30).*

Keltirilgan misolda badiiy so'z remarka tariqasida kelib, jarayonning kechishi, qahramonining ruhiy holati va qiyofasidagi tugal manzarani ko'z o'ngimizda jonlantiradi. Duet tariqasida kelgan aytishuvda esa Zuhraning o'tinchi va Tohirning zorlanishidek dramatik vaziyat yuzaga keladi. Qizning isyonkor faryodi holatni yanada taranglashtirar ekan, uning avji sifatida qo'shiqqa (o'ziga xos ariyaga) o'tilganini ko'ramiz. Doston kompozitsiyasining buningdek qurilmasi musiqiy drama tabiatiga muvofiq kelib, mintaqa teatr san'atining mazkur janrdagi ijodiy izlanishlarida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu doston Sharq xalqlari orasida 6-7 xil variantda aytib kelingan. "O'zbek folklorshunoslari tomonidan o'tgan asrning 30-yillaridan to hozirga qadar ushbu syujet asosida yaratilgan 40 dan ortiq ertak hamda Islom shoir Nazar o'g'li, Rahmatilla Yusuf o'g'li, Zohir shoir Qo'chqor o'g'li kabi baxshilar ijrosidagi doston variantlari yozib olingan"(2.5). "Tohir va Zuhra"ning syujet va motivlari turkmanlarning "Zohra-Tohir", qozoq xalqining "Qo'zi Ko'rpeh-Bayan sulu" hamda boshqirdlarning "Kuzi-Kurpes-Mayan-xilu" dostonlari bilan o'zakdosh bo'lib, bu turkiy xalqlar merosidagi o'xshashlikdan kelib chiqqan. "Tohir va Zuhra"ning xalq varianti asosida XVII asrda yashab o'tgan shoir Sayyodiy, XVIII-XIX asrlarda yashagan turkman shoiri Mullanafas yozma doston yaratganlar.

Pok sevgi voqeasi Sayyodiy va Mullanafas yozma dostonlarining ham Tohir va Zuhra, Qo'zi Ko'rpeh va Bayan to'g'risidagi xalq ijodi namunalari ham, mag'zi, yuragidir. Ularda tug'ilganidanoq bir-biriga beshikkerti qilingan oshiq-ma'shuqlar taqdiri hikoya qilinadi. O'zbek xalq dostonida shohning qizi Zuhra va vazirning o'g'li Tohir o'rtasidagi ilohiy ishq asosiy o'rinda turadi. Barcha ziddiyatlar vazir o'lganidan so'ng shoh o'z ahdidan qaytishi bilan boshlanadi. Sevishganlar har qanday to'sqinlikni yengib o'tadilar, ularni o'lim ham ajrata olmaydi. Tohir va Zuhra qabridan chiqqan gullar bir-biriga chirmashadi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ajdodlarimiz beshikkertida o'ziga xos ilohiylik ko'radilar. Odatda beshikkerti qilinganlarni bir-birlaridan ajratib bo'lmaydi, taqdir ularni qay tariqa bo'lmasin uchrashtiradi. Sayyodiy talqinida beshikkerti qilingani bois, Tohir va Zuhra sevgisi ilohiy ishqqa aylangan.

Mullanafas dostoni Tatariston mamlakatida podshoh Boboxon va vazir Bohir uzoq kutilgan bolalarining dunyoga kelishi bilan boshlanadi. O'sha vaqtda Mulla-Nafas-Mari-Shohijaxon degan donishmand va uning xotini Bossantach elti o'tgan emish. Tug'ilganidanoq beshikkerti qilingan go'daklarga Bossantach elti enaga, Mulla-Nafas-Mari-Shohijaxon ustozlik qiladi. Keyinchalik mazkur asardan ilhomlangan dramaturg Sobir Abdulla o'z pesasida shoir Nozim obrazini mana shu personajlar ta'sirida yaratgan edi. Mazkur doston bir tomondan, chuqur mazmundorligi va badiiy shaklining ravonligi, syujetining qizg'inligi bilan ajralib tursa, ikkinchidan, dramatik vaziyatlar va ijtimoiy-psixologik konflikti, uchinchidan esa, nafaqat bosh qahramon, balki ikkinchi darajali personajlar xarakteri ham yorqinligi, voqealar davomida asosan dialog shakli qo'llanilgani bilan dramatik asarga o'xshab ketgan.

Xalq dostonlari asosida spektakllar yaratish o'tgan asarning yigirmanchi yillarida yevropacha teatr shaklini o'zlashtirish ishida, qolaversa, tomosha san'atining ushbu turiga kishilarni jalb qilish faoliyatida o'z ahamiyatini ko'rsatdi. 1923-yil Xivada havaskorlik truppalarni birlashtirgan "Xalq uyi" teatrida birinchi marta Fotihiy Burnoshning "Tohir va Zuhra" asari sahnaga qo'yilgani haqida ma'lumot bor. Mazkur havaskorlik spektaklida Zuhra rolini Xanskaya, Tohirni Yoqub Devonov, xonni Masharif Polvonov ijro etgani manbalarda qayd etilgan.

1937-yilda dramaturg Sobir Abdulla yozma va xalq dostonlariga tayangan holda "Tohir va Zuhra" pyesasi ustida ish boshlagan. Ilk bor 1940-yilda S.Abdulla va bastakor T.Jalilovning "Tohir va Zuhra" musiqali dramasi Andijon teatrida rejissorlar A.Azimov va A.Bakirovlar tomonidan sahnalashtirilib, keng shuhrat qozongan ma'lum. Mazkur asar Muqimiy nomidagi teatring ham musiqali drama janridagi birinchi to'laqonli spektakli bo'lgandi. Uni dastlab Andijonda muvaffaqiyat qozongan ijodiy guruh ya'ni rejissor A.Azimov, dirijor X.To'xtasinov, bezakchi rassom P.Koval sahnalashtirgan. Bastakor To'xtasin Jalilov sahna asari uchun moslashtirgan betakror xalq qo'shiqlari "Tohir va Zuhra" musiqiy dramasi yashovchanligini ta'minladi, tomoshabin tilidan va dilidan joy oldi.

Spektaklda Tohir va Zuhra obrazlarini Mashrab Yunusov bilan Fotima Xo'jayevlar gavdalandirdilar. Har ikkala qahramon sof muhabbat egasi sifatida namoyon bo'ladi. Mashrab Yunusov 1941-yilda Muqimiy teatrida sahnalashtirilgan spektaklda ham Tohir obrazida yuksak dramatik qobiliyat va kuchli vokal imkoniyatini namoyon etgan. O'z davrida "Tohir obrazi Mashrab Yunusov talqinida tag'in kamol topgan, – deb yozgandi "Qizil O'zbekiston" gazetasi. Uning harakatlari chinakam bahodirmi eslatadi. Tohir – M.Yunusov o'z yo'lining to'g'riligiga, vijdonining pokligiga, adolatning kuchiga, xalq qudratiga ishonadi"(3.79).

Sobir Abdulla Mullanafas dostoniga ijodiy yondashib, Tohir va Zuhra o'rtasidagi pokiza, lekin fojiali sevgi mavzusiga feodalizm jamiyatidagi zulm va adolat o'rtasidagi kurash voqealarini kiritgan. Spektaklda jaholat hukm surgan davrda chin insoniy munosabatlar poymol etilishi, oshiqning achchiq qismati o'z aksini topgan. Shuningdek, muhabbatning dunyoning jamiki boyligi va qudratidan kuchli ekanligi, har qanday razolatdan g'olib kelishi motivlari oldinga chiqqan. Biroq ko'p

o'tmay spektaklda xalq qudrati va kuchi oldingi planga olib chiqilmaganligi tanqid qilinadi va dramaturg Sobir Abdulla asar ustida qayta ishlashga majbur bo'ladi. Bu o'sha davrdagi hukmron mafkuraning ta'siri edi. Abadiyotshunos M.Abdurahmonova tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, dramaturg mazkur peysa ustida ish olib borar ekan, "Tohir va Zuhra"ning yettita varianti yaratiladi (4.167). So'nggi variantga asoslangan spektaklni 1946 yilda rejissyor Muzaffar Muhammedov sahnalashtirdi. Aynan shu variant Samarqand, Farg'ona, Qo'qon, Buxoro, O'sh kabi viloyat teatrlarida ham sahnaga qo'yilgan. Spektakllarda doston syujeti zulmga, haqsizlikka qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni bilan bog'lanib, kurashchan qahramonlar siymosi yaratildi, muhabbat sarguzashtlari esa mana shu niyatni amalga oshirishda vosita bo'lib xizmat qildi. Zuhra rovida o'zbek musiqali dramasi yorqin vakillari Shahodat Rahimova, Tursunoy Ja'farova, E'tibor Jalilovalar o'z mahoratlarini ko'rsatganlar. Teatrshunos olim Toshpo'lat Tursunov bu ijrolarga munosabat bildirarkan, "Zuhra roli ijrochilari Shahodat Rahimovanning ertaknamo chiroyi, Tursunxon Ja'farovanning o'tli va sirlil siyrati, E'tibor Jalilovanning jozibali xonishi teatring muvaffaqiyati va shuhratining garovi bo'ldi"(5.330), deya e'tirof etadi.

Tohir rolini birinchi bo'lib Jamolqori G'iyosov va Mashrab Yunusov ijro etgan. Mahmudjon G'ofurov esa Tohirning do'sti Qodir rolini bajargan edi. Yangi spektaklda bu rol M.G'ofurovga topshiriladi va u Tohir rovida xalq orasida keng shuhrat yoyadi. Tohir boshdan - oyoq oq libosda, sallasiga ukpar taqib, alpqqomat, go'zal, aslzoda, adolat va muhabbat uchun kurashuvchi mag'rur qiyofada namoyon bo'lgan. Aktyor Tohirni qahramononromantik ijro uslubi yo'nalishida gavdalandirgan. Tohir – M.G'ofurovning umumlashgan, oddiy hayotdan ustun turgan, favqulodda keskin vaziyatlarda harakat qiluvchi jo'shqin, ehtirosli kechinmalari g'oyat darajada kuchaytirilgan mahobatli qahramoni teatring butun bir yo'nalishiga asos soladi. Muqimiy teatrida teatr dostonchiligi yuzasidagi o'z talqin an'anasi vujudga keldiki, bunda Mahmudjon G'ofurovning xizmati beqiyos. T.Tursunov yozganidek, "Aktyorning ashaddiy muxlislari orasida faqat bitta sahna, hatto ariya uchun muttasil chipta olib, o'rindiqni band qilib qo'yuvchi, shu sahna yoki ariyadan huzur olib to'ymaydigan shinavandalar ham ko'p edi"(5.313).

Mazkur spektakl ta'sirida Sobir Abdulla va Aleksey Speshnev hamkorligidagi kinossenariy yaratilib, 1945-yilda rejissor Nabi G'aniyev tomonidan badiiy film suratga olingan. Ushbu film o'zbek milliy kinosining durdonalaridan biridir. 1949 yilda esa S.Abdulla librettosi asosida kompozitor T.Jalilov va B.Brovitsinning "Tohir va Zuhra" operasi maydonga keldi. Uni rejissyor E.N.Yungvald-Xilkevich sahnalashtirdi. "Tohir va Zuhra" musiqali dramasi birmuncha farqli o'laroq, operada xalq bilan zolim shoh o'rtasidagi ziddiyat yetakchilik qiladi. Hukmron mafkura ta'sirida mazkur ziddiyat keyinchalik ham asarning o'sha yillardagi talqinlarida oldingi o'ringa chiqdi. Biroq gap shundaki, betakror badiiy film yoki spektaklda asarning dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalarga diqqat qaratgan yoki qaratmagani emas, balki undagi ko'hna mavzuning talqini tomoshabinni o'ziga jalb qilib keldi.

"Tohir va Zuhra" musiqali dramasi 1953-yil Muqimiy teatrida qayta sahnalashtirildi. Uni teatr bosh rejissori V.Ya.Golovchiner sahnaga qo'ydi. Spektaklga yangi ariya, duet va xorlar kiritildi. Xalqning feodalarga qarshi kurashi yetakchi mavzuga aylantirildi. Agar rejissyor Muzaffar Muhammedov variantida Tohirning ongi va xarakteri voqealar davomida o'zgarib borgan bo'lsa, yangi spektaklda u dastlabki ko'rinishidanoq xalq kurashchisi sifatida namoyon bo'ldi. U Qorabotirga qarshi kurashib, xalq vakillarini qutqaradi. Dastlabki variantda ezilgan xalq xondan oshiq Tohirni ozod qilishini yalinib-yolvorib so'ragan bo'lsa, yangi variantda Boboxondan talab qiladi, unga qarshi o'z noroziligini bildiradi, uni la'natlaydi. Bir so'z bilan aytganda, yangi variantda xalqning kurashchanlik ruhi, ijtimoiy-

¹ Turkmanlarda yuksak hurmatga ega bo'lgan shayx yoki mullaning ayoli elti deb yuritiladi. Ular mavqei bilan o'zbek kayvoni onaxonlari darajasida turadi. Elti o'g'itlari, yo'l yo'riqlari bilan yurtida obro'-e'tiborda bo'ladi.

siyosiy mavzu birinchi planga olib chiqiladi. Tohir va Zuhra o'rtasidagi muhabbat xarakteri ham o'zgarib, xalqqa bo'lgan muhabbat bilan qo'shilib ketadi. Aniqrog'i qahramonlarni endi nozik hissiyotlar emas, balki xalq ozodligi yo'lidagi kurashchanlik tuyg'ulari yaqinlashtiradi.

Spektakl va pyesada Bohir masalasida birmuncha sun'iy konflikt yasaladi. Ya'ni bir paytlar xon saroyida xizmat qilgan mergan Bohir xonning adolatiga ishonib, o'zining yolg'iz o'g'li Tohirni xonga hadya qiladi. Lekin vaqt o'tgani sayin xon zulmi oshib borarkan, Bohir xonga qarshi otlangan qo'zg'olonchilarga borib qo'shiladi. Aslida xalq ijodida, Sayyodiy hamda Mullanafas dostonlarida xon Bohir o'limidan keyin va'dasidan qaytib, garchi beshikkerti qilingan bo'lsa-da, yolg'iz qizini yetimcha Tohirga berishni istamaydi, sarkarda Qorabotirni kuyov qilmoqchi bo'ladi.

Pyesa va spektaklda esa Boboxon vazirning emas, balki bir merganning farzandi Tohirni o'z saroyida saqlaydi. Yana bir mantiqsizlik Bohirning o'z o'g'li ulg'ayayotgan saroyga hujum qilish yo'lini tanlashida namoyon bo'ladi. Bunday chalkashliklar sahna asarining ijtimoiy yukini oshirish harakatidan kelib chiqqan, albatta. Natijada asar badiiy saviyasiga putur yetgan.

Mohim obrazi talqinida ham xatoga yo'l qo'yilgan. Dostonlarda Mohim Tohirni jonidan aziz ko'radi, sevgilisini baxtli ko'rishni istaydi. Yigitning jamoliga to'ymani, unga termulib, birga yotib, birga turadi. Ammo Tohir nikohga rozi bo'lmaydi, shuning uchun turkiy xalqlar odatiga ko'ra o'rtaga xanjar qo'yib qo'yadilar. Mohim turkman dostonida barchaga yaxshilik istovchi sof muhabbat egasi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek xalq variantida uning ismi Gulxadicha bo'lib, otasi Rustamxon qizni Tohir bilan nikohlaydi. Gulxadicha Tohirni gung deb o'ylab, turli tabiblarga ko'rsatadi. Tohir tilga kirib, karvon bilan ketishini aytib izn so'rganida Gulxadicha alam bilan:

*Daryo suvi suzukmidi,
O'ng qo'limda uzukmidi.
Zuhraoyning sin-sumbati,
Sumbatimdan tuzukmidi, (1.37) deydi.*

Gulxadichaning iztirobi, armoni, qo'yingki, isyon mana shu to'rt satrning o'zida aks etadi. Obrazning murakkabligi ham mana shu ichki alamning borligida edi. S.Abdulla dramasida Mohim tantiq va kibarli xon qizi bo'lib, undagi sevgi samimiy emas. Dostonlarda esa Mohim shoh qizi bo'lsada, muhabbati samimiy va sevib, sevimligan malika.

O'zbek teatrlari turli davrlarda bu asarga murojaat qilib turdilar. 1984-yili Muqimiy teatrida "Tohir va Zuhra"ni Baxtiyor Ixtiyorov qaytadan sahnalashtirdi. Bu gal rejissyor montaj usulini qo'llab, undagi ayrim personajlar (Jumladan, Yulduz obrazi)ni tushirib qoldirdi. Boboxon obrazini mavhumlashtirdi. Tohirdagi otashlik, pafos o'rniga maishiy holatlar paydo bo'ldi. Bu kabi kamchiliklar bois spektakl teatr repertuarida uzoq yashamadi.

E'tiborli jihati shuki, mazkur xalq dostonlaridagi mavzu va syujet yo'llari birgina o'zbek millatiga xos bo'lmay, Markaziy Osiyo mintaqasining boshqa xalqlari ijodiyotiga ham taaluqli. Ularning sahnaviy taqdiri ham o'xshashdir.

Turkman teatrining shakllanishida ham mazkur asar ahamiyat kasb etib, 1926-yil Ashgabatda "Zohra-Tohir"ning tatar varianti sahnalashtirilishi yevropacha teatr shakllanishini kirib kelishiga yo'l ochgan. Ma'lumki, 20-yillarda Turkmanistonda yevropacha teatni qabul qilish nihoyatda murakkablikda kechgan, unga nisbatan dahriylik tariqasida qaralgan. Ana shunday og'ir sharoitda turkman dostonining nomi afishaga chiqishi kishilarni yangi san'at turiga jalb qilish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Garchi spektaklda asosan tatar aktyorlari o'ynagan, tarjimada tatarcha so'zlar ko'plab qo'llanilgan bo'lsa-da, spektaklning xalq ijodi materialida ekanligi ilk bor tomoshabin to'plagan edi. Turkman teatrhunoslari asar ko'rsatilgan ikki kun tomosha zali liq to'lganligini e'tirof etadilar. "Turkmenskaya iskra" gazetasi

"Zohra-Tohir" teatr ishining muvaffaqiyatli tajribasini ko'rsatib, turkman milliy madaniyati taraqqiyotining muhim hodisasi"(6) bo'lganligini ta'kidlaydi.

Mullanafas dostoni asosida 1936-yil rejissor Xo'janapas Choriyev teatr spektakli yaratib, unda sof muhabbat mavzusi talqin etilgan. Spektakl iliq qarshi olinadi, biroq ko'p o'tmay rejissor X. Choriyevning xalq dushmani tamg'asi bilan qatag'on qilinishi "Zohra-Tohir" dostoni asosida yaratilgan pesa taqdirini o'zgartirib yuboradi. Turkman teatri artisti Bozor Amonov pyesani ijtimoiy-siyosiy kurash motivlarini kuchaytirgan holda qayta ishlaydi, yangi personajlar va epizodlar kiritib, xalq ommasi rolini oshirib ko'rsatishga diqqat qiladi. Pesani Amon Qulmamedov va Bozor Amonovlar birgalikda sahnalashtiradi. Rassom K.Savitskiy doston poetikasini aks ettirishda Zohra xonasini oltin qafas tarzida hal qiladi. Mullanafas asarida Zohra bosh figura bo'lib, asosiy voqealarda Tohir emas, u yetakchilik qiladi. Turkmanlarning asari "Zohra-Tohir" deyilishi ham ana shundan.

Ushbu doston turkman baxshilari tomonidan tildan-tilga o'tib, qayta ishlangani bois personajlarining she'r-monologlariga turli davrlarda qator xalq qo'shiqlari yaratilgan. Bundan kelib chiqib, spektakl uchun musiqa yozishda kompozitor A. Shaposhnikov turkman xalqining musiqiy folkloriga murojaat etadi. Musiqa spektaklga organik singib, pyesaning chuqur va emotsional mazmunini ochishda, obrazlarni boyitishda ahamiyatli bo'ldi. Spektakl premerasi 1939-yil 14-yanvarda bo'lib o'tadi, tomoshabinlar orasida katta muvaffaqiyat qozonadi. Uni bir yilning o'zida 110 marta ko'rsatilganligi qayd qilinadi. Aktyor Amon Qulmamedov Boboxon shohni zolim, shafqatsiz, har qanday insoniy tuyg'ulardan yiroq tarzda talqin qiladi. U o'z qahramoni ruhiyatiga shu qadar singib ketadiki, spektakl Baxerden degan qishloqda o'ynalganida Tohirni dorga osish sahnasida zalda o'tirgan tomoshabinlardan bir qanchasi g'azab bilan sahnaga chiqib, zolim shohni do'pposlash uchun unga qarab yurib kela boshlaydilar. Tomoshabinlarni arang tinchlantirishadi va spektakl to'xtatiladi.

"Zohra-Tohir" turkman teatr san'atida katta ahamiyat kasb etib, 1941-yilda Maxtumquli nomidagi Turkman opera va balet teatri mana shu asar asosidagi opera bilan o'z faoliyatini boshlagan.

"Tohir va Zuhra" syujeti qozoqlarning "Qo'zi Ko'rpesh-Bayan sulu" hamda boshqirdlarning "Kuzi-Kurpes-Mayan-xilu" dostonlari bilan o'zakdosh bo'lib, bu turkiy xalqlar merosidagi o'xshashlikdan kelib chiqadi. Qozoq xalqining mazkur eposi haqida professor G.N.Potantin "syujet xalqaro sanalsa-da, ammo qozoqlardan boshqa biror turkiy xalq uni o'z epikasining yuksak namunasi darajasiga olib chiqa olmagan"(7.31), deb baholagan. Mazkur epos turli yillarda Ch.Valixonov, A.Divayev, P.Semenov-Tyanshanskiylar tomonidan o'rganilib, "yangi shedevr" deb topilgan. Tadqiqotchilar asardagi xalq madaniyati bilan bog'liq ko'plab elementlarni arab bosqinchiligi davrigacha bo'lgan asrlarga borib taqalashini e'tirof etadilar (8). Eposning to'liq matni 1936-yilda M.Auezov tomonidan e'lon qilingan va uning qator tadqiqotlarida atroficha tadqiq etilgan.

"Ko'zi Ko'rpesh-Bayan sulu" qozoqlarda "ел аузындаеы белгилі жыр" sanaladi. Unda bolalikdan beshikkerti qilingan Qo'zi va Bayan sevgisi va ularning o'rtadagi qora kuchlar bilan kurashi kuylanadi. Bir-birlariga yetolmay, halok bo'lgan Qo'zi va Ko'rpeshni yonma-yon qabrga qo'yadilar, har ikki qabrdan bir-birlariga talpinuvchi gullar o'sib chiqadi, o'rtada ko'kargan na'matak esa ularning chatishib ketishiga xalaqit qilib turadi. Xalq dostonlari syujetidagi buningdek o'xshashliklar haqida yozgan akademik A.Yu.Yakubovskiy, "bu xalqlarning bir xil tarixiy sharoitda, bir-biriga yaqin taqdirni boshidan kechirganliklari bilan bog'liq" (7.64) ekanligini ta'kidlagan edi.

Qozoq dramaturgi G'abit Musrepov mana shu "жыр" asosida o'z pesasini yaratarkan, uni asl holicha sahnaga ko'chirish

yo'lidan bormaydi. Manbaga ijodiy yondoshib, ayrim lavhalarni aniqlashtiradi, ba'zi xarakterlarni kuchaytiradi, yangi obrazlarni kiritadi. 1939-yilda yozilgan bu drama turli mamlakatlarda teatrlarida sahnalashtirilgan. Ushbu asar haqida adabiyotshunos N.Gabdullin shunday yozadi: "Yozuvchi el og'zidagi qayg'uli qissani asos qilib olib, qayta ishlab, undagi obrazlar va dramatik konfliktlarni kuchaytiradi va shu tariqa sof muhabbat, yuksak insoniy tuyg'ularni qabohat bilan to'qnashuvi borasidagi o'z asarini yaratadi. Natijada pyesa jahon klassik dramaturgiyasi namunalari qayinlashadi"(9.59).

Teatrshunos olim N.Lvov G'abit Musrepov o'z dramasi Shekspirdan ta'sirlanganini qayd qilgan ekan, undagi sevishganlar "Romeo va Julietta"ni esga solishini ta'kidlaydi. Uning yozishicha, pyesada yetakchi obraz darajasiga olib chiqilgan Jantiq, ya'ni Qoraboyning do'sti va maslakdoshi aslida epik materialda bo'lmagan obraz. Jantiq Shekspirdan ruhanib, yaratilgan o'ziga xos Yagodir (10.9). Pyesa ilk bor Chimkent teatrida o'ynalgan. Biroq u birmuncha keyinroq, Qozoq akademik drama teatrida sahnalashtirilganida (rej. N.Nasonov, 1940-yil) chinakam muvaffaqiyat qozonadi. Rejissyor N.Nasonov tragediyaning folklor sifatini saqlab qolgan holda, oldingi planga Qo'zi va Bayan muhabbatini qo'yadi. Insoniylikdan yiroq Qoraboy va Jantiq obrazlarida esa razolatni aks ettiradi. Asosiy konflikt muhabbat va razolatning kurashi tariqasida belgilanadi. Qoraboy – mol-mulkidan bo'lak narsani muqaddas deb bilmaydigan darajada johil, gumroh banda. Yolg'iz qizi Bayanning qachonlardir turmushga chiqib, uning boyliglariga sherik olib kelishidan havotirda yashaydi, hatto qizi borligidan o'kinadi ham. Shu bois, qizining boyligiga daxl qilmaydigan odamga erga tegishini xohlaydi.

Ovuldagilar orasida go'zal Bayanni hammadan ortiq ko'rgan Qodar qizdan rad javobi oladi. So'ngra alamiga chiday olmay, Qoraboyning yilqilarini haydab olib ketadi. Bayan o'z sha'nini himoya qilish, yilqini qaytarish uchun Qodar bilan orani ochiq qilmoqchi bo'ladi. Yo'lda u Qo'zi bilan uchrashadi. Aslida ularni taqdir to'qnashirgan bo'lib, bir kunda tug'ilgan bu ikki yosh go'dakligidanoq yetekabil, ya'ni beshikkerti qilingandi. Qo'zining otasi Sariboy vafot etgach, uning do'sti Qoraboy qizini qashshoq yetimchaga berishdan voz kechgan va bolalar ajratib yuborilgan edi.

Qo'zi va Bayan bir-birlarini ko'rgan zahotiy oq ilohiy ishq uyg'onadi. Qo'zi yilqini qaytarib Qoraboyga topshiradi. Ammo Qoraboy yigitning kimligini bilgach, sarosimaga tushadi. Hamisha maslahatgo'yi bo'lgan do'sti Jantiq qizini qashshoq Qo'ziga emas, balki boyvachcha Qodarga berishi kerakligini aytib, ko'nglidagini topadi. Qodar qizga yetishish uchun raqibi Qo'zini o'ldiradi. Bayan – noan'anaviy obrazlardan bo'lib, u kurashchan qiyofada namoyon bo'ladi. Sevgilisi uchun qasd olib, Qodarni o'ldiradi. So'ngra barcha beshikkerti qilinganlar kabi ayriliqqa ko'nmay o'zini ham halok etadi.

So'nggi yillarga kelib, epik meros namunalari asoslangan

sahnaviy va ekran asarlari yaratishda yangi uslubiy izlanishlar kuzatilmoqda. Ularda eposlarning tub mohiyatini o'rganish, tagma'nolarini ochish, erkin yondoshuv oldinga chiqqan. 1992-yilda Asanali Ashimov rejissorligida "Ko'zi Ko'rpeh-Bayan sulu" filmi suratga olindi, 2002 yilda M.Auezov nomidagi qozoq akademik drama teatrida rejissyor K.Sugurbekov G.Musrepov pesasini qayta sahnalashtirdi, 2021 yilda esa ana shu libretto asosida postanovkachi G.Kovtun "Astana balet" teatrida yangi balet spektaklini yaratdi.

1992-yil "Turkmanfilm"da rejissor K.Ananov "Zohra-Tohir" badiiy filmi suratga oldi, Maxtumquli nomidagi turkman opera va balet teatrida 2010-yilda "Zohra-Tohir" operasi qayta sahnalashtirildi.

Merosiy durdonalarga hamisha e'tibor qaratilgan respublikamizda ham "Tohir va Zuhra" asari rejissorlarning ijodiy izlanishlari markazidadir. 2008-yilda Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik opera va balet katta teatrida "Tohir va Zuhra" operasi qaytadan sahnalashtirildi. Rejissor Haydarali Uzoqov va dirijor Fazliddin Yoqubjonovlar spektaklda Sobir Abdulla librettosini asos qilib oldilar, teatring mahoratli solistlari yetakchi partiyalarni ijro qilishdi. Shunday bo'lsada, spektakldan "Tohir va Zuhra"ni endilikda sahnaga qaytarish uchun yangi davr didi, talabi, dunyoqarashi zarurligi, u muayyan ma'noda ilgari pesa va libretto ni inkor qilmog'i lozimligi anglashildi.

2010-yilda mazkur doston asosida dramaturg Usmon Azim ilk bor "Tohir va Zuhra" dramasi yaratdi. Unda avvalgi variantlardagi sinfiy kurash tushunchalariga barham berildi, pyesada Tohir va Zuhra muhabbati ilohiy tuyg'u tarzida hal etildi. Xon Boboxon davlat hukmdori atrofida kechadigan ichki ziddiyatlar, saroy fitnalari bilan to'qnashuvda namoyon bo'ldi. Mazkur dramatik asar viloyat teatrlarida sahnalashtirilib, muvaffaqiyat qozondi.

2015-yilda Muqimiy nomidagi musiqali teatrdan ham aynan shu talablar asosida ishlangan yangi "Tohir va Zuhra" spektakli sahnaga chiqdi. Rejissor A.Farmonov boshchiligidagi ijodiy guruh mazkur musiqiy dramada muhabbat va qabohat o'rtasidagi azaliy kurash mavzusini markazga qo'ygan. Mazkur musiqiy dramada bastakor To'xtasin Jalilov yaratgan va spektaklning dastlabki variantlarida eng katta muvaffaqiyat qozongan barcha ariya hamda duetlar saqlab qolingan. Yangilangan syujet dramaturg Sobir Abdulla pyesasi bilan bir qatorda "Tohir va Zuhra" xalq dostonida aks etgan boqiy sevgi va dunyoning azaliy ziddiyatlari mavzusiga asoslangan.

Bugungi kunda teatrlarimiz repertuarini bezab turgan mazkur spektakllar milliy merosimizni o'rganish borasidagi izlanishlarning bir qismi xolos. Oldinda esa xalq ijodi durdonalariga asoslangan yangi pesalar va spektakllar yaratish vazifasi turibdi. Zamonaviy teatr sahnasini chuqur mazmun, keng ma'no mantiqqa to'liq bo'lgan, milliy va umuminsoniy masalalarga e'tibor qaratgan merosiy asarlar bilan boyitish endilikda nihoyatda muhimdir.

Adabiyotlar ro'xati:

1. Tohir va Zuhra. Nashrga tayyorlovchi M.Saidov. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1974. – B. 308.
2. Tohir va Zuhra. Nashrga tayyorlovchi M.Jo'rayev. – Toshkent: "Muharrir", 2011. – B. 208.
3. Tursunboyev S. Andijon teatri /tarixiy ocherk/. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1970. – B. 144.
4. Abdurahmonova M. Sobir Abdulla. – Toshkent: Fan, 1980. – B. 167.
5. Tursunov T. Sahn va zamon. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2007. – B. 415.
6. "Зоҳра-Тахир". Туркменская искра 1926 г., 1 ноябрь
7. Народный эпос "Кузы-Курпес-Маян-Хылу". Под ред. А.Н.Киреева. – Уфа: Уфимский институт истории, языка и литературы, 1964. – С. 124
8. Назарбаев Н. "Мдени мұра" баедрлама болуы тиіс. // "Егемен Қазақстан", – 2003 жыл, 29 қараша. № 311-312.
9. Сабуллин Н. Сабит Місірепов – драматург. – Алматы: Гінер, 1982. – Б. 192.
10. Львов Н. Казахский театр. Очерки истории (под общ. ред. проф. Г.Гояна). – М.: Искусство:1961. – С.191.

SHARAFIDDIN ALI YAZDIYNING "ZAFARNOMA" ASARI VA UNING SAHNAVIY TALQINI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur va temuriyozdalar faoliyatiga oid asarlardan biri Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari va uning sahnaviy talqini haqida so'z yuritiladi. Xususan, Amir Temur shaxsiga, insoniy xislatlariga alohida to'xtab o'tilgan. Asarning yozilish tarixi hamda jahon adabiy merosi sifatida beqiyos o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: qo'lyozma, repertuar, spektakl, kompozitsiya, dialog, xarakter, rejissor, monolog, badiiy yechim.

Кахрамон МАДРИМОВ,
преподаватель кафедры "Искусства музыкального, драматического театра и кино" ГИИКУЗ

ПРОИЗВЕДЕНИЕ ШАРАФИДДИНА АЛЬ ЯЗДИ ЗАФАРНОМА И ЕЕ СЦЕНИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация: В данной статье рассматривается произведение Шарафиддина Али Язди «Зафарнома» и его театральная интерпретация, одно из произведений о деятельности Амира Темура и Темуридов. В частности, особое внимание было уделено личности и человеческим качествам Амира Темура. Раскрывается история произведения и его уникальное место как мирового литературного наследия.

Ключевые слова: рукопись, репертуар, спектакль, композиция, диалог, персонаж, режиссер, монолог, художественное решение.

Kahramon MADRIMOV,
Lecturer at the department of Art of Musical, Drama Theater and Cinema of UzSIAC

SHARAFIDDIN ALI YAZDI'S WORK ZAFARNOMA AND ITS STAGE INTERPRETATION

Abstract: This article deals with the work of Sharafiddin Ali Yazdi "Zafarnoma" and its theatrical interpretation, one of the works on the activities of Amir Temur and the Temurids. In particular, special attention was paid to the personality and human qualities of Amir Temur. The history of the work and its unique place as a world literary heritage are revealed.

Keywords: manuscript, repertoire, performance, composition, dialogue, character, director, monologue, artistic solution.

"Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor".¹ Shu o'rinda aytish lozimki, tarixda Amir Temur va temuriyozdalar faoliyatiga oid ko'plab ilmiy va badiiy asarlar yozilgan. Ular orasida "Zafarnoma" asari alohida mavqega ega hisoblanadi. Eronlik ulug' tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiyning mazkur asarni yaratilganiga qariyb yetti asr bo'lgan. Mana shu vaqt oralig'ida asar hanuz qimmatini saqlab kelmoqda. U bugungi kunga qadar qanchadan qancha tarixiy ilmiy hamda badiiy asarlarning dunyoga kelishiga ishonchli manba sifatida xizmat qilmoqda. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si hijriy 828-yili (melodiy 1424 – 1425) fors tilida yozib tugatilgan.²

Mazkur asar Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy tomonidan Shayboniyar sulolasidan xon Ko'chunchixon farmoniga ko'ra 1519-yilda eski o'zbek adabiy tiliga tarjima qilingan.³ Bu tarjima 1997-yil Toshkentda izohlar va ko'rsatkichlar ilova qilingan holda chop etilgan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si Amir Temur tarixiga bag'ishlangan

asarlarning haqiqatga eng yaqini va eng mukammali hisoblanadi. Asar til uslub jihatdan fors tilining o'sha XV asr adabiy uslubini mukammal darajada o'zlashtirgan kishilar uchun mo'ljallangan. So'z boshi, ikki fasl va xotimadan iborat asar muqaddimasida Temur shajarasini bayon etish va uning o'zidan oldin o'tgan hukmdorlardan davlat arbobi va lashkarboshi sifatidagi ustunligi xususidagi fikrlar bayon etilgan. Asar yozilganidan beri necha marotaba qayta-qayta ko'chirilgan, turli Sharq va G'arb tillariga ham to'la, ham qisman tarjima qilingan va bir necha marta nashr etilgan. Shunday nashrlarning eng mukammali 1972-yili A.O'rinboyev tomonidan nashrga tayyorlangan nusxadir.⁴

Manbalarda keltirilishicha, Sharafiddin Ali Yazdiy o'z davrining juda bilimli, ilmiy kishilaridan bo'lgan. Shuning uchun ham u Temuriy shahzodalar saroyida xizmatga taklif etilib, zamondoshlari orasida ma'lum darajada shuhrat qozongan. "Zafarnoma" asarining bitilish tarixi ham muallifning o'z davrining yetakchi muarrixlaridan biri bo'lganligidan dalolat beradi. Bu asar "Fathnomayi sohibqiron", "Tarixi jahonkushoyi Temuriy" degan nomlar bilan ham ataladi, lekin tarix fanida u ko'proq "Zafarnoma" nomi bilan mashhur. Asar tuzilishi jihatidan ikki qismga: Temurdan oldingi davr tarixidan umumiy tarzda so'zlovchi "Muqaddima" va bevosita Temur davri tarixini yorituvchi asosiy qismga bo'linadi. Har bir qism uchun alohida-alohida yozilgan, ko'p jihatdan musharaklikka ega bo'lgan so'zboshilarda muallif mazkur qismlarning yozilish tarixini yoritib beradi. U har ikki qism ham Shohruxning o'g'li Ibrohim Sultonning tashabbusi bilan yozildi, deb ko'rsatadi. Ibrohim Sulton o'z bobosi Amir Temur haqida maxsus kitob yozilishini niyat qilgan va hijriy 822 (1419–1420) yilda o'z vaqtida baxshiy va munshiyalar tomonidan Temur haqida turkiy, forsiy tillarda yozib qoldirilgan mavjud ma'lumotlarni yig'ib keltirish haqida farmon chiqargan. Bu ish amalga oshgandan so'ng mazkur ma'lumot-hujjatlarni o'rganishga kirishilgan.

¹ Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // <http://uz.a.uz/>. – 03.08.2017.

² Primov A. "Zafarnoma asarining o'zbekcha tarjimasidagi harbiy terminlar haqida" // "O'zbek terminologiyasi: bugungi holati va istiqboli" ilmiy-nazariy anjuman materiallari // Toshkent: 2017. – B. 88.

³ Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. (So'z boshi, tabdil, izoh va ko'rsatkichlar mualliflari va nashrga tayyorlovchilar: Ashraf Ahmad, Haydarbek Bobobekov) – Toshkent: Sharq, 1997 – B. 384.

⁴ Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Nashrga tayyorlash, so'z boshi, izoh va ko'rsatkichlar // A. O'rinboyev. Toshkent, "Fan", 1972.

Dastlab Temur haqidagi har bir hikoya o'qilgan, agar uning mazmuni voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishining talqiniga to'g'ri kelmay qolsa, Ibrohim Sulton haqiqatni tiklash uchun turli shaharlarga choparlar yuborib, mazkur voqeani Temurning yana boshqa zamondoshlaridan surishtirgan yoki qo'shimcha ma'lumotlar to'plagan. Ana shu qo'shimcha guvohlar hikoyatlarini ham tinglagach, Ibrohim Sulton aytib turgan va kotiblar yozib borgan. Shu tarzda asarning dastlabki xomaki nusxasi tuzib chiqilgan. So'ng ana shu xomaki nusxa asosida Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarini yozgan. Ibrohim Sultonning qat'iy buyrug'iga asosan kitobni yozish vaqtida sanalar, joy nomlari, ular orasidagi masofa o'lchovlari haqidagi barcha ma'lumotlar juda sinchiklab tekshirilishi lozim bo'lgan. Sharafiddin Ali Yazdiydan esa asarni jonli til bilan tushunarli qilib yozish talab etilgan va shuningdek, hujjatlariga qat'iy rioya qilishi, Ibrohim Sultonning bevosita shaxsiy nazorati ostida tuzilgan dastlabki xomaki yozuvdan aslo chetga chiqmasligi hamda hech narsani bo'yab ko'rsatmasligi shart qilib qo'yilgan.

Mustaqillik yillaridan milliy tariximizni tiklash va ajdodlarimiz hayoti va dunyo taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini yoritish, kelajak avlodga ularni chuqur o'rgatishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Bunda nafaqat fan, balki adabiyot va san'atning ham xizmatlari sezilarli bo'ldi. Jumladan, teatrlar sahnasida sohibqiron Amir Temur obrazini yaratishga qaratilgan ijodiy izlanishlar yuzaga chiqdi. So'nggi yillarda teatrlar repertuarini badiiy barkamol tarixiy spektakllar bilan boyitish maqsadida sezilarli ishlar amalga oshirilayotganligi sir emas. Shunday ijobiy hodisalardan biri sifatida Buxoro viloyati musiqali drama teatri jamoasining Amir Temur siymosiga bag'ishlangan "Zafarnoma" tarixiy spektaklini keltirib o'tish o'rinli. Mazkur sahna asari aynan Sharafiddin ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari asosida Sohibqiron Amir Temur tavalludining 680 yilligiga bag'ishlab sahnalashtirildi. Bugungi kunga qadar o'zbek teatr san'atida Amir Temur va Temuriylar faoliyati tuganmas mavzulardan biri hisoblanib, ularning badiiy obrazlarini yaratish teatr ijodkorlaridan katta ijodiy tayyorgarlik talab qiladi.

Ana shunday ijodiy izlanishlarning yana bir namunasi sifatida "Zafarnoma" spektakliga qo'l urilishi teatr ijodkorlari tomonidan muhim madaniy hodisa sifatida qarshi olindi. Asar taniqli rejissor Sayfiddin Meliyev tomonidan sahnalashtirilib, "Zafarnoma"dagi qimmatli ma'lumotlarga tayangan holda sahnaviy talqin etilgan. "Qayerdagi badiiy timsol yaratilmas ekan, u yerda san'at haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Biroq aktyorning ijodi ikkilamchi. Ya'ni u ijrochi, xolos. Shuning uchun aktyor, avvalo, birlamchi manba bo'lmish san'at – dramaturg asariga murojaat qiladi". Albatta ilmiy tarixiy asar boshqa, sahnaviy asar boshqa. Ushbu spektakldagi Amir Temur siymosi va sahna asarining badiiy talqini haqida atroflicha fikr yuritish mumkin. Unda "Zafarnoma"dagi Amir Temur haqidagi qimmatli va boy materiallaridan unumli foydalanilgan, ilmiylikka asoslanib badiiylik yaratilgan.

Ma'lumki, sahna asarining dunyoga kelishida dramaturgik asosning mazmuni, badiiy -g'oyaviy mohiyati va shakli muhim rol o'ynaydi. Ushbu spektakl voqealarida Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelgunigacha bo'lgan faoliyatidan to Temuriylar saltanatining eng gullagan davrigacha bo'lgan qismi qamrab olingan bo'lib, uni ifodalashda Amir Temurning siyosiy faoliyatining eng muhim voqealari spektakl fabulasini tashkil etadi. Teatrlashtirilgan kompozitsiya mualliflari Sayfiddin Meyliyev va Mohigul Nazarovalar "Zafarnoma"dagi faktlar asosida tarixiy voqelikni yoritish bilan birgalikda Amir Temurning insoniy va hukmdorlik xususiyatlarini, irodasi va tadbirkorligini ochib berishuvchi voqealar tizmasini yaratishga jiddiy e'tibor qaratgan.

⁵ Dehqonov Ravshanjon. Aktyorlik mahorati. O'quv qo'llanma. Qo'qon, 2020. – B. 159.

⁶ Shu manba.

"Faqat hayotiy hislar va kechinmalargina sahnaning to'laqonli egasidir. Bu haqda Stanislavskiyning o'zi shunday deydi: "Barcha janrlarning asosida hayot yotadi". Demak, unung fikricha sahna bu – badiylashgan hayotdir. Hayotiy haqiqatning asosiy jihati shundaki, u hayotni haqqoniy aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu ta'limot boshidan oxirigacha hayotiy haqiqat tushunchasi bilan sug'orilgan. Shuning uchun rejissorlar aktyorlar uchun soxta haqiqat bilan hayotiy haqiqatni bir-biridan farqlashni bosh vazifa deb bilish kerak. Aktyor ijrosidagi har bir harakatni hayotiy haqiqatga taqqoslashni odat qilishi lozim. Hayotiy haqiqat aktyorlik va rejissorlik faoliyatda eng e'tibor qaratish lozim bo'lgan qismidir. Ayniqsa, bo'lajak aktyorlarni tayyorlashda etudlar ustida ishlashda bunga alohida ahamiyat berish kerak".

Dramatik hikoyat uslubidagi ushbu spektaklda voqealarni hikoya qilib beruvchi roviy obrazi kiritilib, butun voqealar Yazdiy obrazidagi (Anvar Mavlyanov) muallif tomonidan hikoya qilib beriladi. Spektakl voqealari jang-u jadallar suroni eshitilib turgan zim-ziyo sahnada sham ko'targan nuroniy roviyning paydo bo'lishi bilan boshlanadi. U hikoya qilib berayotgan kechmishlarda 24 yoshli Amir Temur va Amir Husaynning Amir Turkmanning zindonidagi 62 kunlik qamali, loy jangi va undan keyingi Amir Husayn bilan bo'lgan ziddiyatlari, rafiqasi O'ljoy Turkon Og'aning vafoti, Saroyulkxonim bilan tanishuvi, to'ng'ich o'g'li Jahongir Mirzoning vafoti, Mironshoh va Shohruh Mirzolar bilan otalik va hukmdorlik munosabatlari, Oltin O'rda xoni To'xtamishxon va turk sultoni Yeldirim Boyazidlar bilan bo'lib o'tgan ziddiyatlari hamda saltanatni birlashtirish yo'lidagi turfa jang-jadallar namoyon bo'ladi. Bu ziddiyatlar va jang jadallarni ko'rsatish asnosida Amir Temurning insoniy va hukmdorlik hislatlari, 28 mamlakatni birlashtirib, ulug' saltanat bunyod etishdagi matonati va salohiyati ochib beriladi. Jumladan, spektaklning dastlabki zindon sahnasidayoq bosh qahramon Temur shaxsining ulug'vor jihatlariga ishora beriladi. Amir Husayn o'z jonini saqlash dardida qiynalayotgan bo'lsa, Amir Temur xalqning sarosimaga tushib qolishidan cho'chiyotganligi, ikki amirning ikki xil dardi orasida qanchalar katta tafovut borligi ko'rsatiladi.

Amir Temurning ota sifatidagi xislatlari o'g'li Jahongir Mirzoning o'limidan keyingi iztiroblarida, qizi Tog'ayshod Oqabegimni har bir yurishida o'zi bilan birga olib yurishlarida aks etadi. Uning adolati podshoh sifatidagi qattiqqo'lligi va adolati jigarbandi, Tabriz hukmdori Mironshoh bilan bog'liq sahnalarda namoyon bo'ladi. Ayshu ishratga berilib, g'animlar so'ziga uchib, xalqqa og'ir soliqlar solayotgan, fozil kishilarni dorga tortayotgan o'g'lini Temur o'z farzandi bo'lishiga qaramay, adolat yuzasidan jazolab, uni sazoyi qilishdan tap tormaydi.

Spektaklning yuzaga kelishida aktyorlarning ijrosi, rollar talqini an'anaviy yondashuvga qurilgan bo'lib, unda 20 dan ortiq personajlar ishtirok etadi. Bu personajlarni jonlantirgan aktyorlar orasida Amir Temur (Muhammadamin Nasriddinov, Ilhom Toirov), Mironshoh (Shodi Subhonov), Amir Husayn (Turob Jumayev), To'xtamishxon (Rahim Ergashev), Yildirim Boyazid (Zayniddin Karimov), Mir Said Baraka (Telman Komilov) singari personajlarning ijro talqinlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki bu qahramonlar spektakl voqealarining rivojlanib borishida jiddiy vazifa bajaradi. Shu bilan birga bu obrazlarni jonlantirish aktyorlardan jiddiy tayyorgarlik va aniq ijro uslubini topishni talab etadi. Sababi, ularning hech biri to'qima obraz emas, aksincha tarixiy shaxslar hisoblanadi. Bunday rollarni ijro etishda aktyordan alohida tayyorgarlik, tajriba, rejissordan esa mahorat va maqsadli yondashuvni talab qilishi tabiiy.

Har bir personaj, har bitta voqea bosh qahramon bilan bog'liqlikda kechadi. Spektakl kompozitsiyadagi bosh obraz Amir Temur obrazi talqini aktyor uchun ham rejissor uchun ham og'ir vazifa yuklaydi. Chunki spektaklning butun voqeligi markazida ushbu qahramon turadi. Umuman, Amir Temur obrazini yaratish oson ish emas. "Zafarnoma" spektaklida

Temur siymosini talqin etgan yosh aktyor Muhammadamin Nasriddinovning ijro darajasi haqida alohida to'xtalish joiz. Aktyorning qomati, nigohi va sahnaviy salobati bosh qahramon siymosini gavdalantirishga muvofiq keladi. Biroq, ulug' hukmdorning xarakteri, ichki qudratini ochib berish aktyordan katta ijodiy kuch talab etadi. Bir so'z bilan aytganda, Amir Temur siymosini sahnada jonlantirish aktyorlar uchun ham ijodiy daraja bo'lib, undan ham tashqi-qiyofaviy, ham ichki-ijodiy salohiyat jihatdan yetuklikni talab etadi. Ochig'i, bugungi kunda bu kabi siymolarni yaratuvchi aktyorlar taqchil bo'lganligi bois, rejissor ushbu spektaklda Amir Temur obrazini talqin etishda boshqacharoq usulni qo'llagan. Ya'ni, Amir Temur bir vaqtning o'zida sodir bo'layotgan voqealarda ishtirok etayotgan bo'lsada, ularning bari qahramon nazdida, ichki xayollari va xotiralarida qayta gavdalanayotgandek holatni eslatuvchi sinxron ovozdan, monolog va dialoglardan foydalangan. Sababi sahnada Temurni o'ynayotgan aktyor yosh, uning ovozi obrazning mohiyatini ochib bera olmasligi mumkin. Shuning uchun rejissyor bir aktyorning ovoz imkoniyati va ikkinchi aktyorning (Ilhom Toirov) tashqi qiyofasini bir spektaklda birlashtirishga intilgan. Aktyor Muhammadamin Nasriddinov yosh bo'lsa-da, o'z ijrosi, nigohi va xatti-harakatlarida Amir Temurga xos iroda, vazminlik, aql-idrok va ma'naviy baquvvatlik, jasurlik xususiyatlarini qiyofasi, xatti-harakatlarida namoyon eta bilgan.

“Xatti-harakat aktyorning birdan bir ishonchli quroli hisoblanadi. U maqsadga olib boruvchi yagona yo'ldir. Pyesa bo'yicha har bir qahramonning o'z oldiga qo'ygan oliy maqsadi bo'lib, u shu maqsadga erishish uchun harakat qiladi. K.S.Stanislavskiy bu harakatni “yetakchi xatti-harakat” deb ataydi. Yetakchi xatti-harakat esa oliy maqsad sari olib boradi”.⁷

Spektakldagi To'xtamishxon, Boyazid rollarini jonlantirgan aktyorlar Rahim Ergashev, Zayniddin Karimovlarning ijro talqinlari ham o'ziga xosligi, xarakterni namoyon qilish usullarining aniq topilganligi, tarixiy haqiqat bilan sahna haqiqatini uyg'unlashtirishda tajribalarining mavjudligi bilan ajralib turadi. Masalan, aktyor Rahim Ergashev To'xtamishxonni oddiy gapni ham baqirib gapiradigan, mulozamatni ko'p ham o'rniga qo'ya bilmaydigan to'pori va biroz yovvoyiroq xarakterda ijro etishi bilan birga, uning naqadar o'z kuchiga ishonishi, ayyor va murakkab odam ekanligini mohirona ifoda etganini ko'rish mumkin.

Boyazid xarakterini ochilishida esa aktyor o'ziga xos uslub topishda qahramonining kuchli, vajohatli va o'ziga haddan ortiq ishonchini bo'rttirib ko'rsatsada, ammo bularning tagida aslida aqlsizlik va haddan ortiq ahmoqlik yotishini asos qilib olgan.

Rejissor va rassom (sahnalashtiruvchi rassom Zavqiddin Yodgorov) bilan bunday ulkan tarixiy davr aks etgan voqealarni talqin etishda sahnaviy shartlilikdan unumli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, har joyda kechadigan voqealarni ko'rsatishda sahnada shartli ravishda makon birligini ta'minlaydi. Sahnani egallagan qadim Samarqand minoralari aks etgan dekoratsiya o'rtasidagi baland taxt va uch saroy darvozasi spektakl davomida o'zgarman holda tomoshabinga barcha

voqealar muhitini ko'rsatishga, aktyorlarning sahnada erkin harakat qilishiga imkoniyat yaratadi.

Jang-jadallar, tarixiy vaziyatni ifodalashda rejissor zamonaviy media texnikalaridan unumli foydalanib, saroy devorlari sirtida sahnada sodir bo'layotgan voqealikka mos tarixiy video lavhalarini ko'rsatadi. Shuningdek, ommaviy sahnalarda nayza va qilichlar ramzida Temur lashkarlarining kuch qudratini ochib beradi. “Aktyorning rol ustida ishlashining ijodiy jarayonidagi eng muhim va mas'uliyatli damlar – bu harakatning yuzaga kelish davridir. Bu davrda xatolikka, ko'zbo'yamachilikka, ichki sezgilarning adashishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki mana shu harakatning to'g'ri boshlanishi spektakl ustidagi butun ishlarning muvaffaqiyatli tugashi garovidir. Demak, aktyor o'z-o'zini harakatini to'g'ri boshqarish sari yetaklab kelishi kerak ekan”.⁸

Yana bir e'tiborli jihat – spektaklda ishtirok etayotgan tarixiy shaxslarning o'zaro munosabatlari va tarixiy faktlarni ifodalashda rejissor qator badiiy yechimlar o'ylab topgan. Masalan, Amir Temur va Amir Husaynning qarindoshlik rishtalari mavjud. Temurning rafiqasi O'ljoy Turkon Og'o Amir Husaynning singlisi. Rejissor ushbu tarixiy faktni tomoshabinga aytishning shakliy usulini qo'llaydi. Ya'ni, spektaklning bu ikki amir o'rtasiga nifoq tushib, ziddiyatlar avj olgan sahnasida ular o'rtasida turgan O'ljoy Turkon qo'lidagi alvon matoning bir tarafini eri Amir Temur tutib turgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan akasi Amir Husayn tortib turadi. Bu tortishuvlar orasida O'ljoy Turkon halak. Ammo bu qarindoshlik manfaatlar va xiyonat tufayli barham topdiki, oxir oqibat ikkisi ham bu rishtani qo'yib yuboradi. Shu kabi sahnaviy yechimlarda spektaklda so'z va tarixiy faktlarning jonli tarzda tomoshabinga yetkazilishiga e'tibor qaratilgan. “Bizkim mulki turon, amiri Turkistonmiz, biz kim millatlarning eng ulug'i, turkning bosh bo'g'inimiz”. Spektakl finali ushbu jumlar jarangida Sohobqironning uzoq va mashaqqatli kurashlar, ko'plab zafarlari va yo'qotishlar evaziga matonat va adolat bilan bunyod etgan saltanati poytaxti bo'lmish Samarqanddagi shonli, gullab yashnagan davr bilan ifoda etiladi.

Umuman, sahna san'ati va adabiyot har qanday tarixiy haqiqatni ko'rsatishda nima bo'lganligini badiiy tasvirlar orqali tushuntiradi. Rejissor, aktyor, rassomdan tortib, musiqiy bezakchigacha bo'lgan hamjihat ijodiy jamoa tomonidan namoyish etilgan spektaklda tasvirlangan tarixiy voqealar tomoshabinni hayrat va hayajonga solib kelmoqda.

“Zafarnoma” spektakli hozirgi kunda Buxoro viloyati musiqali drama teatri sahnasida namoyish etilib, ulug' tarixchi qoldirgan asarda tasvirlangan tarixiy voqealar va tarixiy shaxslarni tomoshabin ko'z oldida yaqqol va jonliroq tasavvur ettirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, spektaklni yaratishda asar voqealarining haqqoniyligi, ishonarli, tushunarli bo'lishiga katta e'tibor qaratilgan. Spektaklda barcha aktyorlar o'zlariga yuklatilgan vazifani mahorat bilan bajargan. Ular yaratgan qahramonlarning nafaqat tashqi ko'rinishini, balki ichki hissiyotlarini ham qoyilmaqom tarzda ochib berishga harakat qilishgan. Shu bois, teatr peptuari va tomoshabinlari qalbidan mustahkam o'rin egalladi.

⁷ Ko'rsatilgan manba.

⁸ Ko'rsatilgan manba.

MUHAMMAD YUSUF DOSTONLARIDA TURG'UN IBORALARNING IFODALANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muhammad Yusuf dostonlaridagi turg'un iboralarni qo'llanilishi, ularni qaysi usullarda foydalanilganligi, iboralarning asar xarakterini, mazmun-mohiyatini ochib berishida muhim ahamiyat kasb etganligi haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: turg'un ibora, frazeologiya, grammatik, leksik, doston.

Гульхумор ДЖАМАЛХОДЖАЕВА,
Преподаватель кафедры «Фольклор и этнография»

ВЫРАЖЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ МУХАММАДА ЮСУФА

Аннотация. В этой статье описывается использование фразеологизмов в эпосах Мухаммада Юсуфа, способы их использования и важность выражений в раскрытии характера и содержания произведения.

Ключевые слова: регулярное выражение, фразеология, грамматика, лексика, эпос.

Gulxumor DJAMALXODJAYEVA,
Lecturer at the Department of Folklore

EXPRESSION OF CONSTANT PHRASES IN THE WORKS OF MUHAMMAD YUSUF

Annotation. This article describes the use of regular expressions in Muhammad Yusuf's epics, the ways in which they were used, and the importance of the expressions in revealing the nature and content of the work.

Keywords: regular expression, phraseology, grammar, lexicon, epic.

Qalb ko'zgusi bu albatta tildir. Bu ko'zguning qanchalar go'zal, beg'ubor va betakror ekanligi xalq tili imkoniyatlaridan mohirlik ila foydalanib, obrazli badiiy tasvir yarata olishda namoyon bo'ladi. Tilimizning leksik boyligini tashkil etuvchi iboralar tilshunoslarning doimo diqqat e'tiborida bo'lgan. Iboralardan badiiy asarlarda foydalanish muhim badiiy imkoniyat vositasi hisoblanadi. Zotan, badiiy tildagi har bir so'z, uning har bir shakli individual shaxs yoki ijodkor tafakkuri va tuyg'usining hosilasidir. Iboralar nafaqat og'zaki uslubda, nasrda, balki nazmda ham o'ziga xos o'ringa ega. Nutqning bunday lingvistik vositalari yordamidagi ifodasini barcha asarlarda kuzatishimiz mumkin. Birdan ortiq leksik negizida tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so'zga ekvivalent, yaxlitligicha ustama ko'chma ma'no anglatuvchi lug'aviy birlikdir [1.6], ya'ni ibora va frazeologik birliklar badiiy ijodda katta ahamiyatga ega. Binobarin, o'zbek tilshunosligida ham badiiy asarlardagi frazeologizmlar alohida tadqiqot ob'ekti bo'lganligi, ko'plab tilshunoslar o'z tadqiqotlarida buni asoslab berganligi ma'lum. O'zbek tilidagi ana shunday frazeologik birliklarning funktsional-uslubiy xususiyatlarini chuqur tadqiq etgan olim B.Yo'ldoshev quyidagicha ta'kidlaydi: "Frazeologik birliklar so'zlardan farqli holda ob'ektiv reallikdagi muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi frazeologik birliklarning asosiy qismi ma'no jihatdan insonga qaratilgan: ular kishining biror fizik, ruhiy, axloqiy, intellektual xususiyatini, xatti-harakatini baholaydi. Shu sababli frazeologik birliklarning ma'no tarkibida ko'pincha konnotativ element ishtirok etadi. Bu element frazeologik birlikning denotativ ma'nosiga emotsional-ekspressiv bo'yqordorlik yuklaydi" [2.19].

Professor M.Yo'ldoshev esa iboralar haqida shunday fikr bildiradi: "O'zbek tilida xalqning o'ziga xos tafakkur tarzi, kuzatuvchanlik zakosi, badiiy tasavvur va taxayyul qudratini namoyon etuvchi iboralarning ulkan ganjinasi mavjud. Ko'plab o'zbek adiblarning bu ganjinadan foydalanishlaridagi o'ziga xosliklar, ularning bu boradagi mahoratlari, yutuq-kamchiliklari o'zbek filologiyasida ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da, hali bu masaladagi tadqiqotlarni yetarli deb bo'lmaydi... Ayni paytda badiiy asar matniga olib kirilayotgan ibora boshqa birliklar bilan nafaqat lisoniy jihatdan, balki ruhiy estetik jihatdan ham uyg'unlik hosil etmogi lozim". [3.40]

Aynan shu xalq tili boyligining qadrini, uning turli ma'no jilvalarini ardoqlagan adib hamda shoirimiz juda ham ko'p. Shu jumladan, barqaror til birligi hisoblangan iboralar Muhammad Yusuf ijodida ham mohirona qo'llanilgan.

Adib tomonidan "tasvir maqsadiga favqulodda muvofiq iboralarni

tanlash bilan kifoyalanib qolmaydi, balki ularni qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi, qayta ishlaydi ham. Xalq iboralarning tuzilishi, tarkibi va mazmunini g'oyat ustalik bilan sayqallaydi, ularga yangicha ma'no nozikliklari va ohor berib, asli mazmuni to'q bo'lgan bunday til birliklarini yanada to'yintiradi, boyitadi. Bunday iboralar, tabiiyki, asardagi go'zal tasvirni yanada go'zallashtirishi barobarida asar ruhiga tamomila singib ketadi." [3.43] Chunonchi, Muhammad Yusuf dostonlaridagi iboralarni tahlil qilar ekanmiz, kuzatuvlarda e'tiborni iboralar 2 xil ko'rinishda aks etganligiga qaratdik:

1. Shaklan o'zgartirgan iboralar.

2. Ilk shakli saqlangan iboralar.

Binobarin, shaklan o'zgartirgan iboralar shoir ijodiy qo'llash orqali dostonlarga o'zgacha ruh baxsh etib, ushbu iboralar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. **Ba'zi bir so'zlar o'rniga ma'nodosh leksema bilan almashtirilgan iboralar.** Muhammad Yusuf o'z asarlarida jonli tildan foydalanar ekan, ularni o'z shaklida emas, balki iboradagi leksimalarning ma'nodoshlaridan mahorat bilan foydalanuvchi yirik so'z san'atkori darajasida qo'llaganini shu bo'limda o'rganib chiqamiz:

Menga qadrdondir uning siymosi,

Tilim tebranmas hech yomon deyshga. ("Qora quyosh")

Tilim bormadi iborasining kesim qismi *tebranmas* so'zi bilan almashtirilganda to'liq misrada emas, balki qisman, iborada tovushdoshlik yuzaga kelgan. Bu o'rinda *bormadi* fe'lga nisbatan *tebranmas* fe'li tilning harakatga kelmaganligi, ya'ni biror andisha-mulohaza bilan aytishni ma'qul ko'rmaganligini yaqqolroq ifodalaydi. *Tilim bormadi* iborasiga nisbatan *tilim tebranmas* iborasi ma'noni ancha kuchli tarzda ifodalaydi. Shu bilan birga, so'zlovchining yomon holatga tushib qolganligi (g'udranib qolganligi)ni ham aniq ifodalaydi. [4.55-56] Ibra tarkibidagi so'zlarni o'zgartirishda sinonimik imkoniyatlardan foydalanish ma'no darajalarida ozgina bo'lsada, farqlanishni yuzaga keltiradi. Xalq iboralarning konnotativ ma'noda qo'llanilishi, mumkin qadar uslubiy bo'yoqdan unumli foydalanish, dostonda obrazlilikni oshirib ko'ratishtigina, bor xususiyatlari bilan ochib berishga yordam beradi. Masalan,

Poyezd kirib keldi Toshkentga,

Holi qurib keldi Toshkentga. ("Qo'hna quduq")

Keyingi misrda *holi qolmagan* iborasining mohirona o'zgartirilganligi asarga alohida ohang baxsh etadi. *Holi qolmagan* iborasining ma'nosi ruhiy yoki jismoniy imkoniyat pasayganligi, kuch-quvvatdan qolganligi ma'nosini bildiradi. Iborada *qolmagan* fe'l komponenti *qurib keldi* qo'shma fe'l komponentiga o'zgartirilgan. Bu esa iboraning mazmuniga hech qanday ta'sir qilmagan, faqatgina ifodasi ta'sirchanligini oshirishda

yordam bergan. Ikkinchi misrada *holi qurib keldi* iborasi, birinchi qordagi *poyezd kirib keldi* so'zlariga qofiyadosh sifatida tanlanganligi ham asarning emotsional-ekspressiv bo'yqordorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

2. **Iboralar grammatik jihatdan o'zgartirilib qo'llanilgan.** Iboralarni grammatik jihatdan o'zgartirilib qo'llanish holatlari Muhammad Yusuf dostonlarida ham uchraydi.

Jumladan:

Moziydan bir padarkushning

Qo'llari qon, sirg'alar... ("Ey, Dil...")

Qo'li qon iborasidagi *qo'l* komponentiga – *lar* qo'shimchasi bilan birga berilishi ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qilgan bo'lsa,

Be ega maskanlar bag'rimni dog'lar,

Men boshqa odamman, Men boshqa odam. ("Qo'hna quduq") satrlardagi *bag'ri dog'li* iborasi quyidagi o'zgarishlar bilan ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin: *bag'ri* turdosh otga - *im* egalik qo'shimchasi hamda – *ni* tushum kelishigi qo'shilgan; *dog'li* nisbiy sifat komponenti - *li* qo'shimchasi o'miga – *lar* ko'plik qo'shimchasi qo'shilib iborada kesim vazifasida kelgan; ibora parchada nido san'atini yuzaga keltirgan.

3. **Iboralar mazmunan doston misralariga biriktirilib, so'zlar joyi o'zgartirilganligi.** Xalq tilida ko'p qo'llaniladigan "*Joni bo'g'ziga keldi*" yohud "*Joni xalqumiga keldi*" iborasi Muhammad Yusufning "Ey, Dil..." asarida shunday ifodalanadi:

Tig' yaltirar,

Ulug'bekning

Bo'g'ziga jon sirg'alar... (Ey, Dil...)

Keltirilgan misralarda *bo'g'ziga jon sirg'alar* iborasi asl varianti *joni bo'g'ziga keldi* bo'lib, "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da ushbu iboran *chidami tugab, yashashdan ham bezor bo'lib ketmoq* degan ma'nolarni anglatadi.[5.101] *Joni* va *bo'g'ziga* so'zlari o'zaro o'rinlari almashtirilib kelgan bo'lsa, *keldi* fe'l so'z-komponenti o'miga esa ma'no jihatdan yaqin bo'lgan *sirg'alar* leksimasi bilan o'zgartirib, *sirg'algoq* so'zidan hosil bo'lgan leksima, "...sekingina surilmoq, siljimoq, yurmoq." [6.525] ma'nolarni anglatadi. Natijada so'z iboraning ifoda planida yaqqol namoyon bo'lib, uning mazmun planiga ta'sir qilmagan holda adib so'z-komponentlaridan uddaburonlik bilan foydalanilganligini kuzatamiz.

4. **Ma'nodosh iboralarning doston misralarida qo'llanilishi.** Sinonimiya til birliklari orasida semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida anchagina [5.6]. Binobarin, Muhammad Yusuf o'z dostonlarida shu imkoniyatdan unumli hamda o'ta mohirona foydalanilganligi, uning qanchalik darajada serqirra ijodkor ekanligidan dalolat beradi. Quyidagi keltirilgan misol yuqoridagi so'zlarning aniqligini tasdiqlaydi:

Orol dengiz, Orol, bechora dengiz,

Zilol dengiz, uvol-ovvora dengiz,

Baxti qora, manglayi qora dengiz,

Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon... ("Qo'hna quduq")

Ko'rinib turibdiki, parchada keltirilgan ketma-ket *baxti qora, manglayi qora* mazmunan bitta ma'noni beruvchi iboralardan badiiy matnning ta'sirchanligini kuchaytirish maqsadida yozuvchi o'ta ustalik bilan foydalanilganligiga ko'ramiz. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu iboraning asl varianti *Peshonasi qora* yohud *pehonasi sho'r* shaklida ekanligi berilgan. [6.253] Ko'rinadiki, *pehona* so'ziga *manglay* so'zining ma'nodosh qilib keltirishi, bir tomondan, sinekdoxani yuzaga keltirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, misralardagi bo'g'inlar miqdorini saqlash maqsadida bu so'z tanlangan deb hisoblash mumkin. Vaholanki, agar shu o'rinda *pehona* so'zi saqlanganda, misraning estetik jihati zaiflashgan bo'lar edi. Sifatlovchi bo'lib kelgan bu ibora *Orol dengizi* holatini yaqqolroq bo'rttirib ko'rsatishi tabiiy.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Buning

uchun iboralarning so'z-komponentlariga diqqat qilish kerak. Leksik tarkibida ayni bir so'z-komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani shubha tug'dirmaydi. [5.6] Binobarin, Muhammad Yusuf shunchalik ma'nodosh iboralar misralarda qofiyalarni mohirona qo'llaydiki, adibni "so'z san'ati dahosi" deb atasak o'rinni bo'ladi. Ushbu keltirilgan quyidagi satrlar so'zlarimizni tasdiqlaydi:

Ana, Tohir

Suvga cho'kdi,

Zuhro yutdi zahri qon,

Sayxundayo,

Jayxundayo

Oqdi bo'lib nahri qon.

Zaynablarning

Zardobidan

Kumushlarning bag'ri qon...

Asardagi keltirilgan barcha iboralar bir-biriga ma'nodoshdir. *Yutdi zahri qon* iborasi asli *qon yutmoq* bo'lib, ma'nosi qattiq qayg'u azobda qolmoq, bag'ri qon bo'lmoq. [6.329] *Oqdi bo'lib nahri qon* iborasi ushbu misralarda *qon yig'lamoq* iborasiga mazmunan to'g'ri kelgan. Qattiq, ezilib-kuyib yig'lamoq, qattiq azobli holatda yig'lamoq [6.329] ma'nolarni bildiradi. *Bag'ri qon* iborasi esa o'z shaklida ifodalanib, qattiq g'am-qayg'uli, g'am-qayg'u bilan ezilgan [6.328] mazmunini anglatadi. Demak, iboralarning barchasi bir-biriga ma'nodosh ibora ekanligini tahlil qilib, adibning so'z o'yinini mohirlik bilan ko'rsatgan hamda xalq tili bo'lmish iboralar qanchalar boyligi namoyon bo'lgan. "Badiiy adabiyot va publisistikasida iboralarni ishlatish va qo'llash yo'llari juda xilma-xil. Yozuvchi va publisistlar umumtildagi mavjud tayyor iboralardan unumli foydalanibgina qolmay, o'zlari ham shular zamirida yangi iboralar yaratadilar. Bunda ular umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangi talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish, uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullardan foydalanadilar"(7.70).

5. **Zid ma'nolik iboralarning doston misralarida qo'llanilgan.** Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, iboralarda ham so'zlardagi darajada uchraydi [5.8]. Ushbu misralarda Muhammad Yusuf turg'un iboralarning antonimiya shakllarini qo'llaganini kuzatishimiz mumkin:

U bir bag'ri daryo,

Bir bag'ritoshdir,

U bir quyosh

Ammo

Qora quyoshdir! ("Qora quyosh")

Ushbu keltirilgan misralardagi *bag'ri daryo* iborasiga diqqat qilinsa, u *bag'ri keng* [6.191] sinonimik o'zgartirilgan varianti ekanligini kuzatish mumkin. Sinonimik o'zgartirish natijasida darajalanish, ya'ni ma'noviy shakldoshlik yuzaga kelgan: *bag'ri daryo* iborasida *bag'ri keng* nisbatan fikr kuchliroq ifodalangan. Yana bu o'rinda *bag'ri daryo* iborasida kontekstga nisbatan birmuncha kinoya va kesatiq yashiringan. Yuqoridagi misolimizda *bag'ri daryo* iborasidan keyingi misrada *bag'ritosh* leksemasi qo'llanilib, bu ikki misralardagi iboralar mazmunan bir-biriga qarama-qarshi ekanligini, ya'ni antonim iboralarni ijodkor juda uddaburonlik bilan ifodalaganini kuzatishimiz mumkin. Demak, antonim iboralar asarni ixcham, mazmunder, yoqimli qiluvchi va ohangdorlikni ta'minlovchi omil hisoblanadi.

Umuman olganda, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda xulosa qilar ekanmiz, Muhammad Yusuf xalq iboralardan so'z san'atini bilimdoni sifatida mohirona foydalangan, ularni sayqallagan, o'zi ham iboralar kashfiyotchisi sifatida ularni serjilo qilgan. Demak, ana shu jiloni shakllantirgan shoirming tom ma'noda iboralarni sehr ila satrlarga singdirgani o'quvchining ko'ngil mulkiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аникин В.П. Предисловие к Словарю русских пословиц и поговорок, сост.В.П.Жуков, Москва:1966.
3. Yo'ldoshev B. "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funktsional-uslubiy xususiyatlari". 1993
4. Yo'ldoshev M. "Cho'lpon so'zining sirlari" Toshkent "Ma'naviyat". 2002. – B 40.
5. Shadiyeva.D. "Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi" Toshkent: 2007, dissertatsiya. – B. 55–56.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati Toshkent: "O'qituvchi". 1978.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
8. Shomaxsudov A. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi. 1983.
9. Muhammad Yusuf Xalq bo'l elim // O'zbekiston – Toshkent: 2018 – B. 137–204.



IV BO' LIM

**PEDAGOGIKA,
PSIXOLOGIYA**

SAN'AT VA MADANIYAT YO'NALISHIDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA YAKKA O'QUV MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH JARAYONIGA YANGICHA YONDASHISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlari bo'yicha olib boriladigan yakka o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etish, talabalar mustaqil ta'lim olishlarida zarur bo'lgan usullar, uslublar va tavsiyalar to'g'risida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: yakka o'quv mashg'uloti, konsertmeystr, nota matnlari, audio va video yozuvlar, cholg'ular, ilmiy nashrlar, chizmalar, rasmlar, lug'atlar, liboslar, andozalar.

Мирмухсин ГАПУРОВ,

Узбекская государственная академия хореографии проректор по научной работе и инновациям, профессор и др.

НОВЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ В ВУЗАХ В ОБЛАСТИ ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы эффективной организации индивидуальных занятий по спец предметам в высших учебных заведениях, необходимые методы, подходы и рекомендации студентам для самостоятельного обучения.

Ключевые слова: индивидуальное занятие, концертмейстер, нотные материалы, аудио и видеозаписи, музыкальные инструменты, научные публикации, чертежи, рисунки, словари, костюмы, шаблоны.

Mirmukhsin GAPUROV,

Uzbek State Academy of Choreography Vice Rector for Research and Innovation, Professor, etc.

A NEW APPROACH TO THE PROCESS OF ORGANIZATION AND CONDUCT OF INDIVIDUAL CLASSES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE FIELD OF ART AND CULTURE

Annotation. The article discusses the issues of the effective organization of individual lessons in special subjects in higher educational institutions, the methods, techniques and recommendations necessary for students to study independently.

Key words: individual lesson, accompanist, musical materials, audio and video recordings, musical instruments, scientific publications, drawings, dictionaries, costumes, templates.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar va sa'y-harakatlar malakali kadrlar tayyorlash, o'z iqtidori va iste'dodini to'la-to'kis namoyon etadigan hamda jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan barkamol shaxslarni voyaga yetkazishga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan bu keng ko'lamli ishlar kelajakda mamlakatimizning taraqqiyoti va hayotimiz farovonligini yanada oshirishni ta'minlashga xizmat qilishi shart. Buning uchun esa oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish lozim. Ayniqsa, bu usulni respublikamizda madaniyat va san'at yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlari bo'yicha olib boriladigan yakka o'quv mashg'ulotlarida qo'llash juda muhim jarayondir.

"Ijro bo'yicha ta'lim berish jarayonida o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga (talabalarga) ijro uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'rgatishdir. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda darsni to'g'ri tashkil etish va olib borish, turli bilimlarni o'zlashtirish, kerakli ko'nikmalarni shakllantirish xususiyatlarini hamda qonuniyatlarini bilish o'quvchi (talaba) uchun muhim ahamiyatga egadir"¹.

¹ Sharipov Nig'matjon. Rubob primada ijro etishni o'rgatish metodikasi. T.: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1990. – B.11

² Akbarov I. "Musiqqa lug'ati". T.: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1987. – B.143.

Yakka o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish jarayoniga yangicha yondashish ta'lim berishning faol shakl, metod va texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Buning uchun esa har bir o'quv mashg'uloti talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratgan holda quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- maqsad va mazmunning aniqligi;
- yakka o'quv mashg'ulotiga oid vazifalarning o'zaro bog'liqligi;
- yakka mashg'ulotning barcha bosqichlarida o'qitishning samarali usullarini to'g'ri tanlay bilish.

Bu talab o'quv mashg'ulotiga mo'ljallangan materiallarni, uning tarkibini to'g'ri va aniq tanlash hamda har bir talabaga individual tarzda yondashish bilan amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi talabaning kasbiy bilimlarini shakllantirishdagi barcha imkoniyatlardan to'liq foydalaniladi. O'qituvchining o'qitish usulini to'g'ri tanlashi uning mehnatini samarali bo'lishi, talabaning esa o'quv mashg'uloti davomida faolligini ta'minlaydi. Bu talabada mukammal bilimlar shakllanishini hamda uning egallagan bilimlarini amalda qo'llay olish malakalarini rivojlantiradi.

"Konsertmeystr (nem.konzertmeister) 2. Opera artistlari (yakkaxon solistlar), turli cholg'u asboblari (skripka, klarnet va b.) da o'rganuvchi talabalar, ashulachilar bilan mashg'ulot o'tkazuvchi, ularning ijro etiladigan musiqa asarlarini o'rganishda yordam beruvchi va konsertlarda ularga jo'r bo'luvchi pianinochi – akkompанementchi"². Shu o'rinda aytish lozimki, o'qituvchi talabaning mashg'ulot davomida

kontsertmeystr bilan shug'ullanishidan tashqari, talabaga yakka tartibdagi topshiriqlarni berib, uni mustaqil ishlashga jalb etishi lozim. O'qituvchi, konsertmeystr va talabaning mashg'ulotga puxta tayyorgarlik ko'rish, o'tilayotgan mashg'ulotning tarkibini mukammal tuzish bilan birga har bir mashg'ulotni yangi o'quv materiallari, ko'rgazmali qurollar va texnologiyalar bilan ta'minlanishi orqali o'quv mashg'ulotini samarali tashkil etish amalga oshiriladi.

Har bir fanni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Lekin yakka o'quv mashg'ulotining barcha mutaxassislik fanlari bo'yicha o'tkaziladigan yakka darslarning umumiy bo'lgan tomonlari ham bor. Bu yakka mashg'ulotlarning tuzilishida alohida ko'rinadi. Mashg'ulotning tuzilishi turlicha bo'lishi mumkin va uni doimo faqat bitta qolip asosida o'tkazish ham to'g'ri emas. Uning tuzilishi o'quv materialining mazmuni, talabaning qabul qilishi va o'zlashtirishiga hamda o'qituvchilarning kasbiy mahoratiga bog'liq. Shunga qaramasdan, yakka mashg'ulotlarning tuzilishida quyidagi asosiy bosqichlar mavjud:

- o'quv mashg'ulotida ijro uchun tanlangan asarni ta'riflash;
- mashg'ulot maqsadini tushuntirish:
- o'tgan mashg'ulotda uyga berilgan vazifalar ijrosini tekshirish;
 - yangi asar bilan bog'liq materiallarini bayon etish va talabaning mustaqil ishlashini ta'minlash;
 - o'tilgan o'quv materialini takrorlash va uni mashq hamda amaliy ijrolar bilan mustahkamlash;
 - o'rganilgan asarni konsertmeyster bilan birgalikda ijro etish;
 - talabaning bilimni tekshirish va baholash;
 - mashg'ulot bo'yicha yakuniy xulosa chiqarish;
 - uyga vazifa berish.

O'quv mashg'ulotining bu bosqichi har bir yakka mashg'ulotda doimo shu tartibda takrorlanmaydi. Chunki ijodiy izlanuvchi o'qituvchi, ularni o'z tajribasi bilan to'ldirishi,

boyitishi va mashg'ulotning maqsadi hamda vazifalariga ko'ra o'zgartirishi mumkin.

O'qituvchi yakka o'quv mashg'ulotiga tayyorlanish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berishi zarur:

- mashg'ulot vaqtini samarali rejalashtirish;
- foydalanish uchun tanlab olingan manbalarni chuqur o'rganish;
- har bir talabaning imkoniyatlarini hisobga olish;
- yakka mashg'ulotning uslubi va vositalarini to'g'ri tanlash;
- davlat ta'lim standartlari talablari asosida talabaning bilim olishini ta'minlash.

“O'quv mashg'uloti talabada samarali mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini ta'minlash maqsadida, uni o'qitish hamda tarbiyalashga qaratilgan maqsadli, ta'lim-tarbiya masalalarini hal qilishning amaliy va qulay shaklidir”³.

Xulosa qilib aytganda o'qituvchi shuni doimo yodda tutishi lozimki, talaba asarni shunchaki ijro etishi muhim emas, balki ichki bir intilish, shaxsiy tashabbus, ijodkorona ruh bilan ijro etishi muhimdir.

Qolaversa, yakka mashg'ulotlar ham barcha o'quv mashg'ulotlari kabi belgilangan vaqt ichida davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, fan dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, didaktik materiallar, noan'anaviy pedagogik usullar, uslublar, o'qitishning pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan bir butun jarayon bo'lib, uning mohiyati o'qituvchi tomonidan to'plangan tajriba, bilim, malaka va ko'nikmalarni o'sib kelayotgan yosh avlodga berishdan iborat.

Yuqorida tahlil qilib o'tilganidek, madaniyat va san'at yo'nalishida kadrlar tayyorlovchi respublika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik bo'yicha o'qitiladigan fanlardan yakka (darslarni) o'quv mashg'ulotlarini olib borish jarayonida talabaga individual tarzda yondashish hamda mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

³ Rahimov B., Mavlyanov A., Abdalova S., Ernazarov A. “O'quv mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish va o'tkazish texnologiyalari” T.: “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2016. – B. 4

MADANIYAT VA SAN’AT SOHASI MENEJMENTI

Annotatsiya. Maqolada san’at va madaniyat sohasi menejmenti tushunchasi muhokoma qilinadi. Madaniy – hordiq sohasi va iqtisodiy sohalarni rivoqlantirishda ijodiy menejmentning o‘rni haqida fikr yuritiladi. Madaniyat va san’at sohasi menejmentining o‘ziga xos xususiyatlari qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: san’at-menejmenti, madaniyat va san’at sohasidagi menejment, madaniy mahsulot, san’at bozori, san’at predmeti, art boshqaruv, madaniyat, san’at, boshqaruv, qo‘shimcha qiymat, iqtisodiyot va h.k.

Турабек ФАЙЗИЕВ,
ГИИКУЗ н.о.заведующий кафедрой “Организация и управление учреждениями культуры и искусств”
кандидат технических наук, доцент

МЕНЕЖМЕНТ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

Аннотация. В статье рассматривается концепция менеджмента в сфере искусства и культуры. Существует мнение о роли креативного менеджмента в развитии культурно-досуговой и творческой сфер. Описаны особенности управления сферой культуры и искусства.

Ключевые слова: арт-менеджмент, культура и арт-менеджмент, культурный продукт, арт-рынок, предмет искусства, арт-менеджмент, культура, искусство, менеджмент, добавленная стоимость, экономика и т. д.

Turabek FAYZIYEV,
candidate of Technical Sciences, associate professor
“Organizations and management of institutions culture and arts” acting heads of the chair UzSIAC

CULTURE AND ART MANAGEMENT

Annotation. The article discusses the concept of management in the field of art and culture. There is an opinion about the role of creative management in the development of cultural, leisure and creative spheres. The features of the management of the sphere of culture and art are described.

Keywords: art management, culture and art management, cultural product, art market, art object, art management, culture, art, management, value added, economy, etc.

Menejment – bu integratsiya jarayoni bo‘lib, u orqali professional malakali mutaxassislar tashkilotlarni shakllantiradi va maqsadlarni belgilash, ularga erishish yo‘llarini ishlab chiqadi. Boshqaruv jarayoni tashkil etish, rejalashtirish, muvofiqqlashtirish, motivatsiya funksiyalaridan iborat bo‘lib, ular orqali menejerlar tashkilotda ishlaydigan xodimlarning ishlab chiqarish va samarali ishlashi va belgilangan maqsadlarga mos natijalarni olish uchun sharoit yaratadilar.

San’at menejmenti mutlaqo yangi fan va yo‘nalish sifatida o‘tgan asrning 1990-yillari oxirida madaniyat va san’at tashkilotlari menejerlari xalqaro assotsiatsiyasi (san’at va madaniyat bo‘yicha menejerlar assotsiatsiyasi)ning tug‘ilishida paydo bo‘ldi. San’at sanoati (lot. art-san’at, ijodkorlik, industria – faoliyat) – san’at va madaniyat sohasida mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun mas’ul bo‘lgan san’at bozorining bir sohasi sifatida qaraladi. San’at sohasining asosiy yo‘nalishlariga: teatr va ko‘ngilochar tashkilotlar, ijodiy uyushmalar, agentliklar, konsert uyushmalari, filarmoniya jamiyatlari kiradi. Kelajakda bir necha marta ishlatiladigan “art menejment” atamasini asosiy e’tibori birinchi qismga (ingliz tilidan, san’atdan) – bu san’at, ijodkorlik (konsert, rasm, dizayn, teatr, raqs va boshqa san’at turlarini o‘z ichiga oladi) qaratilgan. San’at menejmenti (madaniyat va san’at sohasidagi menejment) kabi atamalar ko‘plab ta’riflarga ega. Masalan, ulardan ba’zilari:

1. Zamonaviy dunyoda “Madaniyat sohasidagi marketing – bu ma’lum bir mahsulotga qiziqish uyg‘otadigan, tijorat o‘zgaruvchilarini mahsulotga moslashtiradigan bozor segmentlariga erishish texnologiyasi – narx, joylashuv, reklama – yetarli miqdordagi iste’molchilar bilan aloqa o‘rnatish va maqsadlarga erishish madaniy tashkilot missiyasiga mos keladi” [1, 21-22 betlar].

2. San’at menejmenti kabi atama “muayyan ko‘nikmalar to‘plami (marketing, inson resurslarini boshqarish, buxgalteriya hisobi) va ushbu ko‘nikmalardan o‘z navbatida ushbu sohadagi jarayonlarni tartibga solish va jamiyatning ta’lim, ijtimoiy va

iqtisodiy hayotiga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan faoliyatda foydalanish” [2, 304 bet].

3. “Madaniyat sohasidagi menejment insonning ongli faoliyati orqali jamiyatning yuqori madaniy hayotiga erishish uchun madaniyat va san’at sohasida odamlar, mehnat va ijodkorlik ehtiyojlarini muayyan uyg‘un munosabatlarga olib kelish istagi” [3, 208 bet].

Madaniy yoki ijodiy sanoat rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida zamonaviy sektor bo‘lib, “shaxsiy ijodkorlik, mahorat yoki iste’dodga asoslangan va intellektual mulkni ishlab chiqarish va foydalanish orqali qo‘shimcha qiymat va ish o‘rinlarini yaratish salohiyatiga ega bo‘lgan faoliyat” [4, 8 bet].

San’at boshqaruvida tabiatan ikki tomondan nazar solish mumkin:

1. Muayyan nazariy asosga (tamoyillarga, usullarga) ega bo‘lgan shuningdek, yorqin boshqa fanlar bilan faol almashimuvchi, integrallashgan ilmiy fan;

2. San’at boshqaruvi (tashkilotchilik faoliyati, boshqarish, shug‘ullanish) ma’lum bir mahoratni talab qiladigan predmetdir.

San’at menejmenti iqtisodiyotning boshqa sohasini boshqarish bilan taqqoslaganda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu, masalan, marketing (“marketing” tushunchasi iste’mol talabini, reklama va narx siyosatini o‘rganishga qaratilgan zamonaviy san’at boshqarish vazifalaridan biri sifatida) ko‘rib chiqilishi mumkin, xodimlarni boshqarish va moliya kabi iqtisodiy va tashkiliy fanlarning bir qatorini o‘z ichiga oladi. San’at sohasidagi kadrlar va ishchilar o‘ziga xos iste’dod va qobiliyatga ega. Bu sohada iqtidorli va iste’dodli odamlar ishlaydi, ular har qanday sohani boshqarishga ko‘plab yangi g‘oyalar va imkoniyatlar keltirishi mumkin. O‘zbekiston va xalqaro biznesda ma’lumki, qattiq raqobat sharoitida g‘olib bo‘lgan eng iste’dodli va ijodkorlarni loyihalarni amalga oshirishga jalb qilib keldingan. Har qanday menejer iqtidorli odamlarni boshqarish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish masalasi haqida xavotirda bo‘ladi. Axir, iste’dodli odam tabiatan mustaqildir, ularni nazorat qilish juda qiyin kechadi. XX

asrning saksoninchi yillariga qadar “menejmentda iste’dod ishlatilmagan, chunki bu atama biznesdan uzoq hisoblangan” [5, 352 bet], ammo bugungi kunda iste’dodli xodimlarsiz hech qanday tashkilot rivojlana olmaydi va dunyodagi malakali odamlarning yetishmasligi sharoitida iste’dodni jalb qilish va boshqarishni biladigan kompaniyalar g’olib chiqadi.

Ijodiy tashkilotning kundalik faoliyati ijodiy ifoda va jarayonni yaratish, ishlab chiqarish, tarqatish va saqlash jarayonlarini “boshqarish”ga qaratilgan. Ushbu nazorat muayyan vositalar va belgilangan tizimlar va nazorat mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Shunga qaramay, dam olish muassasasi faoliyatida markaziy o’rinni turli madaniy xizmatlarni “ishlab chiqarish” va “sotish” egallaydi. Maqsadli auditoriyaning ehtiyojlarini o’rganish, madaniy va dam olish faoliyatini yangi shakllarni joriy etish, dam olishni tashkil etish usullarini takomillashtirish va shu bilan mehmonlarning turli ehtiyojlarini qondirish (teatr nafaqat ma’naviy komponentni, balki ta’limni ham olib boradi), madaniyat va dam olish sohasidagi ishchilar, aslida xizmatni boshqarish bilan shug’ullanadi.

Madaniyat va san’at sohasidagi menejment madaniy qadriyatlarini (badiiy mahsulotlarni) tanlash, ishlab chiqarish, saqlash va tarqatish kabi jarayonlar bilan bevosita bog’liq va turli boshqaruv majburiyatlari majmuasi (tashkilot, strategiya, nazorat) sifatida qaraladi. Boshqaruv faoliyatining ushbu turidan ko’zlangan asosiy maqsad – madaniy va dam olish mahsulotlarini tovarlar va xizmatlar bozorida ommaviy targ’ib qilishdir. Madaniyat va san’atda menejment mavzusi turli xil ijtimoiy tuzilmalarda va turli tarixiy davrlarda madaniy faoliyat sohasida ham, uning alohida yo’nalishlarida (masalan, teatr, kino, radioeshittirish) mavjud bo’lgan tashkilotlarning barcha usullarini (shakllari, modellari) o’rganishdir. Madaniyat va san’at sohasidagi menejmentning maqsadi madaniy faoliyatning ijtimoiy darajasini va bozor qiymatini oshirishga eng samarali hissa qo’shadigan tegishli tashkiliy yechimlarni (modellarni) topishdir, chunki bu fan ikki asosiy yo’nalishga ega:

1. *Analitik – tavsifiy (tashkil etish usullari va shakllarini tavsiflash va tadqiq etish);*

2. *Dizayn va model (tashkilotning yangi, yanada samarali usullari va modellarini ishlab chiqish va sinovdan o’tkazish)* [6].

Agar ushbu component mavjud bo’lsa, san’at bozori boshqa har qanday sotib olish va sotish platformasi kabi mavjud bo’lishi mumkin: sotuvchi, iste’molchi – xaridor va ular o’rtasida turgan shaxs (bog’lovchi) – vositachi. Ularning roli tovar-pul munosabatlari (boshqacha aytganda, san’atning

bozoriga integratsiyalashuvi, so’zning keng ma’nosida) sohasida san’atni o’z ichiga olish jarayonini tashkil qilishdir. Madaniyat muassasalari, shuningdek, madaniyat vazirligi vakili bo’lgan shahar hokimiyati bir-biri bilan o’zaro manfaatli hamkorlik qilish uchun tashkil etilgan. Va har bir tomon shaxsiy foyda olishdan manfaatdor: hokimiyat uchun aholining barcha qatlamlari o’rtasida madaniyatni ommalashtirish, jamiyatni madaniy qadriyatlarga kiritish, jahon madaniy merosining ahamiyatiga, madaniyatni moliyalashtirishning muqobil manbalarini izlash, madaniy muassasalarni o’zini o’zi ta’minlashga o’tish; moliyaviy mustaqillikka, tijorat maqsadlarida foydali loyihalarda ishtirok etishga intilishi maqsadga muvofiq bo’ladi. O’zaro manfaatlarning qondirishi uchun hokimiyat va madaniyat ittifoqining muvofiqshiruvchism sifatida harakat qiladigan bir xil vositalar kerak. Vositachining ishi faqat yakuniy mahsulotni iste’mol qilishni tashkil qilish bilan bog’liq.

Yangi turdagi menejmerlarni nafaqat sezgi, aql va ma’naviy ta’lim, balki iqtisodiyot, informatika, marketing va strategiya sohasidagi muayyan bilimlar birlashtiradi. Madaniyat sohasidagi menejmerlarning faoliyati ikkita yetakchi elementning kombinatsiyasini o’z ichiga oladi – ijodiy mahsulotlarni yaratish (ijodiy jarayon va madaniy qadriyatlarini ishlab chiqarish uchun sharoit yaratish bo’yicha ish) va uni madaniy-ma’rifiy xizmatlar bozoriga chiqarish (jamoatchilik uchun mavjud ijodiy g’oyalarni amalga oshirish). Reklamani o’z vaqtida taqdim etish, joyni tanlash va ijaraga olish va jamoani sayohatga olib chiqish qobiliyati san’at sohasida menejment bilan shug’ullanadigan menejmerga tegishli. Birinchi bosqichda san’at menejmerining vazifalari quyidagilardan iborat: xizmat ko’rsatish direktori, rassomlar, xizmat ko’rsatish dizayneri, ovoz muhandisini, aktyorlar, sozandayu – xonandalarni qidirish; shuningdek, ushbu bosqichda menejmerning vazifalari kelajakda xizmat ko’rsatish uchun joyni qidirish va ijaraga olish, ushbu loyiha uchun homiylar va xarajatlar smetasini izlashdir.

Ikkinchi bosqichda menejmer nafaqat reklama kompaniyasini o’tkazish, balki kelajakda ishlash uchun chiptalarni tarqatish bo’yicha ishlarni tashkil etish va umuman, spektaklning premerasini tashkil qilish bo’yicha ishlarni amalga oshirishi kerak. San’at yoki sanoat turidan qat’iy nazar (tijorat, notijorat va ixtiyoriy) – san’at menejmerlari san’atni diqqat markazida turishlari kerak.

Bugungi kunda san’at sohasidagi menejment, shubhasiz, madaniyat va san’at sohasidagi tijorat faoliyatining eng dolzarb yo’nalishlaridan biridir.



Adabiyotlar ro’yxati :

1. F. Kolber, R. Bilado, J. Nantel, Madaniyat va san’at marketingi. 2004 yil. 21-22 betlar.
2. V. Chan Kim, Rene Moborn. “Moviy okean strategiyasi”. 2016. – B. 304.
3. D. Mur. Ikkinchi kosmik tezkir. Boshqaruv san’ati va kelajak strategiyalari, 2012 yil. – B. 208.
4. U.G’. Zunnunova, T.R. Fayziyev. Art marketing. T.: 2019-yil. – B. 235.
5. Dj. Traut, E. Reys. Makon egallash.: ong uchun jang. 2015 yil. – B. 352.
6. Sh. M. Adam “Moviy okean strategiyasi”: Yangi bozorlarni yaratish osonmii? 2016. – B. 304.

MADANIYAT VA SAN’AT MUASSASALARI VA TASHKILOTLARINING MADANIY FAOLIYATDAGI ISHTIROKINI BOSHQARISH

Annotatsiya: Maqolada madaniyat va san’at muassasa va tashkilotlarining madaniy xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishdagi o‘rni va roli haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Ularni boshqarish va madaniy faoliyatidagi ishtirokini ta’minlash, asosiy vazifa va funksiyalarining ilmiy tahlili bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, muassasa, faoliyat, tashkilot, boshqaruv, omil, madaniy xizmat, taraqqiyot.

Баходир АХМЕДОВ,

ГИИКУЗ доцент кафедры «Организация и управление учреждениями культуры и искусства».

УПРАВЛЕНИЕ УЧАСТИЯ В КУЛЬТУРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧРЕЖДЕНИЙ И ОРГАНИЗАЦИЙ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА

Аннотация: В статье рассматриваются роль и место учреждений и организаций культуры и искусства в повышении эффективности культурных услуг. Описан научный анализ их основных задач и функций, их управления и участия в культурной деятельности.

Ключевые слова: культура, учреждение, деятельность, организация, управление, фактор, культурная служба, развитие.

Bahodir AHMEDOV,

The Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Associate Professor of “Organization and Management of Cultural and Art Institutions”

MANAGEMENT OF PARTICIPATION IN CULTURAL ACTIVITIES OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS

Annotation: The article discusses the role and place of cultural and art institutions and organizations in improving the effectiveness of cultural services. A scientific analysis of their main tasks and functions, their management and participation in cultural activities is described.

Keywords: culture, institution, activity, organization, management, factor, cultural service, development.

Yangi O‘zbekistonda yangicha madaniy muhit yaratish va unda madaniyat va san’at muassasa va tashkilotlarining ish samaradorligini rivojlantirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Biz mamlakatimizda ma’naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishimiz kerak [1:278] – deganlaridek, bu islohotlarni bugundan boshlash vaqti keldi. Zotan, buning uchun soha faoliyatini tubdan takomillashtirishga doir bir qancha yangi farmon va qarorlar qabul qilinmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 28-yanvardagi farmoni bilan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Ushbu hujjat kelgusi besh yilda mamlakatimizda “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida amalga oshiriladigan keng ko‘lamli islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslarini yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Ta’kidlash joizki, Taraqqiyot strategiyasi so‘nggi yillarda mamlakatimizdagi tizimli ijobiy o‘zgarishlarning asosiy huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qilgan Harakatlar strategiyasini hayotga tatbiq etishdan kelib chiqqan xulosalar hamda erishilgan samara va to‘plangan ulkan tajribalar natijalari hamdir. Taraqqiyot strategiyasi loyihasi jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgani, muhokamalar jarayonida xalqimiz tomonidan bildirilgan 17,5 mingdan ortiq taklif va mulohazalardan kelib chiqib, loyihaga 100 ga yaqin konseptual hamda 200 dan ziyod aniq xarakterga ega o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganining o‘zi ham bu muhim hujjat qay darajada xalqchil ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi [2:1].

Mazkur taklif va mulohozalar ichida madaniyat va san’at muassasalari va tashkilotlarining ham ish samaradorligini oshirish va takomillashtirish yuzasidan bir qancha ijobiy, yangicha kreativ tavsiyalar berilgani va ilgari surilgani xalqimizning madaniy xizmat va madaniyat tashkilotlari bo‘lgan ehtiyojining yuqorilaganidan darak beradi. Madaniyat va san’at muassasalari, tashkilotlari o‘z jodiy faoliyati bilan yangi ma’rifiy jamiyat qurish va uni taraqqiy

toptirishda faol ishtirok etishi davr talabiga aylandi. Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishda quyidagi omillarga alohida ahamiyat qaratish lozim:

Falsafiy tushuncha sifatida shart-sharoit – bu narsa-buyumlar, holatlar majmuasi, ularning o‘zaro ta‘sirining tabiati, ushbu ob‘yektning mavjudligi, ishlashi va rivojlanish imkoniyati bilan bog‘liq hodisadir. Bunday holatda biz u yoki bu faoliyatni amalga oshirish uchun muhit, faoliyat sub‘yekt va ob‘yektlarining mavjudlik holati haqida gapirishimiz mumkin. Atrof-muhitning ta‘siri belgilangan maqsadlarga erishish va faoliyat vazifalarini hal qilishni ta‘minlaydi. Shart-sharoitlar – bu ma‘lum sabablarni aniqlashtruvchi holatlar bo‘lib, ularning paydo bo‘lishi bitta jarayon yoki hodisaga xalaqit beradigan va boshqalariga qulaylik tug‘diradigan holatlardir. U yoki bu predmet, voqea, hodisa va holatning mavjudligi, ishlashi va rivojlanishi bilan bog‘liq sharoitlarni hisobga olish muhimdir. Shunday qilib, shart-sharoitlarni belgilash faqat ob‘yekt, hodisa, jarayon, tizim va hokazolarga nisbatan mantiqiy ahamiyatga ega. Shunday ekan, har qanday muammoni tahlil qilishning falsafiy darajasida shart-sharoitlarni aniqlash zarurati ob‘yektlar, hodisalar, jarayonlar va tizimlarni har qanday o‘rganish uchun muhim metodik talabdir.

Pedagogikada esa har qanday faoliyat shaxs xususiyatlarini shakllantirish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilganligi bois, ularning umumiyliigi uning samarali rivojlanishini ta‘minlaydi, shuning uchun biz ushbu faoliyat turlarini amalga oshirish jarayoni samaradorligining pedagogik shartlari to‘g‘risida gapirishimiz zarur. Ularning falsafiy ta‘rifiga asoslanib, shaxsning samarali rivojlanishi uchun uni sodir bo‘lgan va ushbu jarayonning muvaffaqiyatiga hissa qo‘shadigan holatlar majmui sifatida talqin qilishimiz mumkin.

Shu bilan birga, shart-sharoitlar quyidagilarni ham o‘z ichiga olishi mumkin: a) atrofdaqi voqelik ob‘yektlari; b) xilma-xil faoliyatni amalga oshirish jarayonining sub‘yektlari; v) faol

shaxsni shakllantirish va rivojlantirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari; d) ushbu jarayonni tashkil etish va amalga oshirishning vositalari, usullari va shakllari.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili “pedagogik shart-sharoitlar” tushunchasining quyidagi asosiy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi:

- tadqiqot ob‘yektini hisoblangan muayyan munosabatlarda ta‘lim muhitining tashqi ob‘yektlari majmui;
- tadqiqot predmetining yechimi bog‘liq bo‘lgan ichki xususiyatlari (holatlar, fazilatlar) majmui;
- tashqi ob‘yektlar va ichki xususiyatlarning ushbu majmui tadqiqot mavzusining mohiyati, ishlashi va rivojlanishini belgilaydi (qo‘yilgan vazifani samarali hal qilish).

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytadigan bo‘lsak, “pedagogik shart-sharoitlar” tushunchasi ta‘lim jarayonida maxsus yaratilgan pedagogik vazifalarni hal etishga qaratilgan tarkibiy asoslar, shakl, metod va vosita va moddiy-muhitning ob‘yektiv imkoniyatlari majmui bo‘lib, ularni amalga oshirish avvaldan rejalashtirilgan faoliyatning samarali bo‘lishini ta‘minlaydi.

Pedagogik shart-sharoitlarni faqat tashqi holatlar, vaziyat, jarayonga ta‘sir etuvchi ob‘yektlar majmui sifatida talqin qilish mumkin emas, chunki shaxsni shakllantirish subyektiv va ob‘yektiv, ichki va tashqi, mohiyat va hodisaning o‘zaro birligidir. Ana shu sababli biz tadqiqot doirasida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirishni muhim vazifa sifatida belgiladik.

Tadqiqot doirasida tasviriy san’at o‘qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, texnologiyalari aniqlashtirildi:

• Ta'lim jarayonini madaniyatlararo muloqot asosida tashkil etish.

Bugungi voqelik shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo muhitda maqbul o'zaro ta'sir o'tkazish qobiliyatini rivojlantirish zaruriyatining umumiy belgilari ko'p holatda oliy pedagogik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan rasmiy talablar tavsifiga ega bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot doirasida muloqotning pedagogik imkoniyatlari mohiyatini tahlil qilish uning quyidagi insonparvarlik tavsifini ochib berishga imkon berdi:

1) dialog – muloqot – suhbat – munozara – bahs – muzokara – polemika – muhohasa dialogik munosabatlar madaniyatini yuzaga keltirishi mumkin;

2) munozara turli darajalarda dialogik shaklda ifoda etilishi mumkin, u hissiyotlar va psixofiziologik holatga ta'sir qiladi; muloqot bizning maqsadlarimizni yo'q qilishga emas, balki ochiq aytish, madaniy an'analar, zamon va madaniyatlar muloqotini avlodan-avlodga o'tkazish, saqlash va rivojlantirishga yordam beradi.

Dialog informatsion va shaxsiy komponentlarni o'z ichiga oladi. O'z navbatida, informatsion komponent quyidagilarni o'zida aks ettiradi: dialog mavzusi; tanlangan mavzu bo'yicha dastlabki nazariy bilimlar; dialog va uni o'tkazish qoidalari to'g'risidagi ma'lumot (D.Xalpern[147]); munozara kodeksi tamoyillari (Ya.Yaskevich[167]) va samarali muloqot o'tkazish (K.Pavlov[113]). Shaxsiy komponent xulq-atvor uslubi, bo'lajak mutaxassisning malakasi (xabardorlik, tadqiqot, konstruktiv, prognoz qiluvchi funktsiyalar), ta'lim jarayonida haqiqiy o'zaro ta'sirning (dialogik-monologik) tabiati (A.Orlov[112]); muloqot qobiliyatlari, fikrlash turi, ehtiyotkorlik, faollik, qiziqish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim jarayonida sub'yektlar o'rtasidagi muloqotning dialogik xususiyatiga javob beradigan mexanizmlarni izlash uni boshqa shakllardan ajratib turadigan tamoyillarni aniqlashtirishni taqozo etadi. Ular orasida ob'yektiv (o'zaro ta'sir doirasi; tilning birligi; subyektlar uchun umumiy o'zaro ta'sir muammosining mavjudligi) va sub'yektiv (turli nuqtai nazarlar va mohiyatning mavjudligi; hamkorlarning tengligi; o'qituvchi va talabaning hissiy ishtiroki; o'zaro bir-birini tushunish; yangi bilimlarning paydo bo'lishi); munozara mavzusiga nisbatan yangi bilimlarning yuzaga kelishi; integratsiya; maqsadning birligi) tamoyillar muhim o'rin egallaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muloqot shaxsga yo'naltirilgan vaziyatni yaratish vositasi sifatida savol-javob metodidan farq qiladi. Shaxsga yo'naltirilgan vaziyat talabalarning shaxsiy vazifalarini yangilash, ularning qadriyatli tanlovini amalga oshirishda tajriba to'plash, tanqidiy idrok qilishga yo'naltirilgan muloqot orqali yaratiladi.

Dialog nafaqat insonning o'zligini ochib beradi, bunda inson shaxs sifatida shakllanadi. Muloqotda talaba madaniyatning tayyor namunalari, uning natijalarini o'zlashtirmaydi, balki shaxsiy ma'nosini ochib, o'zi uchun yangi narsalarni kashf etish orqali ularni ijodiy ravishda qayta ishlaydi. Bu shaxs madaniyatini rivojlantirishning mohiyati, uning o'z-o'zini namoyon qilish mexanizmidir.

Muloqot jarayonini tashkil etish va o'tkazish usullari sifatida quyidagilardan foydalanish mumkin: o'quv dialogi (S.Kurganov [83]), muammoli vaziyatni yaratish (Lerner I.Ya. [87], A.M.Matyushkin[93], N.Azizxo'jayeva [26] va boshqalar), dialog-dars, o'qitishning jamoaviy usullari (V.Dyachenko[57]), ijtimoiy o'zaro ta'sir, "aqliy hujum" (A.N.Lutoshkin[73]), o'quvchilarni savol berishga o'rgatish (S.Yu.Sorokin[129], Ye.Nikitina[108] va b.), ramziy vositalar, harakatlar chizma va modellari yordamidagi o'zaro ta'sir, vaziyatlar (V.Rubtsov[122] va boshqalar).

Tajriba shuni ko'rsatadiki, talabalarni madaniyatlararo

muloqot asosida o'qitishning eng muhim usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) turli madaniyat vakillari o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatli madaniyatlararo vaziyatlarni muhokama qilish. Ushbu munozara nutqiy xatti-harakatlarni boshqa madaniyat tashuvchilari nuqtai nazaridan to'g'ri yoki noto'g'ri deb hisoblash, ularni talqin qilish, milliy va o'zga millat madaniyatning qadriyatlarini ko'zda tutib, ziddiyatni oldini olishga yordam beradigan ijobiy xulq-atvorning maqbul variantlarini ko'rib chiqish asosida olib boriladi. Ushbu usullarning o'ziga xos xususiyati shundaki, empatiya mexanizmlari, xulq-atvor motivlari "kodlanmaydi";

2) madaniy stereotiplarni aniqlash maqsadida badiiy qadriyatlar, estetik vaziyatlarni tahlil qilish. Stereotiplarni sharhlash madaniy qadriyatlar va me'yorlardagi tafovutlarni, ularga nisbatan xolis va stereotipsiz munosabatda bo'lish, samarali madaniyatlararo aloqalarni o'rnatishga e'tibor berishga imkon beradi;

3) milliy va o'zga millat madaniyati bilan aloqador hodisalarni qiyosiy tahlil qilish. O'zining madaniy tajribasi, milliy va madaniy an'alarini tahlil qilib, talaba madaniyatlararo muloqot ob'yekti sifatida bir vaqtning o'zida ularning yotligini anglab etadi va nafaqat boshqa til kodlarini, balki boshqa urf-odatlar, boshqa xulq-atvor me'yorlarini ham hisobga olishga intiladi, bu bo'lajak o'qituvchida empatiyaning rivojlanishiga hissa qo'shadi;

4) milliy va chet el madaniyatining qadriyatga yo'nalganligini hisobga olish asosida badiiy qadriyatlarni sharhlash. Madaniyatlararo muloqot shundan dalolat beradiki, milliy madaniyat doirasida inson o'zining hayot tarzini tushunishi mumkin bo'lgani singari tasavvur paydo bo'ladi. Aslida milliy madaniyat doirasidan tashqariga chiqqandan keyin, o'zga dunyoqarash, munosabatga duch kelgan talaba o'z ongining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qila boshlaydi va shu bilan birga madaniyat bilan ochiq muloqotga kirishishni o'rganishni boshlaydi, boshqa madaniyat vakilini obyektiv baholay boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlararo muloqot fikrlar rang-barangligi, ularga hurmatni tarbiyalash, ijobiy aloqa va munosabatlarni o'rnatishga xizmat qiluvchi badiiy-estetik vaziyatlarni yaratish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy tajribasini kengaytirishga yo'naltirilgan.

2. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tolerant muloqotga yo'naltirish.

YUNESKO tashkilotining 1995-yil 16-noyabrda Parij shahrida bo'lib o'tgan 28-sessiyasida 185 ta davlat ishtirokchilari va mas'ullari "Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi"[37] ni imzoladilar. 2003-yil BMT tomonidan jahon miqosida xalqaro tolerantlik yili deb e'lon qilindi. 16-noyabr kuni xalqaro tolerantlik kuni deb e'lon qilindi va butun dunyoda nishonlana boshlandi.

Mazkur Deklaratsiyada insoniy munosabatlarning asosiy tushunchasi – tolerantlikning mohiyati quyidagicha ochib berilgan: "Tolerantlik madaniyatning xilma-xilligini, o'zini namoyon qilish shakllarini va inson shaxsiyatining namoyon bo'lishini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Tolerantlik bilim, oshkoralik, muloqot va fikr erkinligi, vijdon va e'tiqod erkinligi bilan ta'minlanadi. Tolerantlik – bu xilma-xillikdagi birlik. Bu nafaqat ma'naviy burch, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir"[37].

Tolerantlik (lot.tolerantia – chidam, sabr-toqat), bag'rikenglik – o'zgarlarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo'lish. Bu bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashidir. Biror-bir insonda yoki biror-bir begona madaniyatda bizga nimadir yoqmasligi mumkin, biroq o'zgalarning huquq va manfaatlariga ziyon yetkazmasa, joriy qonunlarni buzmasa ularning mavjudligi va rivojlanishini

tan olishimiz kerak. Ya'ni tolerantlik bu o'zgalarning fikri, qarashlari va xatti-harakatiga passiv, tabiiy ravishda buysonishni anglatmaydi. Balki alohida odamlar, turli guruhlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, ijobiy hamkorlik yo'lidagi faol axloqiy nuqtai nazar va psixologik hamkorlikni anglatadi [144; 134].

Ijtimoiy ishga doir lug'at-ma'lumotnomada esa: "Tolerantlik – ijtimoiy ishning boshqaruv tamoyili, individlar, guruhlar va ijtimoiy hamjamiyatlar o'rtasidagi madaniy, irqiy va boshqa tafovutlarni tan olish, odamlarning tashqi qiyofasi, xatti-harakati, qadriyatlar yo'nalishi va ulardagi farqlarga nisbatan bag'rikenglikdir" [127], deyilgan.

"Tolerantlik" tushunchasi uzoq asrlar davomida shakllandi va hozirgi vaqtda ham turli belgilar bilan to'ldirib borilmoqda. Tolerantlik tushunchasi turli madaniyat va xalqning tarixiy tajribasi bilan bog'liqlikda xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. O'zbek tilida nashr etilgan lug'atlarda "tolerantlik" tushunchasining "bag'rikenglik" tushunchasi bilan sinonim sifatida ishlatilish holati ko'zga tashlanadi: "Bag'rikenglik – o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g'amxo'r, saxiy, kengfe'lli bo'lgan, ana shunday ma'naviy fazilatlariga ega kishilarni ifodalovchi tushuncha. Bag'rikenglik o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlariga hurmat-ehitromda bo'lish, muomalamunosabatda kamsitish va tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida, mahalla-kuyda bunga rioya etishni anglatadi. Mazkur tushuncha turli dindagi, turli millat va elatlarga mansub kishilarning bir mamlakat doirasida, yagona davlat tarkibida bahamjihat, tinch-osoysishta yashashini ifoda etadi" [94, 68-b.].

Bugungi kunda "tolerantlik" tushunchasining turli fanlarning ob'ekti sifatida tadqiq etilayotganligi mazkur atamaning fanlararo doiradagi ta'riflarining shakllanish holatini ham yuzaga keltirdi. Jumladan, falsafiy tadqiqotlarda mazkur tushuncha dunyoqarash sifatida turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar va konfessiyalar (diniy e'tiqodlar)ning yashashga bo'lgan huquqini tan olish, balki ularning o'zaro munosabatlari va aloqalarining umumiy qoidalari majmui ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi [169; 170, 288-b.].

Sotsiologik tadqiqotlarda qayd etilishicha, tolerantlikka falsafiy kategoriya sifatida qaralib, materiyaning obyektiv amal qilish shakli tarzida, ya'ni tushuncha holda ongda o'z ifodasini topishini ham e'tibordan soqit qilmaslik kerak. Tolerantlik – o'zga shaxsga yoki narsaga, yoxud begona, yoinko farqlanuvchi shaxs – hodisaga nisbatan o'z his-tuyg'ularimizni qo'lga ola bilish demakdir. O'z-o'zini cheklash iroda kuchiga ega bo'lmoqlik demakdir. Tolerantlik o'z-o'zini cheklash orqali ifodalangan irodadir va bu o'zgalarga xayrixoh – murosasozlik bilan qarash imkoniyatini bildiradi [70, 51-b.].

Psixologik nuqtai nazardan tolerantlik – insoniy bag'rikenglikning bir ko'rinishi yoki ifodasi bo'lib, inson uchun yoqimsiz, noxush bo'lgan biror omilga nisbatan qat'iy javobning yo'qligi yoki uning kuchsizligini bildiradi. O'sha vaziyat yoki omil qanchalik shaxsga yoqmasa-da, u bunga chidaydi, bosiqlik qiladi, kerak bo'lsa moslashadi [36].

Falsafiy, sotsiologik va psixologik nuqtai nazarlarga tayangan holda, pedagogika fani tolerantlik tarbiyasi tushunchasiga quyidagi ta'rif berishi o'rinli bo'ladi: "Tolerantlik tarbiyasi deganda, uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilarda tolerantlikka doir tushunchalar, sifatlar, odatlar, xulq-atvor, qadriyatlar tizimini tarkib toptirishga qaratilgan, maqsadli yo'naltirilgan, izchil, tizim pedagogik jarayon tushuniladi".

Tolerantlik bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, axloqiy me'yorlarga rioya qilish va bag'rikenglik, hamdardlik, xushmuomalalik, ishonch, g'amxo'rlik, hamdardlik kabi sifatlar orqali namoyon bo'ladi. Tolerantlik etikasi turli madaniyatlarga

mansub bo'lgan kommunikatsiya hamkorlari o'rtasida o'zaro tushunishga erishish istagi, bosim va kuch ishlatmasdan, turli xil manfaatlar va nuqtai nazarlar, asosan, muloqot, ishontirish, tushuntirish kabi usullarni qo'llash orqali o'zaro tushunishga erishishni ko'zda tutadi. Negaki, tolerant muloqotning axloqiy me'yorlari bo'lajak o'qituvchining sabr-toqatli, bag'rikeng bo'lishi uchun psixologik manba hisoblanadi. Ushbu shaxsiy manba talabaning fe'l-atvori, uning ruhiy-jismoniy xususiyatlari, ta'limda yaratilgan shart-sharoitlar, shaxsning intellektual rivojlanish darajasi va boshqalar bilan belgilanadi.

AQSH san'atshunoslarining tadqiqotlarida (M.Bennet [38], G.Gudikunst [53], Yu.Kim [71] va boshqalar) tolerant xulq-atvorning quyidagi asosiy belgilari ajratib ko'rsatilgan:

- moslashuvchanlik – xulq-atvorda shafqatsizlikning yo'qligi, nizoni yuzaga keltirmaslik;
- empatiya (boshqa odamga qiziqish) – o'zga millat madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan xabardor bo'lish, ular haqida qayg'urish;
- mulohazalarda bosiqlik – boshqalar haqida qat'iy xulosa chiqarmaslik.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini shakllantirish nuqtai nazaridan, tolerantlik o'zga madaniyatlarining xilma-xiligi, nutqiy me'yorlar, o'z-o'zini namoyon etish, fikrlash va xatti-harakatlarga hurmatni anglatadi. I.L.Plujnik [115] va M.M.Yakubbaev [166]lar tolerant xulq-atvorni til vositalari bilan taqqoslash orqali quyidagilarni aniqlashtirgan:

– moslashuvchanlik variativ kommunikativ strategiya va taktikalar va ularga muvofiq turli ko'rinishdagi vaziyat bilan bog'liq omillarni hisobga olish asosida o'zining xulq-atvoriga tuzitishlar kiritishga doir nutqiy vositalardan foydalanish ko'nikmalarida namoyon bo'ladi;

– empatik xulq-atvor maqbul iboralarni tanlash, takroriy savollar bilan murojaat qilish, ijobiy ma'noga ega nutqiy vositalardan foydalanish asosida hamsuhbatning his-tuyg'ularini uyg'otishda namoyon bo'ladigan "qo'llab-quvvatlovchi kommunikatsiya"da mujassamlashadi;

– fikrlarni ifoda etish jarayonidagi bosiqlik dalil, hodisa, kishilarni og'zaki baholash emas, ularning xulq-atvoriga tavsif berish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Mazkur xususiyat fikrlarni ifoda etishning bilvosita usullaridan foydalanish, shuningdek, bayonning ijobiy modalligi orqali amalga oshadi.

Oliy ma'lumot olish davrida bo'lajak o'qituvchi xulq-atvorining bag'rikenglik xususiyatlari tarqoq ko'rinishga ega bo'lib, bir-biri bilan bog'liq emas, barqaror bag'rikenglik uchun esa ularning integrativ birligida barcha tolerantlik sifatlarini shakllantirilishiga erishish kerak. Bunday holatda talaba o'z xulq-atvoridagi madaniy tafovutlarni qabul qilishni namoyish qilishi va nizolansiz muloqotni amalga oshirishi mumkin.

Tolerantlik tamoyiliga asoslangan muloqotga yo'naltirilganlik talabalarning dunyoqarashini o'zgartirish va mavjud bir qator odatlarni inkor qilishni talab qiladi. Hamkorlar o'rtasidagi muloqot o'zaro munosabatlarning asosiga aylanadi, dialogizm esa fikrlash jarayonining madaniy asosga ega me'yor sifatida qabul qilinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, barcha holatlarda o'ylash uchun ochiqlik, erkin va mas'uliyatli tanlov imkoniyati ta'minlanishi kerak. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tolerant xulq-atvorga yo'naltirish zarurati muloqotda ikkala tomon ham o'zaro bir-birini tushunishga erishishga intilishi, ya'ni xohish-istak, nizolarning oldini olish orqali har qanday nuqtai nazarni qabul qilishga tayyorligi bilan bog'liq. Bunday holda lingvistik va ijtimoiy-madaniy xatolar osongina kechiriladi yoki sezilmaydi. Aksincha, bir yoki ikkala tomonning intolerant xatti-harakati o'zaro tushunishda to'siqlarning paydo bo'lishiga olib keladi va shuning uchun muloqot samaradorligini pasaytiradi yoki munosabatlarning to'liq buzilishiga olib keladi. Shu sababli,

bo'lajak o'qituvchining muloqoti uchun asos o'zaro bir-birini tushunishga yo'naltirilgan tolerantlik bo'lishi kerak.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi: a) tolerantlik boshqa madaniyatga taalluqli va tashqi ko'rinishi, tili, e'tiqodi, an'ana va urf-odatlar bilan ajralib turuvchi hamkorlikni tushunish, hurmat qilishga tayyorlikni o'zida ifoda etadi; b) bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik jarayonida tolerant muloqotga yo'naltirishning zaruriyati zamonaviy jamiyatning ijtimoiy me'yorlari, jamiyat a'zolariga qo'yilayotgan siyosiy va huquqiy talablar, istalgan soha mutaxassisning kasbiy muhim ko'rsatkichlari bilan belgilanadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining tolerant xulq-atvorini shakllantirish uchun ularga kommunikativ-rag'batlantiruvchi nutqiy faoliyat namunalari taqdim etildi: nutq empatiyasi, so'zlarni erkin tanlash va hissiy munosabatlarni tahlil qilish. Empatik xatti-harakatlar "qo'llab-quvvatlovchi aloqa" tarzida – rag'batlantiruvchi iboralarni tanlash, takroriy savollar, hissiyotlarga murojaat qilish, hamkorning his-tuyg'ulari, ijobiy ma'noga ega so'zlarini tanlash, ijobiy ohang, salbiy munosabatlarni bartaraf etish, xulq-atvorning verbal va noverbal jihatlariga nisbatan sezgirlikda aks etdi.

3. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini shakllantirish strategik va taktik ta'lim texnologiyalarini qo'llash.

Nazariy-eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida talabalarining badiiy-estetik kompetentligini shakllantirish jarayonida professor-o'qituvchi faoliyatini qay tarzda texnologiyalash zarurligi haqidagi masalaga e'tibor qaratildi. Izlanish natijalari quyidagilarni ta'kidlash imkonini berdi: bo'lajak o'qituvchilarning badiiy-estetik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi shaxsiyatni shakllantiruvchi pedagogik va boshqaruv holatining ba'zi bir o'zgarmas komponentlari, shaxsning o'ziga xos tabiiy xususiyatlarini shakllantirish bilan bog'liqdir.

V.Bespalko[39], V.Zagvyazinskiy[62], V.Serikov[123], N.Azizxodjaeva[25], N.Avliyakov[22], O.Tolipov[138], B.Xodjayev[149] va boshqalarning tadqiqotlarini hisobga olgan holda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini shakllantirish bo'yicha pedagogik texnologiyalarni loyihalash va amalga oshirishga doir quyidagi eng umumiy talablar aniqlashtirildi:

1. Badiiy-estetik ta'lim mazmunini faoliyatning yaxlit

loyihasiga, shu jumladan, uning yo'naltiruvchi asoslarini (kontseptsiyalari, tamoyillari) o'zgartirish, motivatsion, psixologik va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash.

2. Talabalarining yuqori badiiy-estetik kompetentligini ta'minlashga doir o'qituvchining faoliyatini tashkil etish.

3. O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabat usullari, ularning vazifalari, o'rni, o'qitishning texnologik qismini amalga oshirish davomida yuzaga keladigan aloqalarni aniqlash.

4. O'qituvchi va talabalarining birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish, ishtirok etish, tenglik, bag'rikenglik, norasmiy shaxslararo muloqot asosida texnologiyalarning motivatsionligini ta'minlash.

5. Moddiy-texnik va axborot vositalari, dasturiy mahsulotlardan keng foydalanish.

Tadqiqotda shartli ravishda "bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni shakllantirishning strategik ta'lim texnologiyalari" tushunchasi qo'llanildi. Strategik ta'lim texnologiyalari deganda, o'quv jarayonining bitta yo'nalishiga qaratilgan va ta'lim maqsadlariga erishish uchun qo'llaniladigan texnologiyalar ko'zda tutildi. Strategik ta'lim texnologiyalari tarkibini tahlil qilish ularning quyidagi maqsadli yo'nalishini aniqlash imkonini berdi: bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining shaxsiy va kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Strategik ta'lim texnologiyalarining maqsadi ulardan talabalarni kasbiy tayyorgarligining barcha bosqichlarida foydalanish imkoniyatini belgilab beradi. Ularga quyidagilar kiritildi: o'yin, tadqiqotchilik, trening, interfaol ma'ruza, o'quv va malakaviy amaliyot, laboratoriya ishi va boshqalar.

Ta'limning strategik texnologiyalarini taktik ta'lim texnologiyalari orqali amalga oshirish ko'zda tutildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili taktik ta'lim texnologiyalarini tanlash mezonlari sifatida quyidagilarni qabul qilish imkonini berdi:

a) taktik o'quv texnologiyalarining strategik maqsadlarga mosligi;

b) taktik o'quv texnologiyalarining o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan o'quv materialining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiqligi;

v) yetakchi aloqa turi;

g) taktik ta'lim texnologiyalarini texnologik amalga oshirish imkoniyatlari; d) taktik ta'lim texnologiyalarining uzluksizligi (mavzuli, mantiqiy, tashkiliy).



Adabiyotlar ro'yxati:

1. Рубцов В. В. Социальное взаимодействие и обучение // Психологическая наука и образование. – 1996. – №2. – С.9-20.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т.: ТГПИУ, 2003. – 192 с.
3. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –Т.: Nizomiy nomli TDPU, 2000. – 52 b.
4. Халперн Д.Х. Психология критического мышления. – СПб.: Издательство «Питер», 2000. – 512 с.
5. Павлова К.Г. Психология спора.– Владивосток: Изд-во Дальневосточного университета, 2013. – 205 с. Никитина Е.Ю., Костюк И.С. Партиципативный подход к развитию графической компетенции будущих инженеров // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. – Челябинск, 2014. – № 9.1. – С.180–189.
6. Никитина Е.Ю. Педагогическое управление коммуникативным образованием студентов вузов: перспективные подходы: моногр. / Е.Ю. Никитина, О.Ю. Афанасьева. – М.: МАНПО, 2006 – 154 с.
7. Курганов С.Ю. Ребенок и взрослый в учебном диалоге: книга для учителя. – М.: ЛитРес, 2019. – 250 с.
8. Дьяченко В.К. Новая педагогическая технология и ее звенья. Демократическая система обучения по способностям. Монография. – Изд. Красноярск. Ун - та, 1994. – 182 с.
9. Лернер И. Я. Проблемное обучение. – М.: Знание, 1993. – 409 с.
10. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – М.: Директ-Медиа, 2008. – 392 с.
11. Орлов А.Б. Психология личности и сущности человека: Парадигмы, проекции, практики: Учеб.пособие для студентов психол.фак.вузов. – М.: Издательский центр «Академия», 2002. – 272 с.

MAHORATLI AKTYORLARNI TAYYORLASH VA ULARNI KINO FILMLARDA ISHTIROK ETISHINI TA’MINLASHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya: Maqolada kino sohasi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashda zamon bilan hamnafaslik, ta’lim berishning ilg‘or interfaol usullari, zamonaviy vizual va multimedia texnologiyalari hamda fanga oid texnik yutuqlar borasida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: aktyorlik san’ati, aktyor, san’at, kino, ta’lim, kadrlar tayyorlash, axborot texnologiyalari, kino, rol.

Behzod МИРЗАЕВ,

старший преподаватель кафедры «Музыкально-драматический театр и кинематографии» ГИИКУЗ

ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ПОДГОТОВКИ АКТЕРОВ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИХ УЧАСТИЯ В КИНОФИЛЬМАХ

Аннотация: В статье рассматриваются последние разработки в области подготовки специалистов для киноиндустрии, передовые интерактивные методы обучения, современные визуальные и мультимедийные технологии, а также технические достижения науки.

Ключевые слова: актерское мастерство, искусство, кино, образование, обучение, информационные технологии, кино, роль.

Behzod MIRZAYEV,

“Musical, dramatic theater and Senior Lecturer of the chair of Cinematography UzSIAC

EFFECTIVE WAYS TO TRAIN SKILLFUL ACTORS AND ENSURE THEIR PARTICIPATION IN MOVIES

Abstract: The article discusses the latest developments in the training of specialists for the film industry, advanced interactive methods of teaching, modern visual and multimedia technologies, as well as technical advances in science.

Keywords: acting, acting, art, cinema, education, training, information technology, cinema, role.

Murakkab globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan yosh avlodning qalbi va ongini himoya qilish eng dolzarb masalaga aylandi. “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”. Albatta, hech birimizga sir emaski, ayni paytda internet global tarmog‘i orqali milliy merosimizga, an’analarimizga qarshi qaratilgan g‘oyalar, ommaviy madaniyat targ‘ibi kabi mafkuraviy xurujlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda. Ushbu vaziyatda odamlar, ayniqsa, yoshlar sog‘lom shakllangan dunyoqarashga ega bo‘lsa, yuz berayotgan voqealarning asl mohiyatini to‘g‘ri anglaydi. Natijada esa ma’naviy tahdidlarga, xususan, “ommaviy madaniyat” niqobi ostida targ‘ib qilinayotgan g‘oyalarning ta’siriga bardosh beradi. O‘z madaniyati, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarini sofligini o‘zga milliy madaniyatlardan himoya qilib, ularning sun’iy yo‘l bilan kundalik hayotga kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Prezidentimiz tomonidan ta’kidlanganidek, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik,

diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta’lim-tarbiyasiga har birimiz mas’ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga tayanamiz”.² Shu o‘rinda san’at tushunchasi xususida qisqacha to‘xtalib o‘tishni joiz bildik. Aytish lozimki, san’at manaviy madaniyatning tarkibiy qismi, dunyoni manaviy anglashning maxsus turi hamda inson tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Uning har bir turi odamlarga o‘ziga xos darajada ta’sir etish kuchiga ega. Keng qamrovli bo‘lib, inson va jamiyatning rivojlanish va taraqqiyotida o‘ta muhim o‘rin egallagan holda inson ma’naviy ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ularning orasida esa kino san’ati ma’naviyat targ‘ibotida eng asosiy va kuchli ta’sirga ega bo‘lgan vazifani bajaradi. Demak, har bir kinofilm tomoshabinning estetik ehtiyojini qondirishi, ma’naviy dunyoqarashini shakllanishiga munosib hissa qo‘shishi, ma’naviy oziqa berishi lozim. Ana shunda insonlar kino san’atidan zavqlanadi, ta’sirlanadi, hayratlanadi, kezi kelganda, uning g‘oyasiga ergashadi.

Ma’lumki, mamlakatimizda yoshlar siyosatiga³ alohida ahamiyat qaratilib, yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, ular ilgari suradigan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmini joriy etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori qabul qilingan.⁴ Yoshlarning ma’naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni shu jarayonda yoshlarni Vatanga bo‘lgan muhabbatini yanada oshirish, milliy qardiyatlarimiz va tariximizga nisbatan kuchli hurmat tuyg‘usini shakllantirishda, iste’dodli yoshlarni tarbiyalashda madaniyat hamda san’at sohasi xodimlarining ham xizmati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bilamizki, yoshlarda adabiyotga intilish susaygan, kitob o‘qish an’anasi yo‘qolib borayotgani

¹ Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “Uzbekiston” NMIU, 2017. – B. 592.

² O‘sha manba.

³ O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 37-son, 426-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son. URL: <http://www.lex.uz/docs/3026246>.

tez-tez tilga olinmoqda. Demak, kitoblarda yozilgan tarixiy, milliy qahramonlar ekranga juda yaxshi ko'chirilsa, adabiyot va tarix kitoblarining ma'no-mazmuni yoshlarga ancha yetib boradi. Buning uchun ssenariy muallifi o'zi yozgan asari orqali nima demoqchi ekanligini anglab olishi lozim. Rejissor esa tasvirga oladigan ushbu kinofilmlari yoshlarni o'ziga qay darajada jalb qila olishi haqida bosh qotishi, tahlil qilishi kerak. Axir, shonli tariximizda o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimiz nafaqat ulkan iste'dod egasi, balki xalqning ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutgan, o'z davrining jonkuyar fuqarosi bo'lgan. Ularning har biri zamonasining quvonch hamda tashvishlarini, orzu umidlarini, dard va iztiroblarini qalbida mujassam etgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor".⁵ Shunday ekan, tarixiy shaxslar faoliyati, buyuk jasratlari, milliy urf-odat, qadriyatlarimiz tarannum etilgan asarlarga murojaat etgan holda kinofilmlar yaratish harakatida yurgan rejissorlar havaskorlarni emas, balki ushbu filmdan ko'zlangan maqsad hamda g'oyaning asl mohiyatini to'liq anglab yetgan, o'zbek tarixini, madaniyatini yaxshi bilgan professional iste'dodli, mahoratli aktyor va aktrisalarning mehnatidan foydalanishi lozim. Sifatsiz tasvirlar, palapartish olingan nomukammal kadrlar tomoshabinda kerakli ruhiy kechinmalarni uyg'otmaydi.

Bugungi kunda Vatanimizda suratga olinayotgan tarixiy filmlar ustida ijodkorlar yaxshigina ter to'kkanini ko'rinib turmoqda. Dialoglar puxta tuzilgan, tarixiy voqealarni imkon qadar real bo'yoqlarda ochib berishga harakat qilingan. Aktyor va aktrisalarning ham o'z rollarini mahorat bilan ijro etishgan, deyish ham mumkin. Tarixchilar, adabiyotshunoslarning xizmati ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ammo baribir filmlarning tasviriy va g'oyaviy sifati haqida matbuotda, ilmiy anjumanlarda turli fikrlar bildirilib, kezi kelganda qattiq tanqid ham qilinmoqda. Aytaylik, filmlarda ichki ziddiyatlar tasviri bilan cheklanib qolingandek tuyuladi. O'sha davrdagi oddiy xalqning hayoti, turmush tarzi etarlicha ochib berilmagan holatlarga duch kelinmoqda. Qahramonlarning suhbatida o'sha davr so'zlashuv tili uncha sezilmaydi.

Axir, ana shunday mavzu hamda yo'nalishlarda suratga olingan filmlar esa xalqimizning shunday insonlar haqida tasavvur uyg'otadi, yoshlarning dunyoqarashini boyitishga xizmat qilishi lozim. Bizda bilimli, saviyalari, tajribali rejissyorlar yoki mahoratli aktyorlar yo'q desak, ijodkorlarimiz mahoratini shubha ostiga olgan bo'lamiz. Tariximizning shonli, murakkab davrlarini bilmaydigan adib va tarixchilarimiz yetishmaydi, deyish ham noto'g'ri. Tarixni o'rganish, yoshlarimizni boy ma'naviy meros bilan tanishtirish, shu orqali ular ongida milliy qadriyatlarimizga nisbatan mehr-muhabbat, g'urur tuyg'ularini shakllantirish va bugungi tinch, osuda hayotimizning qadriga

⁴ Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.08.2019 y., 07/19/4433/3673-son. URL: <http://lex.uz/docs/4494504>

⁵ Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // <http://uza.uz/>. – 03.08.2017.

⁶ Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. O'zbekiston nashriyoti, Toshkent: 2016. – B. 107.

⁷ Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. – Toshkent: "Tafakkur qanoti", 2014. – B. 192.

yetish g'oyalarini ulug'lash, targ'ib qilish bugungi kunning oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. "O'tmish bu – tarix, tarix – millatlarning o'tmishi, taraqqiyoti hamda tanazzulining sabablarini o'rganatug'on ilmdir".⁶ Taraqqiyparvar olim, dramaturg, davlat arbobi Abdurauf Fitratning yuqoridagi so'zlari yoshlarni tariximiz va milliy qadriyatlarimizni his qilish, o'qib o'rganish, qadriga yetish va ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy meros bilan faxrlanish tuyg'ularini uyg'otadi. Afsuski, bugun nafaqat yoshlar, balki kattalar orasida ham tarixda muhim iz qoldirgan shaxslarni farqlay olmaydiganlar ham bor. Bu sharoitda ham kino saviyasini ko'tarish masalasi juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mana shu yo'nalishdagi filmlarni yanada talab darajasida yaratishga bo'lgan intilishni yanada kuchaytish kerak.

Bu esa o'z navbatida, madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalaridagi professor o'qituvchilarning oldiga o'qitishning samarali tizimini yaratish, zamonaviy ilg'or tajribalardan foydalanish, mahorat darslarini tashkil etish, o'quv qo'llanma va darsliklar, ilmiy-metodik adabiyotlar yaratish kabi mas'uliyatli vazifalarni tezkorlik bilan bajarish kerakligini angladi. "Talabada ijodiy kayfiyat uyg'otish va bunga qay yo'l bilan erishishni, birinchi navbatda, pedagog hal etadi. Bu uning bilimi, tajribasi, uslubi va ijodiy intuitsiyasiga bog'liq. Ta'lim jarayonidagi eng samarali uslub – pedagogning o'z o'quvchilarining ijodiy tabiatiga yaqin, o'ziga xos vazifa va mashqlarni qo'llashidir. Bu borada eng muhimi – ta'lim jarayonining qay uslubda olib borilishi emas, balki talabalarda aktyorlik mahoratini imkon qadar chuqur shakllantirish va bu yo'lda samarali natijalarga erishishdir".⁷ Zamon va davr bilan hamnafaslik masalasi ayniqsa, mutaxassislik fanlaridan dars beruvchi professor-o'qituvchilar oldiga juda katta mas'uliyatni qo'yimoqda. Yangi o'qitish metodlaridan foydalanish boshqa fanlarni o'qitishda ham ijobiy natijalar berishi aniq va ulardan foydalanish davr talabiga aylanib ulgurgan. Aynan yangicha fikrlaydigan yosh mutaxassislarni kashf etish va tarbiyalash, ularning kino san'atiga bo'lgan muhabbatini aniq maqsadlar, rag'batlar va samarali amaliy topshiriqlar orqali kuchaytirish lozim. Bu vazifani hal etish yuzasidan tegishli izlanishlar olib borilayotganini ham inkor etmaymiz. Bo'lajak aktyorlarni tayyorlash va ularni tarbiyalashda K.S.Stanislavskiy uning izdoshlari E.Vaxtangov, V.Meyxerold, M.Chexov hamda Sh.Abbasov, M.Abdullayeva, H.Mahmudova, J.Mahmudov, V.Iogelsen, S.Obrazsov, M.Ashurovalar tomonidan ishlab chiqilgan o'qitish uslubiyatiga tayanadi.

Zamonaviy ta'lim talablari, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ishlab chiqilayotgan maxsus davlat dasturlari dars davomida, ayniqsa, mutaxassislik fanlaridan bilim berish jarayonida ko'proq o'qitishning interfaol usullari, multimedia vositalaridan keng foydalanishni, o'qitish jarayonini vizuallashtirish, faollashtirishni talab etmoqda. Kino va televideniye sohasida zamonaviy talablarga javob beradigan, milliy kino san'ati an'analari asrab-avaylash va rivojlantirishga qodir, badiiy ijodning zamonaviy metodlari, innovatsion texnika va texnologiyalarni puxta egallagan yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunda pedagoglarning eng asosiy burchidir. Shular asosida biz yana quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

– *pedagog o'z kasbining haqiqiy egasi bo'lishi uchun atrofidagi insonlar orasida hurmat-e'tibor qozonishi kerak;*

– *hamisha madaniyatli murabbiy, ezgu fazilat egasi sifatida namuna bo'lishi zarur;*

– *o'zining iste'dodini, samimiy munosabatini talabalar orasida namoyon etib, o'qituvchi bilan talaba orasidagi o'zaro mulqotni yuksak darajada mustahkamlanishiga erishishi dardkor;*

– aktyorni rol ustida mustaqil ishlashga o'rgatishga jiddiy kirishishi kerak. "Milliy kino san'ati tarixidan ko'plab badiiy tajribalar, ijodiy parvoz va inqirozlar, kino san'ati an'analari, o'ziga xos milliy maktabning shakllanishi, janr-mavzuviy izlanishlar joy olgan. Tan olib aytish kerak, yil sayin o'zbek kino san'ati badiiy, uslubiy, g'oyaviy, tasviriy va ifodaviy jihatdan takomillashib bormoqda".⁸ Demak, ayni shu jarayonda san'at, madaniyat sohalarida tahsil olayotgan yoshlarning aktyorlik iste'dodini yanada rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun aktyorlik texnikasini chuqur o'rganish talab etiladi. Turli xil rollarni o'ynab, hissiyotlarni qanday boshqarishni o'rganishi juda muhim hisoblanadi. Lekin aktyorlik mahoratini oshirishda kitob o'qishning ahamiyati beqiyos ekanligi yanada ravshanlanadi. Aktyor sahnada obraz timsolida haqiqatdan ham hayotdagidek ko'rishi, eshitishi, his qilishi, fikrlashi, harakat qilishi lozim. U badiiy maqsad talablari va sahna hayotiga muvofiq tarzda to'g'ri qaror qabul qilishi, baholash va shu asosda harakatni amalga oshirishni o'rganishi lozim. Shuningdek, tarixiy hamda yoshlar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan filmlarni suratga olish yoki shu filmlarda rol ijro etish uchun avvalo, shu yo'nalishdagi filmlarni tomosha qilib, filmning mohiyatini o'rganishga, xatolarni topishga harakat qilish kerak. Kino san'atining o'ziga xos qonun-qoidalari asosida yaratilgan ekran asari namoyishi davomida tomoshabin kino qahramon yashab turgan makonda u bilan birga nafas oladi, dardlari va shodliklariga sherik bo'ladi. Kino sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining ma'naviy, kasbiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan bo'lishi natijasida yoshlar tarbiyasida kinematografiyaning o'rni va ishtiroki kuchayadi, kino mahsulotlarining g'oyaviy-badiiy saviyasi oshiriladi, milliy mustaqillik g'oyasining mohiyatini kino vositalari orqali aks ettirishga erishiladi. "Bu borada aktyorlik kasbiga oid maxsus bilim va ko'nikmalar muhim rol o'ynaydi. Zero, aktyorlik kasbini egallash uchun san'at maktablarida mutaxassislik sirlarini o'rganish zaruriy ehtiyoj hisoblanadi. Zamonaviy aktyorlik mahoratini o'qitish tizimi bosqichma bosqich tarzda, soddadan murakkablikka tomon rivojlanib boradi.

Aktyorlarni tarbiyalashning dastlabki bosqichi, avvalo, talabalarni san'at maktabiga qabul qilishni oqilona va sinchkovlik bilan tashkil etishdan boshlanadi. Bu esa pedagogning keyingi ijod jarayoni qanday kechishiga, mahoratli artistlarni yetishtirish yo'lida muvaffaqiyat qozonishi yoki aksincha natija yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi".⁹ Professional darajadagi kino mutaxassislari tayyorlash uchun milliy ruhdagi va milliy tildagi o'quv qo'llanmalar, darsliklarning ahamiyati juda yuqori ekanligini ham yana bir karra alohida e'tirof etish joizdir. Buning uchun yengni shimarib mehnat qilishimiz kerak, buning uchun

biz yaratgan ijodiy ishlar ekran orqali ko'zga, ko'z orqali ongga, ong orqali qalbga yetib borishi kerak. Aktyorning rol ustida ish olib borishi uzoq ijodiy izlanishlarni taqozo etadigan jarayondir. Tayyorgarlik jarayonida olib borilgan izlanishlar samarasi o'laroq sahnada siymo qiyofasi jonlanadi. Ijodiy izlanishlar jarayonining natijasi o'laroq siymoning ichki va tashqi qiyofasi o'z mazmun-mohiyati bilan yaqqol namoyon bo'ladi.

Demak, aktyor rol ustidagi dastlabki ishini hayotni o'rganishdan boshlagani ma'qul. Aktyor o'zi ijro etayotgan roldagi qahramon yashagan davr, ijtimoiy va siyosiy muhitni bilmay turib, rolga yondashmasligi kerak. Qolaversa, o'sha davrga taalluqli aniq faktlar, odamlar, ularning yurish-turishi, qahramonni qurshab turgan shaxslar, ularning kundalik turmush tarzi, muomala madaniyatini ham yaxshi bilmay turib, rolni haqqoniy va ishonarli qilib ijro etish mumkin emas. Bir so'z bilan aytganda, aktyor o'zining rol ustidagi mukammal izlanishlarni amalga oshirishi lozim.

Demak, kino mutaxassislariga ta'lim berayotgan pedagoglar:

– talabalarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ro'y berayotgan voqea va hodisalarni to'g'ri anglashi va sahnaviy makonda uni to'g'ri talqin qila olishishiga jiddiy e'tibor qaratishi;

– talaba yoshlarni zamonaviy talablarga javob bera oladigan g'oyaviy va badiiy pishiq kinofilmlarda suratga tushushini ta'minlaydigan aktyorlik san'ati sohasi bo'yicha ko'nikma va malakasini shakllantirishi;

– kino san'ati qonuniyatlarini his qiladigan, rang-barang xarakterdagi obrazlar psixologiyasini chuqur tushunadigan, qobiliyatli yoshlarni tarbiyalashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishi;

– jahon kino san'atida aktyorlik san'atining ilg'or tajribalariga tayangan holda mavjud o'zbek milliy kino maktabini takomillashtirish va davom ettirishga intilishi kerak.

Xulosa o'rinda aytish lozimki, har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma'naviy salohiyatiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, aholisining katta qismini yoshlar tashkil etuvchi mamlakatimizda yoshlar siyosati samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun O'zbekistonda yoshlarning ezgu maqsadlarini hayotga tatbiq etishlari uchun zarur barcha sharoitlar yaratilmoqda. Ana shularni yoshlar orasida keng targ'ib etishda kino san'atining o'rni yuqori ekanligini e'tirof etishimiz lozim. Iqtidorli aktyor va aktisalarimiz ishtirokidagi tarixiy, buyuk siymolarimiz, zamonamiz qahramonlarini ko'rsatish, tariximizga, milliylikimizga bo'lgan hurmatni yuksaltirish orqali yoshlarimizni san'atga, badiiyatga bo'lgan muhabbatni yanada shakllantirishga, turli yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilishga hamda teran tafakkurli barkamol avlodni tarbiyalashga erishiladi.

⁸ Matluba Isokova. Kino va televideniye tarixi. – Toshkent: – 2019. 8-bet.

⁹ Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. – Toshkent: "Tafakkur qanoti", 2014. – B. 192.

Baxtiyor SALAYDINOV,
O‘zDSMI “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrasida katta o‘qituvchisi
Asilbek QOLQANATOV,

O‘zDSMI “Madaniyat va san’at sohasi menejmenti” mutaxassisligi magistranti
MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIDA KREATIV TADBIRKORLIK
NAZARIYASI VA AMALIYOTINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya: Mazkur maqolada san’at va madaniyat sohasida tadbirkorlikning, ayniqsa kreativ tadbirkorlikning roli va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Yangi O‘zbekistonda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning rahnomaligida amalga oshirilayotgan yangi islohatlar va o‘zgarishlar, imkoniyatlar bo‘yicha ilimiy tadqiqotlar olib borilgan. Ta’lim sohasida yoshlarga tadbirkorlikni o‘rgatishning ahamiyatiga alohida urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, kreativlik, iqtisod, san’at, menejment, faoliyat, biznes, madaniyat, imkoniyat.

Бахтиёр САЛАЙДИНОВ,
старший преподаватель кафедры “Организация и управление учреждениями культуры и искусства”
ГИИК Уз

Асылбек КОЛҚАНАТОВ,

магистр по специальности “Менеджмент в области культуры и искусства” ГИИК Уз

ФОРМИРОВАНИЕ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ТВОРЧЕСКОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ

Аннотация: В этой статье обсуждается роль и значение предпринимательства, особенно творческого предпринимательства в искусстве и культуре. В Новом Узбекистане под руководством Президента Ш. Мирзиёева проводятся научные исследования о новых реформах и изменениях, возможностях. Подчеркивается важность обучения молодых людей предпринимательству в сфере образования.

Ключевые слова: предпринимательство, творчество, экономика, искусство, менеджмент, деятельность, бизнес, культура, возможности.

Bakhtiyor SALAYDINOV,
Senior Lecturer, chair of Organization and Management of Cultural and Art Institutions UzSIAC
Asilbek QOLQANATOV,

“Management in the field of culture and art” of the 1st stage of the chair UzSIAC

FORMATION OF THEORY AND PRACTICE OF CREATIVE
ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF CULTURE AND ART

Annotation: This article discusses the role and importance of entrepreneurship, especially creative entrepreneurship in the arts and culture. In the New Uzbekistan, under the leadership of President Sh. Mirziyoyev, scientific research has been conducted on new reforms and changes, opportunities. Emphasis is placed on the importance of teaching entrepreneurship to young people in the field of education.

Keywords: entrepreneurship, creativity, economics, art, management, activity, business, culture, opportunity.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning tashabbusi bilan Yangi O‘zbekistonni barpo etishga kirishganimizga qisqa vaqt bo‘lsa hamki katta samarali natija va muvaffaqiyatlarga erishmoqdamiz. Ijodiy ishlab chiqarish sohasida mutaxassislarni tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga o‘rgatib, ijobiy rivojlanish ham Yangi O‘zbekistonning yangi strategiyasidir.

Ayniqsa, mazkur islohotlarning ta’lim va tarbiya jaroyani bilan uzviy qorishib borayotgani yaxshi samara bermoqda. Ta’lim tizimini modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Innovatsion ta’lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to‘liq mosligini ta’minlash yoshlarimizni bugungi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. Chunki biz o‘z oldimizga Yangi O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilgan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya orqali erishamiz. Avvalo, hozirgi islohotlarning amaliy natijadorligini oshirish, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning xususan, yoshlarni yanada faol, tashabbuskor bo‘lishga da’vat etishimiz lozim. Hamma yoshlar ham davlat ravnaqi yo‘lida kamarbasta bo‘lib maydonga chiqq olmaydi. Buning uchun, avvalo, barcha ta’lim muassasalaridagi dars jarayonlarini ilg‘or, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan zamonaviy uslub bilan ta’minlash lozim. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmunini yangilash tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Barchamiz bugun chuqur anglab oldik, faqatgina

zamonaviy asosda ta’lim-tarbiya olgan, jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan, jismoniy va ma’naviy jihatdan barkamol yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarishga qodir bo‘ladi.

“Ayni, paytda islohatchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarni tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha – ta’limning barcha bo‘g‘inlarini izchil isloh qilmoqdamiz”[1: 23].

Albatta, Yangi O‘zbekistonda xalq boy bo‘lsa, davlat ham qudratli bo‘ladi tamoyili shakllandi. Bizning ota-bobolarimiz ham tadbirkorlikni kasbu-kor etib nafaqat Markaziy Osiyo balkim dunyo iqtisodi rivojiga katta hissa qo‘shganlar.

Bugungi kunga kelib respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida “Tadbirkorlik”, “Tadbirkor”, “Biznes”, “Biznesmen” kabi terminlar keng qo‘llanila boshlandi. Ularning mazmun va mohiyatini anglash ma’lum bir ma’noda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik haqida tasavvurni shakllantiradi.

Tadbirkorlik o‘z ichiga ijtimoiy munosabatlarni qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Unda huquqiy, ruhiy, tashkiliy, iqtisodiy va tarixiy tomonlar mavjud. Mazmuni va mohiyati bo‘yicha unumli faoliyatni anglatadi.

Tadbirkorlik bilan shug‘ullangan inson doimo sergak bo‘lib jamiyatimizning rivojiga katta hissa qo‘shib kelganligini tarixning zarvorli sahifalar allaqachon isbotlagan. Mamlakatimizda

davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish, tadbirkorlik subyektlari huquqlarini himoya qilish, xususiy mulkning ustuvorligini yanada kuchaytirish, biznes tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarida izchil ishlar qilinayapti. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha ko'rilayotgan choralar samaradorligi hamda natijadorligi yetakchi xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan ham ijobiy baholanmoqda.

Ayrim tarixshilar tadbirkorlik G'arbda shakllanganini e'tirof etsalar, ba'zi olimlarimiz Sharqda shakllanganligini ta'kidlashadi.

Tadbirkorlik faoliyati tizimining alohida tahlili dastlab G'arbda boshlangan bo'lsada, uning mohiyati va rivojlanishiga taalluqli ko'pqirrali bilimlar Sharqda tarkib topib, so'ngra G'arbda ilgari surilganligiga yuqorida zikr etilgan dalillar guvohlik beradi. Ayniqsa, ular bu yo'nalishda shakllangan va hayotda o'z o'rniga ega bo'lgan ta'limotlarda o'z ifodasini topgan.

Xususan, 3 ming yillik tarixga ega Zardushtiylik ta'limotining asosi bo'lmish "Avesto"da, shuningdek, "Naqshbandiya", "Yassaviya", "Kubroviya" ta'limotlarida mujassamlashgan. Naqshbandiya'ning "Dil ba yoru, dast ba kor", ya'ni "Diling Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin", degan ta'limot asoschisi Xoja Bahouddin Naqshbandiy kimxobga naqsh bog'lashda tadbirkorlik mahoratini namoyish etib, halol mehnat bilan yashash zarurligini ibrat qilib ko'rsatgan.

Ayrim manbalar uning mato to'qiydigan do'konlari borligiga ham ishora qiladi. Ko'rinib turibdiki, Bahouddin Naqshband mashhur G'arb iqtisodchi olimi xususan, Vilyam Pettidan 400 yil muqaddam mehnat insonlarning yashash manbai ekanligini chuqur anglagan va amalda o'z faoliyati doirasida isbot etgan[3: 7,8].

Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Kreativlik qobiliyatiga ega mutaxassis o'z bilimini izchil boyitib borishi, yangilikka intiluvchan mahorat egasi bo'lishi lozim.

Kreativ tadbirkorlikning ahamiyatli jihati esa shundaki, unda boshqa tadbirkorlik faoliyatidan biroz boshqacha tarzda yondashiladi. Tadbirkorlik shaxsning erkin rivojlanishida intellektual salohiyatini, hayotiy tajriba, kasbiy ko'nikmalariga, tashkilotchilik omillariga ham bog'liq bo'ladi. Chunonchi, Yangi O'zbekiston tadbirkorlikning zamonaviy integratsiyasi negizida katta muvaffaqiyatlar amalga oshirmoqda. Bizga iqtisodiy integratsiya kerak! Bu borada muloqot va raqobatga tayyor bo'lish uchun esa nafaqat rahbarlar, balki tadbirkor va ishbilarnonlar, barcha bo'g'indagi menejerlar o'z ustida tinimsiz ishlashi shart [4: 42].

Madaniyat va san'at sohasining rivojlanishida kreativ tadbirkorlik yangicha soha, ilm va integratsiya hisoblanadi. Zamon bilan teng iqtisodiy bozor munosabatlariga javob berishida kreativ (ijodiy) tadbirkorlikning mohiyati juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Shu nuqtaiy nazardan biz kreativ tadbirkorlikning formatsiyasiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda kreativ tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, madaniyat va san'at sohasida tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan yoshlarni sohadagi bilimlarini oshirish qo'llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ijodiy tadbirkorlik – bu biznesdagi nisbatan yangi tushuncha. Tor ma'noda ijodiy tadbirkorlik deganda madaniy va ijodiy sohalarida faoliyat yuritadigan korxonalar tushuniladi. Ushbu sohalar turli mamlakatlarda turli xil ta'riflarga ega, ammo asosiysi, ijodiy tadbirkorlik madaniy ijodga asoslangan va intellektual mulkdan foydalanadigan sohalarni o'z ichiga oladi.

Ijodiy ishlab chiqarish – bu kelajak korxonalaridir. Aksariyat ijodiy kompaniyalar kichik, hatto mikrofirmalar, mobil, ko'pincha mavsumiy, loyihalarga asoslangan. Ijodiy tadbirkorlik turli ko'nikmalar va turli xil ish uslublarini talab qiladi. Bunday tadbirkorlikning asosini intellektual kapital tashkil etadi. Muammo shundaki, bunday intellektual kapitalning haqiqiy qiymatini baholash uchun hali yaxshi modellar ishlab chiqilmagan. Bu esa investorlarni izlashni va moliyalashtirishni juda qiyinlashtiradi.

Ijodiy tadbirkorlik odatdagi biznesdan nimasi bilan farq qiladi, nega yangi kontsepsiyalarni kiritish kerak edi? Gap shundaki, ijodiy tadbirkorlik odatdagi ish me'yorlaridan tubdan farq qiladi, bu katta

ko'nikmalarni, harakatchanlikni va doimiy o'rganish qobiliyatini talab qiladi. Bu holda, "to'liqida" qolish shunchaki mumkin emas.

Ijodiy tadbirkorlik dizayn va moda, arxitektura, audiovizual sektor (ijodiy ishlab chiqarish, radio eshittirish), nashriyot, ommaviy axborot vositalari, tasviriy san'at, musiqa san'ati, madaniy meros (muzeylar, kutubxonalar, arxivlar), reklama va kompyuter o'yinlari (o'yinlar, ilovalar)ni o'z ichiga oladi.

Kengroq kontekstda ijodiy tadbirkorlik madaniy ijodkorlik boshqa sohalar bilan bog'liq holda o'zaro manfaatli bo'lgan ijodiy sohalar tutashandagi faoliyatni ham o'z ichiga oladi. Masalan, madaniy turizm – madaniyat va ijodkorlik har doim sayyohlarning biron bir mamlakatga tashrif buyurishi uchun sabab bo'ladi, biroq u boshqa bir qator sanoat tarmoqlariga (turar joy, logistika, ovqatlanish va boshqalar) iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi.

Aslida, ijodiy tadbirkor bo'lish oddiy ishbilarmonga qaraganda qiyin emas, lekin bitta o'zgartirish bilan – siz alohida yondashuvga muhtoj bo'lgan ijodkor odamlar bilan ishlashingiz kerak bo'ladi. Iste'dod va madaniy ijodkorlik bunday biznes muvaffaqiyatining kaliti. Biroq ijodkor va iqtidorli xodimlarning buyuk ishbilarmon, muhandis yoki marketing guruhi bo'lib qolmaslik xavfi mavjud. Shuning uchun muvaffaqiyat poydevori barcha mumkin bo'lgan funksiyalarni ya'ni ijodkorlikdan boshqarish va texnologiyaga qadar birlashtirgan ajoyib jamoani yaratishdir.

Madaniy va ijodiy sohalarining jahon YAIMga qo'shgan hissasi 4,5 foizni tashkil etadi. Mutaxassislar ushbu ko'rsatkichga nisbatan yillik o'sishni 10 foizni tashkil etishini taxmin qilishmoqda. Bu ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanish sur'atlaridan tezroq hisoblanadi. Bunday statistik ma'lumotlardan so'ng, madaniyat va ijodkorlik alohida masala ekanligi ayon bo'ladi. Ular pul, iqtisodiyot va biznesga hissa qo'shish bilan bog'liq.

Kreativ tadbirkorlik, biznes, marketing tushunchalar san'at va madaniyat sohasida keng qo'llanilmoqda. Lekin bu tushunchalarning o'z mazmun mohiyati bor. "Tadbirkor" va "biznesmen" kabi tushunchalar ularning iqtisodiy faoliyat sohalarini ko'rilayotganda ma'nodosh deb hisoblanmaydi. "Biznes" tushunchasi "tadbirkor"dan ancha kam ma'noga ega deb qaraladi. G'arb davlatlarining bozor iqtisodiyoti haqidagi adabiyotlarida, biznes – jamiyatning talab va xohishlarini qondirishga qaratilgan ishlab chiqarish tizimi, deb tushuntiriladi. Tadbirkorlik faoliyati biznesning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi va uning turli sohalarida amalga oshiriladi.

Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi tutgan roli o'rniga baho berishda, eng avvalo, iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlarga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bunday ko'rsatkichlar jumlasiga kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulot, jami ish bilan band bo'lganlar, kapital qo'yilmalar, eksport va boshqalardagi ulushini kiritish mumkin. [5: 15].

Tadbirkorlik – foyda olish uchun biznesni rivojlantirishga tayyorlik va uni tizimli ravishda boshqarish qobiliyati egalik. Biroq, tobora ko'proq aralash modellar paydo bo'lishini ta'kidlash muhim. Masalan, muzeylar davlat tomonidan qisman mablag' oladi. Shu bilan birga, muzeyning o'zida kafe, esdalik sovg'alari do'koni mavjud, u yerda xususiy tadbirlar o'tkaziladi – bularning barchasi tashkilotga qo'shimcha foyda keltiradigan usullardan.

Ushbu mablag'lar operatsion faoliyatni qoplash, shuningdek, qo'shimcha loyihalarni amalga oshirish uchun sarflanadi. Bu ham ijodiy tadbirkorlikning namunasidir. Asosiysi biznesni boshlamochi bo'lgan kishining o'z tamoyili bo'lishi kerak. Shu bilan birga, o'z biznesini boshlamochi bo'lgan har bir kishi ikkita savolga aniq javob berishi kerak: Birinchisi, men aniq nima bilan shug'ullanaman? Ikkinchisi, mening biznesim nimasi bilan mijozlar uchun jozibali kabi savollar shular jumlasidan.

Shuningdek, biznesni boshlashdan oldin, barcha shartlarni oylab, maqsadlarni belgilash kerak, buning uchun asosiy savollar to'plamini aniqlashtirish zarur:

*Boshqalar taklif qilmaydigan nimani taklif qila olaman?
Qanday qilib men ko'rsatadigan xizmatlarni yoki ishlab chiqaradigan mahsulotlarni iste'molchilar uchun qiymatliroq qilishim mumkin?*

Agar odamlarga xizmat yoki mahsulot taklif qilinsa, ular nima uchun pul to'lashlari kerak?

Kreativ tadbirkorlikni yo'lga qoymoqchi bo'lsangiz ham aynan ushbu savollarga javob topishingizga to'g'ri keladi. Har qanday ishni, ayniqsa, tadbirkorlikni boshlashdan oldin motivatsiya bo'lishi kerak, ya'ni ma'lum maqsadlarga erishish uchun odamni o'z mablag'larini xavf ostiga qo'yishga undaydigan ichki intilish, iqtisodiy-daromad olish yoki ijtimoiy-psixologik va shaxsiy ambitsiyalarni qondirish bo'lishi kerak.

Tadbirkorning motivatsiyalari (maqsadlar)ni quydagi ikki darajaga ajratish mumkin. Motivatsiyaning 1-darajasi quydagicha:

- Foyda olish;
- Muvaffaqiyatga erishish;
- Tashkiliy qobiliyatlarni ochib berish;
- Ijodkorlikning namoyon bo'lishi;
- Jamiyat tomonidan tan olinishi;
- Shaxsiy qoniqish;
- Motivatsiyaning 2-darajasi bo'lsa quydagilardan iborat.
- Hokimiyatga ega bo'lish;
- Mustaqillikka erishish;
- Sevimli ish bilan shug'ullanish;
- Oilaviy an'analarni davom ettirish;
- Jamiyat ehtiyojlarini qondirish;
- Raqobatlashishga ishtiyoq;
- Tadbirkorlikda mukammal vazifa, maqsad va motivatsiya

katta rol o'ynaydi.

Bizning yana bir muhim vazifamiz – kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o'zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi. Men takror bo'lsa ham, aytishdan hech qachon charchamayman, ya'ni, xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi – degan edi Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev.

Yangi O'zbekistonda rag'batlantirish tizimining yo'lga qo'yilganligi yangi O'zbekiston bunyodkorlariga katta madad ekanligining amaliy isbotidir. Madaniyat va san'at sohasida kreativ tadbirkorlikning ahamiyati ham tobora oshib bormoqda. Bugungi san'at media makonida raqobatga bardosh berish oson emas. Shu bois, tadbirkorlar mahsulotning yo bahosini arzonlashtirish yo reklamani kuchaytirish evaziga haridorlarni jalb qilishga harakat qilishadi. Ammo bozorni egallashning uchinchi yo'li ham mavjud. Bu kreativ tadbirkorlik bilan shug'ullanish.

Ya'ni hali hech kim qo'l urmagan, an'anaviy tadbirkorlikka o'zgacha yondashuv bilan amalga oshiriladigan ushbu yo'l haridorni tez topishi va samaradorligi bilan ko'pchilikni qiziqтира olar ekan. Hozirga vaqtda kreativ tadbirkorlik dunyo miqyosida ommalashib boryapti. Shuning uchun ham endi yuqori g'oyaga ega tadbirkorlarga talab va ehtiyoj paydo bo'lmoqda.

Bu bo'yicha OTMda talabalarni tadbirkorlikka o'qitish ehtiyoji nihoyatda katta ahamiyatga ega. Boisi, mamlakatimizning ayni paytdagi rivojlanish davrida faqat bitta yo'nalish emas, qo'shimcha ish o'rganish, tadbirkorlik bilan shug'ullanishning ahamiyati katta. Bunda ta'lim tizimidagi ustozlarning mehnati yuksak samara beradi. Sh.Mirziyoyevning: “Yana bir bor ta'kidlayman: men Yangi O'zbekistonni – obod va faravon, demokratik mamlakatni, Uchunchi Renessansni barpo etishda pedagoglar, professor-o'qituvchilar, ijodkor ziyolilarni eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman. Ularning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoiti yaratib berishni Prezident sifatida o'z burchim, deb hisoblayman” – deya ishonsh bildirishi O'zDSMI professor-o'qituvchilarga katta motivatsiya va madad bo'ldi. Bu jarayonlarni jadallashtirishda nodavlat va notijorat tashkilotlar bilan hamkorliklar yo'lga qo'yildi.

2018-yilda Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi ko'magi bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda London Goldsmiths Universiteti o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Ushbu hamkorlik doirasida institutning “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish”

kefedrasi mas'ul professor-o'qituvchilari tomonidan “Creative Spark: Oliy ta'limda tadbirkorlikka o'qitish” loyihasi amalga oshirilmogda. Mazkur loyiha O'zbekistonda iqtisodiyot va ta'lim sohasidagi amalga oshirilgan keng ko'lamli milliy islohotlarga javoban, kreativ sektorni qo'llab-quvvatlash va ishbilarmonlik bilimiga bo'lgan ehtiyojni qondirish va yangi ish o'rinlarini yaratish uchun amaliyotga tadbiiq qilingan.

O'zDSMIda “Creative spark” xalqaro loyihasi doirasida 2021-yilda katta amaliy ishlar amalga oshirildi. Institut professor-o'qituvchilardan B. Salaydinov, M. Yuldasheva, O. Dusmuhamedov mazkur xalqaro loyihani amalga oshirishda ilmiy-amaliy izlanishlar olib borib, kata tashabbus ko'rsatdi.

2020-yilning 29-fevral kuni O'zbekistondagi Britaniya Kengashining “Creative Spark – Oliy ta'lim dasturi” xalqaro loyihasi doirasida “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrasini tomonidan “Madaniyat va san'at sohasida kreativ tadbirkorlik faoliyatiga o'qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar, 2020-yilning 31-oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda “O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishda kreativ tadbirkorlikning o'rni” mavzusida ilmiy-amaliy onlayn seminarlari o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasida ham san'at va madaniyat sohasida kreativ tadbirkorlik bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni shakllantirishiga erishildi. 2020-yilning 28-noyabr kuni “Madaniyat va san'at sohasida kreativ tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari” mavzusida ilmiy-amaliy onlayn vebinar o'tkazildi.

2021-yil 13-yanvar kuni institutda “Madaniyat va san'at menejmenti fanlarini o'qitishning dolzarb muammolari” mavzusida seminar, 2021-yil 12 – 26-fevral kunlari “Xotin-qizlarning kreativ ta'lim va kreativ sohalardagi imkoniyatlari” mavzusidagi vebinarlar o'tkazildi. O'zbekistonda gender tengligini rivojlantirish maqsadida 2021-yil 12-mart kuni “O'zbekistonda xotin-qizlarning kreativ ta'lim va kreativ tadbirkorlikda imkoniyatlarini kengaytirish” mavzusidagi ilmiy-amaliy vebinar, 2021-yilning 7-may kuni “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrasini, London Goldsmiths Universiteti va Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda mazkur sohaning nazariy asoslarini mustahkamlash maqsadida “Ijodiy tadbirkorlikni shakllantirishning pedagogik omillari” mavzusida ilmiy-amaliy onlayn vebinar tashkil qilindi.

2021-yilning 21-may kuni yuqorida qayd etilgan tashkilotlar bilan “Intellektual mulk va mualliflik huquqlarini himoya qilishning muhim jihatlari” mavzusida online ochiq dars o'tkazildi.

Mazkur jarayonlarda talabalarining qiziqish va ishtirokini ta'minlash maqsadida 2021-yil mart va may oylarida “Creative Spark – Big Idea Challenge 2021” xalqaro tanlovi doirasida professor-o'qituvchilar B. Salaydinov va O. Dusmuhamedov tomonidan tanlov tashkil etildi. O'zDSMI talabalari, magistrantlari va yosh o'qituvchilariga institut rasmiy telegram kanalida https://t.me/dsmi_uz “Creative Spark – Big Idea Challenge 2021” xalqaro tanlovi e'lon qilindi. Mazkur tanlovga o'z kreativ biznes g'oyasiga ega bo'lgan 50 dan ortiq institut talabalari ishtirok etdi. BIC tanloviga sayt orqali 25 kishi registratsiyadan o'tdi. Talabalardan 8 ta loyiha kelib tushgan bo'lsa eng mukammal 3 ta loyiha tanlab olindi. B. Salaydinov va O. Dusmuhamedovlarning rahbarligida Kamola Ikramova tomonidan “Women Leadership development portal”, Gavhar Normatova tomonidan “Beauty mobile” va Ikromjon Habibjonov tomonidan “Poet's digital assistant” nomli kreativ biznes g'oyalari bo'yicha video lavhalar tayyorlandi hamda xalqaro tanlovda ishtirok etish uchun creativespark-bigidea.uk saytiga joylashtirildi.

Bu kabi ilmiy-amaliy ishlarni tashkil etishdan avval institutning bir guruh professor-o'qituvchilari ya'ni, 2020-yil 4-yanvar kuni “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrasini dotsenti M.Yuldasheva, katta o'qituvchisi B.Salaydinov, o'qituvchi O. Dusmuhamedov, institutning Nukus filiali o'qituvchisi G.Saparbayeva, A.Begjanova hamda Farg'ona mintaqaviy filiali direktor o'rinbosari R.Turg'unbayev London shahridagi Goldsmiths

Universitetida tashkil etilgan amaliy treninga borib tajriba almashib qaytishdi.

Treningning asosiy maqsadi O'zDSMI rektori filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshevning tashabbusi bilan o'quv rejaga kiritilgan "Madaniyat va san'at sohasida kreativ tadbirkorlik" modulini Londonning Goldsmiths Universiteti professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda ishlab chiqishdan iborat edi. Treningda professorlar Sean Prime, Adrian de la Court mashg'ulotlar olib bordi. Hamkorlikda yaratiladigan modul avvalo institutning barcha yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun ishlab chiqilishi va Goldsmiths universiteti huzuridagi Kreativlik va madaniy tadbirkorlik instituti direktori Jerald Lidstoun ham mashg'ulot o'tdi.

Trening ishtirokchilari London South bank Universitetida tashkil etilgan yoshlar tadbirkorlik markazining faoliyatini tahlil qildi. Maqsad O'zbekiston va Angliya o'rtasida ta'lim sohasida hamkorlik o'rnatish, yoshlar orasida kreativ madaniy tadbirkorlikni targ'ib qilish, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashdan iborat. Shu bilan birga mazkur mashg'ulotlarda modulning madsadi, vazifasi, talabalar bilimi, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar, modulning asosiy ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzularini ishlab chiqish kerak edi.

Uzoq ilmiy izlanishlarning negizida "Madaniyat va san'at sohasida kreativ tadbirkorlik" fanidan professor-o'qituvchilar: dotsent Manzura Yuldasheva, o'qituvchilar Baxtiyor Salaydinov, Oybek Dusmuxamedov, Gulshira Saparbayeva, Rashid Turg'unbayev tomonidan ishchi dastur ishlab chiqildi. "Madaniyat va san'at sohasida kreativ tadbirkorlik" moduli M.Yuldasheva, O.Dusmuxamedov, B.Salaydinov tomonidan yaratildi va institut Kengashiga muhokamasidan o'tib o'quv jarayoniga kiritildi. Shuningdek, "G'oyadan bizneschacha" mavzusida treninglar o'tkazildi. 2020-yilning 3 va 4-fevral kunlari Toshkent shahrida tashkil etilgan "O'zbekiston Oliy ta'limida ijodiy tadbirkorlikka o'qitish integratsiyasi" xalqaro forumida loyiha a'zolari M.Yuldasheva, B.Salaydinov va O. Dusmuxamedov muvaffaqiyatli qatnashdi.

Talabalarga dastlabki manba ya'ni Oybek Dusmuxamedov tomonidan "Kreativ tadbirkorlik asoslari" o'quv qo'llanmasi yaratildi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etildi. Albatta, bu kabi ilmiy-amaliy izlanishlar natijasi talabalarning ilmi va konikmalarini shakllantirishda va rivojlantirishda yaxshi samara beradi. O'zbekistonda amaliyotga tadbiiq etilayotgan kreativ tadbirkorlik san'at va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqadi.

Chunki Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tgani kabi: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonda barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz.

Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat – deya ta'kidlagani kabi bu g'oya Yangi O'zbekistonning yangi zafarlarini belgilovchi tamoyil va

strategiya bo'lib xizmat qiladi. Kreativ tadbirkorlik sohasida hozirgi nazariy va amaliy jihatdan dastlabki fundamental ko'nikmalar shakllantirildi.

Endi bu ishlarni hayotga tadbiiq etish jaroyani boshlandi va pirovard muammolarga ham dush kelina boshladi. Sohada ishlayotgan mutaxassislar bilan kreativ tadbirkorlikdagi dastlabki muammolarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-tahliliy ishlar olib bordik. Jumladan, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti o'qituvchisi, taniqli rassom Furqat Bozorovning tahlillariga ko'ra O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun onlayn va ijtimoiy hayotda xalqaro darajadagi auksion ayriboshlash savdosini yo'ga qoyish kerak. Shunki, O'zbekiston Badiiy Akademiyasida taniqli teatr rassomi Shuhrat Abdumalikovning tashabbusi bilan xayriya auksion savdosi o'tkazilib, unda kreativ ijodiy ishlar feysbuk ijtimoiy tarmog'i orqali muvaffaqiyatli sotilgan.

Undan keyin O'zbekistonda bu kabi kreativ tadbirkorlik ishlari olib borilmagan. Mazkur sohaga oid yangi onlayn platforma yaratilsa ijodkorlarning ijodi rivojlanishiga yordam berishini ta'kidlaydi. O'zbekistonda kreativ tadbirkorlikni rivojlantirish hozirda dolzarb muammo. Furqat Bozorovning fikrlariga ko'ra kreativ tadbirkorlikni rivojlantirish uchun avvalo yoshlar orasida man'aviy solahiyatni shakllantirish kerak. Ya'ni, maktablardagi tasviriy san'at darslarining ma'lum qismini muzeylarda o'qitish tizimining amaliyotga tadbiiq etish zarurligini ilgari surdi.

Qoraqalpog'istonlik kreativ asarlari bilan tanilgan yosh va iqtidorli rassom Saidbek Sabirbayevning fikrlariga ko'ra, kreativ tadbirkorlikni shakllantirish uchun avvalo, Respublikamizda kolleksionerlar, metsionerlar bo'lishi kerak. Buning uchun Art ringni yo'lga qoyish kerak. Xorijlik mutaxassislarni jalb etgan holda, art menagement guruhin tashkil etishdan avval bu ishlarga rassomlarni qiziqitirish zarur.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, kreativ tadbirkorlikning nazariy asoslarini biz OTMda sinab, yaxshi natija bersa madaniyat va san'at sohasiga ixtisoslashtirilgan maktab darsliklariga ham kiritsak ijodiy tadbirkorlikning mohiyatini xalqimizga yetkazishimiz va qiziqitirishimiz oson bo'ladi. Endi, mutaxassislar tomonidan kreativ tadbirkorlik ishlarini ommaviy targ'ib qilish uchun elektron shakldagi amaliy platforma yaratish kerak. Maktablarda esa "Eng yaxshi kolleksioner", "Eng yosh muzey sayohatchisi", "Muzeylarning eng yosh faxriy mehmoni" "Kreativ g'oya muallifi" v.k.x tanlovlarni tashkil etish zarur.

O'zbekistonda madaniyat va sanat sohasi rivoji uchun ishlab chiqilgan bu kabi ilmiy ishlar dastlabki ko'nikmalar bo'lib xizmat qiladi. Xorijlik va mahalliy pedagoglar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar vaqt o'tgan sari yangilanib boraveradi. Dastlabki, kreativ tadbirkorlikning nazariyasi OTM uchun shakllandi. Amaliy ishlar olib borilib, nazariy negizlar hayotga tadbiiq etildi. Yangi O'zbekistonda yangicha soha bo'lgan kreativ tadbirkorlik shakllandi. Bu madaniyat muassasalarining yangi iqtisodiy boshqarish tizimi va usullarida tub o'zgarishlar ro'y berishi arafasida ekanligidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Mirziyoyev. Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – B. 262.
- 2 G'ulomov S. Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2005. – B. 444.
- 3 Boltabayev M.P., Qosimova M.S., G'oyibnazarov B.K., Ergashxodjayeva Sh.J., Samadov A.N., Otajanov Sh.I. Kichik biznes va tadbirkorlik. – Toshkent: Noshir, 2011. – B. 272.
- 4 Mirziyoyev. Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – B. 262.
- 5 Leshenko B.A., Matmurodov F.M., Bekbasova A.A. Tadbirkorlik faoliyatini boshqarish asoslari. – Toshkent: TAQI nashriyoti, 2004. – B. 93.
- 6 Alimasov V. Madaniyat muassasalarida iqtisodiy boshqarish usullari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi FA Qo'lyozmalar Instituti 1997. – B.120.

ESTRADA XONANDALIGI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOG MAHORATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik uslublarning ahamiyati va musiqiy ta'lim prinsiplari talablariga mos keladigan, talaba-yoshlarning musiqiy tafakkurni jadal rivojlantirishga, estrada xonandaligi ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning samarali tadbiriq masalalari xususida so'z yuritilgan. Mamlakatimizda ta'limning hozirgi rivojlanish bosqichida o'qitish metodlari, vositalarini va tashkil etish shakllarini takomillashtirishga qaratilgan fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: musiqiy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, musiqiy-ijodiy qobiliyat, uslub, kompozitor, metod, texnologiya, an'anaviy usullar, ijodkor, pedagogik jarayon.

Джамшид АБДУХАЛИЛОВ,
преподаватель кафедры «Вокал» ГИИКУЗ

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАВЫКИ В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ ЭСТРАДНОГО ПЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается значение педагогических методов и эффективного применения инновационных педагогических технологий, отвечающих требованиям принципов музыкального образования, служащих для ускорения развития музыкального мышления учащихся, формирования навыков эстрадного пения. На современном этапе развития образования в нашей стране высказываются идеи по совершенствованию методов обучения, средств и форм организации.

Ключевые слова: музыкальное образование, профессиональная подготовка, музыкально-творческая способность, стиль, композитор, метод, технология, традиционные методы, творческий, педагогический процесс.

Jamshid ABDUKHALILOV,
Teacher of the "Vocal" chair of the UzSIAC

PEDAGOGICAL SKILLS IN THE FORMATION OF POP SINGING SKILLS

Annotation. This article discusses the importance of pedagogical methods and the effective application of innovative pedagogical technologies that meet the requirements of the principles of music education, serve to accelerate the development of students' musical thinking, the formation of pop singing skills. At the current stage of development of education in our country, ideas are expressed for the improvement of teaching methods, tools and forms of organization.

Keywords: music education, vocational training, musical-creative ability, style, composer, method, technology, traditional methods, creative, pedagogical process.

Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, shaxs kamoloti yo'lida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy madaniy-tarixiy an'analari, urf-odatları hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar amaliyotga joriy etildi. Yosh avlodni ma'naviyatini yuksaltirish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularni Vatanga sodiq, fidoyi insonlar etib tarbiyalash uzviylik va uzluksizlikni talab qiladigan dolzarb pedagogik jarayon ekanligi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonda ham qayd etilgan.¹ Shu o'rinda aytish lozimki, yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashda musiqaning, jumladan, insonparvarlik, vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlarning kuchi va ahamiyati kattadir. Ma'lumki, qo'shiqlarda insonlarning qalbiga tez kirib boradigan, qalb pardalarini chertadigan, dillarning tub-tubida cho'kib yotgan

his-tuyg'ularni anglatib yuboradigan, ezgu ishlarga da'vat etadigan xususiyat mavjud. Aslida, ushbu san'at turi qadim zamonlarda vujudga kelgan va hozirgi kunlarda ham o'z rivojini davom ettirayotgan ijod turi hisoblanadi. Davrlar o'tgani sayin u ham shaklan, usluban har jihatdan ancha o'zgarishlarni boshidan o'tkazgan. XX asrga kelib bu janr "estrada qo'shig'i" qiyofasida dunyoni zabt etishga kirishdi va eng ommabop janrga aylandi. Dunyo miqyosida estrada qo'shiqchilik san'ati kundun-kunga rivojlanib, yangi hamda turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishni boshladi.

Ayni paytda "estrada qo'shig'i" janrida ijod qilib, xalqaro tanlovlarda, katta-katta sahnalarda o'zbek millatini, o'zbek madaniyatini, o'zbek san'atini yuksak darajada targ'ib qilayotgan san'atkorlarimiz ko'pchilikni tashkil etadi. Yosh estrada san'atkorlari orasida ustoz va maktab ko'rgan, haqiqiy iste'dod va ovoz egalari ham talaygina. Professional, yuqori badiiy didga ega xonandalar bilan bir qatorda, o'zlarini "yulduz" darajasida hisoblagan, musiqiy savodi nomukammal, san'at va sahna talablariga aytarli darajada javob bermaydigan, yoshlarning ham sahnalarda tez-tez ko'rinish qolayotgani ham hech birimizga sir emas. Shu o'rinda, musiqa ta'limining keng qamrovli va chuqur ilmiy-metodik poydevorini ishlab chiqish, jiddiy masalalar sirasiga kirishini e'tirof etishimiz joizdir. Davlatimiz rahbari "soha uchun mutaxassislar tayyorlash, xususan, yangi davrga mos o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar yaratish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, o'quv muassasalarini zamonaviy pedagogik-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlash,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatları to'plami. – T.: 2017. – B. 39.

² Sh.Mirziyoyev. O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishda milliy madaniyatning o'rni va ahamiyati. (Madaniyat va san'at sohasidagi masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasi). "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 26-dekabr.

ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratish zarur",² deb ta'kidlaydi.

Demak, san'at sohasida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog eng avvalo, o'zining vazifasi bo'lajak estrada san'atkorining ijodiy qirralarini, mavjud iste'dodini ochib berish va ularni rivojlantirishdan iborat ekanligini anglab yetishi lozim. "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak. Bunday ustozlar qo'lida ta'lim olgan farzandlarimiz biz orzu qilgan O'zbekistonning yorug' kelajagini bunyod etishga qodir avlod bo'lib kamol topadi"³. Darhaqiqat, yuqori malakali, professional, estrada xonandasini tarbiyalash juda ko'pqirrali va nihoyatda murakkab jarayon. Chunki har bir yosh ijodkorning iste'dod qirralarini, umumiy musiqiy tayyorgarlik darajasini, ovoz diapazonini, vokal texnik imkoniyatlarini, ijodiy fikrlash doirasini va fizik holatini hisobga olgan holda yondoshish talab etiladi. Agar o'qituvchi o'z sohasida mustahkam bilimlarni egallagan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirgan va o'quv jarayonida ularni qo'llay bilishni o'rgangan bo'lsa, talabalarining ruhiyatlariga mos ravishda muloqotga kirishadi.

B.Asafiyev, Yu.Aliev, O.Apraksina, T.Baklanova, L.Barenboym, O.Blox, N.Bryusova, N.Vetlugina, K.Golovskaya, N.Grodzenskaya, D.Kabalevskiy, 3.Koday, E.Abdullin, L.Mazel, V.Medushevskiy, N.Mixaylovskaya, Ye.Nazaykinskiy, Ye.Nikolayeva, G.P.Novikova, K.Orf, V.Petrushin, O.Radshovalarning ilmiy ishlarida musiqa san'atining pedagogik ahamiyati keng yoritilgan. O'zbekistonda ham musiqa pedagogikasi bo'yicha XX asrning 60-90 yillarda H.Nurmatov, F.Jo'rayev, R.Qodirov, Q.Mamirov, S.Annamuratova, T.Tursunov va boshqalar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlarda musiqiy ta'limning maqsad va vazifalari, musiqiy faoliyat turlari, musiqa ta'limida qo'llaniladigan qator an'anaviy usullar ta'kidlab o'tilgan.

Musiqa ta'limining o'ziga xosligi tashkiliy tuzilishi, amaliy ijrochilik faoliyatlari, shuningdek o'qitish usullari, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillar, vositalar tahlili va ularni umumiy ijodiy – ijobiy jihatlarni umumlashtirish musiqa ta'limini o'zigagina xos bo'lgan yangi turlarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Bular ham o'z maqsadi va bajaradigan vazifasi mazmun va mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya bo'lib, ularni musiqa mashg'ulotlariga tatbiq etish yaxshi natija bermoqda. Bizning nazarimizda, musiqa ta'limida pedagogik texnologiyaning qo'llanishi va undan ko'zda tutilgan natijaga erishish faqat pedagogik faoliyat jarayonida samarali amalga oshadi. Pedagogik texnologiyalar tarkibiy tuzilishi - konseptual asos, mazmuniy qism hamda protsessual qismlardan iborat. Musiqa ta'limida ta'lim mazmuni va protsessual komponentlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi aniq ifodalangan. Ta'limning mazmuniy qismi nazariy bilimlarni o'zlashtirish va yangi axborotlarni qidirishga qaratilgan. Ta'limning ijrochilik malakalarini egallash bilan bog'liq bo'lgan qismi nafaqat umumdidaktik metodlarga, balki

ijroda ko'rsatish va yo'naltirish bilan bog'liq bo'lgan musiqa metodlarini qo'llashni nazarda tutadi. Jamoaviy ijodiy faoliyat malakalarini egallash esa turli "rejimda" ishlovchi o'quv jarayonini yaratishni nazarda tutuvchi pedagogik va ijodiy "modellashtirish"ni – o'quv mashg'uloti, repetitsiya, sahnaviy ishlarni talab etadi.

"Ko'pincha, ta'limning boshlang'ich davrida pedagog asosiy urg'uni talabaning vokal texnik qiyinchiliklarini bartaraf etishga qaratadi. Tabiiyki, professional ko'nikmalsiz (shakllanmagan ovoz, nafas olishdagi nuqsonlar, tor ovoz diapazoni, noaniq artikulyatsiya va hokazo) asarning badiiy ijrosi haqida gapirish qiyin. Lekin aynan shu boshlang'ich bosqichda talabani badiiy asar ustida ishlashda to'g'ri yo'naltirish zarur. Bu davrda taqdim etilayotgan estrada – djaz vokalizlari katta foyda beradi. Ushbu vokalizlarni ustida ishlash jarayoni talabani estrada sahnasiga tayyorlashdagi dastlabki qadamlari bo'la oladi"⁴. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarning tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir o'qituvchidan o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish talab etiladi. Mamlakatimizda ta'limning hozirgi rivojlanish bosqichida o'qitish metodlari, vositalarini va tashkil etish shakllarini takomillashtirish zaruriyati yanada kuchaymoqda. Buyuk mutafakkir Bedil ta'бири bilan aytganda "agar me'mor dastlabki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, devor yulduzlarga yetsa ham qiyshiq bo'lib qolaveradi. Demak, o'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni bilishi va ulardan o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda yuqori darajada foydalanish mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Zerikarli, sust o'tkazilgan darslar hech bir samara bermasligi shubhasiz. Va uning aksi, har bir mashg'ulot jonli, qiziqarli faol olib borilganda ko'zlangan natijalarni beradi. Darslarning har bir mashg'ulotlari yoshlarning ijodiy faolligini o'stirishga xizmat qilishi kerak. "Inson ovozi vositasida yaralgan va aynan ovozda ijro etishga mo'ljallangan san'at namunalarning paydo bo'lishi cholg'u musiqasiga nisbatan ancha qadimiy bo'lib tarixi ibtidoiy zamonlarga borib taqaladi. Yaqin va O'rta Sharq mintaqalarida, xususan, Markaziy Osiyoda joylashgan ko'hna davrlarda vujudga kelgan professional musiqa san'atida yakkaxonlik va hamnafaslik ijro shakllari qadimdan qo'llanilgan. Ijro shaklining oddiy ko'rinishlari mahalliy mehnatkash aholi orasida folklor musiqasi negizida, kasbiy tus olgani esa saroyning madaniy, ko'ngilochar hamda joriy etilgan zardushtiylik marosimlarida ancha erta paydo bo'lgan"⁵.

Pedagogik jarayonlarni samaradorligini ta'minlash uchun o'qituvchilar aniq belgilangan yo'nalishida pedagogik jarayonlarni maqsadli rejalashtirish, loyihalashtirish, model-lashtirish, o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash, vaziyatlarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarish usullari, metodlari hamda tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni bilishi va bular asosida pedagogik jarayon subyektlarining faoliyatiga murakkab pedagogik tizim sifatida yondoshuvlariga yo'naltirilgan innovatsion faoliyatni tashkil etishi zarur hisoblanadi. Ko'pgina musiqachi-pedagog tadqiqotchilar shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvda pedagogik texnologiyalar qo'llanishi imkoniyatini inkor etadilar. Ularning fikricha, insonning shakllanish va rivojlanish yo'lini oldindan yozib chiqish mumkin emas, biroq ta'limiy muhitning ijobiy xususiyatlarini loyihalash mumkin, deb hisoblaydilar. Chunki ta'lim effekti o'quv jarayonining har bir subyekti uchun alohida holda namoyon bo'ladi. Lekin faollashtiruvchi ta'limiy muhitda shaxsning qiziqishlari, tashabbuskorligini o'stiruvchi va bilimlarni dolzarblashtirishni hosil qiluvchi omillar tug'ilishi ehtimoli katta.

"Estrada xonandalari uchun estrada romanslarini, murakkab ashula va balladalarning ijrosi ularning professionallik darajasini belgilaydi. Albatta, ushbu shakldagi asarlar ustida ish olib

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. T.: 2020. www. President.uz sayti.

⁴ Amanullayeva Dilorom. Estrada xonandaligi. –Toshkent: "Musiq", 2015. – B. 304.

⁵ D.M.Malikova. Vokal ("Musiqali dramalardan ariya va duetlar"). Toshkent: "Lesson press" nashriyoti, 2019.

⁶ Amanullayeva Dilorom. Estrada xonandaligi. –Toshkent: "Musiq", 2015. – B. 304.

⁷ Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.: "Iqtisod-moliya", 2011, – B. 420.

borish, vokal pedagogikasi va ijrochiligini eng murakkab sohasidir. Ushbu asarlar talabalarning vokal texnikasini rivojlantirib, yana madaniy doirasini kengaytiradi, intellektning rivojiga ta'sir ko'rsatadi, ijodiy fikrlashga imkon beradi. Mazkur janrlarni o'zlashtirish talabaning xonandalik san'atining rivojiga ta'sir etuvchi boy va murakkab materialdir. Bu janrlardagi asarlarning ijrosi xonandalardan nafaqat yuqori va yuksak ijroviy mahoratni talab etadi, balki chuqur intellektual darajadagi ifodani, murakkab obrazlarning artistik ifodasini talab etadi. Shu bilan birga asarning yirik shakldagi tuzilmasining chuqur mohiyatini xonanda anglagan holda ijro etishi zarur. Undagi nozik kechinmalar, lirik ohanglardan dramatik holatlargacha o'sgan chuqur va yorqin musiqiy ifodaviylikni, ovoz kantilenasi va filirovkasini, ovoz dinamikasining epchilligini, to'g'ri nafas texnikasini va ta'sirli so'z ifodasini o'zlashtirishda foydalidir. Shu bilan birga, ular yosh xonandaning badiiy didini o'stirishida, sahna mahorati va madaniyatini to'la o'zlashtirishida juda zarur va foydali materialdir”⁶.

Musiqqa mashg'ulotlari jarayonida, ayniqsa, ijrochilikda pedagog har bir daqiqada talabaning emotsional-psixologik holati o'zgarishiga, uning ijro bo'yicha harakatlarini ko'ra olishi va shunga mos holda o'quv vazifalari qo'yilishini korrrektirovka qilib, pedagogik ta'sir metodlarini o'zgartirishi lozim bo'ladi. Pedagoglik kasbining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, o'qituvchilar o'z bilimlari, malaka va ko'nikmalarini muntazam to'ldirib borishni taqozo etadi. Pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan har bir shaxsning ta'lim tarbiya jarayoni kundalik ishiga aylanishini zarur, deb hisoblaymiz. “Qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Ko'nikma va malakalar yetarli bo'lmagan qobiliyatni birmuncha to'ldirishi yoki qobiliyatning kamchiligi tuzatishi mumkin. Ko'nikmalarni umumlashtirib mohirlik ham deb ataydilar. Mohirlik ham qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lish jarayonida shakllanadi”⁷.

Aqliy hujum, rolli o'yinlar, bumerang, tarmoqlar, muammoli holatlarni hosil qilish, badiiy-pedagogik tahlil, musiqiy umumlashtiruv metodi, badiiy kontekst yaratish metodi, musiqqa haqida fikr yuritish metodidan foydalanish aniq pedagogik natijalar olishni kafolatlaydi. Tanlab olingan pedagogik yondoshuv pedagogik texnologiyaning maqsadlari, mazmuni hamda usul, vosita, metod va shakllarini belgilaydi. Ular talabalarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy musiqiy tafakkurni jadal rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Yosh estrada qo'shiqchilari kompozitor Dilorom Amanullayeva musiqasining boy, teran dunyosini anglab yetganlaridagina o'zlaridagi ohangdagi musiqiy tovushlarni va yodda saqlash qobiliyatini yanada kengaytiradilar, vokal texnikasida yangi-yangi mahorat sirlarini egallaydilar, o'zlarini uchun zamonaviy o'zbek estradasi

musiqasining yangi qirralarini kashf etadilar. Yuqoridagi ishlarni samarali amalga oshirishda ishchi dastur, darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy ko'rsatmalar, musiqiy lug'atlarning ahamiyati beqiyosdir. Bularning hammasi mutaxassislar tayyorlash bo'yicha oliy ta'limning davlat ta'lim standartiga mos bo'lishi lozim. Bundan tashqari, o'quv maydoni hajmi, uning ta'lim olishga mosligi, ishlatilishi, jihozlar bilan ta'minlanganlik va boshqalar ham darslarning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda axborot resurslari markazi faoliyati ham yangilandi, kompyuter xonalari tashkil etilgan, adabiyotlar, internet ma'lumotlaridan foydalanish amalga oshirilmoqda. Shulardan unumli va o'z o'rnida foydalanish talab etiladi.

Ayni paytda biz tavsiya etadigan musiqqa haqida fikr yuritish metodi, muammoli metod, perspektiv va retrospektiv metod, musiqiy umumlashtiruv metodi, badiiy kontekst yaratish metodi, hayotiy assotsiatsiyalar metodi, polifonik kabi metodlar musiqiy ta'limda tahsil olayotgan talabalarning musiqqa asarlarini hissiy ongli idrok etish malakalarini shakllanishiga, hissiy va musiqiy tajribalarni boyitishga, dunyoqarashni kengaytirishga yordam beradi.

Adabiyotlarga murojaat shuni ko'rsatadiki, musiqiy ta'limning ushbu zamonaviy metodlari ma'lum bir mezonlarga asoslanadi:

– *texnologik, ya'ni metodni pedagogik texnologiyalarga taqqoslash, xususan, hozirda tushuntirish-ilovalash texnologiyasidan rivojlantiruvchi, muammoli, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga o'tish;*

– *psixologik – yirik shakldagi musiqqa asarlarini o'rganishda metodlar yoshlar psixologiyasi nuqtai nazaridan ahamiyatli bo'lishi lozim. I.S.Kon buning ikkita muhim jihatinin alohida ta'kidlaydi:*

1. *San'at talabaga uning ehtiyojlarini o'z tasavvurida bo'lsa ham amalga oshirishga yordam berishi lozim;*

2. *“Guruh affekti”ni hisobga olish – “hammaga o'xshagan” bo'lishga yordam berish, ya'ni yoshlarning o'z-o'zini rivojlantirishida, hayotda o'z o'rnini topishida yordam beruvchi metodlarni tanlash lozim.*

Xulosa o'rnida aytish lozimki, musiqqa mashg'ulotlari jarayonida analitik uslublardan foydalanish, mavzu yuzasidan muammolarni tahlil qilish orqali talabalarning musiqiy tasavvur, bilim va malakalarini o'stirishga erishish mumkin.

Talabalarda musiqqa doir asarlarni shunchaki o'qitish emas, balki musiqiy asarning ichki intonatsion xususiyatini his eta olishga turtki bo'luvchi metod va texnologiyalarni qo'llash kerak. Ular musiqqa asarining faqat matnini emas, balki musiqani yaratgan ijodkor faoliyatini ko'ra olishni, idrok etishni o'rgansin. Eng muhimi, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarda yangi bilimlarni o'zlashtirishga ehtiyoj, ularda ijodkorlik va mustaqil faoliyatga xohish va qiziqishni uyg'otishdir.



V BO'LIM

**YOSH
TADQIQOTCHI**

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON YOSHLARI TARBIIYASIDA INNOVATSION MADANIYAT SHAKLLANISHINING ASOSIY OMILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi, yoshlar tarbiyasida innovatsion madaniyat, uning shakllanishi, asosiy omillari hamda zamonaviy madaniyatshunoslikda shaxs tarbiyalashda kommunikativ kompetentlik, uning tarkib topishi shart-sharoitlari, omillari va ahamiyati xususida muhim fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: yoshlar, yangilanayotgan O'zbekiston, innovatsiya, madaniy innovatsiya, omil, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy tafakkur.

Нодира АБДУНАЗАРОВА,

старший преподаватель кафедры «Искусствоведение и культурологии» независимый искатель ГИИКУЗ

КЛЮЧЕВЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ОБНОВЛЯЕМОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье рассматриваются идеологический ландшафт современного мира, инновационная культура в воспитании молодежи, ее формирование, основные факторы и коммуникативная компетентность в воспитании личности ее составных культурных исследованиях, условия, факторы и важность ее состава.

Ключевые слова: молодежь, обновление Узбекистана, инновации, культурные инновации, фактор, коммуникативная компетентность, социальное мышление.

Nodira ABDUNAZAROVA,

Senior Lecturer of the Department of "Art History and Cultural Studies" of the UzSIAC independent seeker

KEY FACTORS FOR THE FORMATION OF INNOVATIVE CULTURE IN EDUCATION OF YOUTH IN RENEWING UZBEKISTAN

Annotation. This article discusses the ideological landscape of today's world, innovative culture in the education of young people, its formation, the main factors and communicative competence in the education of the individual in modern cultural studies, the conditions, factors and importance of its composition.

Keywords: youth, renewing Uzbekistan, innovation, cultural innovation, factor, communicative competence, social thinking.

Bugungi kunda O'zbekistonda aholi umumiy sonining 60 foizdan ziyodini yoshlar tashkil qiladi. Aynan mana shuning uchun, yoshlar siyosati davlat taraqqiyotining davomiyligini ta'minlashga barcha strategiyalarda namoyon bo'ladi. Bugun O'zbekistonda yoshlarning hayotiy masalalarini, maqsadlarini hayotga tatbiq etish uchun, zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Yoshlar muammolari davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va amaliy ko'magi asosida yoshlar hayotiga bevosita taalluqli bo'lgan jami 40 ta qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilindi. Shuningdek, bugungi kunga qadar Qonunchilik palatasida siyosiy partiyalar fraksiyalarida o'tkazilgan 20dan ortiq yig'ilishlarda 50 ga yaqin yoshlar o'zlarining 30 ga yaqin takliflari bilan Qonunlar muhokamalarida ishtirok etishlariga imkon yaratildi.

Ma'naviyatni yuksaltirishdagi madaniy innovatsion o'zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita shu soha vakili faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroficha o'rganilgan. Innovatsion faoliyat – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan meyorining yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga qaratiladi. Innovatsiyalar doimiy ravishda ijtimoiy-siyosiy hayotga yangiliklar olib kirish orqali mafkuraviy qarashlar rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, ushbu masalada amalga oshirish muhim bo'lgan muammolar hanuz o'z yechimini topa olmayapti. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidladilar: "Bugungi dunyo yoshlari-son jihatdan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 mlrd. kishini tashkil qilmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday

inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish. Zo'rovonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Agar biz ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at sohasidagi ishlarimizni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, maqsadlarimizga yetolmaymiz.¹

Bugungi tezkor jarayonning asosiy talabi ham shuki, yoshlardan ijtimoiy jarayonlarda yuz berayotgan yangi sifat o'zgarishlarini teran anglab, negativ tashqi ta'sirlarga berilmasdan, bunyodkorlik xususiyatini oshirib, yalqovlik va loqaydlik illatlarini bartaraf etishdir. Yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirishda milliy va umuninsoniy qadriyatlarining uyg'unlashuvi, oila va jamiyatdagi muhitning tarbiyaviy ta'siri va ilm-ma'rifatning o'rni beqiyosdir. Qadriyatlar o'tmish bilan hozirgi kun o'rtasidagi vorisiylilni ifodalaydi, shu tufayli millatning tarixi, uning o'tmish hayoti, madaniyati aynan qadriyatlarda ifodalanadi. Shuning uchun har bir siyosiy tuzum, har bir davlat qadriyatlaridan o'z maqsadi, manfaati yo'lida foydalanadi. Qadriyatlar holati, ahamiyati, insonga ko'rsatadigan ta'siri jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tuzum tomonidan olib borilayotgan siyosat bilan uzviy bog'liq.

Yoshlarning ma'naviy-ruhiy olamiga ijtimoiy tarmoqlar chuqur salbiy ta'sir qilmoqda. Shunday murakkab bir jarayonda yoshlar o'rtasida, madaniy kompetentlikni shakllantirish, izchil kasbiy kompetentlikni yo'lga qo'yish muhimdir. "Kompetentlik"-(ingl. "competence"-qobiliyat) faoliyatda nazariy bilimlardan foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish ma'nosini bildirib, psixologik nuqtai nazardan kompetentlik noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda yoshlarning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi xulosalar qilishda yordam beradi. Bu borada yoshlar, bilim, ko'nikma malakalarini to'g'ri yo'naltira bilishlari kerak.

Turli ijobiy psixologik amaliyot namunalarini qo'llash orqali insonning psixologik salohiyatini yuksaltirishga yo'naltilgan hozirgi zamon psixologiyasi ayrim namoyandalari esa muloqotga

¹ Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 349–350 betlar. O'zbekiston nashriyoti, – 2017-y.

shaxs faoliyat jarayonida o'z hatti-xarakterlarini boshqarishning subyektiv modellarini aprobatsiya, sinovdan o'tkazish va taqdim qilishi uchun makon sifatida qaraydilar. Bunda kommunikativ kompetentlik shaxsda subyektiv nazorat malakalarining rivojlanganligi, dunyoqarashning pozitiv shakli tarkib topganligi, muvaffaqiyatga nisbatan intilish, yo'l-yo'riqlarning shakllanganligi, munosabatlarni maqsadga muvofiq yo'lga qo'yish qobiliyatining mavjudligida namoyon bo'ladi. Shaxsning tarbiyaviy muhitini yaxshilashga esa kommunikativ kompetentlikni ta'minlashning garovi sifatida qaraladi. Kommunikativ kompetentlik shaxs xulq-atvorining boshqalar tarafidan to'g'ri anglanishi bilan ham bog'liqdir. Inson xatti-harakatlari mazmunining aynan muloqot jarayonida o'zgalarga to'g'ri yetkazilishi shaxsda ijtimoiy sheriklik subyektiv sifatida qoniqish hissini uyg'otadi. Pirovardida, kommunikativ kompetentlikning yuqori daraja, jamiyatda muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydi, bu esa mos ravishda kishining o'zini o'zi hurmat qilishi darajasiga ham ta'sir qiladi. Kommunikativ kompetentlikning quyi darajasi esa stressga moyillik, xavotirlanish, qo'rquv kabi holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Kommunikativ kompetentlik hamsubhat bilan muloqotni qo'llab-quvvatlash, uning "Men"ni hurmat qilishda namoyon bo'ladi. O'qituvchining kasbiy faoliyatida o'quvchiga muloqot sherigi sifatida psixologik jihatdan dalda, madad² berishi dars va darsdan tashqari vaqtidagi pedagogik muvaffaqiyatining muhim omillaridan hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatda kasbiy psixologik kompetentlik umumiy tuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan yana biri – bu, ijtimoiy kompetentlikdir, zero zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'quvchiga bilim beradi, ma'lumot, axborot yetkazadi, balki rivojlanayotgan shaxs va jamiyat o'rtasida vositachi rolini ham bajaradi. "Bola – jamiyat" munosabatlari. o'zaro aloqasining maqsadga muvofiq bo'lishi o'qituvchining qanchalik ijtimoiy hayotda kompetentli, omilkor ekanligiga ham bog'liqdir.

Shaxs ijtimoiy kompetentligining qay darajada ekanligi o'zaro muloqot. faoliyatni yo'lga qo'yish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga psixologlar o'tkazgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, fuqarolarning yangi ijtimoiy. globallashuv shart-sharoitlariga moslashuvi jarayonida insonlardagi ijtimoiy kompetentlik darajasining shakllanganligi alohida o'rin tutadi.

Kompetentlik shaxsning o'ziga xos tuzilmaviy xususiyati ekan, psixologlar bu tuzilmadagi yana bir komponent – autokompetentlikni ham alohida ta'kidlaydilar. Hozirgi zamon psixologiya ilmidagi autokompetentlikni – subyektiv shaxs xususiyatlari va xulq-atvor ko'nikmalarini maqsadga muvofiq o'zgartirishga, o'z ruhiy imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga tayyorligini, buning uchun salohiyati mavjudligini anglatuvchi kategoriya hisoblanadi.

Autokompetentlik yangi bilim, ma'lumot, axborotlarni samarali o'zlashtirish, yuqori darajadagi o'zini o'zi nazorat qilish ko'nikma va malakalarini, muvaffaqiyatga erishish borasidagi irodaviy yo'l-yo'riqlarini mustaqil shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, autokompetentlik shaxs sifati bo'lib, inson hayotining ma'lum davrlarida shakllanadi va muayyan faoliyat turi bilan samarali shug'ullanishga imkon beradi.

Kasbiy psixologik kompetentlikni rivojlantirish psixologik bilim, malaka va ko'nikmalar hajmi, miqdorigagina emas, balki subyektiv kompetentli kasbiy xulq modelini o'zlashtirish va hayotga tatbiq etish borasidagi intilishlariga bog'liqligi xususida ko'plab fikrlar bayon qilingan. Bunda muayyan individual subyekt, shaxsning qadriyatlar yo'nalishi, tafakkur tarzi, dunyoqarash, e'tiqod, ideallari. Men-konsepsiyasi, o'zini-o'zi anglashi, kompetentli bo'lishga nisbatan motivatsiyasi xarakteri muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, motivatsion xususiyatlar mazmuni kompetentlik samarasini belgilashda ahamiyatlidir.

Shunday qilib, ommaviy madaniyat dastlab Yevropada shakllanib,

² D.Yusupova "Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi" 122 – 123-betlar. "O'zbekiston" T.:2020

³ "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami Toshkent: 2019. – B. 117.

⁴ O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlar (1 qism). – T.: "O'zbekiston" NMIU. 2017. – B. 34-45.

globallashuv davrida hatto Sharq mamlakatlarida ham keng yoyilayotgan madaniyat sanaladi.³

Mazkur madaniyat, asosan, sport va musiqa sohasida ko'ngil-ochar tomoshalarning uyushtirilishi. ommaviy axborot vositalarida uning zo'r berib targ'ib qilinishiga asoslanadi. Ommaviy madaniyat namoyandalari turli jamiyatlarda aholining katta qismiga kundalik voqea-hodisalarni, eng oddiy, moddiy ehtiyojlarni o'zida ifodalovchi, shaxsni fikrlash. mulohaza yuritishdan holi, qisqa qilib aytganda dangasa, yalqov va tanballikka olib boruvchi "ijod mahsulotlari" ni taqdim etadilar. Buning natijasida aholi, xususan yoshlar o'z ustida ishlash, ijodiy izlanish, shaxsiy imkoniyatlarini kengaytirish, qobiliyatlarini rivojlantirish to'g'risida qayg'urmaydilar. Aksincha, qiyinchiliksiz moddiy mablag' topish, ko'ngilxushlik qilish ularning eng muhim hayotiy maqsadiga aylanib boradi. Sanoatning jadal rivojlanishi, ovozni kuchaytirish imkonini beradigan texnik vositalarning yaratilishi, qolaversa, axborotni tezkor uzatishdagi qulayliklar, xalqaro munosabatlar va madaniy aloqalar doirasining kengayishi ommaviy madaniyatning Sharq mamlakatlarida ham tobora keng yoyilishiga olib keldi. Shu jumladan, bizning mamlakatimiz yoshlari ham bunday holatlarga befarq emaslar. Ma'lumki, yoshlar bugun axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini nafaqat o'quv dargohlarida, oilasida, balki radio-televideniya, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham to'ldirmoqda, rang-barang axborot va ma'lumotlardan foydalanmoqda. Eng ayanchliligi axborot iste'moli madaniyati bo'lmagan yoshlar eng qimmatli bo'sh vaqtini, o'z byudjetlarining asosiy qismini "Ijtimoiy tarmoq" larga sarflab, kommunikativ kompetentlik ya'ni o'zining "Men"ni hurmat qilgan holda boshqalar bilan muloqotga kirib. o'zini-o'zi hurmat qilish darajasini ham pasaytirib qo'ymoqdalar. Natijada, kommunikativ kompetentlik pasayib, ularda stressga moyillik, havotirlanish, qo'rquv kabi holatlar yuzaga kelmoqda. Bu borada yuqoridagi salbiy holatlardan himoya qilish jarayonida quyidagilar talab va tavsiyalarni keltirish mumkin:

– yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

– yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash;

– yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;

– yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;

– yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

– yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash.⁴

– yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalardan himoya qilish;

– yoshlarni huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

– iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish;

– yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Bugungi tezkor jarayonda yoshlarda, umuman olganda, fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy kompetentlik muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy kompetentlikning asosiy funksiyalaridan biri "Yoshlar va jamiyat" munosabatlari, ekologik, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy o'zgarishlar, ijtimoiy tafakkur rivoji shuningdek insonlarning hayotiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, yoshlarning ijtimoiy o'zaro xamkorligida, yaratuvchilik jarayonida muhim o'rin tutadi, shuningdek yoshlarni jamiyatning ijtimoiy faol qatlamiga aylanishida katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda yoshlar va ularga munosabat bugungi zamon talabi darajasida e'tibor berilsa, aniqrog'i madaniy innovatsiyalar orqali, ularga motivatsiya berilsa, biz maqsadga erishgan bo'lamiz.

Mo'minmirzo XOLMO'MINOV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish"
kafedrası o'qituvchisi.
Asilbek QOLQANATOV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti" magistranti.

YANGI O'ZBEKISTONDA MADANIYAT MARKAZLARINI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Annotatsiya: Maqolada Respublikamizdagi madaniyat markazlarining faoliyati tanqidiy-tahliliy jihatdan ko'rib chiqilgan. Markaz rahbarlarining pofgizimga berilishi, xodimlarning kasbiy malaka oshirish muammolari va mutaxassislik bo'yicha oliygohni tamomlagan talabalarning bu sohada ishlamaslik sabablari o'rganilgan. Madaniyat markazlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan mavjud muammolar keltirilib, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Madaniyat markazlari, muammo, statistika, ko'rsatkich, rivojlanish, taklif, mexanizm, xodim, rahbar, faoliyat.

Муминмирзо ХОЛМУМИНОВ,
преподаватель кафедры "Организация и управление учреждениями культуры и искусства" ГИИК Уз.
Асылбек КОЛКАНАТОВ,
магистр специальности Менеджмент в сфере культуры и искусства кафедры «Организация и управление учреждениями культуры и искусства» ГИИК Уз.

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕНТРОВ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация: В статье критически-аналитически рассмотрена деятельность культурных центров Республики. Были изучены вопросы профгизации руководителей Центра, проблемы повышения профессиональной квалификации сотрудников, а также существующие проблемы неработоспособности студентов, препятствующие развитию культурных центров, окончивших ВУЗ по специальности, даны предложения по устранению проблемы.

Ключевые слова: культурные центры, проблема, статистика, показатель, развитие, предложение, механизм, сотрудник, руководитель, деятельность.

Muminmirzo KHOLMUMINOV,
Lecturer at the chair of "Organization and Management of Cultural and Art Institutions" UzSIAC
Asilbek QOLQANATOV,
Master of the specialty "Management in the field of culture and art" of the 1st stage of the chair UzSIAC

DEVELOPMENT OF CULTURAL CENTERS IN THE NEW UZBEKISTAN: CHALLENGES AND SOLUTIONS

Abstract: The article critically and analytically examines the activities of the cultural centers of the Republic. The issues of profiling the heads of the Center, the problems of professional development of employees, as well as the existing problems of students' inactivity hindering the development of cultural centers that graduated from the university in their specialty were studied.

Keywords: cultural centers, problem, statistics, indicator, development, proposal, mechanism, employee, manager, activity. problems are presented, suggestions for their elimination are given.

Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda "Yangi O'zbekiston"ni qurishga yordam beradigan miqyosiga ko'ra vatanimiz taraqqiyotining jadal dinamikasini belgilab berayotgan keng ko'lamlı islohotlar va tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xalqimizning mana shunday ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir Uyg'onish davrida yurtimizda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, ta'lim tizimini, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, ilm-fan rivojini yangi bosqichga ko'tarishga katta e'tibor qaratilmoqda. Intellektual, ilmiy va ma'rifiy salohiyatini oshirish, ilm-fanning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi rolini mustahkamlash, olim va o'qituvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilanmoqda. Chunki aynan ilm-fanni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan fundamental tadqiqotlar orqali yangi bilimlar egallanadi va nazariyalar shakllanadi hamda istiqbolli amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Darhaqiqat, Yangi O'zbekistonni qurish uchun mamlakatimizda barcha jabhalar kabi madaniyat sohasi ham yangicha islohot yo'lini tanlashi va aniq strategik rejalar bilan jadal rivojlanishi zarur. Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy "aql markazlari" mizni shakllantirishni talab etmoqda [1:271]. Xo'sh, madaniyat markazlarini aql markazlariga aylantirish uchun nima qilishimiz kerak, yoki xalqning moddiy ahvoli madaniyat markazlarida targ'ib etiladigan, "ma'naviy tarbiya va hayotga" to'g'ri keladimi, madaniyatning rivojlanishi nimalarga bog'liq bo'lmoqda?

Madaniyatning rivojlanishi xalqning, sotsiumning qiziqishi, ehtiyoji va ijodiy faolligi natijasi bo'lganida kutilgan natijalar beradi [2:83]. Yangi O'zbekistonda "yangi ma'naviy makon"ni yaratish, marifatli jamiyatga intilish zaruriyati bor. Oxirgi besh yil ichida esa sotsiumning ehtiyoji har doimgidek yuqori sur'atda. Mamlakatimizdagi islohotlar, eng avvalo, dunyoda, shu jumladan, jahon iqtisodiyoti kon'yunkturasida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga mos holda amalga oshirilmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat va jamiyat munosabatlariga yangicha ruh bag'ishladi. Ammo madaniyat markazlari faolligi eskicha qolmoqda. Ushbu jarayonlar ayni paytda xorijda qanday tusa davom etayotganligiga to'xtalib o'tamiz.

I-rasm

Zamonaviy madaniyat markazlarini bunyod etish davr talabi



G'arb mamlakatlarida iste'molchilik iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirmoqda. "Barcha narsa sotish va sotib olish mumkin bo'lgan tovarga aylantiriladi", degan tushuncha insonlar ruhiyatiga singdirila boshlandi. Globallashuvning xususiyati madaniyatlarning "duragaylashuvi"ga olib keldi. Fikr va buyumlarning, inson tanasi va ruhiyatining, tabiat va madaniyatning tovarga aylantirilishi bugungi kunning asosiy xususiyati bo'lib qolmoqda. Jamiyat hayotining barcha sohalarida savdo-sotiq munosabatlari ustuvor bo'lmoqda. "Yemak va tomoshalar" shiori ostida insonlarda iste'molchilik kayfiyati avj oldirildi. "Insonning hamyoni qayerda bo'lsa, uning qalbi ham o'sha yerda", degan halokatli g'oya ustuvor. Molparastlik va xudbinlikning shu tariqa hammabop qadriyat sifatida tiqishtirilishi inson ma'naviy olamiga jiddiy tahdid solmoqda[3:6].

Yoshlarimizning rivojlangan davlatlar madaniyatining mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji katta. Chunki shahar va tumanlarda yoshlar uchun madaniy mahsulot yaratib beradigan, ijodiy ishlab chiqarish manbai – madaniyat markazlarida ishlash tizimida mas'uliyatsizlik avj olgan. O'ngi pofigizimga o'rganib qolgan Madaniyat bo'limi mudirlari o'zlarining mavqe va obro'ga qanday munosabatda bo'lsa, o'shani qabul qilib o'tiraveradi. Biz madaniyat va san'at sohasi rahbarlarida pofigizimni "yo'q qilishimiz" kerak. Shu o'rinda professor A.Haydarov quyidagi fikrlarini keltirishni joiz bildik:

"Madaniyat sohasida qariyb 44 yildan buyon mehnat qilib kelayotgan mutaxassis sifatida bir gapni ro'yi-rost aytishim mumkin. Ochig'i, juda ko'p rahbarlar madaniyat va san'at sohasida ishlaydigan xodimlarga boshqacha nazar bilan qaraydi. Madaniyat xodimini "artist" deb ataydi. Ayrim hokimlar o'rinbosariga "anavi artistga ayt, mikrofonni yaxshisidan qo'ysin, majlis qilamiz". Ana sohaga va uning xodimlariga munosabat. Tuman yoki shaharlardagi madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablari qay holatda, kutubxona va uning kitob fondi qancha, muzeylar va madaniy meros obyektlarining ahvoli qanday, ularda kimlar ishlayapti, sharoitlari qanaqa?! Bu savollarga ko'ngildagidek javob olish juda mushkul [4:2]". Madaniyat markazlarining asosiy vazifasi targ'ibot-tashviqot ishlaridan iborat emas. U ta'lim-tarbiya maskani sifatida ham xalqqa xizmat qiladi. Madaniyat markazlari ta'lim-tarbiya noformal sektori provayderlaridir. Bugungi kunda madaniyat markazlari nafaqat madaniy faoliyat bilan band bo'lgan, balki yuqori sifatlari ma'rifat va ta'lim berish bilan shug'ullanib kelayotgan tashkilotdir [5:19].

Biroq madaniyat markazlari uzluksiz ta'limni o'zgartirishga tayyor emas. Nima uchun? Birinchidan, madaniyat markazlari faoliyati to'g'ri tashkil etilmagan. Ularda maxsus ma'lumotli mutaxassislar ishlamayapti. Tadqiqotimizning isboti sifatida quyida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi madaniyat markazlari xodimlarning statistikasini keltiramiz.

1-jadval

T/r	Hudud nomi	Mar-kazlar soni	Jami shtatlar soni	Jami xodim-lar soni	Shundan ma'muriy, ijodiy va texnik xodimlar				
					Oliy ma'lumotli	Shundan madaniyat va san'at sohasini tamomlagan	O'rta maxsus ma'lumotli	Shundan madaniyat va san'at sohasini tamomlagan	O'rta ma'lumotli
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	58	798	883	135	107	614	383	134
2	Andijon viloyati	71	652	693	113	91	415	300	165
3	Buxoro viloyati	49	654	693	119	87	435	314	139
4	Jizzax viloyati	37	449	466	82	65	287	113	97
5	Navoiy viloyati	32	385	399	67	59	227	179	105
6	Namangan viloyati	80	831	862	90	68	442	394	330
7	Samarqand viloyati	78	631,5	738	163	130	406	324	169
8	Sirdaryo viloyati	35	356,5	369	45	32	211	114	113
9	Surxondaryo viloyati	74	724,5	763	107	82	486	310	170
10	Toshkent viloyati	71	530	636	125	108	346	216	165
11	Farg'ona viloyati	83	904	986	156	136	562	375	268
12	Xorazm viloyati	66	449,5	555	74	65	238	201	243
13	Qashqadaryo viloyati	60	619,5	726,5	100	83	429	297	197,5
14	Toshkent shahar	34	506	544	253	224	225	126	66
	Jami¹	828	8490,5	9313,5	1629	1337	5323	3646	2361,5

Izoh: Respublikada mavjud madaniyat markazlarida jami 1629+5323+2361,5=9313,5 nafar.

Endi jadvalga yaxshilab e'tibor qarating. Nima uchun madaniyat markazlarida maxsus ma'lumotli mutaxassislar kam? Aslida, oliygozlarda madaniyat va san'at sohasi bo'yicha qabul kvotasi yildan-yilga ko'payib, talabalar soni ortib borayotgan bo'lsa? Quyida e'tiboringiz uchun savolning javobini havola etamiz. Madaniyat markazlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari xususida ma'lumotlarni taqdim etamiz.

2-jadval

T/r	Lavozimlar nomi	Bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari, so'm 2021 yil 1 sentabrdan		
		Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat markazlari	Tumanlar (shaharlar) madaniyat markazlari	Qishloq va shaharcha madaniyat markazlari
1	Direktor, filial mudiri	1 975 625	X	1 796 025
2	Badiiy rahbar	1 796 025	1 632 750	X
3	To'garak, jamoa va studiya rahbari, qo'shiqchilar, musiqachilar*	1 349 380	1 349 380	1 349 380
4	Rejissor, baletmeyster, xormeyster, artist, studiya dirijori, "Xalq havaskorlik jamoalari" va "Namunali bolalar jamoalari" unvoniga ega badiiy havaskorlik jamoalarining musiqa va badiiy rahbarlari	1 632 750	1 632 750	1 484 318
5	Mutaxassislar: ijodiy to'garaklar va havaskorlik jamoalari faoliyatini tashkilloshtirish bo'yicha, yoshlar va madaniy-ma'rifiy ishlar bo'yicha, sahnalashtiruvchi-rassom, xoreograf	1 632 750	1 632 750	1 632 750
6	Akkompaniator, liboschi, administrator, kutubxonachi, ovoz rejissori, operator	1 349 380	1 349 380	1 349 380

(O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi ma'lumotlar bazasidan. 2021-yil dekabr holati)

* Ko'rsatilgan oliy ma'lumotli lavozimlarning bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari 1,08 koeffitsiyentga oshirilgan holda belgilanadi.

Izoh: Ko'rsatilgan lavozimlarning bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari madaniyat markazlari huzuridagi xalq teatrlari va havaskorlik jamoalariga nisbatan tatbiq etiladi.

Ko'pchilik bitiruvchilar yuqorida ko'rsatilgan oylik maoshi bilan ishlashni xohlamaydi va madaniyat va san'at oliygozlarini tamomlagandan so'ng doimiy yashash joyidagi madaniyat markazlariga bormaydi. Bu kabi muammolarga soha faoliyati davomida ko'plab duch kelishingiz mumkin, shularni inobatga olgan holda quyidagilarni amalga oshirish zarur.

Birinchii taklif: Rahbar zimmasiga yuklatiladigan asosiy vazifalardan biri – xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, yangi texnologiyalar bilan ishlash va ishni tashkil etish uslubiga o'rgatishdan iborat. Tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, bozor munosabatlari rivojlantirishdagi 80 foiz to'siqlar tashkilot xodimlari muammolari bilan bog'liq ekan. Bu muammolar tarkibiga xodimning joriy etilayotgan yangiliklarga qarshiligi, qayta o'qishni xohlamasligi, yangicha ishlashni istamaslik, tashkilot maqsadlari bilan shaxsiy ehtiyojlarning o'zaro mos kelmasligi kabilar kirishi mumkin[6:144]. Shu sabab, madaniyat markazlarida faoliyat olib borayotgan (828 nafar markaz direktori, 209 nafar badiiy rahbar, 209 nafar bosh mutaxassis, 209 nafar rejissor, 209 nafar xoreograf, 828 nafar ovoz rejissori, 2902 nafar to'garak (jamoalar va studiya)

rahbari (davlat byudjeti asosida ajratilgan shtatlar), 209 nafar yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassis, 209 nafar to'garak va jamoalarning ishini tashkil qilish bo'yicha mutaxassis) xodimlar malakasini har uch yilda oshirib borish kerak. (Mazkur taklifdagi xodimlar soni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Bandlek va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligining 2019-yil 4-iyun "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi Madaniyat markazlarining namunaviy shtat jadvalini tasdiqlash to'g'risida"gi

24-son qo'shma buyrug'i asosida hisoblangan. Maqoladagi bu ko'rsatkichda hamma shtatlar qo'shib hisoblanmagan). Yangi xodim ishga kirganda, unga ijodiy va ish ko'nikmalarini shakllantirish va yo'l yo'riq ko'rsatish bevosita rahbarlarning zimmasidadir.

Amalga oshirish mexanizmi: Madaniyat markazlarida faoliyat olib borayotgan xodimlar malakasini O'zDSMI huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida (har bir yo'nalish bo'yicha malakali mutaxassislarni jalb etish orqali) oshirish bo'yicha har uch yilga mo'ljallangan reja-jadval tasdiqlash (reja-jadvalda madaniyat markazlarida mavjud lavozimlar turlari bo'yicha alohida-alohida) hamda bosqichma-bosqich amalga oshirish choralari ko'rish.

Kutilayotgan natija: Madaniyat markazlarida ish samaradorligi yuqori sur'atlarda ortadi. Markazlarning ma'muriy va ijodiy xodimlari yangi ish uslubini o'rganadi va ko'nikmasini oshiradi. Ansambllar va to'garaklar faoliyati yaxshilanadi, madaniy tadbirlarni o'tkazishda zamonaviy xorij tajribalarini professor-o'qituvchilardan o'rganadi. Barcha xodimlar kasbiy haq-huquqlarni teranroq o'zlashtirib, me'yoriy hujjatlar (yangi qaror va farmonlar)ni amaliyotga tadbiriq etish mahoratini yuksaltiradi.

Ikkinchi taklif: Madaniyat markazlari konsert-gastrol faoliyatini yanada rivojlantirishi va xalqqa madaniy xizmat ko'rsatishini takomillashtirishi va samaradorligini oshirish, ayniqsa, madaniyat markazlari yo'q bo'lgan, eng chekka qishloq va ovullarda joylashgan mahallalarga ijodiy jamoa hamda texnik jihoz va moslamalarini olib borishda avtotransport vositasi yo'qligi sababli muammolar kelib chiqmoqda.

Amalga oshirish mexanizmi: Qishloq va ovullarimizdagi mahallalarga madaniy xizmat ko'rsatish uchun Avtoklublar faoliyatini yo'lga qo'yish. Madaniy xizmatning bunday zamonaviy usuli xalqimiz ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini tolaqonli qondirishda o'z ijodiy natijasini berishi shubhasiz. Chunki avtoklublar konsert-tomosha faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, chekka hududlar aholisiga kitoblar, gazeta-jurnallar yetkazish, taniqli yozuvchilar, shoirlar, teatr arboblari siyosiy sharxlovchilar bilan muloqotlar uyushtirishni ham amalga oshiradi, ijodiy kechalar tashkil etadi[7:5].

2-rasm

Kutilayotgan natija: Qishloq va ovullardagi mahallalarga shahar

Zamonaviy ko'chma Avtoklublar



va tumanlardan, shu bilan birga respublika miqyosidan ham ijodiy konsert-gastrollarni tashkil etish imkoniyati oshadi. Shu orqali qishloq va ovullarda istiqomat qilayotgan aholiga madaniy xizmat ko'rsatish tizimi yaratiladi.

Uchinchi taklif: Madaniyat markazlarida xalqaro hamkorlik va tajriba almashish ishlari talab darajasida emas. Jumladan, MDH davlatlaridagi madaniyat markazlari bilan sherikchilik memorandumlari o'zaro yo'lga qo'yilmaganligini hisobga olib, madaniyat markazlari uchun xorijlik mutaxassislarni jalb etgan holda onlayn mahorat darslarini tashkil etish.

Amalga oshirish mexanizmi: Madaniyat vazirligi tomonidan xalqaro hamkorlikning tashkiliy ishlarida faqat vazirlik mutassadilari emas, aksincha madaniyat markazi rahbarlarini birgalikda olib borish va hamkorlik ishlarini o'rgatish kerak. Mazkur jarayonda madaniyat markazi rahbarlari o'z faoliyati doirasidagi ijodiy hamkorlikni tanlashi va keyinchalik birgalikda ishlashi mumkin.

Kutilayotgan natija: Xorij tajribasini yangi O'zbekistondagi madaniyat markazlari faoliyatida sinab ko'radi va amaliyotda qo'llaydi. Ijodiy hamkorlikni rivojlantiradi.

To'rtinchi taklif: O'zDSMI da teatr san'ati talabalari uchun "O'quv teatri" mavjud. Ammo "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish", "Folklor va etnografiya", "Ashula va raqs", "Cholg'u ijrochiligi" yo'nalishlarining "Madaniyat markazi" yo'q. To'g'ri, talabalarni Mirzo Ulug'bek tumanidagi madaniyat markaziga amaliyotga yuboramiz. Lekin bu o'zini oqlamagan usul ekanligini allaqochoch bilganmiz-ku. Bizning yana bir taklifimiz O'zDSMI ning ham qoshida madaniyat markazini tashkil etishimiz kerak.

Bugungi avlodning kelajak avlod oldidagi burchi, vazifasi ham o'tmishi ajdodlardan ortiq bo'lsa ortiqki, kam emas [8:295]. Professor I.Yo'ldoshev "Ko'pchilik ijod mahsuliga ilmiy ish sifatida qaramaydi, deya ta'diklab, har bir harakatimizning tamali ilmga borib taqaladi. Shuning uchun ham bu masalaga kengroq qarashimiz lozim ekanligini uqtiradi.

Amalga oshirish mexanizmi: O'zDSMI qoshida tashkil etilib, Institutni rivojlantirish rejasiga kiritiladi.

Kutilayotgan natija: Talabalar o'qish davrida kelajakda ishlaydigan muassasasining funksional vazifalari bilan tanishadi. O'z mutaxassisligini yaxshiroq tushunadi va bu mohir kadr bo'lishiga turtki bo'ladi. Madaniyat markazlari ishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi. Madaniyat markazi samarali faoliyat ko'rsatsa, buni O'zDSMI ning Farg'ona mintaqaviy va Nukus filiallarining o'quv jarayonlarida amaliyotga tadbiriq etiladi. Agar natija bo'lmasa bu ham bir tajriba bo'ladi. O'quv va amaliyot uyg'un bo'lmagan joyda natijani va samarani tahlil qilib bo'lmaydi.

Beshinchi taklif: Ayni paytda 749 ta madaniyat markazi (79 ta turli tashkilotlarning bo'sh turgan xonalarida faoliyat yuritadi) o'z binosiga ega. O'z binosiga ega madaniyat markazida xususiy-sherikchilik asosida zamonaviy ovoz yozish, foto va video studiyalarini, "Karaoke", "Book cafe" "Aerobika" to'garagini tashkil etish. Shu bilan birga, madaniyat markazi qoshida har xil zamonaviy reklama vositalaridan foydalanish.

Amalga oshirish mexanizmi: Aholini ayniqsa, yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va madaniyat markazlarini byudjetdan tashqari mablag'lari ko'paytirish maqsadida, mahalliy byudjet mablag'lari, yosh tadbirkorlarni jalb etgan holda zamonaviy ovoz yozish, foto va video studiyalarini, "Karaoke", "Book cafe", "Aerobika" to'garagini tashkil etish bo'yicha maxsus tizim ishlab chiqish va amaliyotga tadbiriq etish. Madaniyat markazi qoshida zamonaviy "reklama media"sini shakllantirish va pullik reklama xizmatini ko'rsatish.

Kutilayotgan natija: Madaniyat markazlarining har birida pullik tushum yil davomida ba'zaviy hisoblash miqdorida yuqori ko'rsatkichlarga ko'tariladi. Eng asosiysi, yangi shtat birliklari yaratilib, yoshlarning bandligi ta'minlanadi.

Oltinchi taklif: Shahar, tumanlar madaniyat markazlari hududlarida bo'sh turgan yerlardan samarali foydalanish va "madaniyat servisi" xizmatini yaratish

Amalga oshirish mexanizmi: Madaniyat markazi hududida bo'sh turgan yerlarga tadbirkorlarni jalb qilgan holda ko'chma bolalar ko'ngilochar o'yingohlarini belgilangan tartibda shartnomalar asosida o'rnatish. Shartnoma asosida madaniyat markazlariga pullik tushumlar tushirish hamda mablag'larni markazlarning faoliyatini rivojlantirishga sarflanishini ta'minlash.

Kutilayotgan natija: Madaniyat markazlariga tashrif buyuruvchilar sezilarli tartibda oshadi va qo'shimcha pullik tushumlar yo'lga qo'yiladi. Madaniyat markazlari qoshida qancha ko'p pullik servis xizmatlarini tashkil etsak, markazning byudjetdan tashqari mablag'lari ko'payadi. Har oyda xodimlar maoshiga qo'shimcha miqdorda mablag'lar qo'shiladi. Bolalar o'yingohi uzoqda joylashgan aholi bolalari uchun hordiq chiqarishga zamin yaratiladi.

Yettinchi taklif: Kasbiy mahoratini oshirish yo'lidagi asosiy omil nafaqat kasbga oid mutaxassisliklar, balki rahbarlik mahoratini oshirishga ham tegishlidir. Misol uchun, "General Electric" kompaniyasi inson resurslarini rivojlantirish uchun sarflangan har bir dollar ustiga ustama 3 dollar foyda olar ekan. Ushbu rivojlantirish dasturidagi asosiy e'tibor, yangi texnologiyani o'zlashtirish va maqsadga intilish yo'lida samarali faoliyat yuritish uslubini o'rganishga qaratiladi [9:7]. Shunday ekan, madaniyat bo'lim

mudiri va markazi direktorlarining statusi va mavqeni oshirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish samarali yangicha uslublarni o'rganishni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Shu maqsadda soha rahbarlarining malakasini oshirish zarur.

Amalga oshirish mexanizmi: Madaniyat bo'lim mudiri-markaziy madaniyat markazi direktorlarini (206 nafar Madaniyat bo'lim mudiri-markaziy madaniyat markazi direktori va 3 nafar Farg'ona va Namangan viloyati madaniyat markazi direktorlari hamda Toshkent shahar madaniyat markazi direktori) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga 4 oylik "Zamonaviy boshqaruv" va "Boshqaruv mahorati", "Kreativ boshqaruv", "Siyosiy madaniyat" kabi malaka oshirish kurslarida o'qitish. Malaka oshirish yuzasidan Madaniyat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi o'rtasida reja-grafik ishlab chiqish va tasdiqlash.

Kutilayotgan natija: Madaniyat bo'lim mudiri-markaziy madaniyat markazi direktorlarining rahbarlik mahorati oshadi, xodimlariga bo'lgan munosabati o'zgaradi, muammoli vaziyatlardan oson chiqib ketish yo'larini o'rganadi. Sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash texnikasini oshiradi, bugun bilan hamnafas bo'lish kerakligini va xodimlariga o'rnatilgan bo'lish ko'nikmalarini egallaydi.

Sakkizinchi taklif: O'zMTRK dasturlarida madaniyat va san'at sohasidagi qarorlarning ijrosi xususida tanqidiy va tahliliy munozaralarni o'tkazishni va unda jurnalistlar, bloggerlar, yosh tadqiqotchi olim va talabalarning muntazam qatnashish imkoniyatini yaratish kerak. Barcha madaniyat markazlarining veb-sayti faoliyatini yo'lga qo'yish va jadallashtirish shart. Ya'ni barcha tumanlardagi markazlarning aniq faoliyati yuzasidan ochiq statistik manbalar joylanib borilishi zarur. Chunki aniq ma'lumotlar asosida, soha taraqqiyoti uchun aniq qaror va farmonlar qabul qilinishiga yordam beradi.

Amalga oshirish mexanizmi: Madaniyat vazirligi tasarrufidagi barcha muassasa va tashkilotlarda.

Kutilayotgan natija: Davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror, farmonlarning mazmun-mohiyati soha va keng aholi vakillari orasida targ'ib qilinadi. Xalqimizning ijodiy faolligi ortadi. OAVda madaniyat markazi faoliyati keng targ'ib qilinib, media makonda o'z o'rnini yaratadi. Axborot kommunikatsiya faoliyati bilan shug'ullanadigan mutaxassis yoki matbuot kotibi shtat birligi joriy etiladi.

To'qqizinchi taklif: Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan madaniyat markazlarining statistikasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-mart "Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 264-sonli qarori bilan tasdiqlangan 3-jadvaldagi ko'rsatkichlar asosida baholab, madaniyat markazlarini "ranglar kesimi"da taqsimlash kerak.

Madaniyat markazlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarining ko'rsatkichlari

3-jadval

Ya'ni, "a'lo" – yashil rangda, "yaxshi" – sariq, "qoniqarli" – ko'k rangda, "qoniqarsiz" – qizil rangda taqsimlanadi.

86 – 100 ball to'plagan madaniyat markazlari faoliyati "a'lo";

71 – 85 ball to'plagan madaniyat markazlari faoliyati "yaxshi";
 50 – 70 ball to'plagan madaniyat markazlari faoliyati "qoniqarli";
 50 balldan past reyting to'plagan madaniyat markazlari faoliyati "qoniqarsiz" deb hisoblanadi [10:333]. Yashil rangda faoliyat olib borayotgan markazlarda ishlaydigan xodimlar malakali mutaxassislardir. Yashil rangdagi madaniyat markazi xodimlari sariq, ko'k yoki qizil rangdagi madaniyat markazlariga shtat birligi saqlanib qolgan holda bir oy muddatga "yaxshi", "qoniqarli", "qoniqarsiz" madaniyat markazi xodimlarining mahoratini oshiradi va o'z ish uslublarini o'rgatadi. Agarda o'sha madaniyat markazlari qizildan ko'kka, ko'kdan sariqqa, sariqdan yashil rangga o'tsa, yashil rangdagi markazdan xizmat safariga borgan xodimlar Madaniyat vazirligi va o'sha shahar yoki tuman hokimligi tomonidan moddiy rag'batlantiriladi. Madaniyat vazirligining "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni bilan mukofatlanadi.

Kutilayotgan natija: Qoniqarsiz madaniyat markazlarining ish faoliyati yaxshilanib, respublikadagi madaniyat markazlari o'rtasidagi hududlararo hamkorlik yo'lga qo'yiladi (hozirgi kunda Madaniyat markazlari o'rtasidagi hududlararo hamkorlik umuman yo'lga qo'yilmagan).

Xulosa sifatida yuqorida bildirilgan takliflarning dolzarbligini inobatga olgan holda amaliyotga tezroq tadbir etishni tavsiya qilamiz. Bir tomondan bu kabi islohotlar soha xodimlari zimmasiga yangidan-yangi mas'uliyat yuklaydi. Har bir vazifada juda katta ezigulik va ulug' maqsadlar mujassam [11:18].

Yangi maqsadlar sariq intilishimiz Yangi O'zbekiston madaniyati rivojiga, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilib, aholining madaniy ehtiyojini qondiradigan yuqori salohiyatli madaniyat markazlarining poydevorini yaratishga imkoniyat yaratadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar markaziy madaniyat markazlari		Tuman va shahar markaziy madaniyat markazlari		Qishloq va shaharchalar madaniyat markazlari		Umumiy ball
mezon ko'rsatkichi	beriladigan ball	mezon ko'rsatkichi	beriladigan ball	mezon ko'rsatkichi	beriladigan ball	
Yil davomida muntazam ishlayotgan markaz tuzilmalari (to'garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari, badiiy havaskorlik jamoalari) soni						
15 tadan kam	0	10 tadan kam	0	5 tadan kam	0	0-20
15-16 ta	5	10-11 ta	5	5-6 ta	5	
17-18 ta	10	12-13 ta	10	7-8 ta	10	
19-20 ta	15	14-15 ta	15	9-10 ta	15	
20 tadan ko'p	20	15 tadan ko'p	20	10 tadan ko'p	20	
Umumiy xarajatlarda byudjetdan tashqari mablag'larning ulushi (homiyluk xayriyalaridan tashqari), foizda						
30 foizdan kam	0	20 foizdan kam	0	15 foizdan kam	0	0-20
30-33 foiz	5	20-23 foiz	5	15-17 foiz	5	
34-36 foiz	10	24-26 foiz	10	18-19 foiz	10	
37-40 foiz	15	27-30 foiz	15	20-22 foiz	15	
40 foizdan ko'p	20	30 foizdan ko'p	20	22 foizdan ko'p	20	
Yil davomida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar soni						
200 tadan kam	0	150 tadan kam	0	100 tadan kam	0	0-20
200-210 ta	5	150-160 ta	5	100-110 ta	5	
220-230 ta	10	170-180 ta	10	120-130 ta	10	
240-250 ta	15	190-200 ta	15	140-150 ta	15	
250 tadan ko'p	20	200 tadan ko'p	20	150 tadan ko'p	20	
Yil davomida erishilgan yuqori va ijobiy natijalar (markazda faoliyat ko'rsatayotgan markaz tuzilmalari tomonidan xalqaro va respublika tanlovlari, festivallarda qo'lga kiritilgan yuqori o'rinlar va boshqalar) soni						
20 tadan kam	0	15 tadan kam	0	10 tadan kam	0	0-20
21-22 ta	5	16-17 ta	5	11-12 ta	5	
23-24 ta	10	18-19 ta	10	13-14 ta	10	
25 ta	15	20 ta	15	15 ta	15	
25 tadan ko'p	20	20 tadan ko'p	20	15 tadan ko'p	20	
Asosiy vositalarning saqlanish holati						
"qoniqarsiz" (yaroqsiz)	0	"qoniqarsiz" (yaroqsiz)	0	"qoniqarsiz" (yaroqsiz)	0	0-20
"qoniqarsiz" (yaroqli)	5	"qoniqarsiz" (yaroqli)	5	"qoniqarsiz" (yaroqli)	5	
"qoniqarli"	10	"qoniqarli"	10	"qoniqarli"	10	
"yaxshi"	15	"yaxshi"	15	"yaxshi"	15	
"a'lo"	20	"a'lo"	20	"a'lo"	20	
Jami ballar:						0-100

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 464.
2. Alimov V. Manzarov Yu. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy soha: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Navro'z, 2014. – B. 120.
3. Qobilov Sh. Ma'naviy olamni asrash qayg'usi // Yangi O'zbekiston gazetasi. – Toshkent: 2022. – B. 8.
4. Haydarov A. Madaniyat – ma'naviy komillik poydevori // Teatr jurnali. – Toshkent: 2020. 2-son. – B. 50.
5. Gaziye S., Ato H., Rahimov N. Madaniyat markazlarida barcha uchun ta'lim va rivojlanish imkoniyatlarini yaratish. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti. 2020. – B. 88.
6. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. YUNAKS-PRINT bosmaxonasi. – Toshkent. 2005. – B.170.
7. Haydarov A. Milliy madaniyat Renessans poydevori // Yangi O'zbekiston gazetasi. – Toshkent: 2020. – B. 8.
8. Yo'ldoshev I. Himmatning qiymati. Fan ziyosi. – Toshkent: 2021. – B. 322.
9. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. YUNAKS-PRINT. – Toshkent: 2005. – B. 170.
10. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – Toshkent: Oltin meros press. 2021. – B. 478.
11. O'sha yerda.

TAFAKKURNING MAHZUN LAZZATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada absurd drama, absurd teatr tushunchalarining dramaturgiyadagi o'rni, uning kelib chiqishi hamda jahondagi yirik teatr namoyondalarining qarashlari o'rganilgan. Shuningdek, absurd dramaning alohida xususiyatlari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: teatr, absurd, paradoks teatri, tragediya, katarsis, grotesk, aktyor.

Феруза КАРАЕВА,

преподаватель кафедры «Музыкально-драматический театр и кинематографии» ГИИКУЗ

ГРУСТНЫЙ ВКУС МЫШЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье исследуется роль драмы абсурда, понятие театра абсурда в драматургии, его истоки и взгляды на него крупнейших мировых деятелей. А также речь ведется об особенностях драмы абсурда.

Ключевые слова: театр, абсурд, парадоксальный театр, трагедия, катарсис, гротеск, актер.

Feruza KARAYEVA,

“Musical, dramatic theater and Senior Lecturer of the chair of Cinematography UzSIAC

THE SADLY TASTE OF THINKING

Annotation. This article explores the role of absurd drama, the concept of absurd theater in drama, its origins and the views of the world's major figures on it. There are also special features of the absurd drama.

Keywords: theater, absurd, paradox theater, tragedy, catharsis, grotesque, actor.

Teatr san'ati paydo bo'libdiki, tomoshabinlarga estetik zavq ulashish bilan bir qatorda ma'naviy ruh bag'ishlab kelmoqda. “Hamamizga yaxshi ma'lumki, inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ongu tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy aytganlaridek, teatr haqiqatan ham ibratxona, qutlug' tarbiya va ma'rifat maskanidir. Jahondagi eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida olijanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda”.

Qayd etish joizki, XX asrning 50-yillari boshlarida fransuz teatrlarida g'ayrioddiy spektakllar namoyishi boshlagan. Ularning ijrosi elementar mantiqdan mahrum edi. Gaplar bir-biriga zid va sahnada aytilayotgan fikrlarning ma'nosi tomoshabinlar uchun tushunarsiz bo'lgan. Ushbu yo'nalish “absurd dramasi”, “paradoks teatri” deb ataluvchi adabiy-sahnaviy ijod shakli sifatida e'tirof etila boshlagan. Odatda, an'anaviy pyesalarda xarakterlar yorqin ifodalangan bo'lsa, absurd pyesalarida esa xarakterlarni aniqlab bo'lmaydi, personajlar ichi qorong'u hamda ular juda maydakashday tuyuladi. Absurd pyesalari qo'rqinchli tush va bosinqirashga o'xshash, vahima soladigan sahnalar ko'rsatiladi. Absurd pyesalarda ega-kesimi joyida tiniq jumlar, zukkolik, oqillik bilan yozilgan dialoglar emas, balki uzuq-yuluq shpshishu tushunarsiz gap va so'zlar uchraydi. “Absurd uchun begona narsa yo'q, u mafkuraviy klishe'lardan, voqelik replikalaridan, falsafiy kuzatishlar parchalaridan bimalol foydalanadi, ijtimoiy tuzum yoki aqliy farazlar tanqidchisi bo'lishni maqsad qilmaydi. Absurd xayoliy ideallar uchun kurashda qatnashmaydi, u voqelikni imkon qadar reallikning o'zida oshirish bilan cheklanadi”².

Birgina mavzu bilan absurd teatri cheklanib qolmaydi. Hayotni ma'nosiz qabul qilib yuksaklikka ko'z tutishdan umidni uzish, safolik, maqsadning inqirozga yuz tutishi Jirodu, Anuy, Salakru, Sartr, Kamyu pyesalarining mavzusiga aylanganini ham e'tirof etishimiz o'rinni bo'ladi. Lekin bu dramaturglar mavzusi absurdchilarnikidan keskin farq qilishini ta'kidlashimiz lozim. Absurd teatri hayotning ma'nosi yo'qligini aqlga tayanib ifodalab bo'lmashligini isbotlashga harakat qiladi. Bu orada Kamyu va Sartr

eski shaklni yangi mazmun bilan boyitmoqchi bo'lganda, absurd teatri badiiy tafakkurga yangi shakl va undagi mazmuni olib kiradi. “Kamyu va Sartrning badiiy olamida, ko'pincha, falsafiy qarashlari bilan uning badiiy ifodalari mos tushmaydi, qorishib ketmaydi. Sizif haqidagi afsona qismi bayon qilingunga qadar bo'lgan 2 bo'lim va 12 bobda ilgari surilgan mulohazalar ham tasdiqlaydi. “Absurdcha mushohada” va “Absurdcha ijod” deb nomlangan bo'limlarda Kamyu dastlab absurdning falsafiy asoslarini izlaydi, hayotiy misollar bilan isbotlab beradi va oxirida ana shu falsafiy qarashlarini absurd qahramon – Sizif faoliyati misolida aks ettiradi.³ Absurdga adabiy oqim, janr deb qaralganda, uning semantikasi va shakliiy xususiyatlari mutlaqo yo'qdan paydo bo'lmagani va boshqa janrlardan ko'mak olganini ham ko'rish mumkin. Agar har qanday san'at mavzusi inson omiliga qaratilgan bo'lsa, bu turdagi teatr ham aynan shuning atrofida bahs yuritadi.

“Kamyuning yozishicha, baxt bilan absurd shu ona yerning egizak farzandlaridir, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Buning ma'nosi shundaki, dunyoga kelgan inson bu ma'nosiz hayotda o'ziga sabr-toqat, taskin izlaydi (bu – baxt), ammo uni topolmay umri o'tadi (bu – absurd)”⁴.

Absurd teatriga aloqador asarlarni, uning dramaturklarini hech qanday maktabga aloqasi yo'qligini ta'kidlash lozim. Ular –shaxs, fikri-yodi jamiyat qobig'idan uzilib yolg'izlashgan, o'xshashi yo'qligidan begonalashgan. Har bir dramaturg mohiyatga, tomirga, tajribaga asoslanib, ulanib, so'ngra shakl kashf etgan, uni mazmun bilan boyitgan. Inson hayot-mamotining vaqt uzunasida ma'no tashimayotgani absurdan boshqa narsa emasligi Bekket, Adamov, Ioneski, Jene va boshqalar pyesalari mavzusiga aylandi.

Shu o'rinda, Absurd teatrlari zamonaviy fransuz teatridagi yana bir oqim – poetik avangard teatri bilan farqlash masalasi xususida ham to'xtalishni joiz bildik. Bu teatr va absurd teatri o'rtasidagi farqni avvaliga ilg'ash qiyinday tuyuladi. Poetik avangard teatri ham absurd teatriga o'xshab fantaziyalarga erk beradi, tushlarni jonlantiradi, reallikka tayanadi. Bu oqim ham an'anaviylikdan qochadi: vaqt va makon bilan hisoblashmaydi, mantiq va syujetni zarur narsa deb hisoblamaydi. Lekin bu teatr mohiyati har xil kayfiyatni tasvirlashga asoslanadi. Unda lirika ko'proq, tushkunlik va uni bo'rttirib ko'rsatish, deyarli uchramaydi. Bu ikki yo'nalishning yana bir katta farqi ularning tilida ko'rinadi. Poetik pyesalarni jo'shqin she'riy misralar tashkil qiladi, obrazlar xayolda uyg'ongan murakkab jismlardan quriladi.

Absurd teatrlarining tili, poetikasi sahnadagi aniq obrazlar ta'sirida yuzaga keladi. Martin Esslin o'zining “Absurd teatri” monografiyasida “absurd teatri – bu eski, arxaik an'anaga ishora”, deb yozgan edi. Biz san'atning turli janr va turlarida absurd teatrlarining elementlarini topamiz. Esslin absurd dramasi asos bo'lgan bir qator komponentlarni ajratib ko'rsatdi. Birinchidan, bu “sof teatr” deb ataladigan narsa, boshqacha aytganda, mavhum sahna effektlari, odatda sehrgarlar, akrobatlar tomonidan qo'llaniladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston teatr san'ati xodimlariga yo'llagan tabrigi, T.: “Narodnoe slova”, “Xalq so'zi” gazetalar sayti. 2021-yil, 26-mart.

² М. Г. Анищенко «Драма абсурда» как опыт переоформления фонда классической литературы //

³ Solijonov Yo'ldosh. “Sizif va Absurt”. – Toshkent: “Jahon adabiyoti” jurnali, 2010-yil, 1-son.

⁴ O'sha manba.

Absurd teatrida tilning o'zi ushbu element orqali "chuqur ma'noli ma'noning ekspressiv vositasi" sifatida inkor etiladi.⁵

Absurd dramaturglari bunday ichki ziddiyatlarni mantiqqa asoslanib fikrlash bilan hal qilishmaydi, aksincha, favqulodda, ichki sezgining kashfi orqali masalaga oydinlik kiritmoqchi bo'lishadi. Absurd teatri insonning vaziyatini, xatti-harakatini, holini sahnada aniq va lo'nda qilib ko'rsatib berishga harakat qiladi. "Absurd masalasida Kamyu o'zining ustozlari, faylasuf, yozuvchi va dramaturg Jan Pol Sartr bilan ham kelisha olmagan. Aslida ularning ikkovi ham absurd g'oyasi bo'yicha hayotning bema'niligini, tuturiqsizligini tan olgan san'atkor edilar. Shu bois Kamyu dastlab unga ergashdi. Biroq Sartrning asarlari bilan yaqindan tanishgan Kamyu hayotdagi mavjud tuturiqsizliklarni yengib o'tish masalasida ustozlari bilan kelisha olmay qoldi"⁶.

Absurd hayotda fojialardan keyin tug'iladi, absurd asarlarda esa insonning ayni shu holati tasvir etiladi. Janr sifatida fojea (tragediya) va absurd bir biridan tubdan farq qilsada, ular orasida matiqan uzviylik bo'ladi. Tragediyada voqelikni aks ettirishda muallif personajga muayyan yo'l ko'rsatishi va o'quvchi yoki tomoshabiniga muayyan xulosa chiqarishga imkon qoldira oladi. Absurdning absurdligi shundaki, unda faqat mavhumot, javobsiz so'roqlar bo'ladi. Absurd inson ruhining fojidan keyingi jarayonini, hayotining ma'nodan ayro qismini ifodalaydi.

"Voqea – hayotdan olingan lavha bo'lib, bitta xatti-harakatga omil bo'lgan shart-sharoitlar yig'indisidir. Vaqt va makonda sodir bo'layotgan xatti-harakat – voqeadir. Shu yerda, odatdagi tushinchamizdagi favqulodda sodir bo'lib o'tgan va keyingi harakatni keltirib chiqaradigan hodisani voqea deya atashimiz bilan, G.A.Tovstonogov va A.O.Katsman talqinidagi sahnaviy voqelik tushunchasini farqlay bilishimiz lozim bo'ladi. Ularning ta'biri bo'yicha voqea bo'lib o'tib ketgan hodisa emas, makon va vaqt birligida sodir bo'layotgan harakatdagi jarayondir"⁷.

Absurd dramasi yirik namoyandalari sanalgan Ejen Ionesko, Samuel Bekket, Artur Adamov, Alber Kamyu, F.Dyurenmatt, Slovomir Mrojek, Fernando Arraballar adabiyotda, xususan, dramada inson hayotiga xuddi bir predmetni qo'lda tutib, uning har tarafini ko'rib kuzatib, aslida u qanday buyumligini aytib bergan kabi xolis baholashni afzal ko'rdi. Bu ijod shakli muallifdan tafakkur obyektivligini talab qiladi. Yozuvchining inson omiliga emotsiyadan holi qarab, uni badiiy ifodalashda ham xususiylikka berilmasligi muhimdir. Absurd teatring tabiati shunday. "Teatring vazifasi ko'ngilochar yoki tashviqiy asarlar yaratishda emas, aksincha, umumshariy qadr-qimmatlarni e'zozlaydigan, ma'naviy kurashga chorlovchi, falsafiy mushohada yuritishga undovchi umriboqiy asarlarni yaratishdadir. Bunday asarlarni keng dunyoqarashi, aql-zakovati, yuksak didi bilan o'zgalardan ajralib turgan shaxsgina yarata oladi"⁸.

Teatring bunday shaklida ijod qilgan mualliflar inson omiliga istalgan jihatdan yondashishi mumkin. Masalan, S. Bekket "Sizif haqida mif", "Godoni kutish" asarlarida odam qismatini kosmogonik asosini qamrab olgan bo'lsa, S.Mrojekning "Chegara ustidagi uy" asariga sotsial yondashuv bor. Ioneskoning "Stullar" asari psixologik asosda bo'lib, undagi ikki qariyaning ma'nosiz hayoti esa xuddi "eshik tirqishi"dan qarab yoki uzoqdagi baland uy derazasidan durbin orqali kuzatilgan kabi taassurot qoldiradi. Insonning buyumlardan ham zaifroq, aslida odam juda yolg'iz va beqadr ekanligini muallif o'ziga ham xuddi ularning bir vakili sifatida qarab, tasvirini chizib beradi. Ularning hammasi fojiviylik va yoki fojiani bartarf etishning ilojsizligini anglashdan keyin tug'iluvchi tushuniksiz, tuturiqsiz, ma'nosiz jarayondir.

Absurd teatri ham zamonamizdagi "antiadabiyot" yo'nalishining bir qismi bo'lib qolgan. Lekin absurd teatri butun mohiyati bilan faqatgina fransuz hodisasi emas, albatta. U g'arb an'anaviy teatri imkoniyatlaridan ham foydalanadi, Angliya, Ispaniya, Olmoniya, Italiya, Shveysariya,

Amerika Qo'shma Shtatlarida ham absurd dramaturglari paydo bo'ldi. Shuningdek, Parijda yashaydigan absurd teatri vakillari fransuz tilida ijod qilsalarda, o'zlari xorijdan kelishgandi.

Masalan, Samuel Bekket irlandiyalik, Ejen Ionesko ruminiyalik, Artur Adamov rossiyalik edi. Parijdagi muhit ularning g'oyalari moddiyatga aylanishi uchun qo'l kelardi. Parijning madaniy muhiti absurd teatring qisqa vaqt ichida ommalashib ketishiga ta'sir o'tkazgan bo'lsa-da, lekin baribir absurd teatri asrimizning tadqiq etilmagan fenomeni bo'lib qolmoqda.

Shu o'rinda absurd teatri asarlariga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar haqida to'xtalamiz:

– *fantastik elementlar haqiqat bilan yonma-yon bo'ladi;*

– *"sof" dramatik janrlar o'rnini turli janrlarni birlashtirgan aralash janrlar egallaydi;*

– *san'atning tragikomediya, hajviy melodrama, pantomima, xor, musiqiy kabi turli yo'nalish va elementlaridan foydalaniladi;*

– *Ko'pincha oddiygina eshitmaydigan va bir-birini ko'rmaydigan, bo'sh joyga "parallel" monologlar aytadigan qahramonlarning nutqiga o'zgartirishlar kiritiladi.*

"Absurd atamasi shu paytgacha adabiyotshunoslikka oid ko'pchilik lug'atlarga kiritilmagan. Chunki Sho'rolar davrida sotsialistik realizm metodiga asoslangan sovet adabiyoti uchun boshqa har qanday metod, oqim, yo'nalishlar yot hisoblanardi. Mustaqillik yillarida nashr etilgan "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"ning 1-jildida "Absurd drama" haqida ma'lumot berilgan. Unda ham "absurd" so'zining mohiyati to'g'risida hech narsa deyilmagan-da, absurd drama oqimi "tarafdorlari inson hayoti ma'nosiz, mavhum degan nuqta nazarni ilgari suradi. Ular fikricha, inson hatto nima uchun yashayotganini ham anglab yetolmaydi, u doimo yolg'on burch, yolg'on axloq, yolg'on munosabatlar qurboni bo'laveradi", degan g'oyani ifodalashga ko'proq e'tibor beronliklari misollar asosida aytiladi, xolos"⁹.

Ayrim mutaxassislar absurdning ommalashmasligining sababini millat xarakteri, mentaliteti bilan bog'lashadi. Bu ham paradoksial yondashuv aslida. Inson o'ziga achinish hissi va jumboqning ko'rinmas yechimi bor yoki yo'qligi ustida o'ylama toldi. Bunday asarlar kishiga estetik zavq bermaydi, balki tafakkur qilishning mahzun lazzatini beradi. Bunday tafakkur tarzi insonni sergaklantirishi lozim. Absurd dramalarning kishi ruhiga ta'sir jarayoni qandaydir tadrijiy xususiyatga ega. Bu ta'sir kishida dastlab pessimistik kayfiyat paydo qilsa, keyin sovuqqon tafakkur uyg'otadi. Bu tafakkur jarayonida inson o'zi bilan o'zi shunday qarama-qarshi fikrlar bahsiga kirishadiki, cheksiz jumboq girdobiga tushadi.

Absurd teatring zamonaviy san'at rivojiga ta'sirini ortiqcha baholab bo'lmaydi. U jahon adabiyotiga yangi mavzular olib kelgan. Dramaturgiyani yangi uslub va vositalar bilan ta'minladi va butun zamonaviy teatring ozod bo'lishiga hissa qo'shdi. O'zbekiston teatrlari sahnasiga ham absurd dramalar kirib kelgan. O'zbekiston san'at arbobi Baxtiyor To'rayev, atqoli rejissor Olimjon Salimov va boshqalar tomonidan jahon absurd dramalari sahnalashtirgan. Hozirgi paytda jahonda rivoj topgan paradoks teatri o'zbek teatrlarida rivojlanmagani va dramaturgiyamizda absurd oqimidagi asarlarning shakllanmagani masalasiga kelsak, bu xalqning estetik qarashlari, badiiy tafakkuri va mentalitet xususiyatlari bilan bog'liq.

Bir so'z bilan aytganda, absurd ifodalangan inson hayoti ma'nosiz va mantiqsiz, biroq, absurd teatri yangicha tomosha usuli sifatida g'oyat aniq va mantiqiy mazmunga ega. Shu bilan birga, badiiy tafakkurning juda yuqori cho'qqisida ekanligini ham e'tirof etish joizdir. Unda muallif biror sahna yoki so'zni shunchaki, mantiqdan ayro, sababsiz qo'llashi mumkin emas.

Xulosa qilib aytganda, absurd teatri – bu eski, hatto arxaik an'analarga qaytish deganidir. Uning yangiligi bu kabi oldingi holatlarning biroz g'ayrioddiy kombinatsiyasidir. Absurd faqat mavhumot, javobsiz so'roqlar bo'ladi. Absurd inson ruhining fojidan keyingi jarayonini, hayotining ma'nodan ayro qismini ifodalaydi. Absurd ifodalangan inson hayoti ma'nosiz va mantiqsiz, biroq, absurd teatri yangicha tomosha usuli sifatida g'oyat aniq va mantiqiy mazmunga ega. Ayni paytda badiiy tafakkurning juda yuqori cho'qqisidadir. Unda muallif biror sahna yoki so'zni shunchaki, mantiqdan ayro, sababsiz qo'llashi mumkin emas. Bugungi globalashuv davrida absurd dramalarining qiymati baland, uni o'rganish bo'yicha ham teatr tanqidchiligidan izlanishlar ilg'or davom etmoqda.

⁵ Jacqard E. Le theatre de derision Beckett, Ionesco, Adamov. Edition Gallimar, 1998. 296 p.

⁶ Ko'rsatilgan manba.

⁷ H.A.Mahmudova. Sahnaviy asarning xatti-harakat tahlili. Darslik. – T.: "Fan va texnologiya", 2015. – B. 128.

⁸ H.A.Mahmudova. Sahnaviy asarning xatti-harakat tahlili. Darslik. – T.: "Fan va texnologiya", 2015. – B. 128.

⁹ Ko'rsatilgan manba.

UYG‘UN HAMDA IZZAT SULTON DRAMALARIDA OBRAZ YARATISH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada XX asrda o‘zbek drama teatri dramatik, tarixiy, zamonaviy mavzuda sahnalashtirilgan spektakllar tahlil qilinadi. Bu davrda yozilgan ilmiy ishlar, darsliklar va monografiyalar o‘quv qo‘llanmalarda keltirilgan tarixiy-ilmiy asosga ega ma‘lumotlarga tayanib, ilmiy dalillar asosida yoritilgan hamda spektakllar ilmiy-nazariy asosda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: teatr, pyesa, drama, spektakl, obraz, janr, aktyor, rejissor, xarakter.

ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ ОБРАЗА В ДРАМАХ УЙГУНА И ИЗЗАТА СУЛТАНА

Аннотация. В данной научной статье проанализированы исторические, современные и драматические спектакли, поставленные в Узбекском драматическом театре в XX веке, также рассмотрены созданные в течение указанного периода научные труды, учебные пособия и монографии, обоснованные историческими и научными материалами, и выполнен анализ спектаклей на основании научно-теоретических данных.

Ключевые слова: театр, пьеса, драма, спектакль, образ, жанр, актёр, режиссер, характер.

ISSUES OF CREATING AN IMAGE IN THE DRAMAS OF UIGUN AND IZZAT SULTAN

Abstract. This scientific article considers analyzes the historical, modern and dramatic performances staged in the Uzbek Drama Theater in the 20th century, it also considers scientific works, monographs, textbooks created during the specified period and which are based on historical and scientific materials, and the performances are analyzed on a scientific and theoretical basis.

Keywords: theater, play, drama, performance, image, genre, actor, director, character.

“Alisher Navoiy” dramasiining markazida XV asrning ulug‘ shoiri Navoiy obrazi turadi. Dramaturglar tarixiy shaxs obrazini yaratish masalasini o‘sha davrdagi ijtimoiy guruhlar kurashi orqali gavdalandirgan. Asardagi har bir personaj, bir ijtimoiy guruhning vakili bo‘lishi bilan birga, o‘sha guruhning manfaati va maqsadini ifodalaydi. Navoiy va Guli kabi ijobiy obrazlarning gumanistik, xislatlarini qanchalik to‘liq yoritishga intilsalar, Xusayn Bayqaro, Majididdin, Mansur Shayxulislom kabi shaxslarning salbiy xarakterini, ularning ichki qiyofasini shunchalik chuqur ochadilar. Har bir personaj harakati orqali davrning xarakteri ochib berilgan.

Dramada Husayn Boyqaro obrazi mustaqil va fikrga ega bo‘lmagan, kayf-safoga berilib, davlat ishlarini Majididdin kabi muttahaamlar qo‘liga topshirib qo‘ygan berahm shoh sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada, Husayn Bayqaro, kechayukunduz kayf-u safodan bosh ko‘tarmagan, to‘yda ham, azada ham to‘xtovsiz ichadigan mayparast shohga aylanib qoladi. Mamlakatdagi xalqning og‘ir ahvolidan xabar olmaydi, uning haqli talabini adolat yo‘li bilan emas, balki, qilichning qudratini ko‘rsatish bilan hal etmoqchi bo‘ladi.

“Navoiy” dramasi qariyb yetmish yildan buyon sahnadan tushmay kelmoqda. Lekin dramaturglar zamona mafkurasidan kelib chiqib, tarixiy haqiqatni o‘zgartirganligini bugun kun yoshlari bilmaydi. Bugun Navoiy davrini o‘rganayotganlar – Husayn Boyqaro “Hamsa”ni ulug‘lay olgan podshoh bo‘lganini, Majididdin g‘azal bitishni bilganligidan xabardor bo‘lmoqda. Demak, tarixiy haqiqatni tiklab, ularning ilg‘or va ibratli tomonlarini to‘g‘ri ko‘rsatish davr talabiga aylanmoqda. Ilmiy olimlarimiz tarixiy haqiqatlar asosida dramani qayta yaratish taklifini berishmoqda.

Filologiya fanlari doktori, professor No‘mon Rahimjonov “Alisher Navoiy” dramasiini yaratilishini shunday tahlilaydi – “taniqli dramaturg va olim Izzat Sulton “Alisher Navoiy” dramasiining yaratilishi, el o‘rtasida qozongan dovru‘gi, shu bilan birga zamon qutqusi tufayli asarning davr talabiga moslashtirilgan jihatlari haqida ham halol va xolis hikoya qilgan. Chindan ham

Uyg‘un va Izzat Sultonning bu asarida tarixiy shaxslar taqdiri sinfiylik nuqtai nazaridan badiiy talqin etilgan” [1.B.17].

Demak, dramaturgiyadagi talqin masalasi ham tahlilga muhtoj. Chunki, ijobiy qahramon obrazini yaratishda, xalqimizning uzoq o‘tmishi bilan aloqador mavzularni; tarixning ibrat va saboq bo‘ladigan jihatlarni; hozirgi hayotimiz bilan ruhan hamnafas bo‘ladigan insonparvarlik ko‘rinishlarini; talqin to‘g‘ri aks ettirishni eplash ham dramaturglarimizning barqaror an‘analaridandir. Bu ulug‘ an‘analarni hozirgi dramaturgiyamizda ham sezilarli salmoqqa ega bo‘lib, yorqin xarakterlar va personajlar obrazini yaratishda, sahna asarlarimizning tarbiyaviyligini belgilashda o‘ziga xos o‘rin tutmoqda.

Izzat Sulton “Donishmadning yoshligi” nomli dramasiida Ibn Sino obrazini, tabib haqida xalq orasida keng yoyilgan qiziqarli rivoyatlar asosida gavdalandiradi. Bunday usul bosh qahramon obrazini real tasavvur qilishga, uning donoligini ifodalashga keng imkon yaratadi. Pyesadagi Ibn Sino obrazini: yoshlik chog‘idan o‘ta bilimdon; o‘z kuzatuvlaridan yirik xulosalar chiqarishga qodir; tinib-tinchimasdan izlanadigan; boshqalarni ham ezgu ishlarga chorlovchi siymo sifatida ko‘ramiz. Dramaturg “Abu Ali Ibn Sino” – besh pardali keng qamrovi she‘riy dramasiida, Ibn Sinoning Buxoroda o‘tgan o‘spirinlik chog‘ida, insonlar umrini uzaytirish, ularga ko‘proq shodu xurramlik, baxtli onlar bag‘ishlash yo‘liga umrini tikkan alloma-tabib darajasiga yetishganligi ko‘rsatadi. Uning tinimsiz izlashlari, mantiqan fikrlashlari tarixiy haqiqatlarga mos munosabatlarida, ilm-ma‘rifatdan uzoq shaxsiyatparastga, johil tabiblarga qarshi kurashlarda va boshqa ziddiyatli holatlarda aks ettiriladi. Izzat Sultonning “Imon” dramasi ham XX asr o‘zbek teatr san‘atida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan asarlardandir. Bu asar ilk bor Hamza (hozirgi O‘zbek Milliy akademik drama) teatri sahnasida 1960-yilda tomoshabinlarga namoyish etiladi. Dramada insonning qadr-qimmatini, kishilarga ibrat bo‘lgulik xarakter xususiyatlari mavjudligi, kishi qalbini entiktiruvchi yorqin hissiyotlar tomoshabinlar qalbini diyonatga chorlaydi. XX asrning 60-yillarida tomoshabinlarga namoyish etilgan ushbu spektakl

jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Asar keyinchalik boshqa tillarga ham tarjima qilindi. Oʻtkir Shokirov “Imon” spektakliga toʻxtalar ekan, – “Imon” Y.Anushkina va Z.Sultonovlar tomonidan rus tiliga, M.Qosimova tomonidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilinib, “Zvezda Vostoka”, “Amudary” jurnallarida bosiladi. Asar “Люди с верой” deb nomlanib, Toshkentdagi rus akademik drama teatrida ham sahnalashtirilib, rusiyzabon tomoshabinlarning ham olqishiga sazovor boʻladi” [2.B.12] – deya eʼtirof etadi.

Ibn Sino dramasi ham tarixiy shaxs obrazi ifodalangan asarlarimizdan biridir. Lekin dramaga doir eʼtirozli oʻrinlar ham bor. Masalan, asarda personajlarning koʻpligidan, ularning intilishlari xarakter darajasiga koʻtarilmay qolgan. Hodisalarning maydalashib ketishi, ilovachilik va izohlash xususiyatlari, personajlar kurashi muttasil keskinlikda kechmasligi, natijasida, ziddiyat rivojidadagi sustlik sezilib qoladi. Bunday nuqsonlar tarixiy shaxsga boʻlgan hurmatni susaytiradi.

Uygʻun tarixiy mavzuga oid ijod qilgan dramaturglarimizdan biri. Uning “Zebuniso” dramasi shoira ayol obrazi ifodasiga bagʻishlangan. Zebunisobegim – olima, sozanda, hattot va isteʼdodli shoiradir. U Hindistonda qaror topgan va tarixda buyuk “moʻgʻul imperiyasi” nomi bilan shuhrat qozongan saltanat hukmdorlaridan boʻlgan – Avrangzeb Olamgirming qizi. Shoira, oʻz asarlarida insonning goʻzalligi – uning mehnatida, ishi natijasida, el yurtiga keltirgan nafida seziladi deb biladi. Zebunisobegim insonparvarlik gʻoyalari targʻib qilganligi uchun, hukmdor otasi tomonidan taʼqib ostiga olinadi, sevgan yigiti bilan qovushish baxtidan judo qilinib, tanholikka mahkum etiladi. Natijada, shoira ezgulik tuygʻularini kuylash bilan, armonli hayot iztiroblarida umr kechirgan.

Dramadagi Zebuniso obrazida shoiraning qismatiga oid hayotiy haqiqat ruhi, realistik asosda haqqoniy tasvirlanadi. Bunday tasvirga pyesadagi ijobiy va salbiy qutblarga joylashgan kuchlar oʻrtasidagi murosasiz kurash shaklidagi ziddiyat xizmat qiladi. Lekin, pyesadagi ketma-ket qurbonlar hindlarga xos turmush tarzi, personajlarning ruhiyati toʻliq ochilmagani, asarning badiiy taʼsirini pasaytirgan. Tragediyaning gʻoyasi toʻqnashuvlar oqibatidagi oʻliklar miqdori bilan yuzaga chiqmaydi. Aksincha, azob-uqubatli harakatlar natijasidagi keskin burilish hamda toʻsatdan sodir boʻlgan jismoniy fojialar orqali yuzaga chiqariladi. Shu vajdan bu asar chinakam tragik kolliziyaga molik boʻlmay qolgan, tashqi harakat ustunlik qilgan. Natijada, Zebuniso bilan bogʻliq fojeali taqdir qogʻozlarda qolib ketdi.

Navbatdagi tarixiy shaxs obrazini yaratgan dramaturg Turob Toʻladir. Uning “Quvvai qahqaha” – “Nodirabegim” pyesasi tragediyaga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tarixiy mavzudagi bu asarning muvaffaqiyati, oʻtgan asrda yashagan mashhur insonparvar shoira va taraqqiyparvar davlat arbobi Nodirabegimning taqdirini yoritganida. Unda Buxoro xoni, amir Nasrullo tufayli shoiraning fojiali qismatga mahkum boʻlganligi va bu davrdagi adolatsizlik hamda zulmkorlik mohiyati ochib tashlanadi.

Muallif asar maqsadini ifodalashda tragediyaning janriy tabiatiga mos obrazlar olamini yaratadi. Naim Karimov Nodirabegim obrazini tahlil qilar ekan, shunday deydi – “Nodirabegimning faqat koʻz yoshlari emas, balki yurak qonlarining ham ona tuproqqa qoʻshilib, uni lolazor etishi asarga nekbin ruh bagʻishlovchi, undagi vatanparvarlik gʻoyasini kuchaytiruvchi obrazdir. Turob Toʻla ana shu obraz yordami bilan tomoshabing Nodirabegim obrazini oʻzbek xalqining mashaqqatli tarixi fonida koʻrish va idrok etish imkonini beradi” [3. B. 33.]

Nodirabegimdagi tragik xususiyatlar – oʻgʻillari oʻrtasidagi kelishmovchilik; farzandning dushman qoʻliga asir tushishi;

saroydagi xiyonatlar; ayonlarning razilona harakatlari; asardagi boshqa obrazlarning ham tragik xususiyatlarni kuchaytiradi. Muallif Nodirabegimni – vazmin tabiatli, el-yurt gʻamida kuyinchak, farzandlari qismatidan oʻrtanuvchi, ona, zukko shoira sifatida gavdalandiradi. “Nodirabegim” spektaklini Bahodir Yoʻldoshev “Diydor” teatr sahnasida sahnalashtiradi. Muhsin Qodirov bu spektakl tahliliga toʻxtalar ekan, shunday yozadi – “Rejissor spektakl janrini toʻgʻridan-toʻgʻri “fojia” deb qoʻya qolgan. Yaʼni, Nodiraning figʻonu faryodini emas, uning Vatani tinchligi va xalq farovonligi haqida oʻylarini aks ettirishni maqsad qiladi. Studiya sahnasida barcha obrazlar saqlangan. Hatto masxarabozlar ham bor. Biroq spektakl markazini yosh aktrisa Nazokat Narziyeva ijrosidagi Nodirabegim egallagan. Koʻp jihatdan Nodirabegim – N.Narziyeva Sirdaryo teatridagi Nodirabegimga oʻxshab ketadi: baland boʻyli, aqlli, irodali, oʻz Vatani tinch-osoyishta koʻrishdan boshqa maqsadi yoʻq. N.Narziyeva – Nodirabegimning oʻziga xosligi shundaki, u tuygʻularini jilovlab oladigan, mushoxadakor. Aktrisa sukutlardan ustalik bilan foydalanadi” [4. B. 16].

Oʻtmishda xalq baxt-saodati uchun kurashda halok boʻlganlar, tarixda mashhur boʻlgan shaxslar, yangi jamiyat qurish yoʻliga oʻz hayotini mardona tikkanlar tragediya janri qahramonlari boʻlishi mumkinligini Arastu “Poetika” [5. B. 35]. asarida taʼkidlagan. Turob Toʻlaning bu sahna asari “Nodirabegim” nomi bilan respublika teatrlarida sahnalashtirildi. Bu spektakllarda Nodirabegim obrazini yaratgan aktrisalar nomlari tarix sahifalarida qoldi.

Asrlar mobaynida kishilarni maʼnan va ruhan poklab kelayotgan tragediya janri hayotiy manbalari boʻlgan bosh qahramon taqdirining, undagi kolliziyaning chigal tabiatli boʻlishidir. Bu masalada taniqli ijodkor Uygʻunning – “Beruniy” pyesasi oʻziga xos sahna asaridir. Muallif bu asarni drama deb eʼlon qilganiga, qaramay, uni tragediya deb atovchilar ham boʻldi. Ulugʻ alloma Beruniy obrazini yaratgan bu asar badiiy xususiyatlariga koʻra taragediyadir. Beruniy samoviy jismlarni kuzatib, yer yumaloq degan fikrni yoqlaydi va tor fikrlaydigan dindorlar xurujiga yoʻliqadi. Asardagi asosiy fikr birgina Beruniy shaxsigagina emas, balki, ilm ahli izlanishlariga qarshi qaratilgan. Dindorlar bilan ilm-ahli oʻrtasidagi bunday murosasiz ziddiyat sahna asari taʼsirchanligini oshirgan. Natijada, bosh qahramon mushkul va yechib boʻlmay ziddiyatli ahvolga tushadi.

Dramaturg tarixiy va toʻqima obrazlar munosabatlari orqali haqiqat uchun, el-yurt va ilm-fan manfaati uchun kurashgan personajlarning obrazlarini hayotiy-maishiy detallarda, sahna talablariga muvofiq ravishda ifodalaydi. Lekin Beruniyning olimlik faoliyatini keng koʻlamda yaratishga intilish natijasida boshqa personajlar ruhiyatida sodir boʻlayotgan hodisalardan ajralgan holda tavsiflanadi. Buning oqibatida tomoshabinlarni hayajonga soladigan, personajlarning qalbini toʻlqinlantiradigan holatlar bevosita yuzaga chiqmaydi.

Dramaturgiya sanʼatining asosiy talablaridan biri, personajlarning oʻzaro munosabatlarini tobora kuchayib borishini, keskinlik avj nuqtasiga koʻtarilishini, kurashni susaytirmay turib, yechim-finalni yuzaga chiqishini talab qiladi. Bu talablarga amal qilinmasa, pyesadagi obrazlar tomoshabinlarga badiiy taʼsir etmaydi.

Xulosa shuki, dramaturglar obraz yaratishda tarixiy haqiqatga amal qilgan boʻlsalar-da, oʻrni-oʻrnida oʻz rejasiga mos ravishda toʻqima obrazlar ham yaratganlar. Bunday toʻqima obrazlar, tarixiy shaxslar – Ibn Sino, Beruniy, Navoiy, Nodirabegim va Zebunisolar xarakterini ochishga, ularning jamiyatga odamlarga boʻlgan munosabatini oydinlashtirishga xizmat qilgan. Natijada, tarixiy shaxslar obrazi talqinida, oʻz davridagi voqealikning badiiy ifodasi namoyon boʻlgan. Bizningcha, XX asrda yaratilgan dramaturgiya asarlari oʻzining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida-alohida tadqiqot mavzusi boʻla oladi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Rahimjonov N. Avlodlar yod olgan drama //Teatr. 2005. – №4. – B.17.
2. Shokirov Oʻ. Imonning yaratilishi //Teatr. – 2008. – №4. – B.12.
3. Karimov N. Turob Toʻla va teatr //Teatr. – 2004. – №1. – B. 33.
4. Qodirov M. Mumtoz dramaning oʻrni //Teatr. – 2012. – № 4. – B.16.
5. Arastu. Poetika. –Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 1980. – B. 35.

AN'ANALAR BARDAVOMDIR

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yevropa tipidagi o'zbek teatri rivojlanishining dastlabki davrida, Farg'ona viloyati teatrlari, xususan, Qo'qon shahar musiqali drama teatrlarining tashkiliy hamda ijodiy shakllanishidagi o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Mustaqillik davriga qadar, viloyat teatrida sahna san'ati rivojining asosiy yo'nalishlari va tendensiyalari kuzatiladi. Ijodiy jamoaning repertuar shakllantirishdagi izlanishlari tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: viloyat teatri, musiqali drama, ijodiy jamoa, repertuar, rivojlanish bosqichlari, ijodiy an'analar.

Чарос РАХИМОВА,

Базовый докторант ГИИКУЗ, кафедры «Искусствоведение и культурология» (PhD) «Театральное искусство»

ТРАДИЦИИ ПРОДОЛЖАЮТСЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности организационного и творческого становления театров Ферганской области, в частности Кокандского музыкально-драматического театра на заре становления европейского узбекского театра. Прослеживаются основные направления и тенденции развития исполнительского искусства в областном театре до обретения независимости. Анализируется исследование творческого коллектива в формировании репертуара.

Ключевые слова: областной театр, музыкальная драма, творческий коллектив, репертуар, этапы развития, творческие традиции.

Charos RAKHIMOVA,

doctoral student (PhD) of UzSIAC chair of Art History and Cultural Studies, in the specialty "Theatrical Art"

TRADITIONS CONTINUE

Annotation. This article examines the features of the organizational and creative formation of theaters in the Fergana region, in particular the Kokand Music and Drama Theater at the dawn of the formation of the European Uzbek theater. The main directions and tendencies of the development of performing arts in the regional theater before independence are traced. The study of the creative team in the formation of the repertoire is analyzed.

Key words: regional theater, musical drama, creative team, repertoire, stages of development, creative traditions.

XX asr madaniyati tarixida ro'y bergan noyob hodisalardan biri bo'lgan o'zbek teatr san'ati bugunga qadar o'ziga xos ijodiy yo'lni bosib o'tdi. Samarqand, Toshkent va Farg'ona teatrlari respublikaning madaniy markazlarida tashkil etilgan teatrlar orasida ijodiy faoliyati jihatidan, nisbatan ertaroq tashkillanishi bilan xarakterli sanaladi. Shu o'rinda teatr san'ati tarixida o'zining munosib o'rini egallay olgan Farg'ona viloyatidagi teatrlarning tarixiy shakllanish jarayonlari, dramatik asarlarning ijro mahorati, bugungi kunda ham o'ziga xos maktab sifatida faoliyat yuritib kelayotganini mamnuniyat bilan e'tirof etishni joiz bildik.

Farg'ona viloyatida Qo'qon shahar musiqali drama teatri, Farg'ona viloyat musiqali drama teatri hamda Farg'ona viloyat rus dramatik teatri faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu muassalar qariyb bir asrga yaqin davr mobaynida o'zining beqiyos san'ati va mahorati, klassik va milliy asarlarining betakror ijrosi bilan nozikta'b teatrshunos va mutaxassislarini ham hayratda qoldirib kelgan. Mazkur teatrlar sahnalarida Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi ulug' siymolardan tortib, zamondoshlar, davrimiz qahramonlari qiyofalari ham yaratilgan. Halollik, do'stlik, odamiylik kabi yuksak tuyg'ular ifoda etilgan, zamon va inson muammolari haqida bahs yuritadigan o'nlab san'at asarlari tomoshabin qalbidan o'rin egallagan. Maqolamizda Farg'ona viloyat teatrlari tizimida dastlabki tamal toshi qo'yilgan madaniyat muassasasi – Qo'qon musiqali drama teatri borasidagi mulohazalarimizni bayon etishni lozim topdik.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, Qo'qon o'tmishda O'rta Osiyoda yirik madaniyat va ma'rifat markazi bo'lish bilan birga, milliy xalq tomosha san'ati rivoj topgan maskanlardan biridir. Agar o'zbek milliy san'ati dastlab qachon va qayerda barpo etilgani haqida so'z yuritadigan bo'lsak, shuni katta faxr, g'urur, iftixor va mamnuniyat bilan ayta olamizki, o'zbek milliy teatrchilik san'ati dastlab Qo'qonda tuzilgan va rivoj topgan. Uning chuqur ildizlari Qo'qon xonliklari, ayniqsa, Amir Umarxon, Madalixon va Xudoyorxonlar hukmdorlik davrlarga borib taqaladi [1.B.3].

O'zbek milliy teatrchilik san'atining paydo bo'lishi, shakllanishi va yaratilishi, o'sha davrda Qo'qonda yashab, ijod qilgan, shuningdek, Farg'ona vodiysining yirik shahar va qishloqlaridan kelib to'plangan mashhur san'atkorlar, so'z ustalari, askiyachilar, hofizlar, sozanda va xonandalar hamda raqqosalar bilan bog'liqdir.

XVIII asrning oxiri va XIX asr davomida Qo'qonda yashab

ijod qilgan Bidyorshum, Zokir eshon, Sa'di Maxsum, Ro'zi gov, Normat qiziq, Shomat qiziq, Usmon qiziq, Rustam qiziq, Matxoliq qiziq kabi professional aktyorlar, Rustam hofiz, Boymat hofiz, Saydali hofiz kabi ashulachi va eng mashhur qo'shiqchilar, ayollardan Abdurahmon pari, O'g'il hofiz, Zuhro qiziq, Iqlim dodho, Huvaydo otin, Oynisa hofiz, Isirg'a otin kabi musiqachi va qo'shiqchilar, Hamdam bachcha, Farzinxon bachcha, Oq bachcha, Cho'ntak bachcha, Kumush bachcha, Chirvon bachcha kabi raqqos va raqqosalar, birgina Qo'qon shahri emas, balki butun respublikamizda o'zbek professional teatrchiligi san'atiga tamal toshini qo'ygan buyuk san'atkorlar edilar [2.B.4].

XIX asrning ikkinchi yarmida, ya'ni Xudoyorxon xonlik qilgan davrda Qo'qon teatr san'ati yanada gurrakirab o'sdi va rivojlandi. Teatr san'atini insonlarga ko'rsatadigan ta'sir kuchi va tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligini chuqur anglagan Xudoyorxon xalq ichida tanilgan va shuhrat qozongan san'atkorlarni saroyga to'plab, saroy-teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish ishiga katta ahamiyat bergan. Qo'qonda Xudoyorxon hukmdorlik qilgan davrda, saroyda 30 kishidan iborat aktyorlar truppassi, 60 kishilik raqs truppassi va 75 kishidan iborat xalq, cholg'u asboblari ansambli faoliyat ko'rsatib kelgan. Truppaning repertuari asosan ularning o'zlari tomonidan ijod qilinib yaratilgan va ijro etilgan "Mudarris", "Avliyo", "Xon hajvi", "Zarkokil" "Qalandarlar", "Dorbozlik", "Kelin tushirdi", "Qozi", "Sudxo'r" kabi 200 ga yaqin turli janr va hajmdagi pyesa, aytishuv va muqallidlardan iborat tarkib topgan [3.B.28].

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasida yuz bergan siyosiy voqealar, o'zgarishlar, chor Rossiyasining Markaziy Osiyoni bosib olishi, 1896-yilga kelib Qo'qonda Xudoyorxon xonligining tugatilishi, shundan so'ng Turkistonga ruslarning bostirib kirishi, ularning o'z mavqeyini mustahkamlash siyosatlarini o'tkazish maqsadida hamma yerda bo'lganidek, Qo'qonda ham xalqimizning ko'p asrlik milliy madaniyati, ma'naviyati va an'analari o'rniga o'z madaniyati va ma'naviyatini o'rnatish harakati yuz berdi. Buning oqibatida Qo'qon xonligi tugatilganidan so'ng, shaharda birinchi bor Ovrupo tipidagi musiqiy drama to'garagi tashkil etilib, unga 1876-yilgacha Qo'qon saroy truppassida ishlab, ijod qilib kelgan Ro'zegov Nazarmat o'g'li rahbar etib tayinlanadi va uning rahbarligi 1915-yilgacha davom etadi [4.B.31].

1880-yildan boshlab Turkistonning yirik shaharlarida, jumladan, Qo'qonda ham teatrlar uchun maxsus binolar qurish ishlarini

amalgam oshira boshladi. Teatr binolarining loyihasi va boshqa hujjatlarini tayyorlash, qurilish ishlari bilan shahar dumalari shug'ullana boshladi. Shu yo'sinda 1878-yilda Qo'qonda ham klub tipidagi «Военное собрание» qurildi. Uning sahnasida dastlab shahar harbiy garnizonining askarlari, shuningdek, rus va mahalliy xalq kishilaridan tarkib topgan shahar badiiy havaskorlari shahar aholisiga o'z tomoshalarini ko'rsatishgan. Tomoshalarning repertuari, asosan, rus klassik yozuvchi va dramaturglarining sahna asarlaridan iborat edi. Drama to'garaklarining repertuari yozma pyesa shaklida emas, og'zaki dramaturgiyadan iborat bo'lib, improvizatsiya asosiga qurilgandi.

Birinchiidan, hali o'zbek aktyorlik san'ati haqqoniy obrazlar va xarakterlar yaratish, ularning ichki-tashqi dunyosini haqqoniy badiiy bo'yoqlar bilan ochib berish darajasiga yetgan emas edi. Ikkinchiidan, o'sha davrdagi o'zbek og'zaki dramaturgiyasi, asosan, qiziqchilik, masxarabozlik va pantomimo (so'zsiz harakat)lardan iborat bo'lganligi hali drama, musiqiy drama, tragediya va boshqa janrlarning shakllanmaganligi tufayli, o'zbek aktyorlik san'atining faqat komediya janrida rivojlanishi va shakllanishiga olib keldi.

Qadimiy o'zbek teatrida kiyim-kechaklardan unumli foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa ham, sahnalashtirilayotgan spektakllarni badiiy bezash, yoritish, dekoratsiya, butaforiya, rekvizit asboblari, shuningdek, grim va pariklardan maqsadli foydalanish imkoniyati yaratilmagan edi. Aktyorlar bu vositalarni sahnada ko'p hollarda, o'zlari jonli ravishda ifoda qilib berishga harakat qilar edilar[5.B.18].

Qo'qonda teatrning shakllanish va taraqqiyot yo'li o'zbek xalq teatri, xususan, qo'g'irchoq teatri bir necha asrlik rivojlanish kabi uzoq yo'lni bosib o'tib, boy tajriba orttirgan. Bundan tashqari, Rossiya, Ozarbayjon, Tatariston, Armanistondan professional va yarim professional sayyor teatr jamoalari, sirk va turli konsert guruhlarining tomoshalari Qo'qon ziyolilari va yoshlariga qiziqish uyg'otishi Qo'qonda Ovrupo usulidagi o'zbek milliy teatr san'ati rivojlanishiga katta ta'sirini 1913-yili Samarqandda, 1914-yil yanvarida Toshkent shahrida, fevral oyida Qo'qonda namoyish etilgan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" nomli spektakli bir guruh ziyoli va taraqqiyparvar yoshlarni ruhlantirib yubordi va 1912-yilning 20-iyulida ular to'planib, shaharda ham shunday ijodiy trupa tuzishga ahd qildilar. Buning natijasida 1912-yilning kuzida ana shunday sayyor trupa tashkil topdi.

Trupa a'zolari dastlab ozarbayjonchadan tarjima qilingan "Och harflar" va "Eski Turkiya" nomli pyesalarni sahnalashtirdi. Bu ishda ozarbayjonlik rejissor Ali Asqar Mahkamov yaqindan ko'maklashdi. 1914-yilning kuzida bu ikki spektakl yangi shahardagi "Общественное собрание" binosida tomoshabinlarga namoyish qilinadi. Spektakllarda yosh havaskor Mirshohid Miroqilov akalari Mirzohid Miroqilovlar bilan birga umumiy sahnalarda ishtirok etdilar. "Oyina" jurnalining 1914-yil 19-fevral 7-sonida Qo'qonda qo'yilishi rejalashtirilayotgan spektakl haqida shunday e'lon bosiladi:

"Ho'qandda maktablar naf'iga "Padarkush" fojiasini 24-fevralda sahnaga qo'yimoq uchun Ho'qand taraqqiyparvar yoshlari g'ayrat etibdurlar. Ho'qandda turguvchi janob Akobir Samarqandiy Shomansur o'g'li baland darajalik Farg'ona valiyidan ruxsat olibdur. Samarqand ko'ngullilaridan bir nechasi Ho'qandga borib yetmagan keraklik shaxslarni Ho'qandiy birodarlardan tayyorlab "Padarkush" pyesasini sahnada qo'yimoqchidurlar[6.B.11].

Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Hamza kabi ma'rifatparvar ziyolilarimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan o'zbek teatri truppalari Turkiston zaminida professional teatr talablariga javob beradigan dastlabki milliy sahna asarlarini yaratdilar. Ayniqsa, xalqimizning ma'naviy takomilida teatr san'atining nechog'li katta ahamiyatga ega ekanini jadid ma'rifatparvarlari orasida eng birinchilardan bo'lib sezgan va bu sohada matonat bilan faoliyat ko'rsatgan ijodkorlardan biri – Hamza Hakimzoda Niyoziy 1915-yilda Qo'qonda havaskorlik truppassi tashkil etib, uning birinchi pardasini o'zining "Zaharli hayot" pyesasi bilan ochdi. "Zaharli hayot" spektakli qo'yilgan 1915-yil Qo'qon teatrlarining tashkil topgan kuni sifatida tarixga kirdi. 1918-yili "Farg'ona sayyor truppassi"ni tashkil etadi, respublikada

madaniy-oqartuv ishlarini yo'lga qo'yish bo'yicha xizmat safarlarida bo'lib, boshqa hududlarda ham, jumladan, Andijon, Xorazm, Xo'jayli teatr truppalari tashkil etish va jonlashtirishda o'z hissasini qo'shdi.

1919-yili tashkil bo'lgan Qo'qon teatri manaman degan dongdor san'atkorlarga birlamchi oshiyon bo'lgan. Mirshohid Miroqilov, Lutfixonim Sarimsoqova, Murod Qo'ldoshev, Mariya Kuznetsova, Soli Ahmedov, Murodjon Ahmedov, Boborahim Mirzayev, Zudur Kobulov, Soyib Xo'jaev, Mirobid Musayev, Saboxon Karimova va ko'plab boshqa dongdor san'atkorlar katta sahnaga Qo'qon teatridan yo'l olishgan. Shu bilan birga, bir umrga hayotini Qo'qon sahnasi bilan bog'lagan keksa avlodga mansub Zanjirali Mirzatov, Qurbon Nazarov, elliginchi yillardan boshlab, keyingi davrga mansub Murodjon Ahmedov, Rahima Mazohidova va boshqalar teatrlarining kamolini ta'minlagan ijodiy kuch sifatida ish ko'rib, yutuq, muammo va qiyinchiliklarni boshdan o'tkazib mehnat qildilar. [7.B.547].

O'ttizinchi yillarning ikkinchi yarmida bu an'ana davom etib, Zanjirali Mirzatov "Yondiramiz"da Samsaq, "Skapening nayranglari"da Skapen, "Rustam"da Rustam rollarini ijro etadi, 1937-yili sahnalashtirilgan "Nomus va muhabbat"da G'ulom, Saboxon Karimova Onaxon rolida sahnaga chiqishadi. 1939-yili "Boy ila xizmatchi"da (rejissor M. Muhamedov) Zanjirali Mirzatov - G'ofir, Qurbon Nazarov - Solihboy, Saboxon Karimova -Xolmat rollari misolida boshqa ijrochilarga boshchilik qilishadi. 1935–1940-yillar orasida nomlari tilga olinganlardan tashqari, teatr "Farhod va Shirin" (qayta qo'yilgan, rejissor N. Alimov), "Gulsara" (rejissor Qurbon Nazarov), "Sotqinlar" (rejissor Zanjirali Mirzatov), "Chegarachilar", "Vatan" (rejissor M.P.Verxatskiy, rassom E.P.Karlson), "Adolat" (rejissor Soli Ahmedov, hammasining rassomi E.P.Karlson) spektakllarini ham sahnalashtiradi. "Farhod va Shirin"da Z.Mirzatov – Farhod, Saboxon Karimova Shirin rollarini ijro etishgan.

Qo'qon musiqali drama teatri jamoasi 1936-yilda Umarjon Ismoilovning "Adolat" nomli musiqali dramasi sahnalashtirdi. Ushbu spektakldan so'ng, xuddi shu tilning o'zida Hamzaning "Paranji sirlari" ("Xolisxon") musiqali dramasi dadil qo'l urildi. Har ikki spertakllar musiqasi teatr konsertmeysteri Muxtorjon Murtazoyev tomonidan yozilgan. Spektakl ijodkorlari mehnatiga shahar rahbariyati, jamoatchilik va eng muhimi, keng tomoshabinlar ommasi yuqori baho beradilar[8.B.27]. II Jahon urushi yillarida Qo'qon musiqali drama teatri jamoasining alohida fidokorona mehnatini aytib o'tish joizdir.

1939–1941-yillarda teatr jamoasiga Murodjon Ahmedov, Mahbuba Mansurova kabi yosh, qobiliyatli yoshlar kelib qo'shildi. 1940-yili teatrlarining ijodiy jamoasi dramaturg Sobir Abdulla, kompozitor To'xtasin Jalilovning o'zbek xalq dostoni asosida yaratilgan "Tohira va Zuhra" nomli dramasi sahnalashtirdi. Spetaktadagi asosiy rollarni Valijon Hamroyev (Tohir) va Saboxon Karimova (Zuhra), Qurbon Nazarov (Xonbobo), Solijon Ahmedov (Nozim) lar mahorat bilan o'ynadilar. Bundan tashqari, urush yillari teatr sahnasida "Qurbon Umarov", "Oftobxon", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi spektakllar ham namoyish qilingan, – deb eslaydi nuroniy dramaturglardan biri Kommuna Alimova. [9.B.90].

Ikkinchi Jahon urushi yillarida teatr jamoasi oldida o'ta mas'uliyatli, fidoyilik va jasoratlab ijodkorlik mas'uliyati ko'ndalang edi: jang maydonidagi jangchilarga ruhiy-ma'naviy jasorat sari ruhlantirish, harbiy vatanparvarlik, kishilarning mardlik, shuningdek, front ortida, janggohlardagi askarlar ta'minoti uchun kecha-yu kunduz tinimsiz mehnat qilayotgan ona xalqimiz farzandlarining buyuk jasoratlarini tarannum etuvchi Sobir Abdulla va Chustiyning "Qurbon Umarov" spektakli tomoshabinlarda katta taassurot qoldiradi va uning premyerasi ikki hafta muntazil davom etadi. Spektaktadagi musiqalarni teatr konsertmeysteri M.Murtazoyev va musiqi rahbari S. Ochilidievlar boshqardi. Raqlarni teatrlarining baletmeysteri Sh.Tojiboyeva sahnalashtirdi. Asardagi Qurbon Umarovning yoshligini yosh, iste'dodli aktyor Qodirjon Soliyev, yigitlik yillarini Valijon Hamroyev yaratdilar. Qurbon Alining sevikli qaylig'i rolini, dastlab, Muqaddasxon Sharopova va keyinchalik, Saboxon Karimovalar ijro etgan.

Keyinchalik bu rollarni Murodjon Ahmedov va Saodatxon Ochildiyevalar ham ijro etdilar.

1942–1946-yillarda “Davron ota”, “Qasos”, “Qo‘chqor Turdiyev”, “Vatan uchun”, “Oftobxon”, Gogolning “Uylanish”, “Revizor”, “Yoriltosh”, “Besh so‘mlik kelin”, “Maysaraning ishi” kabi musiqali drama va musiqali hajviy asarlar sahna yuzini ko‘rdi.

1942-yilda bastakor Nazrullo Yoqubov va Said Aliyev rahbarligida respublikadagi markaziy viloyat va shahar teatrlaridan bir guruh san‘atkorlar konsert brigadasi tuzib, frontga jo‘nadilar. O‘n to‘rt kishidan iborat bu konsert dastasida Qo‘qon teatridan Mahbubaxon Mansurova, Po‘latjon qiziq va Komiljon Quljonovlar bor edilar. Ular o‘zlarini bilan frontdagi o‘zbek yigitlariga turli oziq-ovqat mahsulotlari, issiq kiyim-bosh va boshqa sovg‘alar olib bordilar. Urushdan keyingi yillarda Qo‘qon musiqali drama teatri ijodiy jamoasi “Farhod va Shirin”, “Alpomish”, “Layli va Majnun”, “Oltin ko‘l”, “Maysaraning ishi”, “Nurxon” asarlarini sahnalashtirdi. Bu asarlarda Farhod, Alpomish, Majnun, Tursunali, Mullado‘st, Haydar obrazlarini Murodjon Ahmedov muvaffaqiyat bilan ijro etdi. Xisrav va Navfal rollari esa mahoratli aktyor va rejissor Solijon Ahmedovga topshirildi.

1946-yili viloyat o‘zbek davlat musiqali drama va hajviya teatrlarining yirik aktyori va rejissori Solijon Ahmedov Farg‘ona musiqali drama teatriga bosh rejissor etib yuborilgach, teatrga aktyor Ne‘matjon Qosimov direktor etib tayinlandi. Ijodiy jamoa safiga 1951-yilda endigina rejissorlik fakultetini bitirib kelgan N.P.Nikiforova, 1952-yili Toshkent teatr institutini bitirgan yosh mutaxassislar – Alijon Umarov, To‘ychi (Mirhosil) Oripov, Mashrabxon Rahimova, Rixsi Orifjonov, Sa‘dullo Anorqulovlar ham qo‘shildilar.

N.P.Nikiforova, 1951-yildan 1960-yilgacha rejissorlik lavozimida, Alijon Umarov esa 1952-yildan 1954-yilning fevraligacha direktor o‘rinbosari vazifasida ishladi. So‘ngra, A.Umarov o‘sha vaqtda viloyatda yagona teatrshunos bo‘lgani uchun professional va xalq teatrlari, ashula va raqs , badiiy havaskorlik to‘garaklari, musiqa maktablari, o‘lkashunoslik muzeylari ustidan rahbarlikni kuchaytirish maqsadida, Farg‘ona viloyat madaniyat bopqarmasiga katta inspektorlik lavozimiga tayinlandi.

Bu davrda Q.Nazarovning “Yangi yer” komediyasi asosida yaratilgan pyesasi, Z.Mirzatovning Sobir Abdulla asari asosida sahnalashtirgan “Muqimiy” musiqali dramasi, “Nurxon”, “Ikki boyga bir malay”, “Aziz va sanam”, “Aybsiz aybdorlar”, “Bir sevgi afsonasi”, “Ravshan va Zulxumor”, “Qaroqchilar” kabi asarlari shuhrat qozondi.

1955–1960-yillarda teatr ijodiy tarkibida birmuncha o‘zgarishlar yuz berdi. Bu yillar ijodiy yuksalishning asosiy tamoyillaridan bo‘lgan ustoz-shogirdlik an‘analari uyg‘unlashuvidan iborat o‘sish davri edi. Chunonchi, 1960-yilning oxirlariga kelib, Toshkent teatr va rassomchilik institutini tamomlagan yosh aktyor va rejissorlar Anvar Yoqubxo‘jaev, Uchqun Nazarov, Rashidxon Sodiqov, Madaminjon Jo‘rayev, Oyshaxon Olovuddinova (Jo‘rayeva), Sultonali Sobirov, Abdujabbor Karimovlar teatrga ishga kelgan. Teatr repertuaridan esa “Abdulla Nabiyev”, “Surmaxon”, “Farg‘ona hikoyasi”, “Boy ila xizmatchi”, “Maysaraning ishi”, “Qutlug‘ qon”, “So‘na”, “Gang daryosining qizi” kabi dramatik asarlar o‘rin oldi.

1962-yili teatrning asosiy vokal artistlari va yetakchi raqqosalar ketib qolganligi, xor va orkestr tarkibi qisqartirilganligi, dramaturglar tomonidan musiqali asarlar kam yozilganligi uchun teatr drama teatriga aylantirildi. Bosh rejissor lavozimiga N.V.

Molchanov tayinlandi. 1966-yilda esa mazkur lavozimga Anvar Yoqubxo‘jaev, teatrning sahnalashtiruvchi rejisori lavozimiga esa Q. Nazarov tayinlandi. Bu vaqtlarda teatr asosan, drama janridagi spektakllar yaratish, ularni tuman markazlarida, qishloqlar klublari, madaniyat uylarida namoyish etish bilan shug‘ullandi. Endi teatr repertuaridan “Hijron va vijdon”, “Xolisxon”, “Ayajonlarim” kabi dramatik sahna asarlari o‘rin ola boshladi. Mazkur spektakllar teatr ixlosmandlari, keng jamoatchiligi tomonidan qizg‘in kutib olindi.

1970-yillar ham o‘zining sermahsul sahna asarlari bilan teatr tarixida qoldi. Bu yillarda teatr repertuari “Navoiy”, “Mehmonxona bekasi”, “Og‘riq tishlar”, “Parvona”, “Hamza”, “Besh kunlik kuyov”, “Nodira”, “Karvon shamoli”, “Ufq”, “Ikki boyga bir malay”, “Qoraqum fojiasi”, “Sepsiz qiz”, “Baxtim mening”, “Kuyovning omonati”, “Sud oldidan”, “Ali masxaraboz”, “Qon sachragan tol”, “Besh so‘mlik kelin”, “Afandining besh xotini” kabi ko‘plab spektakllar hisobiga boyitilib, ijodiy jamoaning samarali ijodiy faoliyat natijalari respublikamizning taniqli san‘atshunos-teatrshunoslari, qolaversa, xorijdagi mashhur san‘at darg‘alari tomonidan e‘tirof etildi, obro‘-e‘tibori o‘sdi. Natijada, 1979-yilda ko‘pchilik teatr muxlislarining talabi bilan Qo‘qon teatriga yana “Musiqali drama teatri” maqomi qaytarib berildi [9.B.154].

O‘tgan asrning 80-yillari boshida teatr jamoasi 130dan ortiq ijodkorni birlashtirgan edi. 1987-yilning bahorida teatr Furqat nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i hududida qurilgan 750 o‘rinli yangi muhtasham binoga ko‘chib o‘tdi. Bu quvonchli voqea jamoani yangi ijod sari ruhlantirib, g‘oyaviy salmoqdor asarlar yaratishga yo‘naltirdi. Bu yillarda mavjud spektakllar qatori “Do‘st nidosi”, “Ona”, “Yuzma-yuz”, “Temir xotin”, “Qora kamar”, “Miltiq”, “Gavhar” asarlari asosiga boyitildi, “Muqimiy”, “Oy tutilgan tunda”, “Yoriltosh”, “Yo‘lchi yulduz”, “Nomus”, “Tohir va Zuhra”, “Toshbolta oshiq” kabi sahnaviy asarlar teatrdagi faoliyat ko‘rsatayotgan yangi avlod ijodkorlari tomonidan qaytadan sahnalashtirildi.

Ijodiy jamoa tarixiy asarlarni ham sahnalashtira boshladi. 1988-yili Sobir Abdullaning “Alpomish” asari asosida 2 qismdan iborat falsafiy sahna asari shular jumlasidandir. Shuningdek, Azimjon Azizovning “Aks- sado” (“Yuzma- yuz”) asari ham muvoffaqiyatli sahnaga qo‘yildi. Ushbu publitsistik drama Respublika teatrlari festivalida “Temir xotin”, “Qora kamar” asarlari qatorida 3-o‘rinni egalladi.

Biz yuqorida o‘rganib chiqqanlarimiz – teatrshunoslik manbalari hamda mazkur madaniy muassasalarning internet saytlari, shuningdek, ularning faoliyatini aks ettirgan arxiv ma‘lumotlariga tayangan holda, xulosa qilishimiz mumkinki, Qo‘qon musiqali drama teatri dastlabki ijodiy shakllanish jarayonida havaskor ijrochilik, sayyor truppa ko‘rinishida bo‘lib, havaskor ijrochilar bilan birga, professional aktyorlarni ham jalb etib, salkam bir asr mobaynida yaxlit badiiy jamoa darajasiga ko‘tarildi. Milliy, mumtoz hamda jahon klassik dramaturgiyasi durdonalariga ham murojaat qilinib, xalqimizning ma‘naviyatini yuksaltirishga hissa qo‘shishga harakat bo‘lgan.

O‘rganilgan qariyb bir asrlik davr mobaynida teatrning ijodiy kuchlari turli gastrollar, madaniy tadbirlar vositasida dunyo xalqlarining teatr tajribalarini ijodiy o‘rganib, ijodiy mahorat sirlarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Bu kabi natijalar XX asrning so‘nggi choragida teatr faoliyatini qayta qurish, 1991-yildan boshlab, o‘tgan davrning asl ijodiy tajribalarini to‘laqonli o‘zlashtirib, yangi davr talablarini anglashga qobil ijodkorlarni yetishtirishga muhim zamin bo‘lib xizmat qilgani shubhasizdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Umarov A., Mirzahamdamov Z. Ho‘qandi latif – san‘at ayvoni. // Qo‘qon teatri tarixi zarvaraqlari. Farg‘ona, 2011. – B. 3.
2. Ko‘rsatilgan manba. – B. 4.
3. Rahmonov M.P. O‘zbek teatri (XVIII asrdan XX asr avvaligacha.). Toshkent: Fan, 1968, 28-bet.
4. Ko‘rsatilgan manba. 31-bet.
5. Solihov M. O‘zbek teatr tarixi uchun materiallar. Toshkent: O‘zdamnashr, – B. 11.
6. Umarov A., Mirzahamdamov Z. Ho‘qandi latif – san‘at ayvoni. // Qo‘qon teatri tarixi zarvaraqlari. Farg‘ona, 2011. 8-bet.
7. Ko‘rsatilgan manba. 27-bet.
8. Olimova K. Bir asr bitiklari. – Toshkent: Istiqlol nuri, 2015, 90-bet.
9. O‘sha manba, 112-bet.

ZAMONAVIY O‘ZBEK TEATR SAN‘ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA INTEGRATSION JARAYONLAR

Annotatsiya: Zamon shiddat bilan o‘zgarimoqda, jahonda ro‘y berayotgan globallashtirish jarayoni, integratsion va transformatsion jarayonlar madaniyat va san‘at sohasining rivojlanishiga katta ta‘sir o‘tkazmoqda. Maqolada zamonaviy o‘zbek teatr san‘atining rivojlanish bosqichlari va integratsion jarayonlar xususida fikr yuritilgan va tahliliy ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Teatr san‘ati, spektakl, integratsiya, transformatsiya, zamonaviy tendensiyalar, dramaturgiya, rejissura, jahon hamjamiyati.

Камолитдин УМАРОВ,
Базовый докторант ГИИКУЗ

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация: Стремительно меняются времена, процессы глобализации, интеграционные и трансформационные процессы, происходящие в мире, оказывают огромное влияние на развитие сферы культуры и искусства. В статье представлена аналитическая информация об этапах развития и интеграционных процессах современного узбекского театрального искусства.

Ключевые слова: Театральное искусство, перформанс, интеграция, трансформация, современные тенденции, драматургия, режиссура, мировое сообщество.

Kamoliddin UMAROV,
Basic doctoral student of UzSIAC

STAGES OF DEVELOPMENT AND INTEGRATION PROCESSES OF MODERN UZBEK THEATER ART

Annotation: Times are changing rapidly, the processes of globalization, integration and transformation processes taking place in the world have a huge impact on the development of culture and art. The article presents analytical information about the stages of development and integration processes of modern Uzbek theatrical art.

Key words: Theatrical art, performance, integration, transformation, modern trends, drama, directing, world community.

Qaysi san‘at xalq hayoti va orzu-umidini to‘g‘ri aks ettirsa hamda ana shu jarayonda xalqning madaniy, adabiy-badiiy merosiga mustahkam tayansa, o‘sha san‘at hayotbaxsh, o‘sha san‘at umrboqiydir. Teatr san‘atini cheksiz ummonga qiyoslasak bo‘ladi. Ushbu tarixiy san‘atni to‘laqonli anglab yetish uchun uning ichiga chuqurroq kirib borish darkor. Teatr – ma‘naviy va ma‘rifiy olamimizning ajralmasmas ruhi, komillikka yetishishda shamchiroq vositalaridan biri desam adashmagan bo‘laman. Umrini ma‘no bilan, qalbini esa ziyo bilan boyitmoqchi bo‘lgan inson albatta teatr san‘atiga oshno bo‘lishi kerak deb hisoblayman. Buning uchun yoshlarni bolaligidan boshlab bu sehrli san‘atga qiziqtirish lozim.

“O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi” (2018-yil 28-noyabr, PQ-4038)da davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimizda xalqimizning ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san‘at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash, madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirishga doir ham tahliliy ham tanqidiy fikrlari berildi. Tanqidiy fikrlar quyidagilardan iborat edi:

– yosh ijodkorlarga ta‘lim-tarbiya berish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali olib borish, aholining o‘ziga borayotgan madaniy ehtiyojlarini qondirish va madaniy xizmatlar sifatini keskin oshirish imkonini bermayapti;

– zamonaviy media makonda milliy madaniyatimiz munosib o‘rin egallamagani, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to‘liq joriy etilmagani sohani keng tadqiq va targ‘ib etish, xalqaro madaniy jarayonlarga talab darajasida integratsiya qilishga yo‘l bermayapti;

– madaniyat va san‘at sohasidagi muvofiq xalqaro festival va tanlovlarda ijodkorlarimizning ishtirokini izchil ta‘minlash va ularning sara asarlarini namoyish etish, milliy ijodiy mahsulotlarni eksport qilishning samarali tizimi yaratilmagani, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagani ham soha rivojiga to‘sqinlik qilmoqda[1].

Globallashuv jarayoni ma‘naviy qadriyatlar-u milliy aqidalarni tan olmaydi. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma‘naviy qadriyatlari va ma‘naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ‘ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o‘rni va mavqeyini

yanada mustahkamlash bugungi kundagi eng muhim vazifalarimizdan biridir.

Jahon teatrhunoslik fanining bugungi kundagi bosh maqsadi insoniyat ma‘naviy mohiyatini anglashdan iborat bo‘lib, bu ayni paytda dramaturgiyadagi badiiylik, g‘oyaviylik, tomoshaviylik va haqqoniylik masalalarining o‘zaro mujassamini, ularning sahnaviy talqin muammolarini aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi. Ayni paytda insoniyat birdamligini ta‘minlash, shaxs qadriini mustahkamlash, tinchlikni barqarorlashtirish, terrorizm va ekstremizmni bartaraf etish kabi global muammolar yechimini topishda san‘atning roli oshib bormoqda. Mazkur holat dunyo hamjamiyati hamkorligini faollashtirish va teatr san‘ati imkoniyatlaridan samarali foydalanishga bo‘lgan ehtiyojini qoldirmoqda.

Mustaqillik yillarida o‘zbek dramaturgiyasi milliy qadriyatlar hamda g‘ururni tiklash, o‘tish davri murakkabliklarida kishilarning badiiy-estetik, ma‘naviy olamini shakllantirish bo‘yicha salmoqli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, hali-hamon jamiyatda, butun dunyoda avj olib borayotgan siyosiy-ijtimoiy, ma‘naviy axloqiy xurujlarga nisbatan yetarlicha munosabat bildirilmayotgani va, ayniqsa, badiiy mahorat masalasida kamchiliklar mavjudligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Respublikadagi ayrim teatr repertuarlari g‘oyaviy-badiiy jihatdan saviyasiz, zamon talablariga to‘laqonli mos emas, ulardan o‘rin olgan spektakllarda bugungi kun nafasi, odamlarni o‘ylantiradigan, hayajonga solayotgan jiddiy ijtimoiy muammolar o‘z aksini topmayapti. Mahmudxo‘ja Behbudiy bejizga “Teatr – ibratxonadir” deya ta‘kidlamaganlar. Demak, ibrat va tarbiya maskani bo‘lmish teatrni zamon talablariga mos holda faoliyati yo‘lga qo‘yilsa xalqimiz uchun bu muhim ma‘naviy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida teatrlarimiz o‘z faoliyatlarini mustaqil qurish va boshqarishga o‘ta boshladilar. Biroq yuqoridan beriladigan yo‘l-yo‘riqlar asosida ma‘lum yo‘nalishdagi asarlarni sahnalashtirishga o‘rganib qolgan ba‘zi teatrlar erkinlik sharoitida nima qilishlarini bilmay qoldilar. Umuman, san‘at sohasining xo‘jalik hisobiga, o‘z-o‘zini ta‘minlash boshqarishga o‘tkazilishi ancha qiyin kechdi. Davlat tomonidan teatrlarga moddiy ko‘mak berildi va bu davom etmoqda. Garchi shunday bo‘lsada, teatrlar yirik badiiy yuksak saviyadagi asarlarni sahnalashtirish bilan bir qatorda “kassabop” asarlarni sahnalashtirib, xarajatlarni bir daraja qoplashlariga to‘g‘ri kelmoqda. Shunday bir sharoitda teatrlar o‘z an‘analaridan voz kechmagan holda milliy qadriyatlarini tiklash, milliy o‘ziga xoslikni kuchaytirishga kirishdi. Repertuarda tarixiy mavzu va komediya yetakchi o‘ringa chiqib oldi. Bu ikki janrning birinchi planga chiqishiga asosiy

sabablardan biri, xalqimizning milliy o'zligi, qadriyatlarini, udum va urf-odatlarini yana o'ziga qaytarib berilganidan, deb o'ylaymiz. Zero, aynan mana shu ikki janr o'zbek xalqining qanday millat ekanligini, uning ma'naviyati, ruhiyatini his eta oladigan va o'z uslubiy visotalari bilan aks ettirishga imkoniyat bergan.

O'zbek milliy teatrlarining ildizlari ming yillarga borib taqaladi. Bu borada uzoq yillar izlanishlar olib borgan teatrhunon olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi Mamajon Rahmonov shunday yozadi: "O'zbek teatri Sharqning qadimiy teatrlaridan bo'lib, uning dastlabki kelib chiqish tomirlari ibtidoiy jamiyat ichiga kirib boradi. Bu hol uning eng ilk yaralish manbalarini O'rta Osiyo tuprog'idan va shu yerda yashagan qadimiy tabiatdagi qidirishga da'vat qiladi [3,385 b]. Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Zarao't Kamarsoyning ikki tomonidagi toshlarga ishlangan suratlar (paleolit davri) ibtidoiy jamiyat davrida teatr san'atining eng ilk elementlari tug'ilishini aniqlashga yordam bera oladi [2, 32 b].

Xalqimiz ma'naviy va madaniy hayotining ajralmas qismi bo'lgan qadimiy o'zbek milliy teatri o'zining boy an'alariga ega bo'lgan. Demak, O'zbekiston hududida qadimiy teatr faoliyati, Mamajon Rahmonovning e'tirof etishicha, yigirma ikki asr uzluksiz davom etgan "O'zbek xalqini juda ko'p teatr, teatr namoyondalari, ijodkorlari, kashfiyotlari, ularning tafakkur yulduzlari ezilgan xalqqa ruhiy rizq berib keldi. Goh ko'tarilish, goh pasayishga yuz tutgan o'zbek xalqining qadimiy boy teatri asrlar osha avlodlarga yetib keldi" [3,385 b]. Istiqloq bois mamlakatimiz tarixi, o'zbek xalqi va davlatligining kelib chiqishi, Islom va boshqa insonparvara dinlarga nisbatan qarashlarimiz o'zgardi, tasavvuf va uning namoyandalari faoliyatini ilmiy o'rganish, san'atlarimiz tarixini xolisona tadqiq etish boshlandi.

Sahna san'ati ijodkorlarining butun bir avlodi, ustozlarimiz umr bo'yi orzu qilgan, ammo yetisholmagan armon bilan o'tib ketgan ijod erkinligi istiqloq sharofati ila nasib etdi. Milliy istiqloq yillarida teatrlarimizning ijodiy imkoniyatlari kengaydi. Mustabid tuzum paytida qatag'on qilingan millat fidoyilarining sahnalashtirish man etilgan asarlari sahna yuzini ko'ra boshladi, ular to'g'risida ham spektakllar yaratildi.

"Keyingi yillarda mamlakatimizda teatr san'atini rivojlantirish, ijodkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual va mulkiy huquqlarini himoya qilish, madaniyat maskanlarini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta jihozlash, Navoiy, Namangan, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida musiqali drama va qo'g'irchoq teatrlari tashkil etish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda" [4].

Bugun aksariyat teatr maskanlarida, ayrim san'at dargohlarini hisobga olmaganda, rejissor va aktyorlarga ishlash va ijod qilish uchun yetarli shart-sharoit yaratib berilgan.

Teatrlarning chinakam san'at asarlari yaratishi o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, bu jamiyatda badiiy ijod uchun yaratilgan shart-sharoitlardan tashqari sahna ijodkorlarining ahil-inoqlikda mehnat qilishi, truppada asl iste'dodlarning jamlanishi, san'at dargohining zamonaviy moddiy-texnik imkoniyatlar bilan ta'minlanganligi singari ko'plab omillarga bog'liqdir. Qisqacha aytganda, badiiy jihatdan yaxlit, tomoshabin e'tiborini tortadigan, uning o'ziga xos dunyosini o'zgartirib yuboradigan spektakllar yaratish uchun teatrlarda badiiy-ijodiy muhit hukmron bo'lishi zarur.

Yangi O'zbek teatr tarixini davrlashtirishda siyosiy-mafkuraviy tamoyillardan kelib chiqib emas, balki san'atning ichki qonuniyatlariga tayangan holda ish ko'rish birdan-bir to'g'ri yo'l desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek teatrlarining XX asrdagi hayotini ham moziydan ajratib olib qarash noto'g'ri. Chunki bu davr ham, garchi Yevropa san'ati shakllariga nisbat berilgan, milliy o'ziga xoslik masalasiga hamma vaqt ham yetarli e'tibor qaratilgan bo'lmasa-da, o'sha katta tarixning davomidir. XX asrda o'zbek an'anaviy teatri G'arb shaklidagi yangi teatr san'ati bilan yonma-yon yashadi. Yangi teatr o'z shakllanish va rivojlanish jarayonida jahondagi ilg'or sahna madaniyati tajribasi, yutuqlariga tayanish bilan birga milliy qadriyatlar, qadimiy teatr an'alaridan foydalandi, biroq o'zi an'anaviy teatrga sezilarli ta'sir ko'rsata olmadi [5, 449 b].

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. PQ-4038 2018-yil 28-noyabr.
2. To'plam. "Istiqloq va milliy teatr". "Yangi asr avlodi". 2002-yil. –B. 32.
3. M.Rahmonov, O'zbek teatri tarixi, 385-bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. //Xalq so'zi.-Toshkent. 16.02.2017.;
5. M.Qodirov, S.Qodirova. O'zbek teatri tarixi. Darslik. "Niso poligraf" 2019-yil. – B.455.
6. "2018-2022-yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018-yildagi 9-son qarori. Lex.uz
7. "Madaniyat va san'atning jamiyatdagi o'rni va ta'siri nechog'li oshmoqda?" //Xalq so'zi gazetasi. – 2022-yil, 26-mart

Zamonaviy o'zbek teatr san'ati tarixini o'rganish, yoshlarning boy ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni o'zlashtirib, milliy teatr an'alarini izchil davom ettirishi muhim vazifalaridan hisoblanadi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi. Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino, bundan ming yil oldin "Dovuyurak va botir insonlar kelajakda sodir bo'ladigan qiyinchiliklardan qo'rqmaydi", deb bejiz aytgan.

"2018–2022-yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018-yildagi 9-son qarori e'lon qilindi. Unda davlat teatrlarining faoliyatiga doir ko'pgina muhim vazifalar belgilab berildi. E'tiborli jihatlaridan biri shundaki 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tomonidan har bir davlat teatrida quyidagilarni nazarda tutuvchi sahna asarlari yaratish uchun davlat buyurtmasi beriladi:

– yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini tarannum etuvchi, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlar va an'analarni aks ettiruvchi spektakllar;

– aholi, oila munosabatlari, ayniqsa, yoshlarni vatanparvarlik, fidoyilik, insonparvarlik kabi g'oyalarni asosida tarbiyalovchi badiiy yuksak sahna asarlari;

– yurtimizning buyuk siymolari, xalqimizning boy tarixi, vatanimiz mustaqilligiga ulkan hissa qo'shgan namoyondalar hayoti va ijodi har tomonlama, chuqur aks ettirilgan sahna asarlari;

– davr bilan hamnafas yashayotgan, hayot sinovlarida toblangan fidoyi insonlar haqida hikoya qiluvchi hamda yoshlarning ma'naviy dunyosini mustahkamlaydigan, kelajakka ishonchini oshiradigan, ibrat bo'ladigan zamon qahramoni obrazini ifodalovchi spektakllar [6].

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

O'zbek teatr san'ati taraqqiyotida milliy madaniy merosga asoslangan manbalar muhim o'rin tutadi. Teatr san'atida milliy madaniy merosni o'rganish masalasi mintaqa teatrlari bilan ijodiy hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash vazifalarini ham oldinga suradi.

Joriy yilda Oliy majlis Senati Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi majlisi bo'lib o'tdi. Unda madaniyat va san'at sohasining jamiyatdagi o'rni va ta'sirini oshirish borasida olib borilgan ishlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining axboroti eshitildi. Vazirlik tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 826 ta madaniyat markazida 4,5 mingdan ziyod to'garaklar, 1 ming 700 ga yaqin xalq havaskorlik ansambllari tashkil qilinish, ularga 53 ming kishi qamrab olingan. Umumta'lim muassasalarida 13 mingga yaqin baxshichilik, maqom, Estrada, teatr, rassomlik to'garaklari hamda badiiy habaskorlik jamolari faoliyati yo'lga qo'yilib, ularga 150 mingdan ziyod kishilar jalb etilgan. Davlat teatrlari tomonidan ushbu davrda 427 ta yangi asar sahnalashtirilib, jami 22 ming 303 marta spektakl namoyish etilgan va ularni 4 million 115 mingga yaqin kishilar tomosha qilgan [7]. Eshituvda davlat teatrlarida marketing tizimi yo'lga qo'yilmagani ularning zamon talabi asosida faoliyat olib borishi va moddiy ta'minoti yaxshilanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ham aytib o'tildi.

OAVlarining IJTIMOY-MADANIY HAYOTNI RIVOJLANTIRISHGA QO‘SHAYOTGAN HISSASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy multimedia texnologiyalarning taraqqiy etishi, bloglarda axborot almashish va tarqatishda audiovizual imkoniyatlarni kengayganligi haqida so‘z yuritiladi. Bu esa texnologik imkoniyatlarning tasviriy vositalarga ko‘ra ixtisoslashuvi uchun zamin hozirlaydi. Demak, telefonda yoki SMS xatda ko‘proq ikki taraflama muloqot aks etsa, bloglar interaktiv jurnalistikaning turli toifalar bilan aralash holdagi muloqotini ifodalaydi.

Kalit so‘zlar: jurnalist, blog, multimedia, axborot, muloqot, maqola, interaktiv.

Нафиса РАИМКУЛОВА,

Независимый исследователь Национального института искусства и дизайна имени Камолитдина Бехзода

ВКЛАД СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В РАЗВИТИЕ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. В данной статье речь пойдет о развитии современных мультимедийных технологий, расширении аудиовизуальных возможностей в обмене и распространении информации в блогах. Это обеспечивает основу для специализации технологических возможностей в соответствии с изобразительными средствами. Таким образом, в то время как телефонное или SMS-письмо отражает более двухсторонний диалог, блоги представляют собой диалог интерактивной журналистики в смешанном виде с различными категориями.

Ключевые слова: журналист, Блог, мультимедиа, информация, общение, статья, интерактив.

Nafisa RAIMKULOVA,

Independent researcher at the National Institute of Art and Design named after Kamoliddin Behzod

THE CONTRIBUTION OF MASS MEDIA TO THE DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL LIFE

Abstract. This article will focus on the development of modern multimedia technologies, the expansion of audiovisual opportunities in the exchange and dissemination of information in blogs. This provides the basis for the specialization of technological capabilities in accordance with the visual means. Thus, while a phone or SMS message reflects a more two-way dialogue, blogs are a dialogue of interactive journalism in a mixed form with various categories.

Keywords: journalist, Blog, multimedia, information, communication, article, interactive.

XXI asrga kelib, OAVning qudrati, bizning tuyg‘ularimizga, tafakkurimizga, qadriyatlarimiz tizimiga, xatti-harakat va fe‘l-atvorimizga ta‘sir etishi yanada ortdi. Tadqiqotchilar ushbu ta‘sir – shaxs rivojida va dunyoqarashida ijobiy yoki salbiy iz qoldirishini isbotlashdi. Demak, biz ko‘rayotgan, eshitayotgan, o‘qiyotgan va shaxsiy tajribamizga qabul qilayotgan ma‘lumotlarni tanqidiy jihatdan tahlil qilish ilmiy masala hisoblanadi. Shunday ekan, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarni o‘z o‘rnida tahlil qilib, ommaga xalqchil qilib yetkazilsa, olib borilayotgan siyosat natijador bo‘ladi.

Insoniyat – axborotlashgan jamiyat, deya e‘tirof etilgan yangi davrga o‘tishi bilan dunyoda globallashuv jarayoni tabora chuqurlashib, axborot sohasiga talab nihoyatda ortib bormoqda. Bu talabni qondirish borasida faoliyat yuritayotgan axborot tarqatish vositalari orasida internet barcha foydalanuvchilar uchun masofaviy qulayligi, arzonligi, har qanday yangilikni ommaga yetkazishda tezkorligi bilan yetakchilik qilmoqda. O‘z navbatida, mamlakatimizda internet-nashrlarga yaratilgan shart-sharoit va huquqiy me‘yorlar OAV rivojiga dasturilamal bo‘lmoqda.

Yurtimizda 2010-yildan boshlab, internet-jurnalistikasiga dastlabki qadamlar qo‘yilgan edi. Keyingi ikki yilda milliy internet – jurnalistikamiz OAV sifatida xabar yetkazish maydonida mustahkam o‘rin egalladi. Aholi ham axborotga bo‘lgan talabini asosan mazkur tarmoqdan qanoatlantirmoqda. Faqat axborot tarqatishga ixtisoslashgan saytlarimizni bir kunda ikki million kishi kuzatayotgani fikrimizni tasdiqlaydi.

Internet jurnalistikasi yutuqlaridan samarali foydalanib, internet tarmog‘ida milliy segmentni faol rivojlantirib, hududlardagi so‘nggi axborotlar bilan to‘ldirishning yangi

yo‘nalishlarini takomillashtirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, OAV shaklida ro‘yxatdan o‘tgan veb-saytlarni malakali kadrlar bilan ta‘minlash bo‘yicha O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida alohida fakultet tashkil etildi. Tahsil olayotgan talabalar yaqin kelajakda mamlakatimiz internet jurnalistikasining rivojlanishiga va xalqaro mediamakonda O‘zbekiston imijini shakllantirishga xizmat qiladi.

Axborot asrining asoratlari, avvalo, eng muqaddas narsalarimizga – madaniyat, ma‘naviyat, qadriyatlarimizga daxl qilinishida ko‘zga tashlanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazilgan so‘rovlar natijasiga qaraganda, mamlakatimiz aholisining 63 foizi dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarga oid asosiy ma‘lumotlarni Rossiya OAVdan olar ekan fuqarolarimizning, 12 foizi mahalliy OAV, qolgan 25 foizi esa boshqa xorijiy manbalardan foydalanadi. Ehtimol, bu unchalik haqiqatga to‘g‘ri kelmas. Mabodo ahvol shunday bo‘lsa, bizga qarshi qaratilgan axborot-psixologik hurujlarga qarshi qanday qilib kurashish mumkin?

O‘tkazilgan so‘rovnomalarda – respondentlarning 45 foizi harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi maqolalarni o‘qib borishini aytishgan. Ko‘rinib turibdiki, 100 foizlik marraning 50 foizi ham zabt etilmagan. Xo‘sh, nega harbiy mavzudagi materiallarga qiziqish yuqori emas? Bunga sabab harbiylashgan idoralar faoliyati yopiq xarakterga ega bo‘lgani, axborot olish yoki to‘laqonli olish imkoniyati yo‘qligidadir.

Ma‘lumki aholining siyosiy faolligi, huquqiy madaniyatini va savodxonligini yuksaltirish, davlat organlari, xususan, sudlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishda OAV muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda so‘z va matbuot erkinligi,

jurnalistlarning axborotni moneliksiz izlash, olish, tarqatish huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va tegishli qonunlar bilan kafolatlangan. Inson huquq va manfaatlarining himoyachisi bo'lgan sud mustaqilligini mustahkamlash yo'lida islohotlar samadorligini oshirishga va bu haqda keng jamoatchilikni xabardor etishga ko'maklashuvchi qator bosma va elektron OAV mavjuddir.

Huquqiy yo'nalishga ixtisoslashgan jurnalistlar qatlami shakllandi. Bu o'z navbatida, aholini sifatli huquqiy axborot bilan ta'minlash imkoniyatini bermogda. Binobarin, sud-huquq sohasini yoritish qonun-qoidalarini puxta bilmasdan turib, ba'zan pala-partish axborot tarqatish holatlari ham uchrayotganini aytilish joiz. Bunday holatlar sud tizimida shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashdagi mavjud muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Demak, bugungi jurnalistlarning huquqiy savodxonligi yuqori bo'lishi uchun maxsus kurslar zarurligini ko'rsatdi.

2018-yil 28-noyabrda Qurolli Kuchlar akademiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi yig'ilishida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mutasaddilarga O'zbekistonda harbiy jurnalistlarni tayyorlash bo'yicha ko'rsatma berilgan edi. Natijada, 2019-yildan e'tiboran O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida Harbiy jurnalistika yo'nalishi ochildi. Bu esa OAVning yana bir bo'g'inini to'ldirdi.

Harbiy jurnalistika tarixiga nazar solsak, bu soha qadim-qadimda bo'lganligini olimlar o'rgangan. Sarkardalar yonida jangda yurgan xattotlar barcha ko'rgan-kechirganlarini qog'ozga tushirib borgan. Ayniqsa, Amir Temur davrida maxsus tayyorlangan kishilar-qo'shinda jang borishini, qomondonlarning taktika va strategiyasini, qahramonlik ko'rsatgan bahodirlarni, umuman, barcha muhim tafsilotlarni yozib borishgan. Bu esa harbiy jurnalistikaning ilk ko'rinishidir.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligida ijtimoiy tarmoqlar (ing. social media) jahon media makonida faoliyat yuritib kelayotgan an'anaviy OAV bilan shu qadar aralashib, ba'zi holatlarda esa umuman qo'shilib ketdiki, buning natijasida ularni bir-biridan ajratib ko'rsatish yoki ularni bir-birlariga qarshi qo'yish mantiqsizdek tuyulmogda. Hozirgi davrda raqamli televideniye yuksak darajada rivoj topdi va insoniyat hayotidan mustahkam o'rin egalladi. Shaxsning dunyoqarashi, ma'naviyati, qolaversa, tafakkurining takomillashishida televideniyeining ta'siri juda katta ekani barchamizga ayon haqiqat bo'lib qoldi. Zero, qadim zamonlarda odamlar "oynai jahon" shaklida orzu qilgan va XX asrda real voqelikka aylangan televideniye bugungi kunda odamlarga axborot berish, ma'naviyat va ma'rifat tarqatish, shuningdek, ma'lum ma'noda vaqtini mazmunli o'tkazadigan asosiy vositaga aylandi. Shu ma'noda, televideniyeining ixtiro etilishini insoniyat tafakkuri va fan-texnika taraqqiyoti erishgan eng muhim yutuqlardan biri sifatida e'tirof etildi.

Televideniye ixtiro etilishi bilan matbuot tasnifida juda katta sifat o'zgarishi, haqiqiy inqilob yuz berdi. Kishilar hayotda sodir bo'layotgan voqealarini bevosita ko'ra olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Televideniye nafaqat inson ongiga, balki uning his-tuyg'usiga ham faol ta'sir ko'rsatadigan matbuot turiga aylandi. Balki, kundalik yangiliklardan tortib, turli mazmun va mundarijadagi qiziqarli ko'rsatuv, kino, teatr, konsert dasturlarini televideniye orqali tomosha qilar ekanmiz, sayyoramizda yashayotgan aholining turmush tarzi, madaniyati, dunyoqarashi ana shu axborot vositasi orqali shakllanayotganiga amin bo'lamiz.

Bugungi globallashuv jarayonida davlat idoralarning OAV uchun ochiqligi, axborotning erkin va tezkor tarqalishi davlat idoralari matbuot xizmatlari oldiga ham qator yangi vazifalar qo'yimogda. Bugun globallashuv barcha sohani, ayniqsa, OAV xodimlari mas'uliyatini yanada oshirishga undamogda. Sababi katta axborot oqimi chalg'itishga olib kelmogda. Bu jarayonda professional jurnalistlarning mahorati asosiy talabga

aylanmogda. Katta informasion – "Blogger" tushunchasi kirib keldi. "Blogger" kim?

"Blog" atamasi inglizcha so'z bo'lib, "web log" – voqea-hodisaning internetdagi kundalik jurnali ma'nosini beradi [3.B.94]. Uning har bir varag'i qaydlar, matn, tasvir, multimedia bilan to'ldiriladi. Albatta, internetdagi atamalar bloggerlarning ish yuritish tizimini anglatadi. XXI asr boshida "bloggerlik" eng arzon va qulay axborot manbai sifatida baholangan. Keyinchalik bu oqimning kuchayishi interaktiv jarayonda kuzatiladigan gorizontaxborot vositalarning samadorligini oshishiga sabab bo'ldi. Demak, "Blog" – ma'lum makonda ro'yxatdan o'tmagan, muallifi, muharriri, noshiri bir kishi bo'lgan internetdagi ko'rinishidir.

Istaymizmi-yo'qmi, "blogger" jurnalistlar bilan raqobatlasha olishi, axborot asrida ko'proq auditoriyaga ega bo'lishi bilan diqqatga sazovor. Mualliflik tarkibi bo'yicha bloglar shaxsiy, guruhiy, jamoaviy bo'lishi mumkin. Mazmuniga qarab biror mavzuga yo'naltirilgan yoki ijtimoiy bo'ladi. Bundan tashqari, "Shaxsiy blog", "Anonim blog", "Jamoaviy blog"lar qatorida "korporativ blog", ya'ni tashkilot xodimlari tomonidan tuzilgan yoki "Reklama blogi" – piar blog bo'lib, biror kompaniya, jismoniy shaxs, yoki jamoalar manfaatiga xizmat qiluvchi reklamaga yo'naltirilgan, turli ma'lumotlar yetkazuvchi saytlar ham mavjud.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bloggerlar ikki asr avval varaqlar yozib tarqatuvchi mualliflarga o'xshaydi, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari quyidagicha:

– *tezkorlik, subektiv fikr bildirish usuli. Ikki asr avval ham biron kishining shaxsiy mulohazalari yozilgan varaqlar, pamfletlar ko'cha-ko'yda tarqatilgan. Bloglar esa internet tarmog'idan foydalanadi;*

– *o'sha paytdagidek hozirda ham anonimlik dolzarb hisoblanadi. Ammo ma'lum hurmatga erishgan bloggerlar haqiqiy ismlarini yashirmay, ochiq faoliyat yuritadilar.*

Aytishlaricha, olamga tanqidiy ko'z bilan qarash, kesatq gaplar yozish bloggerlarga xos xususiyat. Shu o'rinda, internet jurnalistikaga xos belgi – ma'lumotlarning haqqoniyligiga ishonchsizlik tushunchadir. Shuning uchun – siyosiy bloglarni mashhur siyosatchilar olib borishadi. Bundan tashqari, internetdagi "kundalik hayot", "sayohatlar", "ta'lim", "moda", "musiq" hamda "axborot tahlil" bloglar turlari ham faoliyat yuritadi.

Zamonaviy multimedia texnologiyalarning taraqqiy etishi bloglarda axborot almashish va tarqatishda audiovizual imkoniyatlarni kengaytirdi. Bu texnologik imkoniyatlarning tasviriy vositalarga ko'ra ixtisoslashuvi uchun zamin hozirlaydi.

Odatda telefonda yoki SMS xatda ko'proq ikki tarafala muloqot aks etsa, bloglar interaktiv jurnalistikaning turli toifalar bilan aralash holdagi muloqotini ifodalaydi. Umuman olganda, bloggerlik harakati – internet tarmog'ida ommaviy kommunikatsiyaning aks etishi bilan an'anaviy jurnalistikaga aloqasi yo'q, desak ham bo'ladi.

O'zini blogger deb biladigan odamning shaxsiy pozitsiyasi, yo'nalishi, tematikasi bo'lishi va muntazam ishonchli manbalar asosida post yozishi kerak. Ma'lum bir auditoriya, blogpostlar bazasiga ega bo'lib, yetarlicha tajriba to'plaganidan so'ng, uni professional darajada ko'rish, "homiylik qilib, qo'llab-quvvatlash" mumkin. Odamlarni yig'ib, post yoza boshladimi, kuzatuvchilariga faqat ishonchli manbalardan, isboti bilan ma'lumot keltirishi, xolis bo'lishi lozim. Blogger kimlardir g'arazli manfaatiga xizmat qilmasligi kerak. Asosiysi, u shunchaki, bor bo'lmasin, balki fikri mavjudligi bilan insonlarga foyda keltirsin.

Jurnalist Yulduz Ortiqovanning "Maydon keng, tanlashga shoshmaganlar – yutadi" sarlavhasi ostida berilgan maqolasida: "Ijodkor shaxsning nuqtai nazari, hech qanday cheklovlarsiz virtual harakati "internet jurnalistikasi" iborasini fanga olib

kirdi”, – deb yozadi. Bugun ijtimoiy tarmoqlarda minglab bloggerlar “javlon” urib ishlamoqda. O‘zbekistonda ham bloggerlarimiz orasida masalaga jiddiy yondashib, tahlil qilib, faqat rasmiy tasdiqlangan ma’lumotni bo‘lishadigan, o‘z fikriga ega 5–10 nafarni tashkil qiladi. Boshqalarning xalqni chalg‘itishga, ishonchsiz, yolg‘on xabar tarqatishga haqqi yo‘q. “Zero, har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega bo‘lib, faqatgina amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir”[1].

Mualliflik blogi – bu elektron mini-gazeta demakdir. Yirik nashrlardan farqi – unda tahririyat, xodimlar jamoasi yo‘q. Blogerning o‘zi ham muallif, ham musahhih, ham tuzatuvchi, ham muharrir bo‘ladi. Demak, blogger grammatika, uslubshunoslik, HTML, dizayn kabi sohalaridan xabardor, qolaversa, yuqori kompyuter savodxonligiga ham ega bo‘lishi lozim.

Ma’lumot o‘rnida shuni aytish joizki, AQSH, Yevropa hamda Osiyoning ba’zi mamlakatlarida blog yuritib, keyinchalik yirik kompaniyaga aylanib ketgan tajribalar bizda ham ish berishi mumkin. Oddiy misol, The Huffington Post, “Mashable”, “Tech Crunch” kabi internet-nashrlar ham ilk bor oddiygina blog sifatida ish boshlagan. Bugun esa ular bir necha million dollarlik yirik kompaniyalar qatorida sanaladi.

Bunday faoliyatni olib borish uchun bizda qilinishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina. Bu faoliyat uchun ham huquqiy bilim, ijodkorlik, kreativ fikr, ayniqsa, kompyuter savodxonligi kerak bo‘ladi. “Biz internet va boshqa zamonaviy axborot manbalarining o‘rni va ahamiyatini inkor etolmaymiz. Bugungi hayotimizni internetsiz tasavvur qilishning o‘zi qiyin. Shuni hisobga olgan holda, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi internet tizimi orqali ma’naviy targ‘ibot ishlarini, jumladan, elektron kitobxonlikni kuchaytirish zarur. Nega deganda, biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o‘tgan, yuksak ma’naviyat xazinasi bo‘lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz” [2.B. 525–526].

Bugun juda ko‘pchilikning ijtimoiy tarmoqlarda, xususan, feysbuk tarmog‘ida ham o‘z sahifasi bor. Ushbu virtual olamda bir necha minglab a’zolari bor. Ular kundalik hayot tarzini, o‘zini qiynayotgan muammolarni, sayohatlari haqida materiallar, foto va video roliklarni o‘z sahifalari orqali do‘stlariga taqdim etib bormoqda. Buning yaxshi tomoni kompyuter qarshisida o‘tirib, uydan chiqmasdan dunyoning tamoman boshqa bir chekkasidagi odamlar bilan muloqotga kirisha olishimiz, fikr almashishimiz, do‘stlashishdir. O‘zini qiynayotgan muammolarni soatlab muhokama qilib, boshqalarning munosabatini o‘rganish. Yomon tomoni – ba’zi bir tarmoq ishtirokchilari mutlaq shaxsiy ishlarini ham “Facebook” orqali ovoza qiladilar, tarmoqda ko‘proq material e’lon qilish bilan ball yig‘moqchi bo‘ladilar.

Ma’lumot o‘rnida, Mark Sukerberg eng ommabop feysbuk tarmog‘i asoschisi va juda ko‘plab yo‘nalishlarda dunyoga dong taratgan kompyuter dasturchisi sifatida tilga olinadi. Yer sharidagi eng yosh milliarder bo‘lgan Mark, AQSH sharoitida uchun ko‘p bolali oilada voyaga yetgan. U 10 yasharligidayoq kompyuter dasturchiligiga qiziq boshlaydi. Yosh ixtirochi 12 yoshida oila a’zolari muloqot qilishi mumkin bo‘lgan – Zuchnet dasturini yaratadi.

Sukerberg boshlang‘ich sinfni bitirish arafasidagi diplom ishi sifatida internet tarmog‘idan foydalanuvchilarning musiqiy didini aniqlab beradigan dastur yaratadi. Uni keyinchalik “Microsoft” kompaniyasi 2 million AQSH dollariga xarid qilmoqchi bo‘lgan. Yosh o‘smir bu ishlarining birortasi uchun mukofotlashlarini istamagan va o‘z ixtirosini sotmagan. Ularga “ilhom sotilmaydi”, deya javob qaytargan. Bugun farzandlarimizga ana shunday kabi ixtirochilarning faoliyatini o‘qib, o‘rganib yangi g‘oyalalar, ixtirolaridan zavqlanishni o‘rgatishimiz lozim. Qimmatli vaqtimizni farzandalarimizga ilhom beradigan yangi g‘oyalarga yo‘naltirishimiz zarur.

Ma’lumotlarga qaraganda, bir necha yillar ilgari Jazoirida faqat internetga, ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketgan, Afrika qit‘asidagi “internet-fanatizmi” kasaliga chalinganlarni davolaydigan nooddiy klinika o‘z ish faoliyatini boshlagan ekan. Shaxsiy akkauntiga kirmasdan, yangiliklar lentasini doimiy ko‘rib chiqmasdan, virtual do‘stlarning fotosuratlarini va “postlar”ini ko‘zdan kechirmasdan tura olmaydigan darajaga kelishi kasallikning asosiy belgisi sifatida e’tirof etilgandi. Bir qarashda xavfsiz tuyulgan – ijtimoiy tarmoqlar ruhiy zo‘riqish, asab kasalliklarini keltirib chiqaradigan manba ekan. Bularning barchasi, hech shubhasiz, bolani tanazzulga olib keladi. Biron narsaga qaramlik esa yoshlarni tashqi dunyodan mutlaqo uzib qo‘yadi.

Internet tarmoqlaridan o‘rinli foydalanish, ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni ham yuksak saviya bilan farqlash uchun har bir insonda, avvalo, saviya, tafakkurni shakllantirish zarur. Yo‘qsa, inson go‘yoki o‘zini jarlikka, tanazzulga yetaklaydi. Shuning uchun Prezidentimiz ma’ruzalarida ko‘p bor “Mafkurada bo‘shliq degan narsani o‘zi bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta’sirlanishdan to‘xtamaydi. Demak, unga doimo ma’naviy ozuqa kerak. Agar anashu ozuqani o‘zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo‘ladi, aytinglar? Bunday ozuqani u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo‘l bermasligimiz kerak. Mana, gap nimada ketyapti! Buning uchun o‘zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma’naviyati, g‘oyaviy-ma’naviy tarbiyasi uchun mas’ul deb bilgan insonlar – bu maxalla yoki diniy tashkilotlar bo‘ladimi, huquq-targ‘ibot idoralari xodimlari yoki katta ta’sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo‘ladimi – ularning barchasi ayniqsa, faol bo‘lishlari lozim. Afsuski, biz bu masalada uxlab o‘tiribmiz. Gapning ochig‘i shu - uxlab o‘tiribmiz”. [2. B. 479-480.]

Xulosa qilib, ijtimoiy-madaniy hayotni yoritishda OAVning ya’ni matbuotni, radio va telejurnalistikani va ijtimoiy tarmoqlarni o‘ziga xosligiligini o‘rganibgina qolmay, balki gazeta va jurnallardan, televideniya uzalgan ko‘rsatuvlar va ijtimoiy tarmoqlarda muhokama qilingan materiallar asosida fikrlarimizni bildirdik. Ijtimoiy-madaniy hayotni yoritishda OAV har birimizni hayotimizning bir bo‘lagi ekanligini analitik tanqidiy tahlil qildik. Uning ijtimoiy-madaniy hayotni rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasini, bugun globallashuv sharoitida ko‘rsatayotgan ancha sezilarli natijalarini bayon etishga harakat qildik. Bir so‘z bilan aytganda, matbuot, radio va televideniye jurnalistlari ijtimoiy-madaniy hayotning keng targ‘ibotchisi sifatida sifatli mahsulotlarni taqdim etishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 29-modda.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B 525-526.
3. Mamatova Y., Sulaymanova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida.//O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Extremum-press, 2015. – B. 94.



V I BO' LIM

KO'NGIL SO'ZLARI

ISTE’DOD QIRRALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, aktyor, rejissor, pedagog Omon Abdurazzoqovning ko‘p yillik izlanishlari haqida so‘z boradi. Institut va viloyat teatrlarida sahnalashtirgan, yosh aktyorlar uchun tajriba maktabi hisoblangan, badiiy jihatdan mustahkam spektakllar tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: teatr, dramaturgiya, aktyor, rejissor, spektakl, kompozitsiya, janr, drama, komediya, mavzu, badiiy g‘oya.

Фахриддин АБДУВАХИДОВ,

и.о. заведующего кафедрой «Искусствоведение и культурология» ГИИКУЗ,
доктор философии в области искусствоведения (PhD)

ГРАНИ ТАЛАНТА

Аннотация. В статье рассказывается о многолетних исследованиях заслуженного деятеля культуры, актера, режиссера, педагога Республики Узбекистан Омона Абдуразакова. Анализируются мощные с художественной точки зрения спектакли, поставленные в институтских и областных театрах, и считающиеся экспериментальной школой для молодых актеров.

Ключевые слова: театр, драматургия, актер, режиссер, спектакль, композиция, жанр, драма, комедия, тема, художественная идея.

Fakhriddin ABDUVAKHIDOV,

acting head of the chair of Art History and Cultural Studies UZSIAC, Doctor of Philosophy in Art History (PhD)

FACETS OF TALENT

Abstract. The article tells about the long-term research of the honored worker of culture, actor, director, teacher of the Republic of Uzbekistan Omon Abdurazzakov. The performances, powerful from an artistic point of view, staged in institute and regional theaters, and considered an experimental school for young actors, are analyzed.

Key words: theatre, dramaturgy, actor, director, play, composition, genre, drama, comedy, theme, artistic idea.

“Jahondagi eng ommaviy va ta’sirchan san’at turlaridan biri bo‘lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida oliyjanob fazilatlar, go‘zal his-tuyg‘ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda”¹. Mashaqqatli ammo sharafli vazifalarni bajarishda juda ko‘p ijodkorlar shakllanib, aktyor, rejissor, soha pedagogi sifatida tarbiya topib, o‘z umrini teatr san’atining rivojiga bag‘ishladi. Tajribali ijodkor, mohir pedagog, aktyor va rejissyor Omon Abdurazzoqov (1936–2002) ham butun umrini o‘zbek teatri rivojiga baxshida qilgan fidoiy insonlardan edi. Qolaversa, o‘zbek teatrlarining bugungi kundagi erishgan ijodiy yutuqlarini Omon Abdurazzoqovning mehnatlarisiz to‘liq tasavvur etib bo‘lmaydi.

Omon Abdurazzoqov sahna san’atidagi shuhratiga osonlikcha erishmadi, u o‘z natijalariga, teatrga bo‘lgan cheksiz muhabbati, iqtidori, uzoq va tinimsiz mehnati, izlanishlari tufayli erishganlardan. Uning ijodiy izlanishlari, ilmiy ishlari hayotiyiligi, jozibas va yaxlitligi bilan o‘ziga tortadi. Omon Abdurazzoqov eski Toshkentning Shayxontohur dahasi markaziga yaqin hududda, 1936-yilda tug‘ilgandi. Shu bois, u mamlakatning mashhur teatrlariga yoshligidanoq borish imkoniyatiga ega bo‘lgan. U O‘zbek Milliy akademik drama, Respublika musiqali drama va komediya, Respublika yosh tomoshabinlar teatrlarining juda ko‘p ulug‘ asarlarini, mashhur ijrochilari ishtirokida ko‘radi va o‘z qalbidan o‘tkazgan, ularga o‘xshashni, ular kabi sahnada javlon urishni orzu qiladi.

Omon Abdurazzoqov 1956-yili Toshkent teatr va rassomlik san’ati institutining aktyorlik bo‘limiga, N.I.Timofeyeva kursiga o‘qishga qabul qilinadi. Qobiliyati, sinchkovligi, nafaqat sahna amaliyoti, balki uning nazariyotini ham bilishga intilishlari tufayli institutning umidli talabalari qatoriga ko‘tardi. O.Abdurazzoqov institutning Iosif Radun, Nazira Aliyeva, Toshxo‘ja Xo‘jayev, Nabi Rahimov, Razzoq Hamroyev, Aleksandr Ginzburg, Mark Rubinshteyn, Yakov Feldman, Pyotr Drodov kabi sahna ustalarining pedagogik faoliyatlarini kuzatish, “sahnaviy mahorat”dan bahramand bo‘lish imkoniyatlariga ega bo‘ldi. Ustozlaridan kechinma san’atiga asoslangan ijro sirlarini o‘rgandi.

O‘zbekiston san’at arbobi Mansur Ravshanov shunday xotirlaydi: “Men o‘qishga kirgan yilning boshlarida Omon Abdurazzoqov tahsil olayotgan kursning iqtidorli talabalari Hindistonda o‘tkazilgan

festivalda qatnashib, ko‘tarinki kayfiyat va ulkan taassurotlar bilan qaytishdi. Hayotidan, tanlagan sohasidan baxtiyor talabalar orasida Omon Abdurazzoqov ham bor edi. Kechagidek yodimda, uning o‘zidan ham katta doirasi bo‘lar edi. Ular Hindistonga olib borgan tomoshaning zavqli jarayonlari uning ulkan doira ko‘tarib sahnaga chiqib kelishida, voqeaga mos xatti – harakatlarida namoyon bo‘lar edi. Ular erishgan yutuqlar bizning kursimiz talabalarida ham qiziqish uyg‘otdi. Ular bilan tinimsiz suhbatlashishga, ta’surotlarni qayta – qayta o‘rtoqlashishga harakat qilardik. Natijada, Omon Abdurazzoqov o‘qigan kurs bilan bizning kurs o‘rtasida juda yaqin munosabat vujudga keldi. Omon Abdurazzoqov tahsil olgan kursning aksariyat talabalari juda iste’dodli yoshlardan iborat. To‘la Qanoatov, Rixsixon Ibrohimova kabi bir qator yuksak mahoratli ijodkorlar birga o‘qishgan edi”².

Omon Abdurazzoqovdagi yorqin iste’dod, sahnabob faktura, baland, jarangdor va chiroyli ovoz imkoniyatlari Muqimiy nomidagi Respublika musiqali drama va komediya teatri truppasiga ishga kelishiga sabab bo‘ladi. O‘zbek san’atining yirik darg‘alari Lutfixonim Sarimsoqova, Mahmudjon G‘ofurov, Soyib Xo‘jayev, Abdurauf Boltayev, Razzoq Hamroyev, Ominaxonim Fayozova, Abdug‘ofir Abdurahmonov, Tursunoy Ja‘farova, Soat Tolipov, Anvar Yusupov, Hamza Umarov kabi san’atkorlarining ijro imkoniyatlaridan yaqindan xabardor bo‘ladi.

O‘qishni tamomlagandan keyin ko‘pchilik ustozlarning taklifiga ko‘ra u kishini institutda olib qolishdi. U keyinchalik ustozining mehrlarini oqlagan yirik pedagog va rejissorga aylandi. Shu bilan u institutda pedagog sifatida faoliyat yuritgan.

1962-yili Omon Abdurazzoqovni Moskvaga, mashhur Davlat teatr san’ati institutining uch yillik ijodiy aspiranturasiga o‘qishga jo‘natdilar. Shunday qilib, O.Abdurazzoqov o‘z hayotini to‘laligicha ijodiy-pedagogik faoliyatga bag‘ishladi.

Omon Abdurazzoqov Mansur Ravshanov, Arsen Ismoilov, Melis Abzalov, Tolib Karimov, Dilbar Hasanovalarning yaqin ijodiy maslakdosh do‘sti hisoblanar edi.

Mansur Ravshanov Moskvadagi o‘qishni tugatib, Surxondaryoga bosh rejissor bo‘lib kelganidan keyin yangi repertuar haqida o‘ylay boshladi. 1974-yili Omon Abdurazzoqov To‘la akaning tavsiyalari bilan o‘qishni tamomlayotgan, diplom spektakli ustida ishlayotgan iqtidorli talabalari bilan Surxondaryoga kelishdi. Surxondaryo teatrida ijodiy jihatdan yuksaltirishga, jamoaning ijro imkoniyatlarini mustahkamlashga harakat qildi. Mansur Ravshanov bilan do‘stona yaqinlik, jamoadagi sharoitni yaxshi bilganligi tufayli u Surxondaryo teatrida rejissor yo‘q vaqtlarida (Mansur Ravshanov

¹ Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston teatr san’ati xodimlariga yo‘llagan tabrigidan. – 2021, mart // “O‘zbekiston ovozi”.

² F.M.Abduvohidov. Surxondaryo teatri: kecha va bugun. – T.: “Voriz”, 2017. – B. 319.

Moskvada o'qib yurgan paytlarda) ham Termizga tez-tez kelib, mavzu va janr jihatidan badiiy barkamol asarlarni sahnalashtirib turdi. Omon Abdurazzoqov sahnalashtirgan Hamzaning "Xolisxon", M.Karimovning "O'n sakkiz yoshligim", Said Ahmadning "Ufq", E.Vohidovning "Urush arafasida" kabi spektakllar teatr repertuaridan viloyat tomoshabinlarining sevimli spektakllari sifatida o'rin olib keldi. Nafaqat Omon Abdurazzoqov, balki o'zi bilan birga olib kelgan (Quadrat Burxonov, Tojmurud Ergashev, Muhammadjon Abduqunduzov, Nasiba Saidova, Dilbar Saidova, abduqodir Toshxo'jayev kabi) shogirdlari ham Surxondaryo teatrining shakllanishida ulkan hissa qo'shishgan.

Shuningdek, Surxondaryo teatri qoshida "Yoshlar seksiyasi" tuzilishida ham O.Abdurazzoqovning xizmatlari katta bo'ldi. Yoshlar seksiyasi aktyorlar o'rtasida mustaqil ijodiy ishlarni uyushtirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi. Kechki spektakl tugab, hashamatli zalning charog'on manzarasining so'nishi, teatrdagi ijodiy ishning tugashini anglatmas edi. Ish ikkinchi qavatdagi ustaxonalarga ko'chadi. Psixologiya – jismoniy tarbiya, nutq ustida ishlash, yangi pyesalarni o'qish, navbatdan tashqari spektakllar ustida ishlash, bularning barchasi grafikdagi ishlar tugagach boshlanadi. Seksiya yoshlari o'zlarining oldiga rejadan tashqari har yili bittadan spektakl sahnalashtirishni maqsad qilib qo'yadi va buni amalga oshirish uchun muntazam mashq jarayonlarini olib borishgan. O.Abdurazzoqovning o'zi ham shogirdlari bilan birgalikda M.Karimovning "O'n sakkiz yoshligim", institutda yaratilgan diplom spektakllari asosida tug'ilgan O.Bodikovning "Qoraqum fojiasi" (O.Umarbekov tarjimasini), S.Ahmadning "Ufq" (O.Abdurazzoqov inssenirovkasi) asarlarini sahnalashtirdi. Bu spektakllar yosh aktyorlar iste'dodini namoyon etishda, tomoshabinlar didini charxlashda, ularni teatrga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

1975-yili O.Abdurazzoqov sahnalashtirilgan S.Ahmadning "Ufq" romani asosida sahnalashtirgan spektakli nafaqat fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 30 yilligiga munosib sovg'a, balki teatr tarkibiga qo'shilgan yosh san'atkorlar bilan keksa avlod vakillari o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni mustahkamlash yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi. Bu eng avvalo M.Abdqunduzov, S.Nurmatov, A.Raxmatov, T.Latipova, X.Boboxonova kabi san'atkorlarning o'zaro hamjihatlikda, bir-birini tushunib ish ko'rishida namoyon bo'ldi.

Omon Abdurazzoqov "Ufq" dramasida ona – vatan mustaqilligi uchun olib borilgan urushning dastlabki yillarini, front ortidagi aholining mehnat jasoratini ifoda etishga intiladi. Spektaklda "...xalqimizning butun ulug'vorligi – mehnatkashligi, vatanparvarligi, bag'ri kengligi, dovyurakligi, tinib – tinchimasligi, mehr – muhabbati, ertangi istiqbolga – ufqqa intilishi tomoshabin ko'z o'ngida butun salobati va nazokati bilan namoyon bo'ladi"³. Rejissor asar zamiriga singdirilgan ana shu g'oyani tomoshabinga yetkazish uchun katta kuch sarf qiladi.

Tajribali rejissor O.Abdurazzoqov har bir obrazga mos qiyofa tanlar ekan, Ikrom rolini institut sahnasida maromiga yetkazib ijro etgan M.Abdqunduzovga va qolgan obrazlarni teatringa yetakchi hamda yosh aktyorlariga topshiradi. Shu bilan birga har bir ijrochidan yozuvchi tomonidan berilgan hayajonli, hayotiy voqealarni to'laligicha tomoshabinga yetkazib berishni talab qiladi. Uning rejissorlik izlanishlari aktyorlardagi ijro mahoratini yanada o'sishiga, psixologik kechinmalarni o'ziga singdirish va yaratayotgan obrazi dardi bilan yashash, ruhiy kechinmalar hamda jismoniy harakatlar uyg'unligini ta'minlash, so'z san'atini saqlay olishga va umuman tomoshabin talabiga javob bera oladigan spektakl yaratish imkonini beradi.

"Omon Abdurazzoqovning postanovkachi rejissor sifatidagi dastxatiga keladigan bo'lsak, unda aktyor doimo birinchi planda bo'lgan, musiqa va shovqinlardan, sahnaning dekorativ yechimidan, aktyor plastikalaridan unumli foydalangan. Ijrolarda yorqin va kuyub bo'yoqlar, nimranglar bilan yaxshi uyg'un topgandi. Sahnaviy suvratlar yaqqolli, ichki kuch-qudrati, ko'p ma'noligi, ko'lami kishini o'ziga tortgan. Xullas, ishlari har jixatdan badastur va "toza" – sahna madaniyat baland edi"⁴.

³ K.Yo'ldoshev. Ufq. Komunist, Andijon viloyat gazetasi, 1976-yil, 22 – iyul son.

⁴ H.I.Ikromov. O'zbek teatri va kinosi ustalaridan biri. – T.: Teatr // 2017-yil.

⁵ T.Tursunov. Sahna va zamon. – T.: Yangi asr avlodi. H.I.Ikromov.

⁶ O'sha manba.

⁷ T.Tursunov. XX asr o'zbek teatr tarixi.(ikki tomlik) – T.: O'zDsi.

O.Abdurazzoqov sahna mahorati nazariyoti va amaliy ko'nikmalarini aktyorlar tomonidan o'zlashtirilishiga, dramaturgik asosning g'oyaviy-badiiy mohiyatini to'liq tushinilishiga, roling katta-kichikligidan qat'iy nazar, sahnaviy xatti-harakatlarining umum spektakl g'oyasiga to'liq xizmat qilishiga erishadigan ijodkorlardan bo'lgandi. Shu bois "uning ko'pchilik shogirdlari sahnaga nima uchun chiqayotgalligini, nima qilishi va qanday qilishini doimo aniq tushingan, vazifani mahorat bilan bajara oladigan darajada bo'lgan"⁵.

Omon Abdurazzoqov Surxondaryo teatrida tajribali ijodkorlar O'zbekiston xalq artistlari Xadicha Boboxonova, Gulnora Ravshanova Abduraxmon Raxmatov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Zohid Olimov, Hasan Muhiddinov, Tillaxon Latipova, Fayzulina, Fayzulina, Soyib Nurmatov, Abduraxmon Raxmatov, Abdurahmon Nomozov, Rahim Mamataliyev, Rahim Komiljonov, Muhiddin Majidov, Jamil Ashurov, Tojiddin Murodov, Inot G'ofurov, Maryam Mahmudova, Dilbar Yunusova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Mukarram Davlatova, artistlar Nizom Qobilov, Oliya Alimova, Ra'no To'rayeva, Usmon Berdiyev, Sayidjalol Muqimov, xonandalar Inoyat G'ofurov, Maynaxon Sarimsoqova, sozanda Bo'ri Boqiyev, Qayum Abdulkayev, Amrullo Narzullayev, dirijor Amin Karimov, direktor Toshtemir Qodirov bilan birga ishlab, Surxondaryo teatri rivoji yo'lida samarali mehnat qilgan. Bu ulug' insonlarning samarali mehnati Surxondaryo teatrining bugungi kunda erishgan va erishib kelayotgan yutuqlarining asosi deyish mumkin.

Omon Abdurazzoqov institutda drama va musiqali drama aktyorlarini tarbiyalash bilan bir qatorda, Surxondaryo, Samarqand viloyatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahridagi teatlarda ham yaxshi sahna asarlari yaratdi. Institut sahnasida ham, teatlarda ham shuhrat topgan "Vatan ishq" (Z.Fathullin va S.Boboyev), "Maysaraning ishi" (Hamza, S.Abdulla, M.Muhamedov, S.Yudakov) musiqali dramalari, "Skapening nayranglari" (J.Molyer), "Ufq" (S.Ahmad, inssenirovkachi O.Abdurazzoqov), "Xolisxon" (Hamza), "Benefis", "Umidli dunyo" (Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasi asosida, inssenirovkachilar O.Abdurazzoqov, Sh.Muhammadiyev F.Sobirovalar) kabi drama va komediyalar ko'plab aktyorlar uchun mahorat maktabi bo'ldi.

Omon Abdurazzoqov 2002-yili San'at institutida sahnalashtirgan "Umidli dunyo" spektakli bilan O'zbekiston respublikasi madaniyat ishlari vazirligi, "O'zbekteatr" IICHB va Teatr ijodkorlari uyushmasining "Yilning eng yaxshi rejissurasi" nominatsiyasida g'olib bo'ldi. Omon Abdurazzoqov shuningdek, tarjimalar va inssenirovkalar bilan muvaffaqiyatli shug'illangan, tele-radio va kinoda mahoratli ishtirok etdi. U o'zbek dublyaj san'atining mumtoz ustunlaridan edi. Masalan, "E.Rezanov va E.Braginskiylarning "Taqdir hazili, yohud qushdek yengil bo'ling" filmidagi, fantastik tasodif tufayli, Moskvadan Leningradga – birovning uyiga mast holda kelib uxlab qolgan, uyg'otishganda esa "o'z uyimdaman", deb da'vo qiluvchi, yosh xirurg – Jenya obrazini xalqqa yaqin bo'lishida o'zbek aktyorlari va ular qatori O.Abdurazzoqovning (bosh rol Jenya) film dublyajidagi san'atkorona mehnati muhim o'rin tutadi"⁶. Shuningdek, Omon Abdurazzoqov G.Vitsin, L.Bikov, S.Nikonenko, V.Menshov, A.Myagkov, R.Naxapetov, R.Sa'dullayev, L.Prigunov, A.Kanonov, S.Shakurov kabi ikki mingdan ziyod yirik san'atkorlar talqin etgan mashhur orazlarni o'zbek tilida jozibali jaranglashiga o'z hissasini qo'shdi. O.Abdurazzoqov tahliliy fikrlaydigan inson, yaxshi qalam sohibi ham edi. U ko'plab ilmiy-uslubiy asarlar yaratdi.

"U o'zbek teatri rivojiga, ijodiy-pedagogik faoliyati orqali munosib hissa qo'shdi"⁷. O.Abdurazzoqov tarbiyasini olgan O'zbekiston xalq artistlari Sherali Jo'rayev, O'rinboy Nuraliyev, Muhammadali Abduqunduzov, Xayrulla Sa'diyev, Mirzagul Sapayeva, Fazliddin Fayozov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Po'lat Nosirov, Baxtiyor Qosimov, Abduhalil Abduqodirov, Mamajon Nurmatov, Tojmurud Ergashev, Bahodir Mamatxonovlar, taniqli san'atkorlar Bahodir Nazarov, Po'lat Aytmuratov, Dilmurod Uzoqov, yosh iqtidor egalari, Sarvinoz Annaqulova, Ko'pjursin Ollanazarov, Marxabay Usenov kabi ko'plab shogirdlari o'zbek va qoraqalpoq xalqi san'atining faxriga aylanishgan.

Omon Abdurazzoqovning mehnatlari mustaqil O'zbekiston tomonidan munosib taqdirlandi. U "Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" (1995), "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" (1997) davlat faxriy unvonlari bilan mukofotlangan.

ОСНОВНЫЕ ПУТИ ОПТИМИЗАЦИИ СОВРЕМЕННОГО ЭСТРАДНОГО ИСКУССТВА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: Настоящая статья посвящена социально-историческому опыту развития и функционирования национальной эстрады.

Ключевые слова: искусство, актер, режиссёр, эстрада, жанр, форма, вид, творчество, опыт.

Mahmud RASHIDOV,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti

ZAMONAVIY O'ZBEK ESTRADA SAN'ATINI OPTIMALLASHTIRISHNING ASOSIY USULLARI

Аннотация: Ushbu maqola o'zbek milliy estradasining rivojlanishi va faoliyatining ijtimoiy-tarixiy tajribasiga bag'ishlangan.

Калит so'zlar: san'at, aktyor, rejissor, estrada, janr, shakl, tur, ijodkorlik, tajriba.

Mahmud RASHIDOV,

Associate professor of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

THE MAIN WAYS TO OPTIMIZE THE MODERN VARIETY ART OF UZBEKISTAN

Abstract: this article is devoted to the socio-historical experience of the development and functioning of the national stage.

Keywords: art, actor, director, stage, genre, form, type, creativity, experience.

В зарождении эстрадного искусства в Узбекистане сыграли роль народные гуляния, ритуальные действия, в том числе обряд почитания духов предков с элементами театрализации, согласно которому близкий по родству с покойным человек (сын или брат) надевал на себя маску и копировал манеры и речь своего предка, подчеркивая, что не прервана с ним связь, что он живет с ними, в них и вокруг них.

Иногда маску держали в руках, вступая в своеобразный диалог, разговаривая с ней, отвечая за нее. Эта форма сосуществования живого и мнимого лица со временем нашла место в узбекском традиционном театре «масхара» и, возможно, легла в основу будущих эстрадных форм.

Отметим, однако, что эти традиционные представления, где значительное место занимала песня и инструментальный наигрыш, в определенной степени отличаются от современных эстрадно-сценических форм. Для внесения ясности в этот вопрос следует отметить, что между ранними формами праздничной художественной культуры и внешне похожими на них формами эстрадного искусства имеется принципиальное отличие. Как известно, праздничные художественные формы, возникнув на ранних этапах развития человеческой цивилизации, на всем протяжении истории общества занимают особое место в культуре. Отражая ведущие нравственные и идеологические устои каждого исторического периода, они всегда выступают как события религиозного или государственного значения. Эстрадное же искусство возникает в период коренных изменений общественного сознания, в частности, на основе массового распространения светского мировоззрения. Одним из характерных признаков последней является эстетический критерий развлекательности, легкости содержания и простоты форм.

Примеры тому у истоков узбекской эстрады – творчество легендарной Тамары Ханум. Продолжая танцевальные, вокальные, актерские традиции, она уже в начале 20-х годов прошлого столетия создает на сцене с помощью Юсуфа-кызыка Шакарджанова и Усто Алима Камилова синтетический, театрализованный жанр танца с пением: небольшие по форме, исполненные лирики и темперамента танцевально-вокальные сценки, повествующие о радостях любви, свободной и счастливой жизни. Совместно с Мухиддином Кари-Якубовым Тамара Ханум выносит на сцену шуточные песни-диалоги – лапары, усилив в них не только танцевально-пла-

стические, но и актерско-драматические элементы. Тогда заговорили о возрождении жанра театра-песни-танца, занимавшего место в репертуаре масхарабозов и кызыкчи, но обретшего самостоятельную жизнь на эстраде с участием впервые женщины.

Блистательные образцы синтеза театра и эстрады на узбекской сцене – актеры Ходжи Сидык Исламов, Юсуф-кызык Шакарджанов, Миршоҳид Мирокилов, Соиб Ходжаев, Эргаш Каримов, Хасан Юлдашев, Бахтиёр Ихтияров, Хусан Шарипов и др. успешно претворяли, благодаря универсальности своего дарования, способность посредством минимума средств (одним жестом, позой, мимическим выражением, походкой или интонацией) к мгновенному перевоплощению.

Достаточно сказать об образе грозного Хосрова в спектакле «Фархад и Ширин» Хуршида, поставленном в 1927 году Уйгуром, в исполнении Ходжи Сидыка Исламова. Мастер импровизации, заостренного комизма и гиперболизации, он достигает немислимого результата, соединив в своей игре театральную традицию и изобразительно-выразительные приемы эстрады, провозгласив единство исполнительского комплекса в его национальном выражении как способ воспроизведения природы жанра.

Театрализованная игра отмечалась в сатирических куплетах Юсуфа-кызыка Шакарджанова, Зухура Кабулова, дуэтах Мухиддина Кари Якубова и Тамары Ханум. Ритмический и пластический рисунок танцев в постановке Усто Алима выражали сущность, настроение персонажа. Легендарному Соибу Ходжаеву стоило только выйти на сцену, как рождался образ, который никто никогда не сумел повторить. Эргаш Каримов примечателен острой характеристичностью, законченностью формы и содержания при минимуме средств. Еще один ярчайший пример исполнительского синтеза в узбекском театре – творчество Карима Закирова, квинтэссенцией которого является его Мулла Дуст из оперы «Проделки Майсары» С.Юдакова - блистательный образец единства укрупненного (масочного) комизма и любовной лирики, сценической пластики и ритмики, пения и драматической игры, музыки и танца.

Родоначальником современного эстрадного представления является «мюзик-холл» (с англ. музыкальный зал). В Ташкенте мюзик – холл создан в 1972 г. Батыром Заки-

ровым, став редким на то время эстрадным коллективом со своим репертуаром, которому, несмотря на свою короткую сценическую жизнь, суждено было сыграть важную роль в становлении эстрадного искусства Узбекистана. Именно в «Музик-холле» ярко проявилась многогранная творческая натура Б.Закирова – певца, актера, художественного руководителя, режиссера-постановщика программы, основанной на национальных художественных традициях.

В 1979 г. коллектив был расформирован, но он оставил яркий след в музыкальном искусстве Узбекистана, открыв его новые ресурсы и возможности, с точки зрения поисков, качества, созвучия с современностью:

- *возможность сосуществования традиционного и современного, национального и европейского;*
 - *возможность лейтмотивации формы содержания как в номере, так и в программе целиком;*
 - *возможность стилизации костюма, песни, мелодии, игры, ритмики, пластики;*
 - *возможность синтеза многих вещей: площадного и сценического, музыкального, вокального, речевого, актерского, пластического;*
 - *непосредственная связь, адресность, апеллирование к зрителю;*
 - *игра по разным ракурсам: в сторону зала (публики, зрителя), в сторону тех, кто играет роль зрителя;*
 - *возможности соединения в одной плоскости разных событий, сюжета, персонажей, что является настоящим приобретением для эстрадного номера и эстрадного представления и в плане построения драматургии, сквозной линии, и в плане разнообразия характеров, сюжетных линий.*
- Значит, природа эстрады:
- *в ее адаптированности к среде, к публике как содержанием, так и формами;*
 - *остром чувстве времени, общественного настроения;*
 - *скорости реагирования на новшества и трансляции лучших черт на свою территорию;*

- *национальная эстрада остается национальной благодаря связи с музыкальной традицией, преломленной в новых качествах. Это то преимущество, которое отличает ее от общеевропейских, общевоосточных форм эстрады в стиле, интонационно-ритмическом, театральном отношениях;*

- *качество эстрады не только в качестве материала, но и в качестве исполнения, которое может быть разным по стилю, манерам.*

И тут было чему следовать национальной эстраде, которая в результате становления и отбора специфических средств выражения воплотила единство и многообразие жанрово-видовых форм, объединенных целостным замыслом сквозного или номерного значения, проложила мост между действительностью и искусством, идейно, художественно, образно оформляя, осмысливая, обобщая то или иное реальное событие.

Общенародные праздники в честь знаменательных для всей страны крупных исторических дат, не обходятся сегодня без эстрадного блока, которому отводится важное место в концертных программах.

Сегодня эстрада как зрелище яркое, массовое, требует красочности, оригинальности, смелых поисков и решений, без чего рискует отстать от жизни. Чтобы лучше организовать, подготовить, создать эстрадные произведения всех видов и жанров, необходимы глубокие профессиональные знания не только в области истории и теории эстрады, но и режиссуры, сценографии, исполнительского творчества и зрительского восприятия.

Актуализация эстрадного творчества, систематическое обновление его репертуара, дальнейшее развитие авторского начала, поиск собственного стиля и индивидуальности в способах эмоционально-выразительной трактовки музыкально-художественного материала, совершенствование технических приемов исполнения - таковы основные пути оптимизации современного эстрадного искусства Узбекистана.

Использованная литература:

1. Кодиров М.Х. Масхарабоз ва қизикчилар санъати. – Т.: Фан, 1971. – Б. 207.
2. Кодиров М.Х. Темурийлар даври томоша санъатлари. – Т.: Санъат, 2007. – Б. 216.

SAN'ATGA BAXSHIDA UMR (Litvinova Tamara Grigoryevna hotirasiga bag'ishlanadi)

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek raqsining rivojida ulkan hissasini qo'shgan pedagog, rejissor-baletmeyster, san'atshunoslik fanlari nomzodi Tamara Grigoryevna Litvinova haqida yozilgan. Maqolada T.G. Litvinovaning hayoti, raqs san'atiga qo'ygan ilk odimlari va uzoq yillik ilmiy-ijodiy izlanishlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: teatr, musiqa, raqs, balet, spektakl, libretto, san'at, konsert, baletmeyster, rejissor, aktyor, tasvir, bezak.

Саида ЗОКИРОВА,

Старший преподаватель кафедры «Сценическое движение и физическая культура» УзГИИК

ЖИЗНЬ, ПОСВЯЩЁННАЯ ИСКУССТВУ (Посвящается памяти Литвиновой Тамары Григорьевны)

Аннотация: Данная статья была написана о педагоге, режиссёре-балетмейстере, кандидате искусствоведения которой, внес огромный вклад в развитии узбекского танцевального искусства Тамаре Григорьевне Литвиновой. В статье рассказывается о жизни, о первых шагах в творчестве танцевального искусства и о научно-творческих исследованиях.

Ключевые слова: театр, музыка, танес, балет, спектакль, либретто, искусство, концерт, балетмейстер, режиссёр, актёр, изображение, оформление.

Saida ZAKIROVA,

Senior Lecturer of the Department "Stage movement and physical culture" SIAKU

A LIFE DEDICATED TO ART (Dedicated to the memory of Tamara Grigorievna Litvinova)

Annotation: This article was written about Tamara Grigorievna Litvinova, a teacher, director-ballet master, Ph.D. in art history, who made a huge contribution to the development of Uzbek dance art. The article describes about life, about the first steps in the creation of dance art and about scientific and creative research.

Keywords: theatre, music, dance, ballet, spectacle, libretto, art, concert, ballet master, director, actor, image, décor.

“Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”¹. O'zbek madaniyati taraqqiyotida raqs san'ati hamisha salmoqli o'rin egallab kelgan. U hamisha o'sishda, izlanishda, harakatda bo'lgan va bundan keyin ham shunday bo'laveradi. So'nggi yillarda farovon va ozod hayotimizni, baxtiyor yoshlikni, chin sevgi, sadoqatni tarannum etuvchi zamonaviy, dilbar raqslar qatorida ajdodlarimizning hayoti, urf-odatlarini yangi avlodga yetkazib berayotgan xalq folklor raqslari ko'paydi. Ularda zamonaviylik bilan birga milliy ruh hamohang ifodalaniishi raqs san'atining yutuqlaridan deyish mumkin.

O'zbek raqsi XX asr davomida xalq orasida bayram va marosimlar bilan bog'liq holda an'anaviy va zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan shakllarda yashab keldi. Xalq raqsi va sahnaviy raqs bir-birini to'ldirgan hamda ta'sir ko'rsatgan holda muayyan bosqichlarni bosib o'tdi. O'zbek raqs maktabi asoschilari Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva va ularning safdoshlari Isohor Oqilov, Roziya Karimova, Gavhar Rahimovalarning mashaqqatli mehnati, sayi harakati, ijodiy izlanishlari natijasida tashkil qilingan “Bahor”, “Shodlik”, “Lazgi” raqs ansambllari butun jahonni lol qoldirib zabt etdi. Ular tarbiyalagan Qunduz Mirkarimova, Tamara Litvinova, Yulduz Ismatova, Ravshanoy Sharipova, Qodir Mo'minov, Gavhar Matyoqubova va boshqa ko'plab shogirdlari ustozlar an'anasiga qat'iy tayangan holda, ularning ishlarini davom ettirib, raqs san'atining faoliyat doirasini kengaytirish orqali yanada boyishiga, professional darajaga yetishiga o'z hissalarini qo'shdilar. O'zbek raqs san'ati ta'limining yangicha uslublarini izlab topdilar. Musiqa va san'at maktablari, kollejlari, liseylari iqtidorli, iste'dodli yoshlarning qobiliyatlarini ro'yogga chiqarish uchun xizmat qilgan bo'lsa, institutda minglab raqqosalar, baletmeysterlar, pedagoglar yetishib chiqib xalq xizmatiga safarbar qilindi.

Istiqlol sharofati bilan umumxalq bayramlarining tiklanishi, turli ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi natijasida folklor janri rivojlandi. Katta maydon raqslari, bolalar raqslari vujudga keldi. Mahoratli, izlanuvchan, tashabbuskor baletmeysterlar tomonidan juda ko'plab professional va havaskor raqs ansambllari tashkil qilindi. O'zbek raqs san'ati badiiy ijodiyot taraqqiyotini xarakatlantiruvchi kuchining bir bo'g'iniga aylandi.

O'zbek xalq raqslarini va ustozlardan qolgan merosiy raqslarni yosh avlodga o'rgatish, yangidan-yangi raqslarni va milliy balet sahnalarini yaratish va rivojlantirishga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan baletmeyster va xoreograflar orasida Tamara Grigoryevna Litvinova o'z o'rniga ega shaxsdir.

Tamara Grigoryevna Litvinova 1926-yil 22-iyunda Xarkov shahrida xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. 1928-yilda uning oilasi Toshkent shahriga ishlash va doimiy yashash uchun ko'chib keladi.²

1933-yilda Tamaraxonim, Usta Olim Komilov va Mukarrama Turg'unboyevalar tashabbusi bilan 20-sonli iqtidorli bolalar uyi qoshida 1-Respublika balet maktabi tashkil etildi. Ushbu maktabda tashabbuskorlardan tashqari Ali Ardobus, Konstantin Bek, Yevgeniya Obuxova, Aleksandra Obuxova, Vera Gubskayalar ta'lim berishgan. Bu maktabning birinchi qaldirg'ochlari, ya'ni O'zbek baletining faxri bo'lmish Tamara Litvinova, Galiya Izmaylova, Dilorom Sherova, Bella Zinatulina, Mila Lejnyova, Raisa Xodjisaidova, Tamara Imre kabilar bo'lishgan.

Tamara Litvinova 1933-yilda Tamaraxonim nomidagi Respublika balet maktabiga o'qishga kiradi va 1941-yilda maktabni tamomlaydi. Shu yillardan boshlab Tamaraning ijodiy faoliyati boshlanadi. 1946-yilning may oyigacha Muqimiy nomidagi Davlat musiqali drama teatridagi raqs truppasida raqqosa bo'lib ishlagan. Teatrdagi faoliyati davomida Tamara va truppa a'zolari harbiy gospital, kasalxonalar, shahar maydonlari, xalq hasharlarida spektakl, konsertlar namoyish qilishib olqishlarga sazovor bo'lishgan. Yosh raqqosa teatr tomoshalari bilan birga O'zbekistonning uzoq viloyatlari, qishloqlarida bo'lib, turli xalq raqslarini ijro etgan.

1946-yilda mahoratli raqqosa Butunjahon estrada artistlari konkursida ishtirok etib, faxrlil diplomga ega bo'lgan. Shundan

¹ Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi//Xalq so'zi. -2017. 4-avgust. 1-bet.

² Kafedra arxividan. T.G. Litvinovaning tarjimai hol qo'lyozmasidan. 3-bet.

keyin Tamara Litvinova Moskvadagi Lunacharskiy nomidagi Davlat kinematografiya va teatr institutiga o'qishga yuborildi. Imtihonlarni topshirgach, rejissor-baletmeyster bo'limiga qabul qilindi. Muhim bir jihat bor edi-ki, o'sha davrlarda baletmeysterlik bo'limi bitiruvchilari diplom olish uchun, institutni tamomlagach 5 yil mobaynida diplom ishi himoyasi uchun spektakl sahnalashtirishlari lozim bo'lgan, shulardan faqatgina 11 kishi diplom olgan, ya'ni ular orasida Tamara Litvinova ham bo'lgan. 1951-yilda institutni a'lo baholarga tugatib, rejissor-baletmeyster ixtisosligiga ega bo'ldi. O'zbekistonga qaytgandan so'ng, Tamara Litvinova Navoiy nomidagi Davlat opera va balet teatriga baletmeyster lavozimiga ishga qabul qilindi. Teatrdagi ijodiy faoliyati davomida: M.Chulakning "Yunost" (Yoshlik), G.Mushelning "Balerina" (Baranovskiy bilan), Ch.Punining "Esmeralda", F.Yarullinaning "Shurale", B.Zeydmanning "Zolotoy klyuchik", D.Zokirov va V.Giyenkoning "Oynisa" (libretto T.Litvinova) baletlarini sahnalashtirdi. Opera spektakllariga ham: "Faust" - Guno, "Rusalka" - M.Dargomijskiy, "Romeo va Djulyetta", "Mazepa", "Tohir va Zuxra" boshqalarga raqslar va balet aktlari sahnalashtirgan.

Teatrning mahoratli artistlariga Klara Yusupova, Gulnora Mavoyeva, Flora Kaydani, Rafiq Sultonov, Ibragim Yusupov, Rima Kurmayeva, Malika Axmedova, Anvar Abduraxmonov, Todor Popesku, Omon Nazrullayev va ko'pgina ijrochilarga original konsert nomerlarini saxnalashtirgan. Teatrning bayram, shahar bosh maydonidagi tadbirlarda Tamara Litvinova faol ishtirok etardi. U mehnat qilib, ijod qilib charchamasdi, bo'sh vaqtini o'quvchilar, shogirdlarga bag'ishlar edi. Teatrdagi mashaqqatli mehnat qilishiga qaramasdan, ustoz ijodkor 1951-yildan boshlab 27 yil davomida o'rindosh sifatida o'zbek xoreografiya maktabida "o'zbek raqsi", "xalq sahna raqsi" fanlaridan o'kuvchilarga bilim berib keldi. Bu yillar davrida, keyinchalik O'zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo'lgan Ibragim Yusupov, Malika Axmedova, Valentina Proskurina, Ma'mura Ergasheva, Rossiya Davlatida xizmat ko'rsatgan artistlar Lyudmila Kamilova, Flora Kaydani, Valentina Ganibalova va "Bahor" ansamblining ko'pgina raqqosalari uning o'quvchilari edi.

1961-yilda Tamara Litvinova N.Ostrovskiy nomidagi Teatr va rassomchilik institutiga o'qituvchilik faoliyatini boshlagan. Institutda ijodiy faoliyati bilan birgalikda ilmiy-uslubiy ishlar ham olib bordi. 1976-yilda T.Litvinova Ye. Petrosova bilan birgalikda "Qoraqalpoqcha raqs" o'quv qo'llanmasini kitob holiga keltirgan. 1987-yil 22-sentabrda "Qoraqalpoq xalq raqsini sahnaviy shaklga keltirish"

mavzusida dissertatsiyasini himoya qildi va san'atshunoslik fanlari nomzodi bo'ldi.

Tarixiy maishiy raqs, baletmeysterlik mahorati fanlariga kundalik-tahlil ishlarini olib bordi. Qunduz Mirkarimova, Tamaraxonimning ijodiy faoliyati, musiqali drama aktyorlari bo'limi uchun 1 va 2 kurslarga o'zbek va qoraqalpoq raqslari uchun qayta ishlangan dastur va o'quv qo'llanma yaratdi.

Tamara Litvinovaning O'zbekiston televideniyesida "Raqsqa tushishni o'rganing" va "Professional raqs san'atining manbalari" kabi mualliflik ko'rsatuvlari bo'lgan.

O'zbektelefilmda T.Litvinova librettosi asosida A.Berlinning musiqasiga "Moydodir" baleti sahnalashtirilgan. Professor D.J.Teshabayev bilan birga yozilgan ssenariy asosida "Malika sohibasi" hujjatli telefilm olingan.

Bundan tashqari, 1970-yilda T.Litvinova O'zbekiston Respublikasi pionerlar va o'quvchilar saroyida raqs to'garagiga rahbarlik qilib, yosh qizlar va bolalarga o'zbek milliy raqsidan saboq bergan. Shu jumladan, men ham raqs saboqlarini Tamara Grigoryevnadan olganman. 1979-yilda Tamara Grigoryevna tomonidan sahnalashtirgan "Dil kuylasin" va "Andijon polkasi" raqslari bilan Iordaniya Qirolligida o'tkazilgan Butunjahon bolalar musiqa va raqs festivalida jamoamiz – "Yulduz" raqs dastasi bilan katta sahnada qatnashib kelganmiz. "Yulduz" raqs dastasi bilan ijro etgan raqslarimiz tomoshabinlar e'tiborini tortgan va olqishlarga sazovor bo'lgan.

Tamara Litvinova tomonidan qo'yilgan raqslar Hamza nomidagi Davlat akademik drama teatrida, M.Gorkiy nomidagi rus akademik teatrida, "Bahor" ansamblida, Muqimiy nomidagi Musiqali drama teatrida, Farg'ona, O'sh musiqali teatrlarida ko'p marotaba ijro etilgan. T. Litvinova ilmiy-ijodiy faoliyati hamda sharafli mehnati munosib baholanib, bir qator Davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan.

Xulosa o'rnida aytganda, har bir san'at sohasi hayotimizni badiiy obraz orqali ifoda etadi. Shu qatorda raqs ham san'at turlari kabi ichida kishilik jamiyati rivojida alohida o'rin tutuvchi bir yo'nalishdir. Raqs san'ati – ijod ruhiyatni, his-tuyg'ularni, fikrni so'zsiz, faqat harakatlar va yuz ifodasi bilan xalqqa yetkazishga asoslangan san'at turidir.

"Raqs – o'zingni kuyga, ohangga baxshida etib, sehrlar dunyosiga sho'ng'ib ketmoq. Ko'ngildagi bor-yo'g'ini ko'zlarga, harakatlarga joylab tomomshabinlarga hayrat ato etmoq. Istaklaringni bir dasta gul shaklida tomoshabin hayajonlari ustidan sochmoq, ularning olqishiga muyassar bo'lmoq. Bunday buyuk tuyg'u mukammal raqs qobiliyatiga ega bo'lgan insonlarning yuragida bo'ladi"³.

³ N.E. AbRAYKULOVA, "Raqs jamoalari bilan ishlash uslubiyoti". Toshkent: 2004. 6-bet.

MILLIY MUSIQA, TEATR VA QO'SHIQCHILIK SAN'ATI RIVOJIDAGI IZLANISHLAR (Ergash Yo'ldoshev ijodi misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ustoz san'atkor Ergash Yo'ldoshevning milliy qo'shiqchilik, musiqa hamda teatr san'ati rivojidagi ijodiy izlanishlari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'zbek musiqa merosi, audioyozuv, to'plam, shakllantirish tarixi, etnomusiqashunoslik ekspeditsiyasi, raqamlashtirish.

Азамат ШАРИПОВ,

ГИИКУз преподаватель кафедры «Вокал»

ИССЛЕДОВАНИЯ ПО РАЗВИТИЮ НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКИ, ТЕАТРА И ИСПОЛНИТЕЛЬСКОГО ИСКУССТВА (на примере творчества Эргаша Юлдашева)

Аннотация. В данной статье рассматриваются творческие поиски в развитии национального исполнительского искусства, музыки и театра, а также методы преподавания мастера и педагога Эргаша Юлдашева.

Ключевые слова: узбекское музыкальное наследие, аудиозапись, коллекция, история создания, этномусикологическая экспедиция, оцифровка.

Azamat SHARIPOV,

UzSIAC, teacher of the department "Vocal"

RESEARCH ON THE DEVELOPMENT OF NATIONAL MUSIC, THEATER AND PERFORMING ARTS (on the example of the work of Ergash Yuldashev)

Abstract. This article examines the creative quest in the development of national performing arts, music and theater, as well as the teaching methods of the master and teacher Ergash Yuldashev.

Key words: Uzbek musical heritage, audio recording, collection, history of the development, ethnomusicological expedition, digitization.

Xalqimiz orasida "Ustoz otangdek ulug'" degan ibora yuradi. Bir qarashda oddiydek tuyulgan bu so'zlar zamirida ulkan ma'no mujassam. O'zining samarali mehnati bilan el hurmatiga sazovor bo'lgan, bilim va tajribalarini, mahorati hamda ilmiy salohiyatini yosh mutaxassislar tarbiyasiga bag'ishlagan ustozlar talaygina. Shulardan biri san'at olamida yuksak tajribaga, o'z usuli va dastxatiga ega bo'lgan inson Ergash Yo'ldoshevdir.

Ergash Yo'ldoshev 1924-yilda Namangan viloyatining Chust tumanida, Normat ota xonadonida dunyoga kelgan. Bolaligidan maktabda o'qitiladigan fanlar qatorida musiqa va qo'shiqchilik san'atining sir-sinoatlarini o'rganishga intilish paydo bo'ldi. Undagi bunday qiziqish, ishtiyoq va shijoatni sezgan Mulla Muhammad Maxsum Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga mansub "Dugoh", "Chorgoh", "Bayot" ohanglarini o'rgata boshladi. Ergash Yo'ldoshev ham ustozining ta'limotini sinchkovlik bilan o'zlashtirish bilan bir qatorda, har bir qo'shiqning ohangiga nisbatan o'z munosabatini bildira boshladi. 1937-yilda ustoz Ergashni yetaklab xalq teatriga olib boradi. Xalq teatrida san'atga oshno sozandalar, xonandalar yig'ilgan edi. "Xalq teatri ijodkorlari kichik pardali asarlarni sahnalashtirilayotgan bo'lsada, har bir spektakl voqealariga monand ashula va qo'shiqlar, yalla va laparlari yaratishga harakat qilishar edi"[2.b.46]. Teatrdagi ijodiy jarayon, san'atga bo'lgan, ishqibozlik uning qalbidagi uchqunni yanada alangalatdi.

1939-yili Katta Farg'ona kanali qazila boshlandi. O'sha paytlarda texnika rivoj topmagan, hamma ish qo'lda, ketmon va bel bilan qilinar edi. Mehnatkashlarni ham ruhan, ham ma'naviy jihatdan qo'llab quvvatlashda san'at ahlining xizmatlari katta bo'ldi. Og'ir sharoitda mehnatkash xalqning kayfiyatini ko'tarish maqsadida O'zbekiston kompartiyasining birinchi kotibi Usmon Yusupov rahnamoligida teatr tomoshalari, konsert dasturlari tashkil etildi. Keng jamoatchilik tomonidan yuqori kayfiyatda kutib olinayotgan teatr va konsert tomoshalari namoyishiga "Chust xalq teatri" ham taklif qilinadi. Tomoshaning yakuniy qismida 14 yoshli Ergash Yo'ldoshevga ham navbat beriladi. Yosh xonanda tomonidan, ichki bir hayajonda "O'ynab keling, yayrab keling" qo'shig'i ijro etiladi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, o'spirin yigit Yangi yo'lda tashkil etilgan teatriga taklif etiladi. Ushbu teatr Ergash Yo'ldoshevning

professional san'at sirlarini mustahkam egallashda asosiy mezon bo'lib xizmat qildi. Mazkur teatrdagi musiqali teatrlarning murakkab jihatlarini, talablarni o'rgandi va o'zlashtirdi. Obraz va xarakterlarga xos ijro yo'llarini yaratish yo'lida tinimsiz izlandi. Bu izlanishlar undagi ijro mahoratini yanada jonlantirdi hamda shakllantirdi.

Keyinchalik mana shu teatr ijodiy jamoasi 1943-yili qurib bitkazilgan Muqimiy nomidagi davlat musiqali teatrlarining asosini tashkil etgan edi. Yangi yo'l teatrida rejissor Muzaffar Muxammedov, sozanda Yunus Rajabiy, Otavali Nuruddinov, To'xtasin Jalilov, xonandalardan Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, yosh sozandalardan Komiljon Jabborov singari yuksak mahorat va tajribaga ega san'atkorlar ijod qilishar edi. 1943-yili Ergash Yo'ldoshev hamnafas do'sti Zokirjon Ergashev bilan Muqimiy teatriga taklif qilindi. Ushbu teatrdagi katta- kichik rollar ijro eta boshlaydi.

Ergash Yo'ldoshevning professional san'atkor bo'lib yetishishida, ustoz sozanda, O'zbekiston xalq artisti Ahmadjon Uzoqovning xizmatlari katta bo'ldi. Bundan tashqari, Ergash Yo'ldoshevga hofizlik yo'lini tanlashida tajribali o'zbek xonandasi, sozanda va xalq hofizi, o'zining yoqimli qo'shiqlari bilan tinglovchilarini maftun etgan, o'zining mustahkam o'rmini topgan, el nazariga tushgan usta hofiz "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi, O'zbekiston xalq hofizi Jo'raxon Sultonovning xizmatlari katta bo'ldi.

1920-yilda Muhiddin Qoriyoqubov birinchi etnografik ansambli tuzib unga Yusufjon qiziq Shakarjonov, usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Ahmad Umirzoqov, Abduqodir Ismoilovlarni taklif etadi. Ansambllning tajribali ustoz san'atkorlari qatori Jo'raxon Sultonov ham shu jamoa tarkibi bilan birga Moskva, Sankt-Peterburg, Qozon, Astrovan va Baku shaharlarida ijodiy safarda bo'lib, tinglovchilar olqishiga sazovor bo'ladi. Ijodiy safardan zavqlangan, o'zida katta mas'uliyatni his qilgan hofiz 1928-yildan "Musiqali drama", 1932-yildan "O'zbek davlat musiqali drama" teatrida, 1936-1939-yillarda O'zbek davlat filarmoniyasida, 1940-yildan, 1950-yillargacha Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida faoliyat yuritadi.

1953-yili Ergash Yo'ldoshev yaqin insonlarning maslahati bilan Toshkent davlat konservatoriyasining vokal bo'limiga o'qishga kiradi. 1958-yil o'qishni tamomlab, Alisher Navoiy nomidagi

opera va balet katta teatriga ishga joylashdi. Mana shu kundan Ergash Yo'ldoshev hayotida tub burulish boshlandi. U kishining ijodiy faoliyati jahon musiqa san'atining eng murakkab turlaridan biri-opera ijrochiligi yo'lidan ketadi. U jahon andazalari talabidagi yakkaxonlikni ham qoyilmaqom qilib uddalaydi. Yevropa klassik operalarida rol o'ynash bilan bir qatorda, ijro qilayotgan asarni yevropacha kuylashga jiddiy e'tibor qaratdi. Shu bilan birga operada o'zbekona kuylash maktabini yaratdi. Qo'shiqchilik san'atning har bir turida ham nola va qochirmlar qilish mumkinligini isbotlay oldi. "Dilorom", "Zaynab va Omon", "Xorazm qo'shig'i", "Layli va Majnun", "Maysaraning ishi", "Zulmatdan ziyo" operalaridagi ariyalarni go'zal, katta diapazondagi ovoz bilan san'atning qat'iy o'lchovlarini buzmaganda o'zbekona ohanglarda ijro etdi" [3.b.98].

Ergash Yo'ldoshev opera ijrochiligi bilan bir qatorda, o'zbek mumtoz milliy san'atida ham o'ziga xos maktab yaratdi. O'zbek maqom san'atini mukammal egallagan hofizning serqirra va sernola ijrolari tinglovchilar qalbini hayajonga solib keldi. "Zor etdik va aylab keling" xalq so'zi, "Savol berdim bulbulga" N.Qulobdullayev, "Intizor ko'ngil" X.Yaxyoyev, "Parvo etib ket" S.Abdullayev so'zi, "Ayrualmasin" Muqimiy g'azali, "O'ynasin" I.Ikromov – Mirtemir so'zi, "Farg'ona ruboisi" J.Sultonov musiqasi, "Raqs aylama" shular jumlasidandir. Ayniqsa, o'zbekfilm kino ijodkorlari tomonidan yaratilgan "Natashaxonim" filmi voqealari, aktyorlar ijrosi, xususan, Shukur Burxonovning ijro mahorati tomoshabinlarni hayratga solgan bo'lsa, Ergash Yo'ldoshev ijro etgan "Ko'zlarini yashirma" qo'shig'i badiiy kinoning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilgan.

"Nargiz chehra oromijon, ko'zlarini yashirma,

Senga jonim bo'lsin qurbon, ko'zlarini yashirma".

Ushbu qo'shiq yarim asrki, elimiz nazaridan tushmasdan xalqimiz orasida bo'ladigan to'y-hashamlarda hanuz ijro qilinib kelmoqda. "Bu qo'shiqqa xalqimiz orasida ma'lum va mashhur bo'lgan "Bahor" ansambli ijodkorlari raqs sahnalashtirib, uzoq yillar davomida turli davlatlarda o'tkazilgan ko'rik-festivallarda namoyish qilib kelishdi"[3.b.219]. Ushbu raqsnı ustoz san'atkor Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyevalar sahnalashtirgan. Asosan, Mukarrama Turg'unboyevalar bilan Ergash Yo'ldoshev uzoq yillar ijodiy hamkorlikda ko'plab davlatlarga gastrol safarlarida birga ijod qilishgan.

1990-yilning bahor faslida Ergash Yo'ldoshev ijodi bilan yaxshi tanish bo'lgan Dehqonboy ismli inson bilan uchrashib qoldik. Dehqonboy aka suhbat davomida san'atkorning ijodiy faoliyati xususida to'liqlanib gapidi: "1980-yili edi, do'stlar bilan "Dilorom" operasini ko'rgani teatrga bordik. Spektakldagi asosiy qahramonlardan biri Moniy rolini Ergash Yo'ldoshev o'ynayotgan edi. Yuqori saviyada baland pardalarda kuylanayotgan ariyalarni tinglagan tomoshabin borki, barchasining yuz-ko'zida ijro va chiroyli ovozdanday hayrat hamda quvonchni ko'rish mumkin edi".

O'zbekiston xalq artisti Ergash Yo'ldoshev 1984-yili N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik institutida dotsent lavozimida faoliyat yuritdi. O'sha paytlarda Ergash Yo'ldoshev bilan uchrashishni, shogird sifatida ulardan sahoq olishni juda xohlaganman. Shu niyat meni institut dargohiga yetakladi. Qabul imtihonlarida o'zbek mumtoz qo'shiqlaridan ijro qilishimni so'rashdi. Komissiya a'zolariga Ergash Yo'ldoshev kuylagan "Kuyla dilkash dutorim" qo'shig'ini ijro qildim. Institutdagi o'qish jarayonida meni vokaldan dars olishim uchun ustoz Ergash Yo'ldoshevga biriktirishganligini eshitib, juda xursand bo'lganman. Darsga qadar bo'lgan oradagi besh-olti kunni intiq bo'lib kutdim va nihoyat vokal sinfiga bordim. Ne ko'z bilan ko'ray basavlat, kelishgan, istarasi issiq, otamni eslatuvchi inson qarshimda turibdi. Shu kundan boshlab biz har bir dars jarayonida ustoz bilan chuqur suhbat qurdik. Suhbat jarayonida u kishidan hayot murakkabliklari, qo'shiq dunyosining kengligi, har bir ijroni o'ziga xos murakkabligi, qalbdan kuylangan ijroning ta'sir kuchi, musiqali

drama, teatr sahnasi haqidagi o'g'itlarni o'rgandim. Ustoz ketma-ket "Layli va Majnun"dagi Majnun, "Tohir va Zuhra"dagi Tohir ariyasi va boshqa romans ariyalarni menga o'rgatdilar. Har bir ijro etgan qo'shig'imda ustoz nafasi va ularni nola qochirmlari ufurib turardi. Men o'zim ham yurakdan ustoz singari bo'lishni, ustozdek xalqimiz e'tiboriga tushib, ular singari uzoq yillar xalq mehrini qozonishni juda-juda istar edim. Dars jarayonida qishloq sharoitida ulg'ayganim, hayotda otasiz o'sganligimdan o'kinmasligimni va aksincha shahdam qadamlar bilan hayot sari olg'a borishimni qayta-qayta ta'kidlar edilar. Ustoz menga vokal fanidan dars berdilar. U kishining beminnat mehnati, mehri tufayli vokal va qo'shiqchilik sir-asrorlarini mukammal o'rgandim.

1984-yilning bahor oylaridan boshlab, ustoz darslarga kam keladigan bo'lib qoldi. Men jo'rnavor konsertmeyster Vera Valentinovna bilan yolg'iz yozgi imtihon dasturlariga tayyorgarlik ko'rdik. Bu jarayonda ustozsiz hech kim emasligimni anglab yetdim. Ustoz bir necha kundan so'ng institutga keldilar. U kishi bir muddat betob bo'lganliklarini anglab yetdim. Kunlarning birida ustoz menga sovg'alari borligini va ko'pdan beri bermoqchi bo'lib yurganliklarini aytdilar. Avvaliga bu sovg'aning nima ekanligi meni o'ylantirdi. Bir kuni ustoz menga bolaligimdan orzu qilgan, qo'llaridagi tanbur sozini sovg'a qildi. O'zbekistonda ko'plab shogirdlarga ega bo'lgan hurmatli ustoz Ergash Yo'ldoshev aynan shu tanburni menga berganlari meni juda ajablantirdi va hayratlantirdi. Ne bo'lganda ham bu tanbur hayotimdagi eng qadrlı va e'zozli sovg'a bo'lib qoldi.

1984-yilning noyabr oyida men yigitlik burchin bajarish uchun xizmatga ketadigan bo'ldim. O'sha yillari ko'pchilik askarlarni Afg'oniston Respublikasiga xizmatga yuborishar edi. Shu jumladan, men ham o'sha mamlakatga boradigan bo'ldim. Tojikistonga yo'l oldik, poyezd Samarqandda to'xtadi. Vokzalda rubob tovushi yangradi, men o'sha tovush kelayotgan tarafga yugurdim va rubobni egasidan so'rab olib, vokzal ichida, aks sadolar girdobida kuyla dilkash dutorimni baralla kuylay boshladim. Chunki ko'z oldimda tug'ilib o'skan qishloq'im, otam-onam, ukalarim va sevimli ustozim Ergash Yo'ldoshev gavdalanardi. Shu paytda rota komandiri meni tinglab turib oldiga chaqirdi. Ko'nglida rahm-shavqat uyg'ondi shekilli, bizlarni Dushanbeda qoldirishga qaror qildi. Oradan ikki yil o'tdi. Armiya tugab, men institutga qaytib keldim. Afsuski men ustozimni qaytib ko'ra olmadim. Yillar o'z hukmini o'tkazardi, men esa ular yaratib ketgan qo'shiqlarni birma-bir konsertlarda ijro etdim.

Bugungi kunda Ergash Yo'ldoshev yaratgan vokal maktabini talaba yoshlarga meros sifatida o'rgatib, keyingi avlodga qoldirishga bel bog'laganman. Ustozni sog'inganimda jiyanalari Mirfayoz Yo'ldoshev bilan gohida esa kursdoshim Maxfuza Najmuddinova bilan ustozni yod etib turamiz. Vokal sinfiga ustozdan tahsil olgan kursdoshlar yig'ilganimizda ularni xotirlaymiz. Yoshlikdagi voqealarni, dars jarayonlarini eslaymiz. Yaqinda men Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta opera teatriga bordim. Teatr sahnasiga qarab, xayollarga cho'mdim. Go'yo xayolimda teatr sahnasida Ergash Yo'ldoshev va Halima Nosirovalar "Zaynab va Omon" duetini ijro qilishayapti. Eh, o'sha davrlar naqadar go'zal ijro. "Akademik yo'nalishidagi o'zbekona ijroda go'yo o'zbekni dardi, orzu-umidlari, ezgu intilishlari namoyon bo'layotgandek tasavvur uyg'otadi" [4.b.112].

Nazarimda, o'sha ijrolar, o'sha maktab yo'qolmasdan, bugungi kunda ham vokal ijrochiligida saqlanib, yoshlar ijodiga singdirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. San'at yo'nalishlarida tahsil olayotgan yoshlar esa ustozlar ijro etgan, meros sifatida qoldirgan durdona asarlarni eshitib va o'rganib kelajak avlodga yetkazsalar, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Zero, Ergash Yo'ldoshev, Sattor Yarashev, Halima Nosirova singari ustozlarimiz qoldirgan meros avloddan-avlodga o'tib, qo'shiqchilik san'atini hamda teatr sahnasini bezatib, boyitib, ibrat na'munasi sifatida e'tirof va e'tibor topib boraveradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. "Madaniyat va san'at sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. – T.: 2017-yil. – 15-fevral.
2. O'zbekiston san'ati(1991–2001) "Sharq" nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent: 2001.
3. Jabborov A. "O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari". Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2004.
4. Raxmatullayeva D. O'zbek musiqa tarixi XXI asr bo'sag'asida. Toshkent: 2000

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jurnal

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi

Nashrga tayyorlovchilar:

G‘ani Xudoyev,
Faxriddin Abduvohidov,
Maksim Savochnik,
Anvar Qobilov.

Sahifalovchi-dizayner:

Abdug‘ani Sodiqov



Bosishga ruxsat etildi: 25.03.2022 y. Ofset bosma usulda bosildi.

“Times New Roman” garniturasida. Bichimi 60×841/8.


Shartli bosma tabog‘i 12,25.

Buyurtma raqami № 2. Adadi: 208 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
Yalang‘och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13

Jurnal “NISO POLIGRAF” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

O‘rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, “Mashal” mahallasi, Markaz – 1.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida o'zbek adabiyotining so'nmas siymosi, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligiga bag'ishlangan "Navosoz ko'ngil sohibi" nomli ma'naviy-marifiy tadbir tashkil etildi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida o'zbek mumtoz adabiyotining zabardast vakili, buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, olim va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 539 yilligi munosabati bilan "Qalbimizda mangu yashar buyuk siymolar" nomli ma'naviy-ma'rifiy, musiqiy tadbir o'tkazildi.



Joriy yilning 30-mart kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti bayramona bezatildi.

Erta tongdan karnay-surnay sadolari yangrab, kishilarni bayram sayliga chorladi. Ezgulik, muhabbat, xayr-saxovat, muruvvat, yangilanish va yasharish ayyomi qalblarga surur, olam-olam quvonch va yangi-yangi orzu-havaslar baxsh etadigan, xalqimizga xos qadimiy qadriyat hisoblangan “Navro‘z” umumxalq bayrami O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida ham juda ajoyib tarzda o‘tkazildi.





**O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti
xabarlari**

**Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Oliy Attestatsiya Komissiyasi Rayosatining
2017-yil 29-noyabrdagi 245/6-sonli qarori bilan
san'atshunoslik fanlari bo'yicha dissertatsiyalar
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan**

ISSN : 2181-8932



O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA
MADANIYAT INSTITUTI

XABARLARI

2022/1(21)